



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI



KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

O'z.KTI

№1 - 2026 (6) ISSN: 3060-5024



KRIMINOLOGIK
FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

№1 / 2026 (6)

ISSN: 3060-5024

MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

Tahrir hay'ati raisi

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich
Institut boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Tahrir hay'ati a'zolari

Niyazmetov Ikrom Masharipovich
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas'ul xodimi, tahrir hay'ati raisi o'rinbosari
Azim Shuhrat Obid o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori
Sharafutdinov Alisher Ozodovich
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, dotsent

Ismailov Isamiddin

yuridik fanlar doktori, professor

Turg'unov Murod Tursunbayevich

yuridik fanlar doktori, professor

Niyozova Salomat Saparovna

yuridik fanlar doktori, professor

Zakirova Adina Gulyamovna

yuridik fanlar doktori, professor

Otajonov Abrorjon Anvarovich

yuridik fanlar doktori, professor

Ganiyev Sherzod Alisherovich

yuridik fanlar doktori, professor

Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich

yuridik fanlar doktori, professor

Toshpulatov Akrom Ikromovich

yuridik fanlar doktori, dotsent

Maksadov Maqsatullo Ismatovich

yuridik fanlar doktori, dotsent

Nurullayev Umid Kupalovich

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Nurmuhamedova Go'zalxon Bahodirovna

yuridik fanlar doktori, dotsent

Ollamov Yarash Yo'ldoshevich

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Nurumbetova Sadoqat Allayarovna

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mirzayev Jahongir Umirzakovich

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Matchanov Ruslanbek Azatovich

pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yernazarov Solijon Yerkinovich

iq'tisod fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yarov Bekmamat Alikulovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, bosh muharrir

MUNDARIJA

TAHLIL VA TADQIQOT

Berdialiyev B.E.

Yangi O'zbekistonning xalqaro reyting va indeksdagi ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan tizimli islohotlar samarasi 3

Almatov Z.A., Mirzatillayev U.I.

Yangi O'zbekistonda yoshlar jinoyatchiligining oldini olish faoliyatini takomillashtirish: milliy va xorijiy tajriba 9

Абдурасулова К.Р., Буранова Р.Е.

Искусственный интеллект как средство криминологического прогнозирования преступности 13

Мухитдинов Ф.М.

Выявление опасных территорий и оценка преступности: современные криминологические теории 21

Ismailov I., Irisbekov U.

Foizga qarz berish bilan bog'liq jinoyatlarning ijtimoiy xavfi va ularning oldini olish choralarini takomillashtirish 33

Safarov J.I.

Qonunlar orqali tartibga solish – parlamentarizm va zamonaviy davlatchilikning muhim belgisi 39

Niyozova S.S., Ollamov Ya.Y., Xasanov Sh.E.

Jinsiy jinoyat tushunchasi va uning shaxsga qarshi jinoyatlar tizimida tutgan o'rni 45

Maxmudov R.M., Qoraboyev A.A.

Yuridik psixologiya va kriminalologiya fanlarining o'zaro aloqadorligi: nazariy va amaliy jihatlar 53

Ismoilov N.T.

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda dastlabki himoya instituti: protsessual-huquqiy institut sifatida 58

Ollamov Ya.Y., Murzajanov Sh.G.

Murojaatlar huquqiy kategoriya sifatida: tushunchasi, mazmuni va o'ziga xos xususiyatlar 63

Burxonova Sh.J.

Norma ijodkorligi davlat huquqiy siyosatining shakli sifatida 68

Ерназаров С.Е.

Методологические основы профилактики экономических преступлений в Республике Узбекистан 72

A'loxonov M.A.

Kriminologik tadqiqotlarning ta'lim jarayoni bilan o'zaro integratsiyasidagi muammolar 80

Tahririyat manzili:
100187, Toshkent shahri
Mirzo Ulug'bek tumani
Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 243
Tel.: +998 (71) 231-39-77
Elektron pochta: kti@iiv.uz
Website: kti.iiv.uz

© O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
Jurnal 2024-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669658 raqami bilan ro'yxatga olingan.
O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 12-fevraldagi 367/5-son qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.



YANGI O'ZBEKISTONNING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI KO'RSATKICHLARINI YAXSHILASHGA QARATILGAN TIZIMLI ISLOHOTLAR SAMARASI



Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro reyting va indekslar, ularning mohiyati va ahamiyati, mamlakatlarning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini oshirish zarurati, reyting va indekslarning davlat iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy-huquqi hayotiga ta'siri haqida so'z yuritiladi. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rni va ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhokama qilinadi, tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: reyting, indeks, indikator, subindikator, baholash, ko'rsatkich, statistika, empirik ma'lumotlar

Аннотация. В данной статье рассматриваются международные рейтинги и индексы, их сущность и значение, необходимость повышения позиций стран в международных рейтингах и индексах, влияние рейтингов и индексов на экономическую, социальную, политическую и правовую жизнь государства. В свою очередь, обсуждаются и анализируются позиции Республики Узбекистан в международных рейтингах и индексах, а также принимаемые в этом направлении меры. Ключевые слова: рейтинг, индекс, индикатор, субиндикатор, оценка, индикатор, статистика, эмпирические данные.

Abstract. In this article, international ratings and indices, their essence and significance, the need to improve the position of countries in international ratings and indices, the state of ratings and indices socio-economic and political-legal aspects of life. In turn, the position of the Republic of Uzbekistan in international ratings and indices and the measures being implemented in this direction will be discussed and analyzed.

Keywords: rating, index, indicator, subindicator, assessment, indicator, statistics, empirical data.

Bugungi globalashuv sharoitida xalqaro munosabatlar tizimida davlatlar o'rtasidagi raqobat va hamkorlik shakllari sezilarli darajada transformatsiyaga uchramoqda. Agar avvalgi davrlarda milliy manfaatlarini ta'minlashda asosan harbiy-siyosiy va iqtisodiy bosimga tayanuvchi "qattiq kuch" (hard power) ustuvor ahamiyat kasb etgan bo'lsa, hozirgi kunda madaniy, ma'naviy, institutsional va axborot ta'siriga asoslangan "yumshoq kuch" (soft power) vositalari tobora muhim o'rin egallamoqda. Bu jarayon xalqaro munosabatlarda ochiqlik, shaffoflik, ishonch va ijobiy imijni shakllantirish kabi omillarning ahamiyati ortib borayotgani bilan izohlanadi.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro reyting va indekslar zamonaviy dunyoda davlatlarning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional rivoj-

lanish darajasini baholashning muhim mexanizmi sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu reyting va indekslar orqali mamlakatlarda qonun ustuvorligi, davlat boshqaruvi samaradorligi, iqtisodiy erkinlik, investitsiyaviy jozibadorlik, inson huquqlari himoyasi, ta'lim va innovatsion salohiyat kabi ko'plab sohalardagi holat kompleks tarzda tahlil qilinadi. Natijada, xalqaro hamjamiyat, xorijiy investorlar va moliyaviy institutlar davlatlar bilan hamkorlik qilish, investitsiya kiritish yoki siyosiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha qaror qabul qilishda aynan shu reyting va indekslar natijasiga tayanadi.

Ayni paytda, xalqaro reyting va indekslardagi yuqori o'rin davlatning raqobatbardoshligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Shu bois, mazkur ko'rsat-

MUNDARIJA

XALQARO HAMKORLIK

Алауханов Е.О., Яров Б.А. Модели криминалогической характеристики преступности: анализ и практическое применение 85

Козубенко Ю.В., Тазетдинов Р.Р. Некоторые особенности возбуждения уголовного дела в зарубежных странах 90

Мухитдинзода Н.М., Бахтиярова С.Р. Правовые основы и особенности применения видеозаписи в следственных действиях 96

XORIJIY TAJRIBA

Нigmatov R.O. Buyuk Britaniyada jinoyatga oid statistika va kriminologik tahlilning o'ziga xos xususiyatlari 101

Abdugapparov A.A. Ommaviy tartibsizliklarning kriminologik tahlili (Rossiya Federatsiyasi misolida) 110

Davletov J.B. Jahon internet tarmog'ida bolalarga nisbatan zo'rovonlik jinoyatlarini tergov qilishning xalqaro-huquqiy asoslari va milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari 114

TADQIQOTCHI MINBARI

Yakubov M.T. Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etish: muammolar va yechimlar 119

Allamurodov O.A. Servitutni belgilash to'g'risidagi shartnoma – servitut majburiyatni vujudga keltiruvchi asos sifatida 124

Xudayberganova D.Z. Milliy gvardiya Bolalar psixologiyasi markazining yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlashdagi o'rni 132

Salimov Sh.X. Jinoyatlarning barvaqt oldini olishda "mahalla yettiligi" faoliyatini takomillashtirish masalalari 136

Mirzajonov Sh.S. Kiberjinoyatlar profilaktikasi subyektlari tizimi va ularning o'zaro hamkorligi: milliy amaliyot, xorijiy tajriba va huquqiy takliflar 139

Xamidov A.A. Ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalari faoliyatini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy masalalari 146

Abduniyazov X.N. Radikallashtirishni qayta ijtimoiylashtirish 152

Abdumalikov A.A. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishi, dinamikasi va oldini olish muammolari (Farg'ona viloyati misolida) 158

TADBIRLAR

"Mahalla institutining giyohvandlikning oldini olishdagi roli" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 163

Muminova Gulnora Taxirovna Katta muharrir, dizayn Fayziyev Abdugabbor Texnik muharrir

Original-maket O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to'liq yoki qisman ko'chirilib bosilganida «O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining «Kriminologik faoliyat» ilmiy-amaliy jurnali»dan olinganligi ko'rsatilishi shart.

Materiallarda keltirilgan fakt va raqamlar, ko'chirmalar, iqtisodiy statistik ma'lumotlar rostligi va aniqligi uchun muallif javob beradi.

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma taqriz qilinmaydi va qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi.

Bichimi 60x40 1/8.

Bosma tabag'i 10,0.

Adadi 50 nusxa.

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida chop etilgan.

Bosishga ruxsat etildi 27.03.2026.

Buyurtma № 26/17.



kichlarda pozitsiyani yaxshilash masalasi ko'plab mamlakatlarda strategik ahamiyat kasb etib, davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda [1]. Bu esa, o'z navbatida, qonunchilikni takomillashtirish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish hamda jamiyat hayotining barcha sohalarida ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlashni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi uchun ham xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yuksaltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lami siyosiy-huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimini shakllantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, ularning natijalari xalqaro reyting va indekslarda ham o'z aksini topmoqda. Bu jarayon O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi va ijobiy imijini mustahkamlashda, shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli, ushbu maqolada xalqaro reyting va indekslarning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu yo'nalishda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning institutsiyaviy va huquqiy asoslari, erishilayotgan natijalar hamda so'nggi yillarda kuzatilayotgan ijobiy o'zgarishlarning sabab va omillari atroficha o'rganiladi.

Ushbu tadqiqot doirasida o'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili ichki ishlar organlari faoliyati bilan bog'liq xalqaro reyting va indekslardagi O'zbekiston o'rnini ilmiy nuqtayi nazardan juda kam o'rganilganligini, bu soha nisbatan yangi ekanligini ko'rsatmoqda. Shunday bo'lsa-da, O'zbekiston uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha ba'zi o'zbek olimlari va mutaxassislari izlanishlar olib borgan.

Xususan, D. Doschanova "Xalqaro reyting agentliklarining baholash metodikalari hamda tarkibiy indikatorlari", G'. Tashpulatov "O'zbekistondagi baholovchi tashkilotlar reytingi va reytingni baholashda kompleks yondashuvning qo'llanilishi tahlili", K. Mavlanov "Gumon qilinuvchi huquqlari ta'minlanganligi xalqaro indekslarda qonun ustunligini belgilovchi muhim omil sifatida",

A. Po'latov "Turizm sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslarda O'zbekiston", B. Raxmatullayev "Innovatsion rivojlanishda xalqaro reyting va indekslarning o'rni va ahamiyati", S. Begmatova "Xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlari sifatida mediatsiya instituti va uning ahamiyati", D. Ernazarov "O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilashda Yevropa Ittifoqi xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining amaliy jihatlari", M. Maxmadaminov "O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash muammolari: ma'muriy islohotlar", A. Bekmurodov "O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslarda ishtirokini samarali ta'minlash – strategik zarurat", D. Yusubbayeva "O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash muammolari: inson resurslarini boshqarish" kabi mavzularida ilmiy maqolalar chop ettirishgan.

Shunga ko'ra, siyosiy-huquqiy, shu jumladan ichki ishlar organlari faoliyati bilan bog'liq sohalarda O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada jadallashtirish zamon talabi bo'lib qolaveradi.

Tadqiqot davomida O'zbekiston uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan [2] hamda ichki ishlar organlari faoliyati bilan bog'liq xalqaro reyting va indekslarga tegishli 26 ta indikator va subindikatorlarning metodologiyasi o'rganildi. Ularning sud-huquq tizimini baholashga qaratilgan mezonlari tadqiq qilindi. Tahlillar davomida ilmiy bilishning tizimli, qiyosiy va statistik tahlil kabi uslublaridan foydalanildi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamoat xavfsizligini mustahkamlash hamda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni kafolatlashga qaratilgan tizimli islohotlar yuqori bosqichga ko'tarildi. Mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy sohalardagi transformatsiyaviy o'zgarishlar nafaqat ichki barqarorlikni, balki davlatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususan, sud-huquq tizimini liberallashtirish va qonun ustuvorligini ta'minlash borasidagi jadal islohotlar aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qanoat-

lantirish, so'z va e'tiqod erkinligini kafolatlash uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan preventiv chora-tadbirlar davlat boshqaruvining samaradorligini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur islohotlar natijasida O'zbekistonning nufuzli xalqaro reyting va indekslardagi o'rinlarida sezilarli ijobiy dinamika kuzatilmoqda. Shu sababli, xalqaro reyting va indekslarning o'zi nima ekanligini, ular qanday hisoblanishini va mamlakat taraqqiyotini baholashda qanchalik muhimligini o'rganish hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

An'anaviy ravishda davlatlarning taraqqiyot darajasi *yalpi ichki mahsulot (YAIM)*, *yalpi milliy mahsulot (YAMM)* va *aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar* kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholanib kelingan. Biroq, zamonaviy global dunyoda mamlakatning kompleks rivojlanishini baholashda faqatgina miqdoriy emas, balki sifat ko'rsatkichlarini ham o'z ichiga oluvchi xalqaro reyting va indekslar eng xolis va universal baholash vositasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Zamonaviy globallashuv sharoitida xalqaro reyting va indekslar davlatning nafaqat iqtisodiy salohiyatini, balki uning xalqaro maydondagi o'rnini va "soft power" (yumshoq kuch) imkoniyatlarini ifodalovchi strategik ko'rsatkichlar tizimi hisoblanadi. Ushbu indikatorlar milliy qonunchilikning samaradorligini, inson huquq va erkinliklarining institutsional kafolatlanganligini hamda amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini verifikatsiya qilish (tasdiqlash) imkonini beradi.

Xalqaro reyting va indekslarning aksariyati nufuzli tahlil markazlari va nodavlat tashkilotlar tomonidan shakllantirilib, ularning metodologiyasi *empirik tadqiqotlar*, *ekspert so'rovnomalari* va *representativ statistik ma'lumotlarning kompleks tahliliga* asoslanadi. Xususan, "Transparency International" tashkilotining **Korrupsiyani idrok etish indeksi** (*Corruption Perceptions Index*) va "Heritage Foundation" jamg'armasining **Iqtisodiy erkinlik indeksi** (*Index of Economic Freedom*) kabi ko'rsatkichlar davlat boshqaruvi va iqtisodiy liberallashtirish sohasidagi transformatsiya jara-

yonlarining obyektiv ko'zgusi sifatida xizmat qiladi.

Mazkur monitoring tizimi xalqaro iqtisodiy munosabatlar subyektlari – transmilliy korporatsiyalar, xorijiy investorlar va xalqaro moliyaviy institutlar uchun asosiy signal funksiyasini bajaradi. Masalan, investitsiyaviy qarorlar qabul qilish jarayonida Jahon bankining biznes yuritish sharoitlariga oid reytinglari yoki Jahon iqtisodiy forumining global raqobatbardoshlik indekslari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shveysariya, Singapur va Islandiya kabi davlatlarning tinchliksevarlik (*Global Peace Index*), inson erkinligi (*Human Freedom Index*) va iqtisodiy barqarorlik bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallashi ularning turizm, diplomatiya va kapital oqimi uchun yuqori darajadagi investitsiyaviy jozibadorligini ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, reyting ko'rsatkichlarini yaxshilash nafaqat statistik yutuq, balki davlatning xalqaro hamjamiyatdagi nufuzini mustahkamlash va milliy manfaatlarini global miqyosda ilgari surishning muhim vositasi hisoblanadi.

Xalqaro reyting ko'rsatkichlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy arxitekturasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi **strategik monitoring vositasi** hisoblanadi. Yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishish davlatning reputatsion kapitalini mustahkamlab, xalqaro sheriklik ko'lamini kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini jadallashtirishning multiplikativ omili bo'lib xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi turmush farovonligini izchil oshirishning fundamental asoslarini shakllantiradi.

Aksincha, past ko'rsatkichlar milliy boshqaruv tizimidagi tizimli muammolarni identifikatsiya qilish va tegishli yo'nalishlarda reinjining jarayonlarini amalga oshirish zarurligini ko'rsatuvchi indikator (signal) vazifasini o'taydi. Masalan, "Numbeo" portalining **Hayot sifati indeksi** (*Quality of Life Index*) bo'yicha Niderlandiya va Daniya kabi davlatlarning barqaror yetakchiligi ularning ijtimoiy modellari naqadar yuqori samaradorlikka ega ekanligini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Shu bois, zamonaviy davlat boshqaruvida xalqaro reytinglar islohotlar samaradorligini baholovchi mustaqil va xolis audit mexanizmi sifatida qabul qilinmoqda.

Mazkur tendensiyalarni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasida mamlakatning xal-

qaro reyting va indekslardagi o'rnini izchil yuksaltirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Bu sohada amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar nafaqat mamlakatning xalqaro imijini yaxshilash, balki milliy boshqaruv tizimini ilg'or global standartlar asosida modernizatsiya qilishga qaratilgan strategik maqsadlarni o'zida mujassam etadi.

Shunga muvofiq, mamlakatning global reyting va indekslardagi ko'rsatkichlarini yanada yuksaltirish maqsadida sohada tub islohotlar amalga oshirilib, xalqaro indikatorlar bilan ishlashning yangi, vertikal boshqaruv tizimi joriy etildi. Ushbu strategik yo'nalishning huquqiy poydevori sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”**gi [1] farmoni qabul qilindi.

Mazkur islohotlarning mantiqiy davomi sifatida Oliy Majlis Senatining **“O'zbekiston uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar ro'y-xatini tasdiqlash to'g'risida”**gi [2] qarori bilan mamlakat taraqqiyoti uchun eng muhim hisoblangan indikatorlarning konseptual doirasi belgilab berildi.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar asosida davlat boshqaruvida quyidagi yangi institutsional mexanizmlar shakllantirildi:

Oliy Majlis Senati huzurida Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tashkil etilib, sohadagi faoliyatni muvofiq-lashtirish va davlat organlarining hisobdorligini ta'minlash mexanizmi yaratildi;

har bir ustuvor reyting va indeks bo'yicha vazirlik va idoralarning mas'uliyati hamda erishilishi lozim bo'lgan strategik maqsadli ko'rsatkichlar aniq belgilab berildi.

Shunga asosan, Ichki ishlar vazirligi tomonidan o'ziga birlashtirilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi yo'nalishidagi indikatorlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro siyosiy-huquqiy reytinglardagi o'rnini izchil yuksaltirish maqsadida tizimli va bosqichma-bosqich chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, sohadagi faoliyat samaradorligini oshirish yo'nalishida quyidagi muhim qadamlar qo'yildi:

birinchidan, sohaning me'yoriy-huquqiy bazasi tubdan yangilandi. Jarayonlarni huquqiy jihatdan tartibga solish va jadallashtirish maqsadida Ichki ishlar vazirining “O'zbekistonning siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilashda ichki ishlar organlari rolini oshirish to'g'risida” [3] hamda “O'zbekistonning siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilashda ichki ishlar organlari rolini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” [4] buyruqlari qabul qilindi. Ushbu hujjatlar tizimda xalqaro indikatorlar bilan ishlashning strategik yo'nalishlarini belgilab berdi;

ikkinchidan, mas'uliyatning funksional taqsimoti joriy etildi. Xalqaro reyting va indekslarning har bir indikatorini hamda subindikatorini bo'yicha Vazirlikning tegishli tarkibiy tuzilmalari asosiy ijrochi sifatida belgilanib, sohada “tarmoqli boshqaruv” tizimi yo'lga qo'yildi;

uchinchidan, maqsadli rejalashtirish va istiqbolli vazifalar belgilandi. Mas'ul etib tayinlangan har bir bo'linma uchun aniq vaqt va ijro mezonlarini o'zida mujassam etgan kompleks chora-tadbirlar rejalari tasdiqlandi. Bu esa kutilayotgan natijalarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi;

to'rtinchidan, ilmiy-tahliliy muvofiqlashtirish mexanizmi institutsionallashtirildi. Vazirlik tizimidagi vazifalar ijrosini nazorat qilish, tahliliy ma'lumotlarni umumlashtirish hamda Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi bilan samarali aloqani ta'minlash vakolati *O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti zimmasiga yuklatildi* [3]. Bu qaror tizimda ilmiy yondashuv va amaliyot uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi;

beshinchidan, shaffoflik va ochiqlik tamoyillari kuchaytirildi. Ichki ishlar organlari faoliyatida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar va manzilli islohotlarni jamoatchilikka yetkazish, ijtimoiy tarmoqlar va media maydonda keng yoritish tizimi tizimli ravishda yo'lga qo'yildi. Bu esa respondentlar orasida mamlakat haqidagi obyektiv fikrning shakllanishiga va reyting so'rovnomalarida ijobiy ko'rsatkichlarning aks etishiga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan kompleks chora-tadbirlarning tizimli ravishda hayotga tatbiq etilishi va real vaqt rejimida monitoring qilinishi qisqa davr mobaynida mamlakatning xalqaro siyosiy-huquqiy maqomida ijobiy o'sishni ta'minladi.

Belgilangan institutsional mexanizmlarning samarali ishlashi natijasida, ustuvor xalqaro reyting va indekslarning indikatorlarida ijobiy dinamika kuzatildi, bu esa O'zbekistonning global maydondagi demokratik islohotlar izchilligini verifikatsiyalovchi muhim dalil bo'ldi.

Mazkur muvaffaqiyatli tajriba, ya'ni ichki ishlar organlari faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish nafaqat mamlakatning imij ko'rsatkichlarini yaxshilash, balki aholining davlat institutlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi.

Xususan, O'zbekiston 2025-yilda AQSH poytaxti Vashington shahrida joylashgan **“Huquq ustuvorligi indeksi”** (*World Justice Project*) bo'yicha 143 mamlakat orasida 81-o'rinni egallab, o'tgan yilga nisbatan ikki pog'ona yuqoriladi [5].

E'tiborli tomoni shundaki, xalqaro darajada mazkur indeks bo'yicha dunyoning **68 foiz** mamlakatida pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, O'zbekistonning o'rni yanada yaxshilandi.

Shu bilan birga, ushbu indeksning indikatorlari bo'yicha ham O'zbekistonda ijobiy ko'rsatkich kuzatildi.

Jumladan, 2025-yilda O'zbekiston, “Huquq ustuvorligi indeksi”ning **“Ayblanuvchilarning huquqlari va tegishli huquqiy tartib”** subindikatorini bo'yicha *93-o'rindan 92-o'ringa (1 pog'onaga yuqoriladi)*, **“Axloq tuzatish tizimining jinoyatchilikning kamayishiga samarali ta'siri”** subindikatorini bo'yicha *22-o'rindan 20-o'ringa (2 pog'onaga yuqoriladi)*, **“Jinoyatchilikning yo'qligi”** subindikatorini bo'yicha *26-o'rindan 25-o'ringa (1 pog'onaga yuqoriladi)*, **“Odil sudlov tizimining xolisligi”** subindikatorini bo'yicha *108-o'rindan 107-o'ringa (1 pog'onaga yuqoriladi)* ko'tarilib, xalqaro maydondagi o'rni yanada mustahkamlangan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Avstraliyaning Sidney shahrida joylashgan **Xalqaro iqtisodiyot va tinchlik institutining** (*Institute for Economics & Peace*) **“Xavfsizlikni his qilish indeksi”** da 0,072 ball bilan faxrli 1-o'rinni egallab, dunyodagi eng xavfsiz davlatlardan biri sifatida qayd etilgan [5].

O'z navbatida, mamlakatimizning Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan **“Global innovatsiya indeksi”**ning 2025-yil natijalari o'tgan yilga nisbatan yanada yaxshilandi. Unga ko'ra, O'zbekiston 139 davlat orasida 79-o'rinni egallab, mamlakat tarixidagi eng yuqori natija – ilk bor top-80 talik ko'rsatkichni qayd etib, o'tgan yilga nisbatan 4 pog'ona yuqorilab, 79-o'rinni egalladi [6].

Qolaversa, O'zbekiston daromad guruhi bo'yicha, 2025-yilda 7-o'rinni, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida 3-o'rinni egallab, o'tgan yilga nisbatan mos ravishda 3 va 1 pog'ona yuqorilagan.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu natija Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida Hindiston (39-o'rin) va Eron (62-o'rin)dan keyingi 3-o'rin degani bo'lib, O'zbekiston qo'shni Qozog'iston (81-o'rin), Rossiya (91-o'rin) va Turkiya (93-o'rin)dan yuqori natijaga erishganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, O'zbekiston to'rt yildan beri **“Innovation overperformer”** ya'ni rivojlanish darajasiga nisbatan ancha yuqori innovatsion natijalarga erishuvchi mamlakat maqomini muvaffaqiyatli saqlab kelmoqda. Bu esa mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlaridan ko'ra sezilarli darajada yuqori samara ko'rsatayotganini anglatadi.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston 2025-yilda BMT Barqaror taraqqiyot markazining **“Baxt hisoboti” indeksi**da (*World Happiness Report*) 147 mamlakat ichida 47-o'rin [8], Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining **“Dunyodagi yo'l harakati xavfsizligi” bo'yicha hisobotida** (*Global status report on road safety*) 60-o'rin [9], Buyuk Britaniya poytaxti Londonda joylashgan Oksford universiteti va Oksford Martin maktabining **“Ayollar, biznes va qonun” indikatorida** (*Woman, Business and Law*) 90-o'rin [10], Jeneva (Shveysariya) shahridagi “Xalqaro telekommunikatsiyalar uyushmasi” NNTning **“Xalqaro kiberxavfsizlik indeksi”**da (*Global Cybersecurity Index*) T-2 darajasiga erishib, o'tgan yilga nisbatan yanada yuqoriroq natijalarga erishdi [11].

Mazkur ijobiy natija va ko'rsatkichlar mamlakatimizda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini samarali himoya qilish, sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish hamda huquq-tartibot va qonun ustuvorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning naqadar samarali ekanligidan hamda davlatimizga bo'lgan xalqaro

ishonchning yanada oshib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, xalqaro reyting va indekslar – bu nafaqat raqamlar, balki mamlakatning global hamjamiyatdagi o'rnining haqiqiy o'lchovi. Ular islohotlarni tezlashtirish, shaffoflikni oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu ko'rsatkichlarda yuqori o'rinlarga erishish – global nufuz va barqaror rivojlanish kaliti. Shuning uchun, ularni doimo kuzatib borish va islohotlarni unga muvofiq lashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilarga asosan, xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston o'rnini yaxshilash yo'na-

lishida ichki ishlar organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni yanada oshirish, korrupsiyaga qarshi murosasiz va zamon talablariga monand usullarda kurashish, ichki ishlar organlarining korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish choralarini hamda natijalari bo'yicha ma'lumotlarni onlayn tartibda standartlarga muvofiq ochiqlik ko'rsatkichlarini joriy etish, ichki nazorat va xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish, xodimlar uchun huquqni qo'llash sohasidagi xalqaro standartlar, inson huquqlari, jamoatchilik bilan muloqot va etika bo'yicha muntazam o'quv kurslari tashkil etish hamda aloqalarni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 19-iyundagi PF-91-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6975276>.
2. Oliy Majlis Senatining 2024-yil 16-avgustdagi "O'zbekiston uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" SQ-963-IV-son qarori. <https://lex.uz/docs/-7094864>.
3. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining "O'zbekistonning siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilashda ichki ishlar organlari rolini oshirish to'g'risida" 2025-yil 26-maydagi 289-son buyrug'i.
4. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining "O'zbekistonning siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilashda ichki ishlar organlari rolini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 29-sentyabrdagi 570-son buyrug'i.
5. "Huquq ustuvorligi indeksi" (World Justice Project)ning rasmiy veb-sayti. <https://worldjusticeproject.org/>
6. Xalqaro iqtisodiyot va tinchlik instituti (Institute for Economics & Peace) ning rasmiy veb-sayti. <https://www.economicsandpeace.org/>
7. "Global innovatsiya indeksi" (Global innovation index)ning rasmiy veb-sayti. <https://innovation.gov.uz/info/global-innovatsion-indeks>
8. "Baxt hisoboti" (World Happiness Report) indeksi rasmiy veb-sayti. <https://www.worldhappiness.report/>
9. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining "Dunyodagi yo'l harakati xavfsizligi" bo'yicha hisoboti (Global status report on road safety). <https://www.who.int/teams/social-determinants-of-health/safety-and-mobility/global-status-report-on-road-safety-2023>
10. Oksford universiteti va Oksford Martin maktabining "Ayollar, biznes va qonun" indikator (Woman, Business and Law). <https://wbl.worldbank.org/en/wbl>
11. "Xalqaro telekommunikatsiyalar uyushmasi" NNTning "Xalqaro kiberxavfsizlik indeksi" (Global Cybersecurity Index) rasmiy veb-sayti. <https://www.itu.int/en/ITU-D/Cybersecurity/pages/global-cybersecurity-index.aspx>.



YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR JINOYATCHILIGINING OLDINI OLISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA



Almatov Zokirjon Almatovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri maslahatchisi, general-polkovnik



Mirzatillayev Umid Izzatillayevich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada raqamli texnologiyalar rivojlangan hozirgi sharoitda yoshlar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyatlari va dinamikasi tahlil qilingan. Mualliflar umumiy jinoyatchilik kamaygan bir davrda yoshlar ulushining nisbiy o'sish tendensiyasini ochib beradi. Shuningdek, yoshlarning deviant xulq-atvoriga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va raqamli omillar ko'rib chiqilgan. Maqolada Skandinaviya, Gonkong va AQSH kabi davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganilib, milliy amaliyot uchun "raqamli profilaktika", "ikkinchi imkoniyat" dasturi va ta'lim tizimiga "Kriminologiya" fanini kiritish kabi konseptual takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar jinoyatchiligi, raqamli transformatsiya, profilaktika, deviant xulq-atvor, kibermakon, ijtimoiy qo'llab-quvvatlaganlik, SSP modeli, raqamli profilaktika, narkoprofilaktika.

Аннотация. В статье анализируются особенности и динамика преступности среди молодежи в условиях активного развития цифровых технологий. Авторы выявляют тенденцию относительного роста доли молодежи в общей структуре преступности на фоне снижения общего количества правонарушений. Рассматриваются социально-психологические и цифровые факторы, влияющие на девиантное поведение молодежи. Изучен передовой опыт таких стран, как Скандинавия, Гонконг и США, а также выдвигаются концептуальные предложения для национальной практики, включая внедрение «цифровой профилактики», программы «второго шанса» и введение предмета «Кримнология» в систему образования.

Ключевые слова: молодежная преступность, цифровая трансформация, профилактика, девиантное поведение, киберпространство, социальная поддержка, модель SSP, цифровая профилактика, наркопрофилактика.

Abstract. The article analyzes the characteristics and dynamics of youth crime in the context of advanced digital technologies. The authors reveal a trend of a relative increase in the share of youth in the overall crime structure, despite a general decrease in crime rates. Socio-psychological and digital factors influencing the deviant behavior of young people are examined. The study explores international best practices from countries such as Scandinavia, Hong Kong, and the USA, and puts forward conceptual proposals for national practice, including the implementation of "digital prevention", "the second chance" program, and the introduction of "Criminology" into the educational system.

Keywords: youth crime, digital transformation, prevention, deviant behavior, cyberspace, social support, SSP model, digital prevention, drug prevention.

O'zbekistonda hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida yaratilgan shart-sharoitlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimi bugun o'zining ijobiy samarasini bermoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston yoshlari har jabhada tengsiz ekanliklarini namoyon etib, mamlakatimizni dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallashlari uchun yaratilgan imkoniyatlar unumli foydalanib kelmoqdalar.

Buni quyidagi raqamlar ham yaqqol isbotlaydi. Yoshlarimiz jahon fan olimpiadalarida 66 ta oltin, 147 ta kumush, 221 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Garvard, Yel, Prinston, Kolumbiya, Kornell kabi nufuzli oliygohlarda tahsil olayotgan talaba yoshlarimiz 500 nafardan, TOP-100 talikdagi oliygohlarda o'qiyotgan yigit-qizlarimiz 3,5 ming nafardan oshdi. Yoshlarimiz yaratgan 63 ta startap loyihasi AQSH, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Birlashgan Arab Amirliklari bozorlariga kirib borgan. Yosh sportchilarimiz xalqaro arenalarda 720 ta oltin, 671 ta kumush, 854 ta bronza medalining sohibi bo'ldi. Bugun yosh tadbirkorlar yurtimizdagi biznes vakillarining 35 foizini tashkil etmoqda.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda axborot almashinuvining tezlashuvi, virtual muloqot makonining kengayishi va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirining ortishi natijasida an'anaviy ijtimoiy munosabatlar tizimi o'zgarib, shaxs xulq-atvoriga ta'sir etuvchi omillar yangi mazmun kasb etmoqda. Bu jarayon yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar tabiatining murakkablashuviga olib kelmoqda.

Bugungi kunda yoshlar jinoyatchiligi faqat huquqiy normalar buzilishi bilan cheklanmay, axborot muhiti, ijtimoiy-psixologik bosimlar, virtual makon ta'siri va raqamli qadriyatlar tizimi bilan bog'liq kompleks ijtimoiy-huquqiy hodisaga aylandi.

Shu jihatdan, mazkur muammo xavfsizlik, ma'naviy barqarorlik hamda milliy taraqqiyot nuqtai nazaridan muhim strategik ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda aholi tarkibida yoshlarning ulushi yuqori ekani (22 milliondan ziyod) mazkur qatlam bilan ishlashning tizimli va ilmiy asoslangan mexanizmlarini shakllantirishni taqozo etadi. Bu borada 2026-yil 24-fevral kuni Davlat rahbari

tomonidan Ko'ksaroy qarorgohida yoshlar bilan o'tkazilgan muloqotda yoshlar mamlakatning ulkan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuchi ekani alohida ta'kidlanib, birorta yigit-qizni e'tiborsiz qoldirmaslik vazifasi belgilab berildi. Shuningdek, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlash, tadbirkorligini rivojlantirish va ma'naviy-huquqiy tarbiyasini mustahkamlash maqsadida haftaning payshanba kuni "Yoshlar kuni" sifatida belgilanishi aholining ushbu qatlami bilan profilaktik ishlarni tizimli tashkil etishga qaratilgan muhim qadam sifatida baholanadi [1].

Ming afsuski, tahlillar yoshlar jinoyatchiligi dinamikasida tashvishli tendensiya mavjudligini ko'rsatadi. 2022–2024-yillar mobaynida 83 902 nafar yoshlar tomonidan 83 501 ta jinoyat sodir etilgan. O'rganishlarga ko'ra 2022-yilda 90 169 nafar jinoyatchining 33,6 foizini (30 278 nafar), 2023-yilda 88 913 nafar jinoyatchining 34,9 foizini (31 006 nafar) va 2024-yilda 59 951 nafar jinoyatchining 37,7 foizini (22 618 nafar) yoshlar tashkil etgan [3]. Bundan xulosa qilish mumkinki, har uchinchi jinoyat sodir etgan shaxs aholining yoshlar toifasiga mansubdir. Mazkur dinamika nisbiy o'sish tendensiyasini ifodalaydi, ya'ni umumiy jinoyatchilik ko'rsatkichlari pasaygan sharoitda jinoyat sodir etgan shaxslar orasida yoshlar ulushining ortishi profilaktika siyosatini qayta ko'rib chiqish, ayniqsa, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi sharoitda xavf omillarini aniqlash va bartaraf etishning innovatsion mexanizmlarini joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

2025-yil mobaynida yoshlar tomonidan 13 639 ta jinoyat sodir etilgan. Ushbu jinoyatlarning asosiy salmog'i o'g'rilik – 21,6 foiz (2 943 ta), firibgarlik – 16,1 foiz (2 197 ta) va bezorilik – 7 foiz (950 ta) jinoyatlari hissasiga to'g'ri kelgan [4]. Ushbu tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar huquqiy, ijtimoiy, psixologik va raqamli muhit omillarini qamrab olgan holda kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim.

Mazkur yo'nalishda davlatimiz rahbarining 2026-yil 5-yanvarda qabul qilgan "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

qarori ayni muddao bo'ldi. Ushbu qarorda yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning asl omillarini ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish orqali ularning barvaqt oldini olish bo'yicha yangi ishlash mexanizmlarini yaratish vazifasi belgilandi [2].

Ilmiy tadqiqot xulosalariga ko'ra, bugungi kunda yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning asl omillarini quyidagi ko'p qirrali va kompleks xarakterga ega sabablar bilan izohlash mumkin:

- ijtimoiy muhit va tengdoshlar ta'siri katta ahamiyatga ega: zamonaviy iste'molchilik bosimi (telefon, mashina, moddiy ko'rsatkichlar) ko'p yoshlarni tez pul topishning noqonuniy yo'llariga yo'naltirmoqda;

- oilaviy nazoratning susayishi, mehnat migratsiyasi sabab yoshlarning ko'p hollarda ota-onasi tomonidan tarbiya va ma'naviy qo'llab-quvvatlashdan mahrum bo'lishi ham deviant xulq-atvor shakllanishiga turtki bo'lmoqda;

- ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi "go'zal" hayotni targ'ib qiluvchi va axloqan buzuvchi kontentlar ta'sirida axloqiy kategoriyalar va qadriyatlar haqidagi tushunchaning buzilishi kuzatilmog'ida;

- ayrim holatlarda mehnat qilmasdan tez va yengil daromad manbaiga ega bo'lish, noqonuniy boylik orttirish istagi yoshlarni jinoyat ko'chasiga yetaklamog'ida.

Xalqaro amaliyotda yoshlar jinoyatchiligining oldini olish va unga qarshi kurashishning bir nechta muvaffaqiyatli modellari mavjud bo'lib, ularni O'zbekiston sharoitiga moslab amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususlan, *Skandinaviya modeli* (Shvetsiya, Norvegiya)da ta'lim muassasalarida xavfsiz muhitni yaratish va "ijtimoiy xizmat + politsiya + ta'lim" hamkorligini (SSP modeli) kuchaytirish orqali yoshlarni jinoyat olamiga kirib qolishlarining barvaqt oldi olinadi [5].

Gonkong va Singapur modeli. Bu davlatlarda "Raqamli profilaktika"ga alohida urg'u beriladi. Masalan, Gonkongda 2025-yilgi "Yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasi qo'llanmasi" (Youth Crime Prevention Booklet) orqali o'qituvchi va otanalarga kiberjinoyatlar va zamonaviy narkotiklar xavfi haqida interaktiv ta'lim berish tizimi joriy etilgan [6].

BMTning (UNODC) "Line Up Live Up" dasturi doirasida sport orqali yoshlarda ijtimoiy bosimga qarshi turish va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmi 14 dan ortiq davlatda samarali qo'llanilmoqda [7].

AQSHda "HOME" (Habitual Offender Monitoring Enforcement) dasturi doirasida jinoyatga moyilligi yuqori bo'lgan yoshlarni GPS monitoring qilish va oilalarga kompleks xizmat ko'rsatish tizimi joriy etilishi natijasida yoshlarning qayta jinoyat sodir etishlari salmog'i kamayishiga erishilmoqda [8].

Ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi hamda milliy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda yoshlar jinoyatchiligining oldini olish borasida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- o'quvchilarning jinoyat, uning sabab va oqibatlarini borasida huquqiy bilimlarini shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatini oshirish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida umumta'lim maktablari o'quv dasturlariga 8-sinf dan boshlab "Kriminologiya" fanini kiritish;

- og'ir toifadagi yoshlar bilan yangicha yondashuv asosida ishlash va ular o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimini tashkil etish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish va amaliyotga tatbiq etish;

- "Raqamli profilaktika" (Digital Prevention) tizimini joriy etish. Bunda sun'iy intellektga asoslangan monitoring tizimini yaratish va ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar orasida ommalashayotgan xavfli kontentlarni (narkotiklar targ'iboti, ekstremistik chaqiriqlar, kiberbulling) avtomatik tahlil qilish va potensial qurbonlar yoki huquqbuzarlarni aniqlab, ularga nisbatan profilaktik suhbatlarni onlayn shaklda tashkil etish;

- "Yoshlar reintegratsiyasi" bo'yicha "Ikkinchi imkon" loyihasini hayotga faol tatbiq etish. Jinoyat sodir etgan yoki profilaktik hisobda turgan yoshlarni jamiyatdan ajratish emas, balki ularni foydali mehnatga yo'naltirish. Mahallabay ishlash tizimida "profilaktik nazorat"dan "ijtimoiy qo'llab-quvvatlash"ga o'tish. Bunda jinoyatga moyilligi bor, shuningdek jazoni o'tab qaytgan yoshlarni intensiv kurslarda dasturlash, veb-dizayn, kompyuter muhandisligi va boshqa kasblar hamda xorijiy tillarga o'qitish orqali daromadli ishga ega bo'lishiga shart-sharoit yaratish;

– “Narko-profilaktika”ning zamonaviy modelini yaratish. So‘nggi yillarda yoshlarning sintetik vositalar, ya‘ni laboratoriya sharoitida kimyoviy yo‘l bilan yaratiladigan psixofaol moddalarga qaramligi oshib bormoqda. Ta‘lim muassasalarida narkotik vositalarning zararli jihatlari haqida ma‘ruza o‘qish bilan cheklanmasdan anonim so‘rovnomal va “ekspress-test” tizimini ixtiyoriy asosda joriy etish. Shuningdek, messengerlardagi (WhatsApp, Telegram va boshq.) narkotik vositalarni sotish

faoliyati bilan shug‘ullanuvchi akkauntlarni bloklovchi jamoatchilik nazorati (“Cyber-Patrol”) tizimini joriy etib, unga yosh ko‘ngillilarni jalb qilish.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasini “jazolash tizimi”dan “ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va ko‘mak tizimi”ga o‘tkazish davlatning uzoq muddatli xavfsizlik strategiyasini belgilaydi. Taklif etilayotgan mexanizmlar yoshlarda “jino-yatga qarshi immunitet”ni shakllantirish va ularning ijtimoiy mas‘uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 24-fevral kuni yoshlar bilan muloqotida so‘zlagan nutqi. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/8967>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2026-yil 5-yanvardagi PQ-1-son qarori // www.lex.uz.
3. Mamlakatda yoshlar jinoyatchiligiga oid kriminogen vaziyat, omillari va sabablari, bartaraf etishga doir choralar yuzasidan ilmiy-amaliy tahlilnoma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, 2026. –10-11-b.
4. Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari (2025-yil yakuni bo‘yicha): Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2025.
5. https://www.researchgate.net/publication/284518099_The_Danish_SSP
6. https://www.police.gov.hk/ppp_en/03_police_message/ycpb.html
7. <https://www.unodc.org/unodc/en/justice-and-prison-reform/cpcj-crime-prevention-youth.html>
8. https://nsuworks.nova.edu/fse_etd/245/#:~:text=Task%20Force%20is%20to%20strictly,2019.
9. Qurbonov Sh. “Ijtimoiy muhit va deviant fe‘l-atvor”. – Samarqand, 2021.
10. Jamshidov A. “Yoshlar va jinoyatchilik: muammolar va yechimlar”. – Toshkent, 2022.



ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК СРЕДСТВО КРИМИНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ ПРЕСТУПНОСТИ



Абдурасулова Кумриниса Раимкуловна
доктор юридических наук (DSc), профессор,
ТГЮУ Республики Узбекистан



Буранова Разия Ермахамет кизи
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
Академия МВД Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматривается понятие и сущность искусственного интеллекта, преимущества и недостатки его использования в различных сферах жизни, в частности, его роль в правоохранительной деятельности (при криминалистическом прогнозировании), применение искусственного интеллекта преступными лицами в их деятельности, кроме того, приведены примеры программных обеспечений, основанных на алгоритмах искусственного интеллекта в борьбе с преступностью в зарубежных странах таких, как США, Великобритания, Нидерланды, РФ, Казахстан.

Ключевые слова: преступность, алгоритмы, искусственный интеллект, информационные технологии, прогнозирование преступности, программные обеспечения.

Аннотация. Maqolada sun‘iy intellekt tushunchasi va mohiyati, undan hayotning turli sohalarida foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari, xususan, uning huquqni muhofaza qilish faoliyatidagi o‘rni (kriminologik prognozlashda), jinoyatchilar tomonidan o‘z faoliyatida sun‘iy intellektdan foydalanish, shuningdek, AQSH, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston kabi xorijiy mamlakatlarda jinoyatchilikka qarshi kurashda sun‘iy intellekt algoritmlariga asoslangan dasturiy ta‘minotlarga misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyatchilik, algoritmlar, sun‘iy intellekt, axborot texnologiyalari, jinoyatchilikni prognoz qilish, dasturiy ta‘minot vositalari.

Abstract. The article examines the concept and essence of artificial intelligence, the advantages and disadvantages of its application in various spheres of life, particularly its role in law enforcement activities (such as criminological forecasting). It also discusses the use of artificial intelligence by criminals in their operations. Furthermore, the article provides examples of software based on artificial intelligence algorithms used in combating crime in foreign countries, including the USA, Great Britain, the Netherlands, Russia, and Kazakhstan.

Keywords: crime, algorithms, artificial intelligence, information technologies, crime prediction, software.

Keywords: law, directly applicable law, parliament, parliamentarism, parliamentary oversight, regulatory impact, reference norm.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilgi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida parlamentning nazorat vakolatlarini kengaytirish zamonaviy davlat boshqaruvining muhim elementi sifatida e'tirof etildi.

Xususan, mazkur yo'nalishda Oliy Majlisimiz eng kuchli parlamentlarga xos bo'lgan barcha nazorat vakolatlariga ega ekanligi ta'kidlab o'tildi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlari vakolatlarini qiyosiy taqqoslasak, parlamentlar O'zbekistonda yangilangan

Konstitutsiyada (eski tahrirdagi Konstitutsiyada 40 ta) 51 ta (21 ta birgalikdagi vakolat, 12 ta Qonunchilik palatasi va 18 ta Senatning mutlaq vakolatlari), Qirg'izistonda 33 ta (Joqorg'i Kenesh – 1 palatali parlament), Tojikistonda 25 ta (7 ta birgalikdagi vakolat, 5 ta quyi palata – Milliy Majlis va 13 ta yuqori palata – Vakillar Majlisining mutlaq vakolatlari), Qozog'istonda amaldagi Konstitutsiya bo'yicha 18 ta (7 ta birgalikdagi vakolat, 5 ta quyi palata – Majlis va 6 ta yuqori palata – Senatning mutlaq vakolatlari), yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi bo'yicha – 22 ta (Qurultoy – 1 palatali

parlament), *Turkmanistonda – 14 ta* (Majlis – 1 palatali parlament) vakolatga ega.

Ta'kidlash lozimki, parlamentning nazorat sohasidagi vakolatlari Yangi O'zbekiston sharoitida karrasiga kuchaydi. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinishi bilan Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari *5 tadan 12 taga*, Senatning mutlaq vakolatlari esa, *14 tadan 18 taga* oshirildi.

Bu borada parlament nazoratining Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish, Vazirlar Mahkamasining yillik hisobotini eshitish, Bosh vazirning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to'g'risidagi hisobotini eshitish, Hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish kabi masalalar *Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari* sifatida mustahkamlandi.

Hududlar manfaati va ularni rivojlantirish, yangi vazirliklar tashkil qilish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash masalalari esa, *Senat vakolatlari* doirasiga taalluqli ekanligi mustahkamlandi. Qolaversa, Senatning *sud va nazorat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar faoliyati ustidan nazorat* funksiyalari, shu jumladan, Senatning mansabdor shaxslarni lavozimiga saylash jarayonidagi vakolatlari kengaytirildi. Masalan, *Sudyalar oliy kengashining barcha a'zolarini Senat tomonidan saylash* tizimi kiritildi (ilgari faqatgina Sudyalar oliy kengashining raisi Senat tomonidan saylanardi). Bundan tashqari, *Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbarini lavozimiga tayinlash* to'g'risidagi Prezident farmonini tasdiqlash masalasi ham Senatning vakolatiga o'tkazildi.

Qonunlar orqali tartibga solish zarurati, uning parlamentarizmga ta'siri masalasi adabiyotlarda ma'lum darajada o'rganilgan. Xususan, qonunlar va to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunlar huquqiy siyosat samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, professor M.X. Raxmankulov muharrirligi ostida chop etilgan "Mamlakatni demokratik yangilash sharoitida O'zbekiston Respublikasining huquqiy siyosati (konseptual asoslar)" mavzusidagi monografiyada qisman o'rganilgan [1; 632 b].

Shuningdek, qonunlar bilan tartibga solish zarurati davlat hokimiyati tizimida parlamentning o'zni va parlament islohotlari [2; 184 b.; 3; 294-b.; 6;

400 b.; 7; 15-29-b.], norma ijodkorligida "aqli tartibga solish" mexanizmlarini, shu jumladan, tartibga solish ta'sirini baholash institutini keng joriy etish [4; 51 b.; 5; 48-b.] doirasida o'rganilgan.

Tadqiqot jarayonida mamlakatimizda parlament rolini oshirish va parlamentarizmni mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitida ijtimoiy munosabatlarni qonunlar orqali tartibga solish zarurati ochib berilgan, shuningdek, bu borada oldimzda turgan muammolar hamda ularni hal etishga qaratilgan takliflar bayon etilgan.

Ushbu maqolada ilmiy bilishning tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy va formal yuridik o'rganish usullaridan foydalanilgan holda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda qonunlar ulushini oshirish hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 80-maqsadi sifatida belgilangan "To'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish, ularning ulushini kamida 60 foizga yetkazish" strategik maqsadiga erishish yuzasidan aniq yechimlar bo'yicha ayrim mulohazalar tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilgi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida parlament 2023-yildan buyon *tashqi qarz miqdorini* belgilab kelayotganligi qayd etildi. Bu yerda 2023-yil 29-aprelda "*Davlat qarzi to'g'risida*"gi qonun qabul qilindi, unda Oliy Majlis palatalarining davlat qarzini boshqarish sohasidagi vakolatlari belgilanganligini qayd etish zarur.

Mazkur Qonunga ko'ra, palatalar davlat qarzi bo'yicha cheklangan miqdorlarni va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi kelishuv doirasida xususiy sherikka beriladigan kafolatlar bo'yicha yillik limitlarni belgilaydi, davlat qarzini boshqarish strategiyasining amalga oshirilishi to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqadi, davlat qarzining holati va o'zgarishi to'g'risidagi, shuningdek davlat tomonidan jalb qilingan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanilishi haqidagi, shu jumladan davlat tomonidan mablag' jalb qilish hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarning bajarilishi jarayoni hamda natijadorligi to'g'risidagi hisobotlarni ko'rib chiqadi, davlat qarzining miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan ellik foizga yetganda qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni muhokama qiladi.

Shu bilan birga, Davlatimiz rahbari ushbu yo'nalishda ham muhim tashabbusni, ya'ni *davlat kafolati ostida tashqi qarz olish masalasini ma'qullashni ham parlament vakolatiga o'tkazish tashabbusini* ilgari surdi. Bu tashabbus ham hozirgi ijtimoiy-siyosiy vaziyatda o'ta muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, ushbu yo'nalishdagi parlamentning nazorat vakolatlarini yanada kuchaytiradi va aniqlashtiradi.

Davlat kafolati ostida tashqi qarz olish masalasini ma'qullashni parlament vakolatiga o'tkazilishi parlamentning davlat qarzi bo'yicha amaldagi vakolatlarini yanada to'ldiradi va kuchaytiradi. Ya'ni, parlament hozirgi kunda davlat qarzi bo'yicha cheklangan miqdorini belgilab beradi hamda ushbu cheklangan miqdor doirasida Hukumat kimdan qancha qarz olishni mustaqil ravishda hal qiladi.

Davlat rahbarining yuqorida keltirilgan taklifi huquqiy jihatdan rasmiylashtirilsa, Hukumat har safar davlat kafolati ostida tashqi qarz olmoqchi bo'lsa, ushbu masalani parlamentdan o'tkazishi lozim bo'ladi. Davlat kafolati ostida olinadigan tashqi qarz Davlat byudjetidan, ya'ni xalqni pulidan qaytarilishini hisobga oladigan bo'lsak, Prezidentimizning tashabbuslari ushbu jarayonni yanada ochiq, oshkora, xolis va shaffof bo'lishini, davlat kafolati ostida jalb qilinayotgan tashqi qarzni maqsadli, to'g'ri yo'naltirilishi ustidan parlament nazoratini ta'minlaydi.

Davlatimiz rahbari parlament vakolatlarini kuchaytirish yo'nalishidagi islohotlar doirasida *davlat xaridlari* masalasiga ham to'xtalib o'tdi. Xususan, Prezidentimiz ko'plab ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar fikrini o'rganib, 2026-yil 1-yanvardan davlat xaridlarida ochiq, shaffof va adolatli tizim yaratilayotgani, bu tadbirkorlarimizga 300 trillion so'mlik kafolatli bozorda o'zlarining tovar va xizmatlari bilan faol ishtirok etishlari uchun katta imkoniyatlar eshigini ochishini qayd etdi hamda bundan buyon *davlat xaridlarida tovar, ish va xizmatlarni to'g'ridan-to'g'ri sotib olish mumkin bo'lgan holatlar faqat qonun bilan belgilanishi* bo'yicha yangi muhim taklifni ilgari surdi.

Bu tashabbus ham davlat xaridlari sohasidagi juda katta muammoga yechim bo'ladi. Xususan, 2025-yil 5-martda bo'lib o'tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ili-

shida Sh.M. Mirziyoyev tomonidan davlat xaridini tanlov va tenderlarsiz, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma orqali amalga oshirish holatlari korrupsiya xavfini kuchaytirishi haqida aytilib, bu borada yangi tizimni yo'lga qo'yish, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida xarid qilinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmat turlarini qisqartirish vazifasi qo'yilgan edi.

Ta'kidlash lozimki, to'g'ridan-to'g'ri xarid qilishga ruxsat etilgan tovarlar (ish, xizmat) ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ–3953-son qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, ushbu ro'yxat hujjat qabul qilingan 2018-yilda 29 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib **53 taga**, ya'ni **83 foizga** oshgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF–259-son "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan 2026-yil 1-yanvardan to'g'ridan-to'g'ri xarid qilinishi mumkin bo'lgan tovarlarning *27 tasi* "taklif so'rovi" orqali xarid qilinishi belgilandi.

Bu ham ushbu masalaga ma'lum darajada yechim bo'ladi, lekin yuqoridagi tashabbus mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, "taklif so'rovi" orqali xarid qilinishi mumkin bo'lgan tovarlar (ish, xizmat) ro'yxatini ham qonun bilan tasdiqlash maqsadga muvofiq, bu ushbu sohada ta'sirchan parlament nazoratini o'rnatish imkonini beradi.

Umuman olganda, bu tashabbus davlat xaridlari misolida *to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunlar* masalasi naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Chunki, parlamentning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatishi ham, nufuzi va obro'si ham, avvalo, u qabul qiladigan qonunlarga bog'liq. Ya'ni, *parlamentning asosiy quroli – qonun*. Shunga ko'ra, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda qonunlarning ulushini oshirmay turib, parlamentning rolini oshirib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, qonunlarning roli va parlament roli uzviy bog'liqlikda rivojlanadi, biri ikkinchisiz rivojlana olmaydi.

Yuqoridagi tahlillar asosida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda qonunlarning rolini oshirishga qaratilgan quyidagi takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

*Birinchi*dan, huquqiy tartibga solishda qonunlarning ulushini oshirib borish lozim. Hozirgi

kunda huquqiy tartibga solishda qonunlar ulushi 6 foizga ham yetmayapti. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlar fondi 26 mingdan ortiq yaxlit hujjat, shundan 1 487 tasi qonun. Taqqoslash uchun idoraviy hujjatlar bilan tartibga solish ulushi 33 foizni, qonunosti hujjatlari bilan tartibga solish ulushi esa, 43 foizni tashkil etmoqda.

Vaholanki, "O'zbekiston – 2030" strategiya-sining 80-maqсадida "To'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilish amaliyotini kengaytirish, ularning ulushini kamida 60 foizga yetkazish" va "Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning aniq chegaralarini belgilash orqali ularning sonini keskin qisqartirish" belgilangan.

Lekin, afsuski, hozirgi kunda 1,5 mingga yaqin qonunlarimizdan qanchasi to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonun degan savolga aniq javob bera olmaymiz. Chunki, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunga qo'yilgan talablar, ular javob berishi kerak bo'lgan mezonlarning o'zi yo'q. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunlarda havolaki normalar bo'lishi mumkinmi, to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonun bor sohani qonunosti hujjatlari bilan tartibga solish ulushi qanchadan oshmasligi kerak va hokazo. So'nggi yillarda qabul qilingan Suv kodeksi, "Yer qa'ri to'g'risida"gi qonunni to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunga klassik misol sifatida keltirish mumkin.

Albatta, bu borada turli hujjatlarda to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunlarni ishlab chiqish uchun ma'lum bilan norma, metodik talablar belgilanmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-fevraldagi "Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-75-son qarori bilan "tegishli sohani tartibga soluvchi qonun loyihasini tayyorlashda ushbu sohadagi qonunosti hujjatlari bilan tartibga solingan munosabatlarni qonun darajasiga ko'tarish imkoniyatini muhokama qilish shartligi" va bu haqda "qonun loyihasining tushuntirish xatida ko'rsatish" belgilandi. Lekin amalda ushbu talabga qanchalik rioya etilayotganligini o'rganib ko'rish va uning ijrosini ta'minlash ustidan nazoratni kuchaytirish kerak.

Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan qonunlar ulushini kamida 60 foizga

yetkazish bo'yicha strategik maqsadga erishish uchun yillar kesimida aniq maqsadli ko'rsatkichlarni belgilab olish maqsadida har yili soha va tarmoqlardagi qonun va qonunosti hujjatlarini tizimlashtirish orqali to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunlarni ishlab chiqish bo'yicha reja tasdiqlanishi lozim. Bu rejani har yili tasdiqlanadigan Davlat dasturining alohida ilovasi sifatida rasmiylashtirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 19-fevraldagi PQ-75-son qarorida qonun kuchga kirgan kundan boshlab besh yil o'tib, mas'ul davlat organi va Oliy Majlis palatalarining qo'mitalari tomonidan qonunning samaradorligini, maqsadi va kutilgan natijalariga erishilganligini aniqlash uchun uning tartibga solish ta'sirini baholash amaliyoti joriy etilgan edi.

Lekin, o'tgan davrda ushbu amaliyot ishlanmadi. Shu bois, mazkur tartibni amalga oshirish mexanizmlarini nazarda tutgan holda qonuniy asoslarini yaratishni taklif etamiz. Shu maqsadda, qonunlar amalda qay darajada qo'llanilayotgani, qo'yilgan maqsadga erishilgani, o'zgartirishga zarurat mavjudligi nuqtai nazaridan o'rganish funksiyasini parlament nazorati shakllaridan biri sifatida belgilash taklif etiladi.

Bunda qonun kuchga kirgach 5 yil o'tib, uning ta'sirini baholash haqida parlament palatalari yoki qo'mitalari tomonidan qaror qabul qilinadi, qo'mitadada qonun ta'sir qilgan manfaatdor shaxslar (guruhlar, qatlamlar) ishtirokida ochiq muhokama va eshituvlar o'tkaziladi hamda mas'ul vazirlikning hisoboti ko'rib chiqiladi, qo'mita tomonidan tahlillardan kelib chiqib, xulosa tayyorlanadi, zaruratga ko'ra, qonun hujjatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida loyiha ishlab chiqiladi.

Masalan, Buyuk Britaniyada 2008-yildan buyon Parlamentning tegishli qo'mitalari qonunlar ijrosini nazorat tartibida o'rganadi (Post legislative scrutiny). Mas'ul vazirlik qonun kuchga kirganidan 3-5 yil o'tib, Parlamentga qonunning qo'llanilishi bo'yicha hisobot taqdim etadi.

Uchinchidan, parlament vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qonunosti hujjatlar qabul qilish

amaliyotiga barham berish zarur. Masalan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada qonun bilan belgilanishi lozim bo'lgan 30 dan ziyod masalalar belgilangan bo'lib, ularning ayrimlari aniq masalalarga tegishli bo'lsa, boshqalari keng doiradagi munosabatlarni qamrab oladi.

Jumladan, davlat ramzlari, referendum o'tkazish tartibi, fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi, jazoga tortish, mol-mulkdan yoki biron-bir huquqdan mahrum etish asoslari, insonning huquq va erkinliklarini cheklash, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi, davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar, bank operatsiyalari, omonatlar va hisobvaraqlarning sir tutilishi, meros huquqi, aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi, intellektual mulk, soliqlar va yig'imlar, monopol faoliyat, deputatlikka nomzodlarga talablar, davlat hokimiyati organlarining tizimi va vakolatlari, bojxona, valyuta va kredit ishlari, ma'muriy-hududiy tuzilish, qonun loyihalarini, qonunchilik takliflarini kiritish va ko'rib chiqish tartibi, Prezidentni saylash tartibi, Prezident shaxsi daxlsizligi, favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi, Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etish tartibi va vakolat doirasi, mahalliy Kengashlar deputatlari saylovi, Kengashlar va hokimlarning faoliyatini tashkil etish tartibi, saylov o'tkazish tartibi, sud tizimi va sudlar faoliyatining tartibi, Konstitutsiyaviy sudni, Sudyalar oliy kengashini, advokaturani, prokuraturani tashkil etish va ularning faoliyati tartibi, Markaziy bankning faoliyati tartibi, Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish, fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining byudjet jarayonida ishtirok etishi tartibi va shakllari qonunlar bilan belgilanishi lozim.

Lekin, tahlillar Konstitutsiyaga muvofiq, qonun bilan tartibga solinishi lozim bo'lgan ayrim masalalar hali ham qonunosti va idoraviy hujjatlar bilan tartibga solinayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan, yig'imlar, imtiyozlar va inson huquqlarini cheklovchi qoidalar qonunosti va idoraviy hujjatlarda ko'plab uchraydi. Masalan, qonunosti hujjatlarida belgilangan barcha yig'imlarni alohida qonun hujjatiga, imtiyoz, subsidiya, preferensiyalarni ham yagona qonun hujjatiga birlashtirish zarur.

Shuningdek, Prezident Administratsiyasi yoki parlament huzurida maxsus komissiya tashkil etib,

qonunosti va idoraviy hujjatlarni to'liq xatlovdan o'tkazib, ulardagi inson huquqlarini cheklovchi normalarni qonun darajasiga ko'tarish yoki bekor qilish bo'yicha dastur ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

To'rtinchidan, qonunda Hukumat tomonidan ishlab chiqilishi belgilangan qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha "Parlament bilan maslahatlashuvlar" institutini joriy etish taklif etiladi. Bunda qonunda Hukumat tomonidan qabul qilinishi nazarda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqilganidan so'ng ular parlamentning tegishli qo'mitasi bilan kelishiladi, zarur hollarda, loyiha Kengashda yoki palatada ko'rib chiqiladi va ularning roziligi olinganidan so'ng qabul qilinishi mumkin bo'ladi.

Beshinchidan, ma'lumki, Hukumat hujjatlari Prezident tomonidan bekor qilinishi mumkin. Lekin, Qonunchilik palatasi Hukumatni shakllantirishda ishtirok etsa-da, uning qaror va far-moyishlarini bekor qilish yuzasidan tashabbus ko'rsatish huquqi mavjud emas. Shunga ko'ra, Qonunchilik palatasiga Hukumat hujjatlarini bekor qilish bo'yicha Prezidentga, shu jumladan, siyosiy partiyalar tashabbusi asosida taklif kiritish huquqini berish kerak.

Oltinchidan, qonunlardagi havolaki normalarni amalga oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki "havlaki normalarda" nazarda tutilgan qonunosti hujjatlarining o'z vaqtida qabul qilinmasligi qonunlarning amalda "ishlamay qolishi"ga sabab bo'ladi.

Masalan, 2020-yil 28-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi qonunda Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma'muriy-hududiy birliklarning davlat reyestrini yuritish tartibi belgilanishi hamda ma'muriy-hududiy tuzilish masalalari bo'yicha komissiyalarning ishlash va ularning faoliyatini tugatish tartibi tasdiqlanishi nazarda tutilgan. Ushbu masalalar yuzasidan Hukumat qarori esa, oradan deyarli besh yil o'tib, 2024-yil 10-dekabrda qabul qilingan.

Shu bois qabul qilinayotgan qonunlardagi havolaki normalarning bajarilishi hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi ustidan doimiy va ta'sirchan parlament nazoratini o'rnatish zarur. Shu maqsadda har yili Adliya vazirligi tomonidan

yangi qabul qilingan qonunlar ijrosini ta'minlash uchun qonunosti hujjatlarining o'z vaqtida qabul qilinishi va bu borada amalga oshirilgan ishlar

yuzasidan Qonunchilik palatasiga axborot kiritib borish amaliyotini yo'lga qo'yishni taklif etamiz.

Foydalanilgan manbalar

1. Правовая политика Республики Узбекистан в условиях демократического обновления страны (концептуальные основы): Монография / Рахманкулов М.Х., Хакимов Р.Р., Миракулов М.М., Сафаров Дж.И. и др.; отв. ред. проф. М.Х. Рахманкулов. – Ташкент: УМЭД, 2017. – 632 с.
2. Хакимов Р.Р. Давлат ҳокимияти тизимида парламент: назария ва амалиёт муаммолари: Монография. – Тошкент: АҚҲМИ, 2012. – 184 б.
3. Raximov A.K. Yangi O'zbekistonda parlament islohotlari: Monografiya. – Toshkent: DBA, 2024. – 294 b.
4. Sultanova S.A. Norma ijodkorligida "aqli tartibga solish" modelini qo'llashning nazariy-huquqiy masalalari: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: TDYUU, 2021. – 51 b.
5. Ro'ziyev A.I. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining tartibga solish ta'sirini baholash: nazariya va amaliyot masalalari: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: TDYUU, 2023. – 48 b.
6. Парламентское право России: Монография / Под ред. Т.Я. Хабриевой. – М.: Издание Государственной Думы, 2013. – 400 с.
7. Шульженко Ю.Л. Понятие «Парламентаризм» в современной отечественной науке // Труды Института государства и права Российской академии наук. – 2017. – Том 12. – №5. – С. 15–29.



JINSIY JINOYAT TUSHUNCHASI VA UNING SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI



Niyozova Salomat Saparovna
Toshkent davlat yuridik universiteti,
yuridik fanlar doktori, professor



Ollamov Yarash Yo'ldoshovich
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent



Xasanov Shuxrat Erkinbayevich
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
bosh ilmiy xodimi

Annotatsiya. Maqolada jinsiy jinoyat tushunchasi, uning shaxsga qarshi jinoyatlar tizimida tutgan o'rni ko'rib chiqilgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga asosanib, jinsiy jinoyat tushunchasi ta'rifi berilgan hamda jinsiy jinoyatlar bo'yicha tegishli fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: shaxs huquqlari va erkinliklari, inson sha'ni va qadr-qimmat, axloq normalari, jinsiy daxlsizlik, axloqqa qarshi jinoyatlar, shaxsga qarshi jinoyatlar, jinsiy jinoyatlar, jinsiy zo'rlik, zo'rlab nomusga tegish.

Аннотация. В статье рассматривается определения половых преступлений и их место в системе преступлений против личности. На основании Уголовного кодекса Республики Узбекистан дано определения понятий против половых преступлений, а также высказаны соответствующие мнения и соображения по этому вопросу.

Ключевые слова: права и свободы граждан, человеческое достоинство и ценности, моральные нормы, половая неприкосновенность, преступления против нравственности, преступления против личности, половые преступления, половое насилие, изнасилование.

Abstract. The article highlights the concept of sexual crimes, their place in the system of crimes against the person, defines the concept of sexual crimes based on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, and expresses relevant opinions and considerations regarding sexual crimes.

Keywords: personal rights and freedoms, human honor and dignity, moral norms, sexual inviolability, crimes against morality, crimes against the person, sexual crimes, sexual violence, rape.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida "Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi" [1] belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimiz qonunlarida inson shaxsi va uning huquqlari har tomonlama muhofaza qilinadi. Mazkur qonunlardan ko'zlangan maqsad insonparvar, demokratik huquqiy davlat qurish, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashdan iborat. Bu borada, ayniqsa, jinoyat oid qonunlarning ahamiyati g'oyatda katta. Haqiqatan ham, jinoyatga oid qonunlar inson va fuqarolarning eng asosiy – fundamental huquq va erkinliklarini muhofaza qilish uchun xizmat qiladi.

Ayni vaqtda, jinoyat qonuni bilan taqiqlangan va jazoga sazovor bo'lgan har qanday qilmish jamiyatda qabul qilingan axloq normalariga ham zid ekanligi o'z-o'zidan ayon. Shaxsning jinsiy daxlsizligiga qilinadigan ijtimoiy xavfli tajovuzlarga qarshi kurash davlat hamda jinoyat huquqi oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Shaxs erkinliklari hamda huquqlari jinoyat qonunining normalari va boshqa huquqiy normalar bilan ham qo'riqlanadi. Prof. M.X. Rustambayev qayd etganidek, "qo'riqlovchi normalar tizimida jinoyat qonunlari alohida, o'ziga xos o'rin egallab, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ularni buzganlik uchun jinoyat javobgarlikni belgilash yo'li bilan muhofaza qiladi" [2].

Shaxs huquqlari va erkinliklarining muhofaza qilinishini ta'minlashda 1994-yilda qabul qilingan va 1995-yil 1-apreldan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur kodeksning "Shaxsga qarshi jinoyatlar" bo'limida hayotga, sog'liqqa, jinsiy erkinlikka, insonning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi qilingan tajovuzlar uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

Qonunlarimizda ayolning sha'ni va qadr-qimmatini alohida muhofaza qilinadi. Zero, bunday muhofaza jamiyat madaniyati darajasining mezonidir. Ayol, albatta, nafaqat jinoyat qonuni bilan, balki ma'naviy-axloqiy tuyg'ularni tarbiyalash, muomala madaniyatini shakllantirish, jinsiy tarbiya yo'li bilan ham himoyalanaadi, zotan, bu omillar jinsiy jinoyatlar, ayniqsa, nomusga tegish jinoyatlariga qarshi kurashda alohida o'ringa ega.

1993-yilning dekabrda BMT Bosh Assambleyasi "Ayollarga qarshi qaratilgan zo'rovonlikni tugatish haqida"gi deklaratsiyani e'lon qildi. 1994-yil iyunda esa Inson huquqlari bo'yicha komissiya ayollarga nisbatan zo'rovonlikka qarshi kurash bo'yicha maxsus bo'lim tuzgan bo'lib, mazkur bo'lim faoliyatining yo'nalishlariga ayollarga nisbatan zo'rlik ishlatish faktlari, uning sabablari va oqibatlarini to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash ham kiritildi.

Jamiyatda shaxs huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda shaxsning jinsiy erkinligi va daxlsizligini jinoyat qonuni bilan muhofaza qilish masalasi katta muammo hisoblanadi. Jinsiy jinoyatlar orasida nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib, g'ayritabiiy usulda qondirish kabi qilmishlar keng tarqalgan bo'lib, ular o'ta xavfli hisoblanadi.

Jinsiy jinoyat shaxsga qarshi qaratilgan eng og'ir jinoyatlar sirasiga kirishi sababli jinoyat qonunida ularga nisbatan og'irroq jazo nazarda tutilganiga qaramay, nomusga tegish jinoyatlari umumiy jinoyatchilikning salmoqli miqdorini tashkil etib kelmoqda. Bundan tashqari, ular o'ta xavfli va nihoyatda murakkab bo'lib, jamiyatga katta ziyon yetkazadi. Nazarimizda, bir qancha vaqt davomida jinoyat huquqiga oid adabiyotlarda jinsiy jinoyatlarni tadqiq etish masalasiga yetarli e'tibor berilmay keldi.

Faqat so'nggi yillarga kelib, mazkur jinoyatlar maxsus tadqiqot mavzusiga aylandi. Biroq "jinsiy jinoyat" tushunchasi, uning turlari va ayrim tarkiblariga aloqador bir qator masalalar haligacha batafsil yoritilmagan hamda bugungi kunga kelib turli bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Mazkur jinoyat yuridik adabiyotlarda turli atamalar bilan ifodalanib kelinmoqda. Masalan, P.I. Lyublinskiy "jinsiy" so'zi nomaqbul ekanligi tufayli, ularni "jinsiy sohadagi yoki jinsiy munosabatlar sohasidagi jinoyatlar", deb atashni taklif etadi [3]. L.Frensel va G.Veberlarning fikricha, axloqqa qarshi jinoyatlar deyilganda jinsiy munosabatlar sohasidagi jinoyatlar tushuniladi, sababi ular jamiyatda odamlar o'rtasida vujudga keladigan, mavjud bo'lgan sog'lom jinsiy munosabatlariga tajovuz qiladi.

A.N. Ignatov bu jinoyatlarni "axloqqa qarshi jinoyatlar" deb atab, qavs ichida "jinsiy jinoyatlar"

deb ko'rsatadi. U buni tadqiq etilayotgan jinoyatlar axloq qoidalarini qo'pol ravishda buzish ekanligi, o'ta ketgan axloqsizlikning eng tuban ko'rinishi ekanligi bilan izohlaydi. "Har qanday jinoyat g'ayriaxloqiy qilmish" deb yozadi muallif, biroq jinsiy jinoyatlar, o'z tabiatiga ko'ra, g'ayriaxloqiydir. Zero, ular asosan axloq qoidalarini buzish bilan bog'liq [4].

Bizningcha, jinsiy jinoyatlarni axloqqa qarshi jinoyatlar bilan tenglashtirish to'g'ri bo'lmaydi. "Axloq" tushunchasi "jinsiy jinoyat" tushunchasidan ancha kengroq. Har qanday jinoyat tabiatan jamiyatda hukmron bo'lgan asosiy axloq prinsiplarini buzish hisoblanadi.

Bunday fikrning noto'g'riligini o'z vaqtida I.Ya. Foyniskiy ham ta'kidlagan edi [5]. P.I. Lyublinskiy ham ko'pchilik jinoyat kodekslarida qabul qilingan jinsiy jinoyatlarning axloqqa qarshi jinoyatlar deb nomlanishi, "axloq" tushunchasining tor ma'noga ega bo'lib qolishiga va axloqiy nuqtai nazarining yuridik nuqtai nazar bilan chalkashtirib yuborilishiga sabab bo'lishini yozgan [3].

Shunisi qiziqki, ayrim davlatlarning amaldagi jinoyat kodekslarida jinsiy jinoyatlarni birlashtiruvchi maxsus atama mavjud emas. Bu jinoyat kodekslarining umumiy tuzilishi bilan bog'liq bo'lib, bob ichida jinoyatlarning ayrim turlari maxsus sarlavha bilan ajratib ko'rsatilmaydi.

Tadqiq etilayotgan jinoyat oqibatida jabrlanuvchining jinsiy erkinligi buzilishini nazarda tutib, uni "jinsiy jinoyat" deb atash to'g'riroq bo'ladi. Buning ustiga, ushbu atama yuridik adabiyotlarda keng qo'llanib kelingan va ilmiy muomalaga singib ketgan.

P.P. Osipov jinsiy jinoyat, jinoyat qonunida ko'zda tutilgan ijtimoiy xavfli seksual xarakterdagi tajovuz bo'lib, boshqa shaxs jinsiy manfaatlarini real xavf tug'dirish yoki amalga oshirish yo'li bilan qasddan buzishda ifodalanadi hamda jabrlanuvchiga nisbatan shaxsan aybdor yoxud uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi, deb ta'kidlagan.

Xususiyatlari:

- 1) jinoyatning turdosh obyektini sifatida jinsiy manfaat namoyon bo'ladi;
- 2) odatda, ushbu harakatlar seksual xarakter kasb etadi;
- 3) ushbu jinoyat qasddan sodir etiladi.

A.A. Piontkovskiy barcha jinsiy jinoyatlarni uch guruhga bo'ladi:

a) bevosita obyektini jinsiy aloqadagi shaxs jinsiy balog'at erkinligi bo'lgan jinoyatlar (nomusga tegish, ayolni jinsiy aloqaga majburlash, g'ayritabiiy usulda zo'rlik ishlatib jinsiy ehtiyojini qondirish);

b) bevosita obyektini voyaga yetmaganlarning normal jinsiy rivojlanishi bo'lgan jinoyatlar (voyaga yetmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, voyaga yetmaganga nisbatan uyatsiz-buzoq harakatlar qilish);

v) bevosita obyektini jinsiy aloqaning mavjud ijtimoiy rivojlanishi (fohishaxona saqlash, qo'shmachilik, besoqolbozlik) [6].

Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirganlik uchun jinoyat javobgarlik masalasi jamiyatda shaxs huquqlarini ijtimoiy xavfli tajovuzlardan himoya qilishdek ulkan muammoning bir qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qonun chiqaruvchi jinsiy jinoyatlarni shaxsga qarshi qaratilgan eng og'ir jinoyatlar sirasiga kiritadi.

Yuqoridagilarga asosan, bizning fikrimizcha, "jinsiy jinoyat" tushunchasi ilmiy tadqiq etilishi hamda asoslab berilishi lozim.

Sh.S. Rashkovskaya "jinsiy jinoyatlar jinsiy munosabatlarga taalluqli jinoyatlar", P.I. Lyublinskiy esa "o'zining va boshqa shaxsning jinsiy hirsini qondirishga qaratilgani holda, o'zining obyektiv xususiyatiga ko'ra, jinsiy munosabatlar tartibini buzadigan jinoyatlar" [3] deb ta'riflaganlar.

Bizningcha, bu ta'rifning kamchiligi shundaki, unda aybdor sodir etayotgan harakatlarning jinsiy xususiyati va qasddan sodir etilishi alohida ko'rsatilmagan. Yu.K. Sushchenkning yozishicha, "jinsiy jinoyat" "obyektiv jinsiy xususiyatga ega bo'lgan ijtimoiy xavfli harakat bo'lib, subyekt uni o'zining yoki o'zga shaxsning jinsiy ehtiyojini qondirish maqsadida sodir etadi va mazkur qilmish jamiyatda mavjud bo'lgan jinsiy munosabatlar tartibini buzadi" [7].

Ushbu ta'rif, bizningcha, jinsiy jinoyatning mohiyatini to'liqroq aks ettiradi, biroq unda ham mazkur jinoyat muayyan shaxsga (jabrlanuvchiga) nisbatan sodir etilishi ko'rsatilmagan.

Bu kamchilikni P.P. Osipov jinsiy jinoyatga bergan ta'rifida inobatga olgan. Uning fikricha, jinsiy jinoyat jinoyat qonunida nazarda tutilgan

ijtimoiy xavfli tajovuzlar bo'lib, boshqa shaxsning jinsiy manfaatlarini unga nisbatan aybdor yoki uchinchi shaxslar tomonidan obyektiv jinsiy tabiatga ega bo'lgan harakatlarni amalga oshirish yoki amalga oshirishga haqiqiy imkoniyat yaratish yo'li bilan qasddan buzishida ifodalanadi[8].

Ayni vaqtda, P.P. Osipov keltirgan ta'rif jinsiy jinoyatlarni yetarlicha aniq tavsiflashga imkon beradi, deb bo'lmaydi. Mazkur ta'rifda ushbu jinoyatning obyekti va maqsadi haqidagi ma'lumotlar qamrab olinmagan. P.P. Osipov jinsiy manfaat jinsiy jinoyatning asosini tashkil etishini e'tirof etgan.

Jinsiy manfaat bir shaxsning ikkinchi shaxsga jinsiy munosabatga kirishish maqsadida intilishi bo'lib, u ikki xil bo'lishi mumkin: pozitiv (insonni jinsiy aloqaga kirishishga faol harakatlarida namoyon bo'ladi) va negativ (insonni jinsiy aloqaga kirishishga to'sqinlik qiluvchi, ushbu harakatni amalga oshirishga yo'l qo'ymaydigan va ehtiyoj sezmaydigan harakat).

“Nomusga tegish” tushunchasiga to'xtalar ekan, A.Mukajanov ushbu jinoyatning bir qator xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi:

1. Nomusga tegish jinoyati jabrlanuvchisi faqat ayol kishi bo'lishi mumkin hamda uning na axloqiy qiyofasi, na jinoyatchi bilan o'zaro munosabati aybdor qilmishini nomusga tegish deb kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatga ega emas.

2. Nomusga tegishdagi jinsiy aloqa tushunchasi faqatgina tabiiy jinsiy aloqani qamrab oladi [9].

3. Nomusga tegishning zaruriy belgisi jabrlanuvchi bilan jinsiy aloqa qilishdir. Jinsiy aloqa odamlar o'rtasida jinsiy ehtiyojni qondirish munosabati bilan vujudga keluvchi hamda jisman va ruhan muloqot natijasida amalga oshiriladigan ijtimoiy munosabat [8].

Jinsiy aloqa jamiyatda mavjud umumiy munosabatlar tizimining alohida muhim bir qismini tashkil etib, o'z navbatida, quyidagi bir qator xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

1) u inson naslini davom ettirishga qaratilgan faoliyat sifatida jamiyatdagi keng qamrovli munosabatlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni sun'iy tashkillashtirish mumkin emas;

2) u individual inson jinsiy ehtiyojini qondirish vazifasini bajarib, unda obyekt yakka shaxs bo'lganligi tufayli dastlabki xususiyat kabi ommaviy emas, balki individual xarakterda bo'ladi;

3) jinsiy munosabatlar inson faoliyatining boshqa turlaridan farq qilib, tabiiy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli ijtimoiy emas, balki biologik qonuniyatlarga (ya'ni, inson jinsiy rivojlanishiga bog'liq) bo'ysunadi;

4) insonning o'z naslini davom ettirish va individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan munosabatlari tug'ilgandan boshlab emas, balki jinsiy rivojlanish jarayonining paydo bo'lishi va davomiyligiga bog'liq. Ushbu holatlarning jinsiy, axloqiy tayyor bo'lmaganlik tufayli amalga oshirilishi jamiyatda qabul qilingan umumiy qonuniyatlarga zid bo'ladi hamda oilalarda bolalarning normal tarbiyasi, axloqiy rivojlanishi, moddiy ta'minotiga ham jiddiy putur yetkazadi;

5) ishtirokchilar tarkibiga ko'ra, jinsiy munosabatlar geteroseksual (qarama-qarshi jins vakillar o'rtasida) va gomoseksual (bir jinsdagi shaxslar o'rtasidagi) bo'lishi mumkin. Barcha hollarda ham jinoyat subyekti doimo alohida shaxslar bo'lib, uning subyekti butunligicha jamoa yoki jamiyat bo'lishi mumkin emas;

6) gomoseksual munosabatlar o'z ijtimoiy mohiyatiga ko'ra geteroseksualdan farq qilib, “inson naslini davom ettiruvchi munosabat” bo'lmay, faqat individual jinsiy ehtiyojni qondirishni ko'zlaydi. Ayol va erkak o'rtasida g'ayritabiiy usulda jinsiy aloqa qilish ham ijtimoiy ahamiyati bo'yicha gomoseksual munosabatlarga tenglashtiriladi (per os, per anum, inter femora va h.k.).

Jamiyatda ikki huquq sohasi inson jinsiy faoliyatini tartibga solishga daxldor bo'lib, ulardan biri oila huquqi, ikkinchisi esa jinoyat huquqidir. Biroq oila huquqi jinsiy munosabatlarni bevosita tartibga solmaydi. Bu shu bilan izohlanadiki, jinsiy ehtiyojni qondirish “obyekti” boshqa inson shaxsi bo'lganligi tufayli, qonunda konkret jinsiy aloqa subyektiga boshqa tomondan jinsiy foydalanishga oid subyektiv huquq berilsa, bir vaqtning o'zida qarshi tarafga (yoki ikkala tarafga) huquqdor taraf jinsiy ehtiyojini qondirishda obyekt sifatida qatnashish majburiyatini yuklaydi. Biroq jamiyatda insonlar huquq obyekti sifatida emas, balki uning subyekti sifatida qatnashadi.

Biz A.Mukajanovning yuqorida bildirgan nomusga tegish jinoyatining subyekti faqatgina ayol kishi bo'lishi mumkin, degan fikriga qo'shila olmaymiz. Zero, profyessor M.X. Rustambayev

to'g'ri ta'kidlab o'tganidek, “nomusga tegish jinoyatining obyekti har ikki jinsdagi jabrlanuvchining jinsiy erkinligi hisoblanadi” [10].

Mantiqan jinsiy erkinlik nafaqat ayol kishiga, balki erkak jinsidagi odamlarga ham xosdir. Biz nomusga tegish jabrlanuvchisi faqat ayol kishi bo'lishi mumkin degan fikr bilan, erkak (xususan yosh bolalar, o'smirlar) jinsidagilarning jinsiy erkinligini muhofaza qilishdan tonayotgan bo'lamiz. Shu sababdan ham nomusga tegish jinoyati jabrlanuvchisi har ikki jinsdagi shaxs bo'lishi mumkin.

Nomusga tegish jinoyatining xususiyatlari haqida so'z yuritar ekanmiz, A.A. Abdrashit, T.A. Bapanov, K.S. Karbekov tomonidan bildirilgan fikrni keltirib o'tamiz. Ushbu huquqshunos olimlar tomonidan nomusga tegish jinoyatining kvalifikatsiyalovchi belgilari quyidagicha ajratib ko'rsatilgan:

ko'p hollarda guruh bo'lib, bir guruh shaxslar, uyushgan guruh tomonidan oldindan kelishib sodir etiladi;

sog'liqqa og'ir shikast yetkazish, o'ldirish, shuningdek jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslarga shafqatsizlik ishlatish bilan birgalikda sodir etiladi. Bunda ruhiy zo'rlik jabrlanuvchi qarshiligini yengish vositasi bo'lib xizmat qiladi;

jabrlanuvchiga tanosil kasalligi yuqtirilishi xavfi bo'lishi mumkin. Bunda aybdor bunday xavfni jinoyat sodir etish vaqtida anglagan bo'lishi kerak;

ehtiyotsizlikdan og'ir tan jarohati yetkazilgan taqdirda qo'shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi [11].

Jinsiy jinoyatni ta'riflashda mazkur jinoyatlarning barcha tarkiblariga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar aks ettirilishi lozimligidan kelib chiqish darkor. Shunga ko'ra, bizningcha, uni quyidagicha ta'riflash maqsadga muvofiq bo'ladi: *Jinsiy jinoyat – jamiyatda qaror topgan jinsiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi, subyekt o'zining yoki o'zga shaxsning jinsiy ehtiyojini qondirish maqsadida jabrlanuvchining jinsiy manfaatlarini yoki bu tartib uchun odatiy (normal) bo'lgan turli jinsdagi shaxslarning o'zaro jinsiy munosabatlarni buzuvchi, jinsiy harakatlarni qasddan sodir etishda ifodaladigan va jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish.*

Quyida biz o'z tarkibi bo'yicha faqat jinsiy zo'rlik orqali sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarnigina ko'rib chiqamiz. O'zbekiston Respublikasining

amaldagi Jinoyat kodeksiga ko'ra, jinsiy jinoyatlar jumlasiga nomusga tegish (118-modda) va jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (119-modda) jinoyatlari kiradi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi, avvalo, jinsiy sohadagi bu kabi jinoyatlarning jamiyat uchun xavfi nihoyatda kattaligi bilan bog'liqdir. Zero, mazkur jinoyatlarda jinsiy ehtiyojni qondirish eng xavfli usullar bilan amalga oshiriladi, hatto, inson o'limiga sabab bo'lishi ham mumkin.

Jinsiy erkinlikka qarshi qaratilgan bunday jinoyatlar tajovuzlarning chuqur tahlili quyiroqda beriladi. Hozir esa jinsiy zo'rlikning huquqqa xilofligi va jazoga sazovorligi belgilarining ahamiyatiga to'xtalib o'tamiz.

Bunda, avvalo, shu kabi jinoyatlarga qarshi samarali kurashish, ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan qonunni to'g'ri va adolatli qo'llash, nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi amaldagi qonun hujjatlarini chuqur nazariy tahlil qilish asosida bunday jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq masalalarni o'rganishga, nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyatlarini o'xshash jinoyatlardan farqlashga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi.

Jinsiy zo'rlikka qarshi keskin kurashish zarurati O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining rahbariy tushuntirishlarida, Bosh prokurorning buyruqlarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri buyruqlarida ko'rsatib o'tilgan. Ayniqsa, Oliy sud Plenumining qarorlarida bunday jinoyat qilmishlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan og'irroq jazo choralarini qo'llash zarurligi ko'p bora ta'kidlangan.

Zo'rlab nomusga tegish iborasi (bu iborani keng ma'noda, ya'ni nomusga tegish ma'nosida ham, jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish ma'nosida ham tushunish lozim) biror kishiga nisbatan (jismoniy yoki ruhiy) zo'rlik ishlatishni anglatadi [12].

Muayyan shaxsga nisbatan majburiy ta'sir o'tkazish jismoniy zo'rlik yoki ruhiy zo'rlik (qo'rqitish, tahdid kabilar) qo'llash shakllarida ifodalanishi mumkin. Shu sababli “zo'rlamoq” so'zi (ya'ni, bizning talqinimizdagi “jinsiy zo'rlik” iborasi) “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “birovning nomusiga

tegmoq, tajovuz qilmoq” [13], ya’ni majburiy jinsiy aloqa sifatida izohlanadi.

Shunday qilib, jinsiy zo’rluk – majburlab jinsiy aloqa qilish bo’lib, jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy kuch yoki ruhiy zo’rluk ishlatishda namoyon bo’ladi.

Zo’rluk ishlatib nomusga tegish va zo’rluk ishlatib jinsiy ehtiyojni g’ayritabiiy usulda qondirish jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar guruhidagi eng ko’p sodir etiladigan jinoyatlardir. Mazkur jinoyatlar soni ko’p vaqt davomida deyarli o’zgarmay kelmoqda.

Statistik ma’lumotlar ham jinsiy jinoyatlar ichida o’zining alohida ijtimoiy xavfi yuqoriligi bilan ajralib turadigan nomusga tegish jinoyatining respublikamizda so’nggi yillarda oshib borayotganligidan dalolat bermoqda.

O’zbekistonda 2019–2023-yillarda ro’yxatga olingan jinoyatlar soni 2,3 barobarga – 46 mingdan 104 mingtaga oshgan. 2021-yildagi keskin ko’tarilishdan so’ng bosqichma-bosqich pasayish kuzatilmoqda. Shu bilan birga, yil davomida o’ta og’ir va og’ir jinoyatlar soni ortgan [14].

Masalan, A. Mukajanov “Nomusga tegish eng keng tarqalgan va shaxsga qarshi qaratilgan xavfli jinoyatlardan bo’lib, uning xavfliligi shaxsga nisbatan qo’pol zo’rluk ishlatishda ifodalanadigan ayblanuvchi shaxsining axloqiy tubanligi, ma’naviy qashshoqligida namoyon bo’ladi. Nomusga tegish chuqur g’ayriaxloqiy qilmishdir” [9], deb ta’kidlaydi.

A.F. Koni o’zining ayblov nutqlaridan birida jinsiy zo’rlukni “zo’rlab nomusga tegish mavjud joyda hech qanday tuyg’u bo’lmaydi, faqat ochiqdan-ochiq surbetlik, yovuz va beshafqat hissiyot hamda shahvoniy hirs mavjud bo’ladi” [18], deb ta’riflaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni zo’rluk ishlatib g’ayritabiiy usulda qondirish shaxsga qarshi qaratilgan eng xavfli jinoyatlardan hisoblanadi. Insonga nisbatan sodir etilgan zo’rluk unga og’ir jismoniy jarohat va ruhiy iztirob yetkazadi, ko’pincha tuzatib bo’lmas og’ir oqibatlariga olib kelishi ham mumkin. Bu jinoyatni sodir etishda subyekt jabrlanuvchining shaxsiy va jinsiy erkinligiga tajovuz qilib, nafaqat o’z qadr-qimmatini yerga urish, balki boshqa shaxs, jabrlanuvchining qadr-qimmatini, obro’si, shaxsiy daxlsizligi bilan hisoblashmay, ba’zan esa uning sog’lig’i va hayotiga xavf tug’dirib, o’zining jinsiy

ehtiyojini qondirishga intiladi. Bunday shaxsni hech qanday axloqiy qoida, hatto jinoyat qonunida nazarda tutilgan jazo tahdidi ham o’zining xudbin manfaatlarini qondirish yo’lida jinoyat sodir etishdan to’xtatib qola olmaydi [19].

Amaldagi jinoyat qonuni, ya’ni O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 118 va 119-moddalari dispozitsiyalarida jinsiy zo’rluk “zo’rluk ishlatib, qo’rqitib yoki jabrlanuvchining oqibatlardan foydalanib, jinsiy aloqa qilish” sifatida ta’riflangan. Bunda zo’rluk ishlatib jinsiy aloqa qilish deganda, jabrlanuvchining irodasiga qarshi unga nisbatan zo’rluk ishlatib yoki qo’rqitib, jinsiy aloqa qilishgina emas, balki zo’rluk ishlatmasdan, biroq jabrlanuvchining o’z xohish-irodasini namoyon qilish imkoniyati yo’qligi (ojiz holati)dan foydalanib, jinsiy aloqa sodir etish ham tushuniladi.

Jinoyat kodeksining yuqorida keltirilgan moddalari dispozitsiyasida berilganidek, bu jinoyatlarga jabrlanuvchining xohish-irodasiga qarshi jinsiy aloqa qilish xosdir. Bunda jabrlanuvchining jinsiy aloqaga kirishishni istamasligi zo’rluk ishlatish, qo’rqitish yoxud jabrlanuvchining qarshilik ko’rsata olmaydigan ahvoldaligidan foydalanish yo’li bilan bartaraf qilinadi.

Nomusga tegishning jinsiy ehtiyojni zo’rluk ishlatib, g’ayritabiiy usulda qondirishdan yagona farqi shundaki, nomusga tegish (tibbiyot nuqtai nazaridan) tabiiy, odatdagi shaklda sodir etiladi, ya’ni bunda turli jinsdagi shaxslar, o’z jinsiy organlaridan foydalanib (tabiiy holatda), qo’shiladilar. Jinsiy ehtiyojni zo’rluk ishlatib, g’ayritabiiy usulda qondirishda esa bir jinsdagi shaxslar yuqorida bayon etilgan buzuv shakllarda o’z jinsiy ehtiyojlarini zo’rluk ishlatib g’ayritabiiy usulda qondiradilar.

Ta’kidlash joizki, umuman olganda, jinsiy ehtiyojni zo’rluk ishlatib g’ayritabiiy usulda qondirishning ijtimoiy xavflilik darajasi va sodir etilgan harakatlarning mohiyati ayolni zo’rlab nomusga tegish bilan aynan bir xil emas. Shu fikrdan kelib chiqib, biz mazkur jinoyatlarning asosiy elementlarini jinsiy zo’rlukning quyida keltiriladigan tahliliga tayangan holda ko’rib chiqamiz.

Jinoyat sifatidagi *jinsiy zo’rlukning asosiy elementlari (qirralari)* quyidagilardir:

- a) ham ayol, ham erkak bilan jinsiy aloqa qilish;
- b) jabrlanuvchining xohish-irodasiga qarshi yoki bu xohish-irodani mensimasdan jinsiy aloqa qilish.

Jinoyat qonunida mazkur jinoyatlarning obyektiv tomoniga xos bo’lgan belgi sifatida jinsiy zo’rlukni sodir etishning turli usullari ko’rsatib o’tilgan. Ushbu zo’ravonlik usullarining o’ziga xos tomoni shundaki, ular jabrlanuvchining irodasini sindirishga qaratilgan bo’ladi.

Z. Starovich “Sud seksologiyasi” nomli kitobida faqat qurbonning roziligi bo’lmagan holda sodir etilgan nomusga tegishdagina jinsiy zo’rluk haqida so’z yuritish mumkinligini ko’rsatib o’tadi. Zo’rluk ishlatib jinsiy aloqa qilishdan esa jinsiy ehtiyojni qondirish emas, balki qurbonni bo’ysundirish maqsadi ko’zlanadi [20].

“Jinsiy jinoyat” tushunchasi dunyoning aksariyat davlatlari jinoyat qonunchiligida o’z ifodasini topgan. Xorijiy davlatlar hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi mamlakatlari jinoyat qonunlarini tahlil etish nomusga tegish jinoyatiga ta’rif berishda turlicha yondashuvlar mavjudligini ko’rsatadi.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 18-bobi 131-moddasiga muvofiq “Nomusga tegish jabrlanuvchi yoki boshqa shaxsga zo’rluk ishlatib yoki zo’rluk ishlatish bilan qo’rqitib yoxud jabrlanuvchining ojiz ahvoldan foydalanib jinsiy aloqa qilish”dir.

Qozog’iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 120-moddasida [21] ham nomusga tegishga yuqoridagi kabi ta’riflangan. Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 138-moddasida nomusga tegishda zo’rluk ishlatish yoki zo’rluk ishlatish bilan qo’rqitib yoxud jabrlanuvchining ojiz ahvoldan foydalanib jinsiy aloqa qilish [22], deb ta’rif berilgan.

Mazkur holatda zo’rluk ishlatish yoki zo’rluk ishlatish bilan qo’rqitish faqatgina jabrlanuvchiga nisbatan sodir etilishi ko’rsatilgan bo’lib, zo’rluk uchinchi shaxslarga nisbatan ishlatilishi ehtimoli inobatga olinmagan (masalan, yaqin qarindoshiga nisbatan zo’rluk ishlatish bilan qo’rqitib jabrlanuvchining nomusiga tegish).

Ispaniyaning 1995-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksining 8-bo’limi 1-bobi 178-moddasida nomusga tegish jinsiy agressiya deb nomlanib, unga ko’ra “boshqa shaxsning jinsiy erkinligiga zo’rluk ishlatish yoki qo’rqitish bilan tajovuz qiluvchi shaxs jinsiy agressiyada aybdor sifatida jazolanadi” [23].

1994-yil 1-martdan kuchga kirgan Fransiya Jinoyat kodeksida ham nomusga tegish jinoyati

jinsiy agressiya ko’rinishi sifatida e’tirof etiladi. Xususan, Fransiya Jinoyat kodeksining 22²-23-moddalariga ko’ra, “u yoki bu jins vakilining har qanday jinsga mansub shaxsga nisbatan zo’rlash, majburlash, tahdid qilish yoki aldash yo’li bilan har qanday jinsiy harakati nomusga tegish hisoblanadi” [24]. Fransiya Jinoyat kodeksida nomusga tegish hamda zo’rluk ishlatib jinsiy ehtiyojni g’ayritabiiy usulda qondirish jinoyatlari alohida ajratilmagan.

Xitoy Xalq Respublikasining 1997-yil 14-martda qabul qilingan Jinoyat kodeksining 4-bobida shaxsga qarshi jinoyatlar berilgan. Mazkur bobning 236-moddasiga ko’ra, “ayolga tahdid qilish, yoki zo’rluk ishlatib nomusga tegish 3 yildan 10 yilgacha muddatda ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi” [25].

Yuqoridagi ta’rifdan ko’rinib turibdiki, Xitoy Xalq Respublikasi jinoyat qonunchiligi bilan faqatgina ayol jinsiga mansub shaxslarning nomusi qo’riqlanib, erkak jinsiga mansub shaxslar qonun himoyasidan tashqarida qolmoqda.

Shu bilan birga, jabrlanuvchining ojiz ahvoldan foydalanib, zo’rluk ishlatmasdan hamda qo’rqitmasdan jinsiy aloqa qilish masalasi ochiq qoldirilgan. Latviya Respublikasida nomusga tegish jinoyati 1998-yil 17-iyunda qabul qilingan Latviya Jinoyat kodeksining axloqqa va jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlarni qamrab oluvchi 16-bobida yoritilgan. Ushbu bobning 159-moddasida nomusga tegishga “zo’rluk ishlatib yoki zo’rluk ishlatish bilan qo’rqitib yoxud jabrlanuvchining ojiz ahvoldan foydalanib u bilan jinsiy aloqa qilish” [26], deb ta’rif berilgan.

Estoniya Respublikasining 1992-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksining 4-bobi 115-moddasiga muvofiq, nomusga tegish zo’rluk ishlatib yoki zo’rluk ishlatish bilan qo’rqitib yoxud jabrlanuvchining ojiz ahvoldan foydalanib voyaga yetgan ayol jinsidagi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishdir [27].

Germaniya Federativ Respublikasi jinoyat qonunchiligida esa, jinsiy daxlsizlikka qarshi jinoyatlar nomusga tegish yoki zo’rluk ishlatib jinsiy ehtiyojni g’ayritabiiy usulda qondirish kabi alohida turlarga ajratilmagan. Xususan, GFR Jinoyat kodeksiga muvofiq, jinsiy jinoyatlar quyidagi turlarga ajratilgan: homiylikda bo’lgan shaxslarga nisbatan jinsiy suiiste’mollik (174-§); tegishli muassasada bo’lgan mahkumlarga yoki yordamga

muhtoj kasallarga nisbatan jinsiy harakatlar (174-a§); xizmat mavqei bilan bog'liq jinsiy harakatlar (174-b§); maslahat yoki davolash xizmati bilan bog'liq jinsiy harakatlar (174-c§); bolalarga nisbatan jinsiy suiiste'mollik (176-§); bolalarga nisbatan og'ir jinsiy harakatlar (176-a§); bolalarga nisbatan o'limga sabab bo'lgan jinsiy harakatlar (176-b§); jinsiy harakatlarga: nomusga tegishga majburlash (177-§) [28].

Xorijiy davlatlar jinoyat qonunlarining tahlilidan ayon bo'ladiki, aksariyat Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida nomusga tegish jinoyatiga o'xshash ta'riflar berilgan.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2023. – 16-b.
2. Рустамбаев М.Х. Преступления против личности. – Т.: Эльдинур, 1998. – С. 10.
3. Люблинский П.И. Преступления в области половых отношений. – М., – Л.: 1985. – С. 13–15.; 21.
4. Игнатов А.Н. Ответственность за преступления против нравственности (половые преступления). – М.: "Юридическая литература", 1966. – С. 12.
5. Фойницкий И.Я. Курс уголовного права. Часть особенная. – П., 1916. – С. 133.
6. Пионтковский А.А. Преступления против личности. – М.: Юридиздат, 1938. – С. 90.
7. Сущенко Ю.К. Ответственность за половые преступления. Канд. дисс. - Саратов: 1967. - С. 24.
8. Осипов П.П. Половые преступления (общее понятие, социальная сущность и система составов). Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Л., 1967. – С. 15–16.
9. Мукажанов А. Понятие и объект изнасилования // Сборник материалов научно-практической конференции. – Алматы: ТОО "Баспа", 2001. – 30–32-с.
10. Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi (Maxsus qism): Darslik. – T.: "O'qituvchi", 2003. – 108-b.
11. Конспект лекций по уголовному праву Республики Казахстан (Особенная часть): Практическое пособие. – Алматы: ТОО "Издательство "Норма-К", 2004. – 14-с.
12. Словарь русского языка. 1-том. – М., 1985. – С. 649; Российская криминологическая энциклопедия. – М., 2000. – С. 218.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild. – T.: Ozbekiston nashriyoti, 2020. – 167–168-b.
14. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/19/crime-stats-uzbekistan/>
15. Кони А.Ф. Обвинительная речь по делу об убийстве коллежского асессора Чихачева. Собр. соч. 1966. – С. 284.
16. Блиндер Б.А. Уголовно-правовая охрана свободы и достоинства женщины. – Т.: ТашГУ, 1971. – С. 3.
17. Старович З. Судебная сексология. – М.: Юридическая литература, 1991. – С. 86–88.
18. Уголовный кодекс Республики Казахстан. – Алматы: ЮРИСТ, 1999. – 45-с.
19. Уголовный Кодекс Республики Таджикистан. Официальный текст. – Душанбе: "Қонуният", 1998. – 258–259-б.
20. Уголовный кодекс Испании / Под ред. и с предисловием проф. Н.Ф. Кузнецовой и проф. Ф.М. Решетникова. – М.: Издательство ЗЕРЦАЛО, 1998. – 61-с.
21. Уголовный кодекс Франции / Науч. редактирование канд. юрид. наук, доц. Л.В. Голова, канд. юрид. наук, доц. Н. Е. Крыловой; перевод с французского и предисловие канд. юрид. наук, доц. Н.Е. Крыловой. – СПб.: Издательство "Юридический центр Пресс", 2002. – 197-с.
22. Уголовный кодекс Китайской Народной Республики / Под ред. проф. А.И. Корбоева, пер. с китайского Д.В. Вичикова. – СПб.: Издательство "Юридический центр Пресс", 2001. – 160-с.
23. Уголовный кодекс Латвийской Республики / Науч. ред. и вступ. статья канд. юрид. наук А.И. Лукашова и канд. юрид. наук Э.А. Саркисовой; пер. с латышского канд. юрид. наук А.И. Лукашова. – СПб.: Издательство "Юридический центр Пресс", 2001. – 172-с.
24. Уголовный кодекс Эстонской Республики / Науч. ред. и пер. с эстонского В.В. Запелалова; вступ. статья доцент СПбГУ Н.И. Мацнева – СПб.: Издательство "Юридический центр Пресс", 2001. – 113-с.
25. Уголовный кодекс Федеративной Республики Германии / Науч. ред. и вступ. статья проф. Д.А. Шестакова; предисловие доктора права Г.-Г. Йешека; перевод с немецкого Н.С. Рачковой. – СПб.: Издательство "Юридический центр Пресс", 2003. – 325–332-с.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga asoslanib, "jinsiy zo'rlikka tibbiyot nuqtai nazaridan, tabiiy yoki notabiiy shakllarda yuz beradigan, jabrlanuvchiga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatilishi, majbur qilinishi natijasida yoki zo'rlik ishlatmasdan, biroq jabrlanuvchining ojiz holdaligidan foydalanib, ya'ni jabrlanuvchi yuz berayotgan hodisaga o'zining haqiqiy munosabatini ifodalay olmaydigan sharoitlarda sodir etiladigan jinsiy aloqa", deb ta'rif berish mumkin.

YURIDIK PSIXOLOGIYA VA KRIMINALOGIYA FANLARINING O'ZARO ALOQADORLIGI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI



Maxmudov Rozmet Muratovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, pedagogika fanlari doktori, professor



Qoraboyev Abdulaziz Abduraxmonovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuridik psixologiya va kriminologiya fanlarining o'zaro aloqadorligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqola 2026-yilgacha bo'lgan prognozlar bilan ta'minlanib, huquqni muhofaza qilish tizimida psixologik-kriminologik integratsiyani takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan. Tadqiqot natijalari huquqiy ta'lim va amaliyot uchun dolzarb bo'lib, ilmiy yangilik sifatida yuridik psixologiyaning raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: yuridik psixologiya, kriminologiya, shaxs psixologiyasi, jinoyatchilik psixologiyasi, huquqiy integratsiya, psixologik ekspertiza, ilmiy yangiliklar.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ взаимосвязи юридической психологии и криминологии. Представлены прогнозы до 2026 года и предложены рекомендации по улучшению интеграции психологии и криминологии в правоохранительной системе. Результаты исследования актуальны для юридического образования и практики, а интеграция юридической психологии с цифровыми технологиями предлагается в качестве научной инновации.

Ключевые слова: юридическая психология, криминология, психология личности, криминальная психология, интеграция в юриспруденции, психологическая экспертиза, научные новости.

Abstract: This article scientifically analyzes the interrelationship of legal psychology and criminology. The article is provided with forecasts until 2026 and offers suggestions for improving psychological-criminological integration in the law enforcement system. The results of the study are relevant for legal education and practice, and the integration of legal psychology with digital technologies is proposed as a scientific innovation.

Keywords: legal psychology, criminology, personality psychology, criminal psychology, legal integration, psychological examination, scientific news.

Yuridik psixologiya va kriminologiya fanlari inson xulq-atvori va jamiyatdagi huquqiy munosabatlarning murakkab o'zaro ta'sirini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Inson shaxs sifatida shakllanishi, o'z "men"ini anglashi va ruhiy olamidagi o'zgarishlar psixologiya fanining asosini tashkil etsa-da, bu jarayon huquqiy normalar bilan chambarchas bog'liqdir.

XIX asrda falsafadan ajralib chiqqan psixologiya bugungi kunda Yangi O'zbekiston tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Kriminologiya esa jinoyatchilikning ijtimoiy sabablarini o'rganib, yuridik psixologiyaga amaliy yordam beradi. Yuridik psixologiya huquqiy jarayonlarda shaxsiy psixologik omillarni, masalan, motivatsiya, emotsional holat va kognitiv jarayonlarni tahlil qilish orqali kriminologiya fanini boyitadi, bu esa jinoyatlarning kelib chiqishini psixologik sabablarini aniqlashga yaqindan yordam beradi. Ushbu yo'nalishda tadqiqotlar olib borgan H.T. Maxmudovning fikriga ko'ra, so'nggi yillarda yuridik psixologiyaning ahamiyati, xususan, tergov faoliyati, terrorizmning oldini olish, kriminologiya va sud psixologiyasi sohalarida oshib bormoqda [1; 87–91-b.]. Olima ilmiy yangilik sifatida O'zbekiston huquqiy tizimida psixologik ekspertizaning zamonaviy turlarini rivojlantirishni taklif etadi, chunki raqamli texnologiyalar (masalan, SI orqali psixologik profil yaratish) ta'sirida jinoyatchilikning kibernexanizmlari psixologik-kriminologik integratsiyani talab etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi yuridik psixologiya va kriminologiyaning o'zaro aloqadorligini o'zbekistonlik va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari asosida tahlil qilish, ularning integratsiyasini hozirgi davr uchun baholashdir. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, taqqoslash va ilmiy iqtiboslar qo'llanilgan. Dolzarbligi shundaki, O'zbekistonda huquq-tartibot tizimining modernizatsiyasi fonida psixologik-kriminologik yondashuv jinoyatchilikning oldini olishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kuchaytirishni nazarda tutgan bo'lib, bu psixologik yondashuvlarni integratsiya qilishga asos yaratadi [2].

Yuridik psixologiya – psixologiya va huquqshunoslikning tutashgan sohasi bo'lib, huquqiy jarayonlarda shaxs xulq-atvori, psixologik holatlari va motivlarini o'rganadi [3; 45–50-b.]. U ikki qismdan iborat: umumiy qismda fanning predmeti, metodologik asoslari, rivojlanish tarixi, tadqiqot usullari hamda boshqa fanlar bilan aloqasi o'rganiladi; maxsus qismda esa huquqiy munosabatlar jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning – qonunga itoatkor shaxslar, kriminogen yo'nalishdagi shaxslar, tergovchi, gumonlanuvchi, guvoh va jabrlanuvchilarning psixologik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Falsafa bu fanning metodologik asosi bo'lib, psixika tabiati, uning darajalari, inson va shaxs konsepsiyasi kabi fundamental masalalarni ilmiy jihatdan yoritadi. Shu nuqtai nazardan yuridik psixologiya, avvalo, psixologiya va huquqshunoslik fanlarining o'zaro integratsiyasi asosida rivojlanadi hamda shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etadi. Masalan, yuridik psixologiya usullari turli ilmiy bilimlar tizimida, jumladan tabiiy-ilmiy va huquqiy asoslarga tayanadi, bu esa uning nazariy poydevorini mustahkamlaydi.

Kriminologiya esa jinoyatchilikning ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik sabablarini o'rganib, jinoyatlarning oldini olish va baholash usullarini ishlab chiqadi [4; 12–20-b.]. I.I. Raximova o'z tadqiqotida yuridik psixologiyani "inson-huquq" tizimining psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi amaliy fan sifatida ta'riflaydi [3]. Uning bu fikri hozirgi O'zbekiston huquqiy tizimida dolzarb, chunki mustaqillik yillarida ijtimoiy o'zgarishlar psixologik omillarni kuchaytirdi. 2026-yilga kelib, raqamli texnologiyalar ta'sirida bu yondashuv yanada takomillashdi, chunki jinoyatchilikning kibernexanizmlari psixologik-kriminologik integratsiyani talab etadi. Bundan tashqari, V.A.Serebryakova va D.A.Shestakovning ishlari O'zbekistonda qo'llanilishi mumkin, chunki ular kriminologiyada psixologik omillarni tahlil qilishning universal modellarini taklif etadi [5; 320 b].

Shu bilan birga, Z.S.Zaripov kriminologiya darsligida psixologiya va pedagogika fanlarining kriminologik ahamiyatini ta'kidlab, jinoyatchilik sabablarini o'rganishda psixologik tavsiyalarni alohida e'tiborga oladi [6]. Bu fikr ilmiy yangilik sifatida qimmatli, chunki u O'zbekiston huquqiy ta'limida integratsiyani kuchaytirishni taklif etadi. Fikrimizcha, bu yondashuv raqamli darsliklar orqali

amalga oshirilishi mumkin, bu esa yosh mutaxassislarning psixologik-kriminologik tayyorgarligini oshiradi.

Shaxs psixologiyasi ham yuridik psixologiya bilan bevosita bog'liq bo'lib, shaxs muammosi mazkur fanning markaziy masalasi hisoblanadi. "Inson-huquq" tizimida ijtimoiy munosabatlar huquqiy ongini shakllantiradi [7; 67–75-b]. Kriminologiyada esa bu jinoyatchi shaxs psixologiyasini o'rganish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, yuridik psixologiyaning dolzarb vazifalari va predmeti sifatida huquqiy jarayonlarda psixologik holatlarni baholashni o'z ichiga oladi, bu esa kriminologiyaga nazariy asos beradi.

M.O. Yoqubjonov tergov psixologiyasining jinoyat tergovdagi ahamiyatini ta'kidlab, "Tergov psixologiyasi jinoiy xatti-harakatlarni tergov qilishda psixologik tadqiqotlar va tamoyillarni qo'llash", degan fikrni ilgari suradi [8; 59-62-b.]. Bu fikrga munosabatimiz ijobiy, chunki u ilmiy yangilik sifatida O'zbekistonda tergov psixologiyasining rivojlanmaganligini ko'rsatib, xalqaro tajribani (masalan, AQSH va Buyuk Britaniya) qo'llashni taklif etadi. Bizning fikrimizcha, bu integratsiya kelajakda jinoyatchilik statistikasini kamaytirishi mumkin, chunki psixologik profil yaratish jinoyat motivlarini aniqlaydi.

Yuridik psixologiya kriminologiya, jinoyat huquqi, jinoyat protsessi, jazoni ijro etish huquqi, tezkor-qidiruv huquqi va kriminalistika bilan uzviy bog'liq. Jinoyatlarni fosh etish psixologik va kriminologik bilimlarni talab etadi. G.A. Normurodov yuridik tashkilotlarda psixologik xizmat ko'rsatish mexanizmlarini tahlil qilib, ularni kriminologik oldini olishga bog'laydi [4; 12–20-b.]. Bu fikr hozirgi kunda juda muhim, chunki psixologik tayyorgarlik jinoyatchilikni kamaytirishda katta ahamiyatga ega. Bugungi kunga kelib, oxirgi yillarda sodir bo'lgan pandemiya va iqtisodiy inqirozlar ta'sirida stress omillari ortishi bilan bu mexanizmlar raqamli platformalarda (masalan, virtual ekspertiza) qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, psixologik yordam ko'rsatishning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda, bu esa jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda psixologik ekspertizani kuchaytiradi.

Sud-psixologik ekspertiza jarayonida psixologik testlar orqali jinoyat motivlari aniqlanadi, bu kriminologiyaga empirik ma'lumotlar beradi.

Zamonaviy yuridik psixologiya ko'p tarmoqli bo'lib, sud psixologiyasi, kriminal psixologiya, jinoyatchi shaxs psixologiyasi, tergovchi, sudya va advokat shaxsi psixologiyasi hamda sud-psixologik ekspertiza kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. O'zbekiston Qurolli Kuchlari va huquq-tartibot organlarida psixologik bilimlar kasbiy samaradorlikni oshiradi. Masalan, harbiy xizmatchilarning ruhiy holati kriminologik oldini olishda muhim. Shu bilan birga, yuridik psixologiya inson xulqining huquqiy jihatlarni tahlil qilish orqali kriminologiyaga amaliy qo'llanmalar beradi, masalan, jinoyat motivlarini psixologik testlar orqali aniqlash.

R.X. Dushanov va Yo.A. Farfiyev tergovchi psixologiyasini kriminologik faoliyat bilan bog'lab, «psixologiya tabiatan muloqotda mavjud, tergov jarayonlarida psixologiyani qo'llash va to'g'ri foydalanish zarur» deb yozadi [9; 322-b.]. Bu fikr ilmiy yangilik sifatida qimmatli, chunki u psixologik tayyorgarlikni kuchaytirishni taklif etadi. Bizningcha, bu yondashuv virtual realistik mashqlari orqali takomillashishi mumkin, chunki global inqirozlar ruhiy chidamlilikni talab etadi, bu esa empirik tadqiqotlarni oshiradi.

Tafakkur jarayoni – tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan hodisalarning shaxs ongidagi in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. Nazariy bilish tafakkurga asoslanadi va u sezish hamda idrok qilish jarayonlaridan boshlanadi. Analiz, sintez va umumlashtirish tafakkurning muhim shakllari bo'lib, yuridik psixologiyada nazariy bilishni ta'minlaydi. D.O. Ahmedova psixologik yordamning huquqiy asoslarini o'rganib, ularni kriminologiyaga integratsiya qilishni taklif etadi [7]. Bu fikrga ham munosabatimiz ijobiy, chunki oxirgi yillarda O'zbekistonda kriminologik tadqiqotlarga e'tibor kuchaymoqda.

Bugungi kunga kelib, globalizatsiya va migratsiya ta'sirida transmilliy jinoyatchilik ortishi bilan bu integratsiya xalqaro standartlarga moslashtirilishi zarur, masalan, NATO tajribasi orqali. Bundan tashqari, yuridik psixologiya fanining predmeti va o'rganish usullari kriminologiyada jinoyatchilikni psixologik jihatdan baholashga yordam beradi.

Ilmiy mezonlar asosida amaliy ma'lumotlarni tizimlashtirish yuridik psixologiyaning vazifasidir. O'zbekistonda oliy ta'limda bu fan huquqshunos

talabalar uchun o'qitiladi, bu kriminologiyani boyitadi [10]. Shu bilan birga, zamonaviy muammolar orasida empirik tadqiqotlarning kamligi va raqamli texnologiyalarning ta'siri mavjud, bu esa SI vositalari orqali hal etilishi mumkin. David Canter tergov psixologiyasini "jinoiy xatti-harakatlarni tergov qilishda psixologik tadqiqotlar va tamoyillarni qo'llash" deb ta'riflaydi [11]. Bu fikr dolzarb, chunki u O'zbekiston tergov amaliyotida psixologik usullarni joriy etishni taklif etadi. Bu yondashuv kriminologik profil yaratishda SI integratsiyasi orqali takomillashishi mumkin, chunki bu jinoyat motivlarini aniqroq baholaydi va empirik ma'lumotlarni boyitadi.

Yuridik psixologiya va kriminologiyaning o'zaro aloqasi O'zbekiston ilmiy maktablarida yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, muammolar mavjud. I.I.Raximovning fikriga ko'ra, psixologik xususiyatlar huquqiy jarayonlarda adolatni ta'minlaydi, lekin empirik tadqiqotlar kam. Sun'iy intellekt va big data ta'sirida psixologik profil yaratish kriminologiyani takomillashtiradi, lekin etik muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, yuridik psixologiya fan dasturida ta'kidlanganidek, ushbu integratsiya huquqiy ta'lim muassasalarida kengaytirilishi zarur.

G.A.Normurodov psixologik xizmatni kriminologik mexanizm sifatida ko'radi, bu hozirgi tizimda samarali. Bu yondashuv kelajakda virtual realistik orqali mashqlar bilan kuchaytirilishi mumkin, chunki global inqirozlar ruhiy chidamlilikni talab etadi. Shu bilan birga, xalqaro tajribani hisobga olgan holda, masalan, Serebryakovaning ishlari O'zbekiston Respublikasida qo'llanilishi mumkin, bu esa muammolarni hal etishga yordam beradi.

D.O. Ahmedova psixologik yordamni huquqiy asoslarga bog'laydi, bu fikr dolzarb, lekin integratsiya yetarli emas. Bu xalqaro hamkorlik, BMT standartlari orqali hal etiladi. M.X. Rustambayev adolatni qonun amaliyoti bilan bog'laydi, bu klassik fikr, biroq bugungi kun va kelajak uchun ham to'g'ri keladi, chunki milliy qadriyatlar psixologik-kriminologik tizimni mustahkamlaydi [10]. Bundan tashqari, yuridik psixologiyaning dolzarb vazifalari sifatida jinoyatchilikni psixologik oldini olish muhokama qilinadi, bu esa kriminologiyaga yangi yondashuvlarni taklif etadi.

H.T.Maxmudova tergov psixologiyasi muammolarini tahlil qilar ekan, «agar tergov amaliyotimizni tergov psixologiyasi bilan bog'lamasak, unga sarmoya kiritmasak, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanmasak, tergov harakatlari «haqiqatni aniqlash»da adolat va halollik asosida qurilgan deb ishonch bilan aytishga asos va huquqimiz yo'q» deb yozadi [8; 59–62-b.]. Bu fikr dolzarb, chunki u O'zbekistonda yuridik psixologiya nazariy fan holatda qolib ketayotganligini anglatadi. Bizningcha, bu muammoni hal etish uchun huquqiy ta'limda maxsus dasturlarni joriy etish zarur, bu esa jinoyatchilikning psixologik oldini olishni kuchaytiradi.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib, quyidagilar taklif etiladi:

1. O'zbekiston huquq-tartibot organlarida psixologik-kriminologik markazlar tashkil etish hamda SI vositalari va dasturlari bilan ta'minlash.

2. Oliy ta'limda yuridik psixologiya va kriminologiyaning integratsiyalashgan darsligini ishlab chiqish.

3. Sud-psixologik ekspertizani xalqaro tajriba (NATO, Rossiya) asosida raqamli platformalarda standartlashtirish.

4. Huquqni muhofaza qilish organlari tizimida psixologik tayyorgarlik dasturlarini kengaytirish, stress boshqaruvi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish.

5. Tergov psixologiyasini huquqiy kodekslarga kiritish, masalan, voyaga yetmaganlar tergovida psixolog ishtirokini majburiy qilish.

6. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, misol uchun, David Canter usullarini O'zbekistonga moslashtirish.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yuridik psixologiya va kriminologiya fanlarini o'zaro aloqasi huquqiy adolatni ta'minlashda muhimdir. O'zbekistonlik olimlarning ishlarida bu integratsiya nazariy va amaliy jihatdan isbotlashga harakat qilingan. Hozirgi davrda dolzarb bo'lgan bu yondashuv texnologik innovatsiyalar bilan yanada rivojlanadi. Bundan tashqari, ushbu integratsiya O'zbekiston huquqiy tizimining modernizatsiyasiga hissa qo'shadi, chunki psixologik omillar jinoyatchilikning oldini olishda markaziy o'rin tutadi. Ilmiy yangilik sifatida, bu fanlarning birlashuvi raqamlashtirish davrda yangi paradigmani yaratadi.

Foydalanilgan manbalar

1. Makhmudova H.T. Actual issues of training legal psychologists in Uzbekistan. Science and Innovation International Scientific Journal, 2023. – B. 87-91. <http://scientists.uz/uploads/202305/B-19.pdf>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 15.01.2024 yildagi PQ-22-son "Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2024. <https://lex.uz/docs/-6755253>
3. Raximova I.I. Yuridik psixologiya. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2023. – B. 45-50. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/67>
4. Normurodov G.A. Yuridik tashkilotlarga psixologik xizmat ko'rsatishning psixologik mexanizmlari. Inter Science Journal, 2023. – B. 12-20. <https://interscience.uz/index.php/home/article/download/3519/3266/8572>
5. Serebryakova V.A. Kriminologiya. Moskva: Yurist, 2021. – 320 b.
6. Zaripov Z.S. Kriminologiya. Prof. Z.S. Zaripovning um. tahriri ostida. Darslik. 2014. <https://www.yumpu.com/xx/document/view/40031163/kriminologiya-prof-zs-zaripovning-um-tahriri-ostida-darslik>
7. Ahmedova D.O. Beyond Rescue: Integrative Psychological, Legal, and Social Approaches to Supporting Survivors of Sexual Violence in Uzbekistan. Qubahan Journal, 2023. – B. 67-75. <https://journal.qubahan.com/index.php/qaj/article/view/2135>
8. Yoqubjonov M.O. The Relevance and Problems of Psychology in the Investigation of Crimes. International Journal of Law and Criminology, 2025. – B. 59-62.
9. Dushanov R.X., Farfiyev Y.A. Kasbiy psixologiya: Ma'ruzalar kursi. T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 322 b.
10. Рустамбаев М.Х. Справедливость – в неуклонной реализации буквы закона. Ташкент: ЦентрАзия, 2004. <https://centrasia.org/newsA.php?st=108575952>
11. Canter D. Beyond 'Offender Profiling': The Need for an Investigative Psychology. Carson/Psychology in Legal Contexts, John Wiley & Sons, Ltd, 2003.



MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA DASTLABKI HIMOYA INSTITUTI: PROTSESSUAL-HUQUQIY INSTITUT SIFATIDA



Ismoilov Nasriddin To'ychiyevich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Maqolada ma'muriy sud ishlarini yuritishda dastlabki himoya institutining huquqiy ahamiyati va zarurati yoritilgan. 2017-yildan boshlab O'zbekistonda joriy etilgan ma'muriy sudlar va ma'muriy yustitsiya sohasidagi islohotlar to'g'risida so'z boradi. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning rivojlanishi va dastlabki himoya choralarining ma'muriy ish yuritishdagi o'rni, ularning turlari va sud amaliyotida qo'llanishi hamda zamonaviy talablarga moslashtirish masalalari muhokama qilinadi. Maqolada shunga qo'shimcha ravishda, qonunchilik va sud amaliyotidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari ham ko'rsatilgan.


Kalit so'zlar: dastlabki himoya, ma'muriy yustitsiya, sud amaliyoti, administrativny protsess, himoya choralari, sud kontrolining obyektlari.

Аннотация. В статье рассматривается правовое значение и необходимость института предварительной защиты в административном судопроизводстве. Обсуждаются реформы в сфере административных судов и административного правосудия, проведенные в Узбекистане с 2017 года. Рассматривается разработка Кодекса об административном судопроизводстве и роль мер предварительной защиты в административном судопроизводстве, их виды и применение в судебной практике, а также их адаптация к современным требованиям. Кроме того, в статье указываются недостатки законодательства и судебной практики и пути их устранения.

Ключевые слова: предварительная защита, административное правосудие, судебная практика, административный процесс, защитные меры, объекты судебного контроля.

Abstract. This article examines the legal significance and necessity of the institution of preliminary protection in administrative proceedings. It also discusses reforms in administrative courts and administrative justice implemented in Uzbekistan since 2017. It examines the development of the Code of Administrative Procedure and the role of preliminary protection measures in administrative proceedings, their types and application in judicial practice, and their adaptation to modern requirements. Furthermore, the article identifies shortcomings in legislation and judicial practice and ways to address them.

Keywords: preliminary protection, administrative justice, judicial practice, administrative process, protective measures, objects of judicial review.



Ma'lumki, huquqiy demokratik davlatda sud nazorati shakllaridan biri ma'muriy organlarning noqonuniy aktlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan sud himoyasi bo'lib, inson huquqlarini himoya qilishning samarali vositalaridan biri sanaladi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan mamlakatimiz tarixida ilk marotaba ma'muriy sudlar tashkil qilinganligi fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunga xilof qarorlari, harakatlari ustidan sudga shikoyat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi [1]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu sohadagi islohotlar asosini tashkil etuvchi qonunchilikda ilg'or xorijiy modellar haqida aniq qoida belgilanmagan bo'lsa-da, tor doiradagi ilmiy jamoatchilik tomonidan dastlabki ma'muriy yustitsiya sohasidagi islohotlar negizini Germaniya modeli tashkil qilishi, ushbu modelning afzalliklari ilmiy chiqishlarda keng yoritila boshladi [2]. Germaniya modeliga asoslangan ma'muriy sud islohoti texnik jihatdan 2017–2021-yillar oralig'ida amalga oshirildi: ma'muriy sudlar 2017-yilda tashkil etildi, keyin 2021-yilga kelib Germaniya modeliga muvofiq isloh qilindi va 2018-yilda Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks qabul qilindi.

Biroq, darhol yangi tashkil etilgan ma'muriy sudlar hali ham o'zlarining asosiy vazifasi – ma'muriy organlar tomonidan hukumat qarorlari va harakatlarning qonuniyligi ishonchli nazorat qilinishini ta'minlashni bajara olmaganliklari ma'lum bo'ldi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda ma'muriy yustitsiya milliy modelining natijador rivojlanishi 2018-yil 25-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks tasdiqlanishi bilan yakunlandi, desak to'g'ri bo'ladi [3]. 2018-yil 1-apreldan boshlab ushbu Kodeksning amalga kiritilishi ma'muriy sudlarning protsessual faoliyatini tartibga solishning muhim huquqiy asosi bo'ldi.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksni yurtimiz tarixida ma'muriy sud ishlarini

yuritish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi barcha protsessual qoidalarni o'z ichiga olgan birinchi kodifikatsiyalashgan normativ-huquqiy hujjat deb e'tirof etish mumkin. Kodeksda ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, fuqarolar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning (huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida qonuniyligni mustahkamlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olishga ko'maklashish, qonunga va sudga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirish ma'muriy sud ishlarini yuritish vazifalari etib belgilandi.

Bir so'z bilan aytganda, Kodeksning qoidalari o'rganish nafaqat nazariy tushunchalarga, balki ma'muriy ish yuritish amaliyotiga asoslangan yangi yondashuvlarni shakllantirish zaruratini yaratmoqda.

Aytish joizki, o'tgan yillar davomida, sud amaliyoti taqozo etgan holatlarni inobatga olgan holda, ushbu Kodeksga bir qator muhim o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, ma'muriy sudlar tomonidan hal etiladigan ishlar doirasi kengaytirildi. Ya'ni ma'muriy sudlar investitsiya nizolari bo'yicha, raqobat to'g'risidagi, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo'yicha undirish so'zsiz tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjati yoki boshqa hujjat ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi ishlarni hal etishi belgilandi. Shuningdek, kelishuv bitimi tuzish instituti amalda joriy etildi.

Bugungi kunda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari himoyasi kafolatlarini yanada oshirish, o'z navbatida, bu borada xalqaro huquq va amaliyotlardan keng foydalanishni taqozo etmoqda.

Ma'muriy ish yuritish tizimi nisbatan yangiligiga qaramay, amalda ushbu sohadagi qonun hujjatlarining kamchiliklari va ma'muriy ish yuritishning asosiy qoidalarning nazariy jihatdan mukammal ishlab chiqilmaganligi bilan bog'liq muammolar mavjud. Qonunchilik, nazariya va amaliyot muammolarga ma'muriy sud ishlarini

yuritishda dastlab himoya instituti uning mazmuni, sud amaliyotida qo'llash mexanizmini takomillashtirish muammolari bilan bog'liq masalalarni ko'rsatish mumkin.

Shu bilan birga, tahlillarimiz asosida qayd etishimiz lozimki, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks ham jiddiy kamchiliklar bilan qabul qilindi. *Birinchi*dan, u hatto asosiy tushunchalar va tamoyillarda ham O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonuni bilan uyg'unlashtirilmagan [4]. Shuni aytish yetarliki, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksda hali ham ma'muriy sudlarning sud nazoratini eng asosiy obyektlari hisoblangan "ma'muriy hujjat" va "ma'muriy harakatlar" tushunchalari o'z ifodasini topmagan, shuningdek, zamonaviy ma'muriy huquq va "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunning qo'llanilish doirasini belgilaydigan "ma'muriy-huquqiy faoliyat" tushunchasi ham qo'llanilmaydi.

*Ikkinchi*dan, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning dastlabki tahririda tortishuv prinsipi mustahkamlanib, sudning sud jarayonlarida faol rol o'ynashini nazarda tutuvchi holatlarni tekshirish prinsipi o'rnini egalladi, bu ma'muriy protsessni fuqarolik protsessidan tubdan ajratib turadi.

*Uchinchi*dan, ma'muriy yurisdiksiya mustahkamlanmadi, chunki 2005-yilda joriy etilgan sudlar orqali huquqiy ta'sir choralarni va boshqa ayrim salbiy choralarni qo'llash tartibi ko'plab ommaviy-huquqiy nizolarning iqtisodiy va fuqarolik sudlarining yurisdiksiyasiga o'tishiga olib keldi.

2023-yil aprel oyida Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga muhim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi: tortishuv prinsipi "sudning faol ishtiroki" prinsipi yoki ma'muriy ish yuritishga xos bo'lgan inkvizitsion (tekshiruv) prinsipi bilan almashtirildi, kelishuv bitimi joriy etildi, sud qarori ijro etilmagan taqdirda ma'muriy sudning ma'muriy organlar va boshqa davlat organlari mansabdor shaxslariga jarima solish vakolatlari belgilandi [5]. Ushbu o'zgartirishlar ma'muriy sudni ma'muriy yustitsiyaning zamonaviy doktrinal standartlariga yaqinlashtirdi.

Ma'muriy ish yuritishda dastlabki himoya instituti, ma'muriy ish yuritish tizimidagi alohida protsessual-huquqiy institut sifatida, shubhasiz,

ma'muriy ish yuritish mazmuni va maqsadi haqidagi umumiy tushunchalarning shakllanishiga, umuman olganda, ma'muriy yustitsiya institutiga qarab, uning paydo bo'lishi, bosqichma-bosqich shakllanishi, rivojlanishi va modernizatsiya qilinishi uchun turtki bo'ldi. Ma'muriy da'vo bo'yicha dastlabki himoyani ma'muriy ishlar, ya'ni "kelib chiqishi" ma'muriy va boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlarni amalga oshirish sohasida yuzaga kelgan ma'muriy-huquqiy nizolarni hal qilish tartibini belgilovchi qonunchilik doirasidan tashqarida tasavvur qilish qiyin. Ma'muriy da'voda dastlabki himoya institutining paydo bo'lishi ma'muriy yustitsiya tizimini tashkil etish va faoliyat yuritish sohasidagi maxsus huquqiy munosabatlar bilan oldindan belgilanadi deb taxmin qilish mumkin [6]. Boshqacha qilib aytganda, davlat organining ma'muriy hujjati yoki mansabdor shaxsning harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish (shikoyat qilish) tartibining o'zi shikoyat bergan shaxsning sudga o'z da'volarini ta'minlash to'g'risidagi iltimosnomalarini va ish bo'yicha qabul qilingan qarorning kelajakda ijro etilishini kafolatlash zaruratini o'z ichiga olgan. Ma'lumki, da'volarni qanoatlantirishning amalida mumkin emasligi ko'pincha da'voni ta'minlash imkoniyatidan to'g'ri foydalanilmagan mavjud protsessual va huquqiy vaziyatga bevosita bog'liq.

Shu munosabat bilan, bir tomondan, ma'muriy yustitsiya bo'yicha ilmiy qarashlarning rivojlanishi va ma'muriy da'volar bo'yicha dastlabki himoyaning o'rnini aniqlash haqida, ikkinchi tomondan, ma'muriy ishlarni yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlarida dastlabki himoya choralari tushunchasi va turlari hamda ularni qabul qilish yoki bekor qilish bo'yicha sud protseduralarini shakllantirish haqida mulohaza yuritish o'rinli.

Ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida shakllangan ma'muriy-huquqiy rejimlar ma'muriy va boshqa ommaviy nizolarni hal qilish maqsadida ma'muriy-protsessual munosabatlarni amaliy vujudga keltirish uchun keyinchalik muayyan sharoitlarni rivojlanishi va omillarning paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Shubhasiz, bu yerda ma'muriy-protsessual shaklning mazmunini tashkil etuvchi ma'muriy protsedura qoidalari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ma'muriy da'voda dastlabki sudlov himoyasi institutining paydo bo'lishiga, nafaqat yangi protsessual qonunni qabul qilish nuqtai nazaridan, balki O'zbekiston ma'muriy huquqi doktrinasining o'zgarishi, uni modernizatsiya qilinishi (barcha huquqiy va protsessual-huquqiy institutlari bilan) nuqtai nazaridan ham qarash kerakligi ayon bo'ladi. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks sud hokimiyatini o'zini mos tarzda isloh qilinishiga ko'maklashadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ma'muriy sud ishlarini yuritish, shubhasiz, mamlakatda ommaviy boshqaruvi samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.

Yuqorida qayd etganimizdek, ma'muriy sud ishlarini yuritishda dastlabki himoya choralarni qo'llash asoslari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra, ma'muriy ish bo'yicha hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar arizachining yoki manfaatida ariza berilgan shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishining aniq xavfi mavjud bo'lsa, shuningdek, arizachining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini bunday choralari ko'rmasdan turib, himoya qilish mumkin bo'lmasa yoki qiyin bo'lsa, ishda ishtirok etuvchi shaxsning arizasiga ko'ra sud tomonidan dastlabki himoya choralari ko'rilishi mumkin.

Bundan tashqari, ma'muriy organning, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining va ular mansabdor shaxslarining qonunchilikka muvofiq bo'lmagan hamda fuqarolarning yoki yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi talabni ko'rib chiqishda sud arizachining arizasiga ko'ra dastlabki himoya choralarni ko'rish shartligi belgilangan.

Dastlabki himoya choralarni ko'rishga ma'muriy sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida yo'l qo'yiladi.

Javobgarga muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqiqlash, boshqa shaxslarga nizo predmetiga taalluqli bo'lgan muayyan harakatlarni amalga oshirishni taqiqlash, mol-mulkni realizatsiya qilishni to'xtatib turish, ma'muriy organning, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining nizolashilayotgan hujjati ijrosini to'liq yoki qisman

to'xtatib turish va javobgarning mol-mulkini yoki pul mablag'larini xatlash kabilar dastlabki himoya choralari sifatida qo'llaniladi. Sud tomonidan bir vaqtning o'zida bir nechta dastlabki himoya choralari ko'rilishi mumkin.

Dastlabki himoya choralari arz qilingan talabga mos bo'lishi kerak.

Sudga ariza (shikoyat) bilan bir vaqtda yoki ish yuritish jarayonida ham dastlabki himoya choralarni ko'rish to'g'risidagi ariza berilishi mumkin. Ushbu arizada ariza berilayotgan sudning nomi, taraflarning nomlari, joylashgan yeri yoki yashash joyi, talab predmeti, dastlabki himoya chorasini ko'rish zarurligining asoslantirilganligi, arizachi ko'rishni so'rayotgan dastlabki himoya chorasining turi va ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati ko'rsatilgan bo'lishi talab qilinadi. Ushbu turdagi arizalar arizachi yoki uning vakili tomonidan imzolaniadi. Agar ariza vakil tomonidan imzolangan bo'lsa, arizaga ishonchnoma yoki uning arizani imzolashga bo'lgan vakolatini tasdiqlovchi boshqa hujjat ilova qilinishi lozim.

Sud tomonidan dastlabki himoya choralarni ko'rish to'g'risidagi ariza arizani (shikoyatni) ish yuritishga qabul qilish va ish qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilish jarayonida ishda ishtirok etuvchi shaxslarni ishtirokisiz, ya'ni ularni xabardor qilmasdan ko'rib chiqiladi. Agar bunday ariza sud majlisi vaqtida taqdim etilsa, u shu majlisda ko'rib chiqiladi. Bordi-yu, dastlabki himoya choralarni ko'rish to'g'risidagi ariza ish yuritish jarayonida berilgan bo'lsa, u kelib tushganidan keyingi kundan kechiktirmay ko'rib chiqiladi.

Dastlabki himoya choralarni ko'rish to'g'risidagi arizani ko'rish natijalari bo'yicha ajrim chiqarilib, uning ko'chirma nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuboriladi.

Dastlabki himoya choralarni ko'rish haqidagi yoki dastlabki himoya choralarni ko'rishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Shikoyat berilishi (protest keltirilishi) ajrimning ijrosini to'xtatib qo'yamaydi.

Dastlabki himoya choralarni ko'rish to'g'risida chiqarilgan ajrim darhol ijro qilinadi.

Ushbu qayd etilgan qoidalar ma'muriy sud ishlarini yuritishda dastlabki himoya institutining muayyan darajada protsessual mexanizmlarini belgilab beradi.

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda dastlabki himoya institutiga oid izlanishlar ma'muriy da'volarda dastlabki himoya choralarini tushunchasi, xususiyatlari va huquqiy ahamiyatini shakllantirish, ularning turlarini, shuningdek, ularni tartibga solish va sudda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi [7].

Ma'muriy da'volarda dastlabki himoyani mamlakatimiz ma'muriy protsessual huquqida yangi huquqiy konstruktsiya sifatida tahlil qilish va uning ommaviy-huquqiy mohiyatini namoyish etish, ma'muriy va boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlarni himoya qilish shakli sifatida ma'muriy da'volarda dastlabki himoya choralari maqsadini asoslash, ma'muriy protsessual shaklning majburiy elementi nuqtai nazaridan ma'muriy da'volarda dastlabki himoya choralari o'rganishni talab etadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ma'muriy sud ishlarini yuritishda dastlabki sud himoyasi murakkab protsessual va huquqiy institut bo'lib, uning

paydo bo'lishi va rivojlanishi sud jarayonining umumiy va maxsus muammolarini hal qilish va ma'muriy yustitsiya salohiyatini ro'yobga chiqarish, davlat boshqaruvi organlari (uning mansabdor shaxslari, davlat xizmatchilari) faoliyati ustidan sud nazoratini ta'minlash zarurati bilan bog'liq va mamlakatda to'g'ri davlat boshqaruvini yaratishga va ommaviy-huquqiy munosabatlar sohasida qonun ustuvorligini mustahkamlashga qaratilgan.

Ma'muriy yustitsiya sudlar tomonidan ma'muriy da'volarda dastlabki himoya choralari qo'llashning huquqiy standartini ishlab chiqishda, shuningdek, uning qabul qilinishi, maqbulligi, mutanosibli va ekvivalentligi mezonlarini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynadi. Ma'muriy da'voda dastlabki himoya ma'muriy protsessual huquqdagi yangi huquqiy konstruktsiya bo'lib, maxsus huquqiy mazmunga, aniq maqsadga va sudga murojaat qilish uchun maxsus protsessual huquqiy rejimga ega.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4966-son farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 8-son, 109-m. <https://lex.uz/docs/3121087>.
2. Хамедов И., Цай И. Двадцать лет реформы административного права: проблемы и перспективы // <https://www.gazeta.uz/ru/2025/10/11/administrative-justice-reform/>.
3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 25-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksini tasdiqlash haqida"gi O'RQ-462-son qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018-y., 02/18/MPK/0627-son, <https://lex.uz/docs/3527353>.
4. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonuni // <https://lex.uz/docs/3492199>.
5. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-833-sonli qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son.
6. Панова И.В. Развитие административного судопроизводства и административной юстиции // Право: журн. высш. шк. экономики. –2016. –№ 4. – С. 54–69. // <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-administrativnogo-sudoproizvodstva-i-administrativnoy-yustitsii-v-rossii-1>.
7. Мойса М.А. Применение мер предварительной защиты в административном судопроизводстве: проблемы и перспективы: сборник трудов конференции. // Стратегии устойчивого развития: социальные, экономические и юридические аспекты: Материалы V Всерос. науч.-практ. конф. (Чебоксары, 18 дек. 2024 г.). – Чебоксары: ИД «Среда», 2024. – С. 311-315. – ISBN 978-5-907965-11-9. – DOI 10.31483/r-115491.

MUROJAATLAR HUQUQIY KATEGORIYA SIFATIDA: TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Ollamov Yarash Yo'ldoshevich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, yuridik fanlari nomzodi, dotsent



Murzajanov Shavkatbek Gafurovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada murojaat qilish huquqining huquqiy tabiati, uning demokratik davlat va fuqarolik jamiyatidagi o'rni, murojaatlarning turlari va mazmuni tahlil qilingan. Shuningdek, murojaatlarning huquqiy kategoriya sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari va davlat boshqaruvidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: murojaat, ariza, taklif, shikoyat, inson huquqlari, davlat organlari, demokratiya, huquqiy kategoriya.

Аннотация. В данной статье анализируется правовая природа права на обращение, его место в демократическом государстве и гражданском обществе, виды и содержание обращений. Также освещены особенности обращений как правовой категории и их значение в государственном управлении.

Ключевые слова: обращение, заявление, предложение, жалоба, права человека, государственные органы, демократия, правовая категория.

Abstract. This article analyzes the legal nature of the right to appeal, its place in a democratic state and civil society, the types and content of appeals. It also highlights the specific characteristics of appeals as a legal category and their significance in public administration.

Keywords: application, application, proposal, complaint, human rights, state bodies, democracy, legal category.

Zamonaviy demokratik davlatlarda fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishining eng muhim vositalaridan biri murojaat qilish huquqidir. Murojaatlar nafaqat shaxsiy manfaatlarini himoya qilish mexanizmi, balki davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishning sama-

rali shakli hisoblanadi. 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida murojaat qilish huquqi va uning mazmuni belgilangan bo'lib, unga ko'ra:

har kim bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga,

mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega;

arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart [1].

Ilmiy adabiyotlarda "murojaat" atamasi leksik va huquqni qo'llash amaliyoti nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. "Murojaat" atamasi faqat uning mazmuni aniqlovchi "murojaat qilish" qo'shimcha so'z bilan birgalikda ishlatilishi kerak, degan xulosalar bildirilgan.

Tadqiqotchilarning ilmiy ishlari hamda amaliy ishlanmalarini hisobga olgan holda va normativ-huquqiy hujjatlarning qoidalariga asoslanib, "jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari" atamasining quyidagi ta'rifi ishlab chiqildi:

"Murojaat – bu ko'rib chiqilishi shart bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning muayyan harakati bilan yozma, og'zaki yoki elektron shaklda ifodalangan, ularning huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslariga tegishli shakllarda irodasi ifodalangan hujjat turlaridir" [2].

Shunday qilib, "murojaat" tushunchasi, uning huquqiy mazmuniga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, huquqiy kategoriya sifatida "murojaat" – jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlariga, muassasalariga yoki mansabdor shaxslarga qonunda belgilangan tartibda yo'llangan og'zaki, yozma yoki elektron shakldagi talabi, istagi yoki fikri.

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunga ko'ra, murojaatlar mazmun-mohiyatiga ko'ra uchta asosiy turga bo'linadi:

ariza – huquq va erkinliklarni amalga oshirishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimos;

taklif – davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalar;

shikoyat – buzilgan huquqlarni tiklashni talab qilish [3].

Murojaatlarning huquqiy kategoriya sifatida o'ziga xos xususiyatlari va ularni boshqa huquqiy harakatlardan ajratib turuvchi bir qancha jihatlari mavjud:

1. *Subyektivlik va universallik.* Murojaat qilish huquqi barchaga (fuqarolar, chet el fuqarolari, yuridik shaxslar) tegishli bo'lib, undan foydalanish

uchun qo'shimcha ruxsatnoma talab etilmaydi.

2. *Shartli majburiylik.* Murojaat qabul qilingan paytdan boshlab, davlat organi uchun uni ko'rib chiqish va qonuniy javob berish majburiyati yuzaga keladi.

3. *Shakl erkinligi.* Murojaatlar og'zaki, yozma yoki elektron shaklda (masalan, interaktiv davlat xizmatlari portali yoki virtual qabulxonalar orqali) bo'lishi mumkin.

4. *Bepullik.* Murojaat yo'llash va uning ko'rib chiqilishi uchun fuqarolardan hech qanday to'lov undirilmaydi.

Murojaatlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni shundan iboratki, murojaatlar tizimi davlat va xalq o'rtasidagi "qayta aloqa" (feedback) mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Uning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) *huquqlarni himoya qilish.* Buzilgan huquqlarni sudgacha bo'lgan tartibda tiklash imkonini beradi;

b) *boshqaruvda ishtirok etish.* Fuqarolarning takliflari orqali qonunchilik va ijro hokimiyati faoliyati takomillashadi;

v) *korrupsiyaga qarshi kurash.* Shikoyatlar orqali mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari fosh etiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda murojaatlar bilan ishlash tizimi tubdan yangilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari tashkil etilishi murojaatlarni "huquqiy kategoriya"dan "jonli muloqot" vositasiga aylantirdi. Bu institutlar murojaatlarning nafaqat ko'rib chiqilishini, balki ularning ijobiy hal etilishini nazorat qiluvchi mexanizmga aylandi.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev: "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" [4], degan ezgu g'oya bilan barcha davlat idoralarning faoliyatini aynan fuqarolarning muamolarini eshitish va hal etishga qaratdi.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, murojaatlar huquqiy kategoriya sifatida fuqarolik jamiyatining ajralmas qismidir. U shaxs manfaatlarini va davlat majburiyatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi. Murojaatlarni ko'rib chiqish tartibini yanada soddalashtirish va raqamlashtirish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Huquqshunoslik fanida "murojaat" tushunchasi faqatgina texnik harakat emas, balki shaxs va davlat o'rtasidagi ijtimoiy-huquqiy aloqaning poydevori hisoblanadi. Ushbu atamaning mazmunini to'g'ri anglash uchun nafaqat milliy qonunchilikka, balki mutaxassis olimlarning ilmiy izlanishlariga to'xtalish lozim. "Murojaat" so'zining etimologik va leksik tahlili, tilshunos olimlarning ta'kidlashicha, arabcha «ruju» (qaytish, yuzlanish) so'zidan olingan bo'lib, bir subyektning ikkinchi subyektga nisbatan yo'naltirilgan xatti-harakatini anglatadi.

Agar, ilmiy nuqtayi nazardan yondashsak, o'zbek tilshunosligida ushbu tushuncha nafaqat nutqiy jarayon, balki ijtimoiy munosabatga kirishishning birinchi bosqichi sifatida talqin etiladi.

Huquqshunos olimlar o'z tadqiqotlarida murojaat huquqini tizimli tadqiq etganlar. Xususan, yuridik fanlar doktori, professor X.T. Odilqoriyev o'z tadqiqotlarida murojaatni «demokratik huquqiy davlatning muhim belgisi» sifatida ta'riflaydi. Olimning fikricha, murojaat – bu fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishining institutsional shakli. U murojaatni fuqaro va davlat o'rtasidagi ishonch ko'prigi sifatida baholaydi [5].

Akademik A.X.Saidov Inson huquqlari konsepsiyasi doirasida inson huquqlariga bag'ishlangan asarlarida "murojaat" tushunchasini "himoya mexanizmi" sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, murojaat – shaxsning buzilgan huquqlarini tiklash uchun davlatning majburlor kuchidan qonuniy foydalanish istagidir [6].

Rossiyalik huquqshunos olim N.Yu.Xamaneva murojaatlarning huquqiy tabiatini o'rganib, unga quyidagicha ta'rif beradi: «Murojaat – bu jismoniy shaxsning o'z subyektiv huquqlarini amalga oshirish yoki qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida davlat organlariga yo'llagan iroda ifodasi (voleiz'yavleniye)dir» [7].

V.V. Boysova esa o'z dissertatsiyasida murojaatni davlat apparati ustidan «ombudsman tipidagi nazorat» instrumenti sifatida ko'rsatib o'tgan [8].

Hozirgi davrdagi yangicha yondashuvlar, so'nggi yillarda himoya qilingan dissertatsiyalarda (masalan, ma'muriy huquq bo'yicha ilmiy izlanishlar) murojaatlarga turlicha huquqiy munosabat bildirilmoqda.

Jumladan, murojaatni "yuridik fakt" deb hisoblagan tadqiqotchilar ko'p. Ya'ni, murojaat tushgan vaqtdan boshlab davlat organi va fuqaro o'rtasida "ma'muriy-huquqiy munosabat" vujudga keladi. Bu munosabatda davlat organi endi "istagancha" emas, balki "qonunda belgilangan muddatda va tartibda" harakat qilishga majbur bo'ladi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotchilarning fikrini quyidagicha mujassam qilish mumkin:

1. *Kommunikativlik.* Murojaat – davlat va jamiyat o'rtasidagi axborot almashinuvi.

2. *Protsessuallik.* Murojaat faqat xat emas, balki muayyan yuridik oqibat (ko'rib chiqish, qaror qabul qilish)ni keltirib chiqaruvchi jarayon.

3. *Nazorat funksiyasi.* Murojaat pastki bo'g'in davlat idoralari faoliyatini yuqori organlar tomonidan nazorat qilish uchun "signal" vazifasini o'taydi.

Xulosa qilib aytganda, "murojaat" tushunchasini faqatgina "ariza yozish" deb tushunish kerak emas, balki ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib, uni quyidagi turlariga ajratish mumkin:

- a) siyosiy-huquqiy kategoriya;
- b) inson huquqlarini himoya qilish vositasi;
- v) davlat boshqaruvi samaradorligini baholash mezonini.

"Murojaat" tushunchasiga, huquqiy kategoriya sifatida, uning nazariy asoslari va olimlar tomonidan berilgan klassifikatsiyasiga batafsilroq to'xtalamiz.

Murojaatni kompleks huquqiy kategoriya sifatida ko'rib chiqadigan bo'lsak, huquq nazariyasida murojaatlar shunchaki texnik jarayon emas, balki kompleks (murakkab) huquqiy kategoriya hisoblanadi. U bir vaqtning o'zida bir nechta huquqiy sohalarining kesishuvida turadi:

a) *konstitutsiyaviy huquq sifatida* – insonning davlat ishlarini boshqarishdagi siyosiy huquqi;

b) *ma'muriy huquq sifatida* – davlat organlarining fuqarolar bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi protsessual mexanizm;

v) *inson huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida* – buzilgan huquqlarni tiklashning sudgacha bo'lgan eng samarali usuli.

Masalan, professor X.T. Odilqoriyev murojaatlarni "demokratik boshqaruv instituti" sifatida baholaydi. Uning fikricha, murojaat – bu jamiyat va davlat o'rtasidagi "qayta aloqa" (feedback) bo'lib, u

davlat apparatining jamiyat oldidagi hisobdorligini ta'minlaydi. Shuningdek, murojaatni shunchaki "xat" emas, balki "yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakat" deb ataydi. Uning ta'kidlashicha, murojaat kelib tushgan lahzadan boshlab, davlat organi va fuqaro o'rtasida qat'iy ma'muriy-huquqiy munosabat boshlanadi [5].

N.Yu. Xamaneva yondashuviga ko'ra, murojaat fuqaroning "subyektiv iroda bildirishi"dir. Uning ta'kidlashicha, murojaat yo'llash orqali fuqaro davlat organi zimmasiga uni ko'rib chiqish va qonuniy qaror qabul qilish bo'yicha pozitiv majburiyat yuklaydi [7].

Ushbu mavzuda ilmiy izlanishlar olib borgan S.A. Shirobokov yondashuvi bo'yicha murojaat "axborot-kommunikativ kategoriya"dir. Uning talqiniga ko'ra, murojaatlar – davlat uchun ijtimoiy muammolar haqida ma'lumot olishning eng birinchi manbasi hisoblanadi [9].

Ilmiy doiralarda murojaatlarning huquqiy va quyidagi o'ziga xos belgilari ajratib ko'rsatiladi:

1. *Subyektlarning tengsizligi.* Murojaat munosabatlarida tomonlar (fuqaro va davlat organi) yuridik jihatdan teng emas (hokimiyat bo'ysunuvi mavjud), lekin murojaat huquqi bu tengsizlikni muvozanatga soladi.

2. *Protsessual tartib.* Murojaat har doim qonunda belgilangan qat'iy tartibda (muddatlar, shakl, mazmun talablari) ko'rib chiqilishi shart.

3. *Ixtiyoriylik.* Murojaat qilish shaxsning majburiyati emas, balki uning ixtiyoriy huquqiy imkoniyatidir.

4. *Yuridik oqibati.* Har qanday rasmiy murojaat davlat organining tegishli yuridik hujjat (javob xati, buyruq, qaror) qabul qilishiga sabab bo'ladi.

Olimlar murojaatlarni mazmuniga ko'ra uchta klassik ko'rinishga ajratishadi, ularning har biri alohida huquqiy kategoriya hisoblanadi:

Ariza (Petition) – shaxsning o'z huquqlarini amalga oshirish borasidagi iltimosi (masalan, moddiy yordam yoki yer ajratish so'rash). Bu joyda huquq hali buzilmagan, balki uni amalga oshirishga yordam so'ralmoqda.

Shikoyat (Complaint) – buzilgan huquqlarni tiklash talabi. Bu joyda restitutsiya (asliga qaytarish) va himoya elementi ustuvor.

Taklif (Suggestion) – shaxsiy manfaat emas, balki jamiyat va davlat manfaati uchun yo'llangan

g'oya. Bu fuqaroning siyosiy faolligi darajasini ko'rsatadi.

Hozirda amaliyotga joriy etilgan raqamli vositalardan kelib chiqib, yangicha yondashuv, ya'ni "Raqamli murojaat" kategoriyasini ham ular qatoriga qo'shish maqsadga muvofiq.

Bu borada, huquqshunos V.V. Boysova olib borgan tadqiqotlarda "elektron murojaat" tushunchasi yangi huquqiy kategoriya sifatida o'rganilgan. Bunda murojaat faqat matn emas, balki "raqamli iz" va "tezkor nazorat obyekti" sifatida talqin qilinadi.

Murojaatlarni huquqiy kategoriya sifatida o'rganish shuni ko'rsatadiki, ular davlat apparatining "immun tizimi" kabi ishlaydi. Olimlarning fikricha, murojaatlar instituti erkin va shaffof bo'lsa, jamiyatda qonunbuzilishi holatlari kamayadi.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, "murojaat" tushunchasi keng ma'noli kategoriya bo'lib, u o'z ichiga siyosiy, ma'muriy va protsessual jihatlarni qamrab oladi. Masalan, Murojaat — davlat organlari faoliyatining qonuniyligini ta'minlovchi vosita. U fuqaro va davlat o'rtasidagi axborot oqimini tartibga soluvchi huquqiy fakt. Murojaatlar institutining nazariy jihatdan to'g'ri talqin qilinishi amaliyotda fuqarolar huquqlarining kafolatlanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Inson qadri uchun" tamoyili bosh mezon etib belgilangan. Murojaatlar huquqiy kategoriya sifatida aynan shu tamoyilni hayotga tatbiq etuvchi asosiy yuridik mexanizmdir. Bugungi kunda murojaat shunchaki qog'ozdagi talab emas, balki davlat organlarining xalqqa qay darajada xizmat qilayotganini ko'rsatuvchi eng xolis indikator hisoblanadi.

So'nggi yillarda murojaatlar bilan ishlash tizimida keskin sifat o'zgarishlari kuzatilmoqda. Masalan, birgina O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalarini tashkil etilgandan buyon 10 milliondan ortiq murojaatlar ko'rib chiqildi.

Murojaatlarning 50–60 foizi ijobiy hal etilayotgani, bu institutning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham "ishlaydigan" kategoriyaga aylanganini isbotlaydi.

Raqamlashtirish natijasida murojaatlarni ko'rib chiqish muddati o'rtacha 30 kundan 15 kungacha (ayrim sohalarda 1-3 kungacha) qisqardi va

an'anaviy "yozma murojaat" tushunchasi o'rni "elektron murojaat" va "interaktiv muloqot" egallamoqda. Bu esa huquqshunoslik fani oldiga murojaatlarning huquqiy tabiatini yangicha (raqamli huquq kontekstida) talqin qilish vazifasini qo'yimoqda.

N.Yu. Xamaneva ta'kidlaganidek, murojaatlar soni va mazmuni davlat boshqaruvidagi "og'riqli nuqtalarni" aniqlash imkonini beradi. Agar muayyan sohada (masalan, bank yoki yer munosabatlarida) shikoyatlar ko'paysa, bu o'sha sohada tizimli islohotlar o'tkazish kerakligidan dalolat beruvchi "ijtimoiy signal" vazifasini o'taydi [7].

Konstitutsiyaviy normaning hayotiy ifodasi sifatida O'zbekistonda murojaatlar bilan ishlashning yangi vertikal tizimi yaratildi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalariga yiliga o'rtacha 2 milliongacha murojaat kelib tushib, ularning taxminan 25–30% ijtimoiy himoya, uy-joy va yer munosabatlari, shuningdek, bank-kredit masalalariga to'g'ri keladi.

Bu esa, aynan murojaat qilish orqali har yili o'rtacha 800 ming fuqaro o'z ijtimoiy-maishiy muammolarini hal etilishini ta'minlaydi va Yangi O'zbekiston sharoitida murojaatlarni "fuqarolarning muammolarini hal etuvchi vosita" sifatida ta'riflashga asos bo'la oladi.

O'z navbatida, mazkur jarayon ustidan vertikal nazorat tizimi joriy etilganligi nafaqat davlat hokimiyati organi (vazirlik, hokimlik), balki davlat ulushi bor har qanday tashkilot va mahalla raisi ham murojaatni ko'rib chiqishga konstitutsiyaviy darajada majburdir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'ri-

risida"gi qonunida davlat organlarining javobgarligi belgilangan bo'lib, "qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart" degan norma ijrosini ta'minlash uchun alohida javobgarlik kiritilgan.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda murojaatlarni ko'rib chiqish tartibini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining 1 dan 3 baravarigacha jarima belgilangan. Agar murojaatni ko'rib chiqishdan bosh tortilsa yoki muddatlar asossiz buzilsa, fuqaro ma'muriy sudga da'vo kiritish huquqiga ega.

Xulosa qilib aytganda, murojaatlar bilan ishlash amaliyotiga joriy etilayotgan yangicha yondashuvlar "murojaatlar" tushunchasini nafaqat huquqiy hodisa, balki fuqarolarning ijtimoiy muammolarini hal etishga qaratilgan vosita sifatida qabul qilish zarur. O'z navbatida, ushbu jarayonga raqamli vositalar tatbiq etilishi murojaatlar bilan ishlash tezkorligini oshirish bilan birga, bu borada davlat organlarining mas'uliyatini oshirish, ularning fuqarolar bilan "qayta aloqa" (feedback) o'rnatish borasidagi funksiyasini mustahkamlash, joylardagi haqiqiy vaziyatdan va jamiyatdagi ijtimoiy taranglikdan boxabar bo'lish imkonini yaratmoqda.

Shundan kelib chiqib, murojaatlarning "ijtimoiy ko'pri" funksiyasini chuqur o'rganish yuzasidan tayanch ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish, bu borada yuzaga kelayotgan tizimli muammolarga ilmiy asoslangan yechimlarni topish yaqin istiqbolda davlat siyosatini belgilash uchun muhim masalaga aylanib qolishiga barcha asoslar mavjud, degan xulosaga kelish mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023. – 24-b.
2. Ollamov Ya. Y. Davlat organlari va fuqarolik institutlari: o'zaro munosabatlarda murojaatlarning o'rni, jamoatchilik nazoratining roli va murojaatlar bilan ishlashni takomillashtirish muammolari. Monografiya. – T.: IJOD-PRESS, 2020. – 253 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y. – 37-son. – 977-modda.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: "O'zbekiston", 2018.
5. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik. – T.: Sharq, 2009.
6. Saidov A.X. Inson huquqlari: Darslik. – T.: Adolat, 2001.
7. Хаманева Н.Ю. Проблемы правового регулирования обращений граждан // Государство и право. – М., 1996. – №11.
8. Бойцова В.В. Служба защиты прав человека и гражданина. Мировой опыт. – М.: Век, 1996
9. Ширококов С.А. Конституционное право граждан на обращение в государственные органы: на примере Российской Федерации и Соединенных Штатов Америки: Диссертация. – Екатеринбург, 1999.

NORMA IJODKORLIGI DAVLAT HUQUQIY SIYOSATINING SHAKLI SIFATIDA



Burxanova Shyrin Jamshitovna
Qoraqalpoq davlat universiteti doktranti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktrori (PhD)

Annotatsiya. Annotatsiya. Maqolada norma ijodkorligining davlatning huquqiy siyosati shakli sifatidagi ahamiyati to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqilgan. Davlat siyosatining asosiy maqsadi huquqiy tartibga solish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlashdir. Huquqiy siyosatning tuzilishi va vazifalariga, ayniqsa, norma ijodkorligi shaklining xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Norma ijodkorligi davlat idoralari va fuqarolik jamiyatining huquqiy tartibni ta'minlash, qonunlar qabul qilish va ularni amalga oshirishida muhim vosita sifatida ko'rsatiladi. Maqolada huquqiy siyosatning rivojlanish bosqichlari, shuningdek, O'zbekistonda huquqiy siyosatning yangi bosqichdagi yo'nalishlari va amaliyotlari ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: huquqiy siyosat, norma ijodkorligi, qonun ijodkorligi, huquqiy davlatchilik, huquqiy siyosatni rivojlanish bosqichlari, qonun ustuvorligi.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы нормотворчества как формы государственной правовой политики и его значение в стране. Главная цель государственной политики – установление правопорядка, обеспечение прав и свобод человека, укрепление верховенства права. Уделяется внимание структуре и задачам правовой политики, в частности, особенностям формы нормотворчества. Нормотворчество показано как важный инструмент для государственных органов и гражданского общества в обеспечении правопорядка, принятии и реализации законов. В статье представлены этапы развития правовой политики, а также направления и практика правовой политики в Узбекистане на новом этапе.

Ключевые слова: правовая политика, нормотворчество, законотворчество, правовая государственность, этапы развития правовой политики, верховенство права.

Abstract. This article examines rulemaking as a form of state legal policy and its importance in the country. The primary goal of state policy is to establish law and order, ensure human rights and freedoms, and strengthen the rule of law. Attention is paid to the structure and objectives of legal policy, particularly the specific features of this form of rulemaking. Rulemaking is demonstrated as an important tool for government agencies and civil society in ensuring law and order, as well as the adoption and implementation of laws. The article presents the stages of legal policy development, as well as the trends and practices of legal policy in Uzbekistan at this stage.

Keywords: legal policy, rulemaking, lawmaking, legal statehood, stages of legal policy development, rule of law.

Ma'lumki, har bir rivojlanayotgan davlat oldida turgan eng muhim maqsad va vazifalardan biri davlat siyosatini qaysi model va usullar bilan amaliyotga joriy etish sanaladi. Ushbu masalaning yechimi bir qarashda yengil va oson ko'rinsa-da, xorijiy davlatlar tajribasi va real hayot buning aksini tasdiqlaydi. Bugun yurtimiz hayotidagi tub ijobiy ijtimoiy-siyosiy

o'zgarishlar, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning yangi bosqichi, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati oshishi, o'z huquq va erkinliklarini anglashi hamda talab qilishidir. So'z erkinligi, xalq hokimiyatchiligi, davlat organlarining aholi bilan ishlashda mutlaqo yangi tamoyillar asosida tashkil etilishi va amalga oshirilishi, ular faoliyatida ochiqlik va shaffoflikning keng

ta'minlanishi ham mamlakatda amalga oshirilayotgan huquqiy siyosatning yangi darajaga chiqqanini yana bir karra tasdiqlamoqda. Shu jihatdan mamlakatimizda mazkur masalalar, jumladan, rivojlanishni qaysi yo'l bilan amalga oshirish vazifasi so'nggi yillarda tobora dolzarb tus olgan. Bu bir tomondan mamlakatning huquqiy siyosatga e'tiborini jiddiy ravishda kuchaytirdi. Xo'sh huquqiy siyosat o'zi nima, degan savolga ilmiy va murakkab ta'rif berishdan yiroqlashgan holda, uning fuqarolar uchun ahamiyatli bo'lgan real jihatlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq deb bildik.

Ta'kidlash joizki, "siyosat" so'zi o'zining uzoq yillik tarixiga ega bo'lib, asosan, yunon faylasufi Arastu sababli ushbu atamadan keng foydalanish boshlanadi. Olim muloqotning eng muhim va oliy darajasi – siyosiy muloqot haqida gapiradi [1]. Haqiqatan, har bir insonning – mutaxassis, olim, korxon boshqaruvchisi, davlat idorasi rahbari, siyosiy partiya yetakchisidan tortib, davlat rahbarigacha – o'z siyosati mavjud. Ya'ni, har bir insonning o'z boshqaruv va individual ta'sir o'tkazish uslublari bo'ladi.

Sodda qilib aytganda, siyosat – ijtimoiy jarayonlarni boshqarish san'ati, huquqiy siyosat mohiyatida huquqiy tartibga solish sohasida davlat olib borayotgan faoliyat strategiyasini tushunish mumkin [2]. Xuddi shunday, u davlat siyosati va huquqiy rivojlanishining taktik yondashuvi va algoritmi sifatida ham qabul qilinadi. Huquqiy siyosat o'z ichiga davlat siyosatining barcha yo'nalishlarini qamrab oladi. Chunki har qanday siyosiy islohot Konstitutsiya, qonun, Prezident va Hukumat imzolaydigan qonunchilik hujjatlari orqali amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham mazkur masalaga qaratiladigan e'tibor boshqa yo'nalishlarning rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazadi. Huquqiy siyosatning maqsadi huquqiy tartibga solishning samarali mexanizmini yaratish, inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini to'liq ta'minlash uchun qonuniy vositalardan samarali foydalanish, qonun ustuvorligi va huquq-tartibotni mustahkamlash, huquqiy davlatchilikni shakllantirish hamda jamiyatda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishdan iborat.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy siyosatning tuzilishi ikkita asosiy elementga ajratilganligini

ko'rish mumkin. Birinchisi, to'g'ridan-to'g'ri huquqiy sohadagi siyosat, qoidalar yaratish va huquqiy tartibga solish mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq, ikkinchisi, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni amalga oshirishda va huquqni muhofaza qilish faoliyatida ifodalangan huquqning amal qilishi orqali amalga oshiriladigan siyosat [3].

Ushbu yondashuvga qo'shilgan holda, biz davlatning huquqiy siyosati, birinchi navbatda, norma ijodkorligi orqali amalga oshirilishini ta'kidlaymiz. Norma ijodkorligi orqali yaratilgan huquqiy normalar bizga davlatning huquqiy tartibga solish sohasidagi strategiyasining maqsadga muvofiqligini, xususan, uning umume'tirof etilgan xalqaro tamoyillar va normalarga qay darajada mos kelishi yoki mos kelmasligini, shuningdek, huquqiy davlat qurish nazariyasi va amaliyotini baholash imkonini beradi.

Mavzuga oid izlanishlarimiz asosida norma ijodkorligi shaklining asosiy xususiyatlarini yoritishni lozim deb topdik. Norma ijodkorligi deganda, qonun ijodkorligining yakuniy bosqichi tushunilishi kerak, bu ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va mavjud huquqiy tizimni takomillashtirish maqsadida huquqiy normalarni qabul qilish, o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha vakolatli subyektlarning faoliyati deb ta'rif berish mumkin.

Yuridik adabiyotlarda "huquqiy siyosat" tushunchasiga oid bir necha ta'riflarni uchratish mumkin. Jumladan, professor H.T. Odilqoriyev: "Davlatning huquqiy tizim harakatlanishini ta'minlash, huquqiy hayotni tashkillashtirish bobida yuritadigan siyosati huquqiy siyosat deb ataladi. Huquqiy siyosat – davlatning huquqiy mafkurasi, uning huquqiy hayot sohasida tutadigan yo'l-yo'rig'i, ro'yobga chiqaradigan amal va tadbirlari, qo'llaniladigan rahbariy g'oyalari (prinsiplari) ifodasi", degan fikrni ilgari suradi. Shu bilan birga, aytish joizki, huquqiy siyosat yuridik faoliyatdagi qadriyatlar, ustuvorliklar tizimida, huquqiy hayot voqeliklarida, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmunida hamda rasmiy huquqiy mafkurada namoyon bo'ladi [4].

Huquqiy siyosatning norma ijodkorligi shakli murakkab va noaniq hodisadir. Uning samaradorligi kaliti huquqiy siyosat vositalaridan foydalanishdir. Shu bilan birga, huquqiy siyosatning ijodkorligi shaklining mustaqilligi uni boshqa

huquqiy siyosat shakllaridan (huquqni muhofaza qilish va qonunni amalga oshirish) ajratib turadigan xususiyatlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Huquqiy siyosatning norma ijodkorligi shakli davlat idoralari va fuqarolik jamiyati subyektlarining jamiyatni rivojlantirish strategiyalari va taktikalarini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan, izchil va tizimli faoliyatidir.

Huquqiy siyosatning norma ijodkorligi shaklining mohiyatini nazariy tushunish doirasida ushbu siyosiy va huquqiy hodisaning quyidagi xususiyatlarini aniqlash o'rinli: a) bir nechta subyektlar bilan tavsiflanadi; b) ommaviy xarakterga ega; v) davlat va jamoat tashkilotlarining turli darajalarida amalga oshirilganligi sababli ko'p darajali tabiati bilan ajralib turadi; g) o'zaro izchil, uzilishsiz va yaxlit qonunchilik tizimini yaratishga intiladi; d) norma belgilash qarorlarini qabul qilish jarayonida ilmiy salohiyatdan majburiy foydalanish talabiga asoslanadi; ye) o'zining izchilligi va oldindan aytib bo'lishini ta'minlaydigan prognozlash va rejalashtirish vositalaridan foydalanadi; yo) tizimli xarakterga ega.

Huquqiy siyosatga oid qisqacha ilmiy mushohadadan so'ng, huquqiy siyosatning rivojlanishi haqida ham fikr yuritish o'rinli deb hisoblaymiz. Bu jarayonni albatta shartli tarzda muayyan bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiq. Mustaqillik davrida huquqiy siyosatning rivojlanishini shartli ravishda to'rt bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich (1989–1995-yillar)da yakka partiya-viylikka asoslangan tizimdan voz kechildi, yangi davlatchilik va siyosiy tizim asosi yaratildi, hokimiyatning uchga bo'linishi tamoyili rasman belgilandi.

Ikkinchi bosqich (1996–1999-yillar)da ilk bor siyosiy plyuralizm va ko'ppartiya-viylik tizimi shakllantirildi. Tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlari belgilandi, ta'lim, bojxona va soliq, qonun loyihalarini umumxalq muhokamasiga qo'yish masalalari tartibga solindi.

Uchinchi bosqich (2000–2015-yillar)da parlamentga saylovlar yakunlanib, Prezident saylovlari bo'lib o'tdi. Asosan, ma'muriy-huquqiy va demokratik institutlarning muvozanatli va barqaror faoliyat yuritishiga e'tibor qaratildi. Ushbu davrda huquqiy siyosatning rivojlanishi o'tish davrini boshdan kechirdi, desa ham bo'ladi.

To'rtinchi bosqichda (2016-yildan hozirga qadar) mamlakatni yanada rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlar Harakatlar strategiyasi (2017–2021-yillar) va Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida davom etmoqda. Jumladan, bugungi kunda inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish bo'yicha davlat siyosati amalga oshirilmoqda.

Aynan to'rtinchi bosqich doirasida huquqiy siyosatning dolzarbligi apogeyaga, ya'ni o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan adliya organlari va muassasalari faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi [5].

Shuningdek, Davlat rahbarining PF-5505-son Farmoni bilan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi [6]. Konsepsiyada normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari sifatini oshirish, shuningdek, ularning ijrosi monitoringini takomillashtirish, norma ijodkorligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, norma ijodkorligida "aqli tartibga solish" modeli elementlarini qo'llash, norma ijodkorligi faoliyatining institutsional asoslarini takomillashtirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi.

Davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat institutining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-462-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobdor bo'lgan davlat ekspertlik ilmiy-tadqiqot muassasasi maqomidagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti tashkil etildi [7]. Institut oldiga salmoqli vazifalar qo'yildi. Jumladan, institut O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy siyosatni shakllantirish bo'yicha faoliyatini ilmiy, axborot-tahliliy jihatdan qo'llab-quvvatlashi belgilandi.

Shuni alohida qayd etish joizki, aynan ushbu bosqichda, jamoatchilik manfaati nuqtai nazaridan, huquqiy siyosat qator omillarni ta'minlashini belgilab o'tish mumkin.

*Birinchi*dan, huquqiy siyosat orqali huquqiy maydon (huquqiy olam) yuzaga keladi. Unda fuqaro kundalik hayotida har qanday noqonuniy aralashuv va xatti-harakatlardan, mansabdor shaxslar va boshqa fuqarolarning o'zboshimchaligi hamda zo'rvonligidan himoyalanaadi. Barcha nizo va mojarolar faqat huquqiy yo'l va mexanizmlar orqali hal etiladi, qonunda nazarda tutilmagan usullardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

*Ikkinchi*dan, huquqiy siyosat jamiyatni o'zgartirishda muhim vositadir. Masalan, jamiyat rivojlanishi uchun zarur bo'lgan qonunlar aniqlanadi va ularni qabul qilish bo'yicha tashabbus ko'rsatiladi yoxud biror-bir ishlab turgan qonun normalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar bildiriladi.

*Uchinchi*dan, chiqarilayotgan qonunlarni jamiyatda og'riqsiz qabul qilish va qo'llash imkonini beradi. Masalan, biror-bir munosabatni tartibga soluvchi qonun dabdurdan qabul qilinishi oqibatida aholining muayyan toifasi orasida savollar paydo bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, ayrim qonunlarni jamiyat tayyor bo'lmasdan turib qabul qilishning oldi olinadi [8]. Qonunchilik hujjatlarining jamiyat hayotiga, orzu-istaklariga hamohang bo'lishi ta'minlanadi.

*To'rtinchi*dan, huquqiy siyosat huquqiy davlat, xususan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda qonunlar faqat xalq

manfaatini ko'zlab qabul qilinishi va "qonun ustuvorligi"ga asoslangan boshqaruvning amaliyotga tatbiq etilishiga erishiladi.

*Beshinchi*dan, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini hal etishda fuqarolarning bevosita va bilvosita ishtiroki ta'minlanadi.

Garchi qonunlarni qabul qilish uchun qonunchilik tashabbusiga (qonun loyahasini Oliy Majlisga kiritish huquqiga) ega bo'lgan subyektlar ro'yxati (Vazirlar Mahkamasi, Oliy sud, Bosh prokuratura va boshqalar) Konstitutsiyada qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, huquqiy siyosatni shakllantirishda fuqarolik jamiyati institutlari (siyosiy partiyalar, harakatlar, jamoat birlashmalari va hokazo) va fuqarolar (olimlar, turli sohadagi ekspertlar, oddiy fuqarolar) keng ishtirok etadi.

Shunday qilib, huquqiy siyosat umumdavlat siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bilan birgalikda davlat rahbari tomonidan shakllantiriladi va amalga oshiriladi. Bu jarayonda har qanday siyosat huquqiy baza asosida olib borilishi, ya'ni uning huquqiy ta'minlanishi kerak. Qonuniy asosga ega bo'lmagan siyosatning qo'llanishi esa uning kuchsiz va zaif bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ham huquqiy siyosatning mavjud bo'lishi davlat va jamiyat rivojlanishi uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan manbalar

1. Аристотель. Политика. – Москва: Издательство Юрайт, 2025. – 297 с. Текст: электронный // URL: <https://urait.ru/bcode/564099>.
2. Nigmatov K. "Huquqiy siyosat jamiyatga nima beradi?" // <https://yuz.uz/oz/news/huquqiy-siyosat-jamiyatga-nima-beradi>.
3. Исаков Н.В. Правовая политика современной России: проблемы теории и практики: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – Ростов-на-Дону, 2004. – С. 49 // <https://www.dissertat.com/content/pravovaya-politika-sovremennoi-rossii-problemy-teorii-i-praktiki>.
4. Odilqoriyev X.T. Davlat hokimiyatining qonun ijodkorligi sohasidagi huquqiy siyosati // Jurnal: Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили ♦ Uzbek law review ♦ Обзор законодательства Узбекистана, 2015. – № 1. – 5-8-б.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5415-son farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.04.2018-y., 06/18/5415/1072-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5505-son farmoni // <https://lex.uz/docs/3858817#3861945>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat institutining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-462-son qarori // <https://lex.uz/ru/docs/6331771>.
8. Корабельникова Ю.Л., Янин Ю.В. Роль ведомственного нормотворчества в государственном правотворчестве // Журнал: Сетевое издание "Академическая мысль", 2019. – № 1 (6) С.55–58 // <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-vedomstvennogo-normotvorchestva-v-gosudarstvennom-pravotvorchestve>.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФИЛАКТИКИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН



Ernazarov Solijon Erkinovich

кандидат экономических наук, ведущий научный сотрудник
Исследовательского института криминологии
Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются методологические основы профилактики экономических преступлений в Республике Узбекистан. Проведен анализ теоретических подходов к предупреждению преступности в экономической сфере, раскрыты причины и условия распространения экономических правонарушений. Особое внимание уделяется криминологическим, правовым, организационным и институциональным механизмам предупреждения экономической преступности. Также рассматриваются современные методы профилактики экономических преступлений, включая цифровизацию экономических процессов, усиление финансового контроля и развитие международного сотрудничества в сфере противодействия финансовым правонарушениям.

Ключевые слова: экономические преступления, профилактика преступности, экономическая безопасность, криминология, финансовый контроль, коррупция, правовое регулирование.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy jinoyatlarning oldini olishning metodologik asoslari tahlil qilinadi. Iqtisodiy sohada sodir etiladigan jinoyatlarning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlari ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, iqtisodiy jinoyatchilikni oldini olishda kriminologik, huquqiy va tashkiliy mexanizmlarning o'rnini ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy jinoyatlar, jinoyatchilik profilaktikasi, iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy nazorat, korrupsiya, huquqiy tartibga solish.

Abstract. The article examines the methodological foundations for the prevention of economic crimes in the Republic of Uzbekistan. The study analyzes theoretical approaches to crime prevention in the economic sphere and identifies the main causes and conditions contributing to economic offenses. Special attention is paid to criminological, legal, organizational and institutional mechanisms for preventing economic crime. The research also considers modern methods of preventing economic crimes, including digitalization of economic processes, strengthening financial control, and expanding international cooperation in combating financial crimes.

Keywords: economic crimes, crime prevention, economic security, criminology, financial control, corruption, legal regulation.

В современных условиях развития мировой экономики проблема экономической преступности приобретает особую актуальность. Экономические преступления оказывают значительное негативное влияние на финансовую стабильность государства, препятствуют развитию предпринимательства и снижают уровень доверия общества к государственным институтам [1].

Для Республики Узбекистан борьба с экономическими преступлениями является одной из важнейших задач государственной политики в сфере обеспечения экономической безопасности. В последние годы в стране реализуются масштабные реформы, направленные на развитие рыночных отношений, поддержку предпринимательства и совершенствование системы государственного управления.

Однако процессы экономической либерализации и расширение предпринимательской деятельности также создают новые риски, связанные с возможностью совершения различных финансовых правонарушений. К таким преступлениям относятся мошенничество, незаконное предпринимательство, уклонение от уплаты налогов, коррупционные преступления, легализация преступных доходов и другие правонарушения экономического характера [2].

В связи с этим особую значимость приобретает разработка эффективных научно обоснованных методов профилактики экономических преступлений.

Экономическая преступность представляет собой совокупность противоправных деяний, совершаемых в сфере экономической деятельности и направленных на получение незаконной материальной выгоды.

В научной литературе экономические преступления рассматриваются как особая категория преступлений, отличающаяся сложным механизмом совершения, высокой латентностью и значительными экономическими последствиями. Исследователи в области криминологии отмечают, что экономическая преступность обладает рядом специфических особенностей, которые существенно отличают её от традиционных форм преступности и усложняют процесс её выявления, расследования и профилактики. Как отмечают многие ученые-криминологи, экономическая преступность характеризуется высокой степенью латентности, сложностью механизма совершения преступлений, использованием современных технологических средств, а также тесной взаимосвязью с коррупционными проявлениями [3].

1. Одной из наиболее характерных особенностей экономической преступности является её высокий уровень латентности, то есть скрытности. Как отмечает известный российский криминолог Виктор Викторович Лунеев, значительная часть экономических преступлений остается вне поля зрения правоохранительных органов и не отражается в официальной статистике преступности [4]. Это связано с тем,

что подобные преступления зачастую совершаются в рамках легальной хозяйственной деятельности и могут маскироваться под законные финансово-экономические операции.

Кроме того, участники экономических отношений нередко заинтересованы в сокрытии подобных правонарушений, поскольку их выявление может привести к серьезным финансовым потерям, снижению деловой репутации или юридической ответственности. В результате формируется значительный разрыв между реальным уровнем экономической преступности и её официально зарегистрированными показателями.

2. Экономические преступления, как правило, характеризуются сложным механизмом совершения и многоуровневой структурой преступных действий. По мнению известного ученого-криминолога Владимира Николаевича Кудрявцева, преступления в экономической сфере отличаются высокой степенью интеллектуализации и требуют использования специальных знаний в области экономики, финансов, бухгалтерского учета и права [5].

Преступные схемы могут включать использование фиктивных предприятий, подставных лиц, офшорных компаний и многоступенчатых финансовых операций. В ряде случаев такие преступления охватывают сразу несколько отраслей экономики и могут иметь транснациональный характер. В связи с этим их выявление требует применения комплексных методов финансового анализа, проведения экономических и бухгалтерских экспертиз, также тесного взаимодействия различных государственных органов.

3. В условиях стремительного развития информационных технологий экономическая преступность приобретает всё новые формы. Современные преступники активно используют цифровые финансовые инструменты, включая электронные платежные системы, интернет-банкинг, криптовалюты и различные онлайн-платформы.

Как отмечает российский криминолог Наталия Федоровна Кузнецова, цифровизация экономики одновременно создает новые возможности для экономического развития и

повышает риски совершения финансовых преступлений [6]. Использование информационных технологий позволяет преступникам осуществлять незаконные финансовые операции на значительных расстояниях, скрывать источники доходов и усложнять процесс их отслеживания.

В связи с этим возникает необходимость внедрения современных систем финансового мониторинга, развития технологий анализа больших данных и совершенствования механизмов кибербезопасности.

4. Экономическая преступность во многом тесно связана с коррупцией и злоупотреблением служебным положением. Коррупционные механизмы могут способствовать сокрытию экономических преступлений, созданию благоприятных условий для незаконного получения финансовых выгод и препятствовать эффективному расследованию правонарушений [7].

По мнению ряда криминологов, коррупция и экономическая преступность образуют взаимосвязанную систему, в которой коррупционные практики способствуют развитию незаконной экономической деятельности, а экономические преступления, в свою очередь, создают финансовую основу для коррупции. Такая взаимосвязь значительно осложняет борьбу с экономической преступностью и требует применения комплексных антикоррупционных мер.

Таким образом, перечисленные особенности свидетельствуют о том, что экономическая преступность представляет собой сложное социально-правовое явление, характеризующееся высокой степенью латентности, многообразием форм проявления и использованием современных технологий. Это обуславливает необходимость разработки комплексной системы профилактики экономических преступлений, основанной на сочетании правовых, организационных, криминологических и технологических методов противодействия.

Экономическая преступность часто носит организованный характер и может охватывать различные отрасли экономики, включая банковскую систему, налоговую сферу, государственные закупки и предпринимательскую деятельность.

Экономическая преступность в Республике Узбекистан представляет собой одно из наиболее сложных и опасных социально-правовых явлений, оказывающих значительное влияние на экономическую безопасность государства. В последние годы в стране реализуются масштабные реформы, направленные на развитие предпринимательства, цифровизацию экономики и повышение прозрачности государственного управления. Однако данные процессы сопровождаются появлением новых форм экономических правонарушений, требующих совершенствования системы их профилактики.

Анализ статистических данных показывает, что в последние годы наблюдается определённая динамика преступности в экономической сфере. По данным правоохранительных органов и официальной статистики, в 2024 году в Узбекистане было зарегистрировано 132 298 преступлений, что на 19 % больше по сравнению с 2021 годом. При этом уровень преступности составил 35,6 преступления на 10 000 населения [8].

Структурный анализ преступности показал, что значительную долю составляют преступления экономического характера. По отдельным оценкам, около 62,9 % всех зарегистрированных правонарушений относятся к экономическим преступлениям, включая кражи, мошенничество, присвоение имущества и другие противоправные действия.

Среди наиболее распространённых видов экономических преступлений можно выделить:

- кражи – около 58,1 % всех экономических преступлений;
- мошенничество – 35,1 %;
- присвоение и растрата имущества – 1,6%;
- уклонение от уплаты налогов – около 0,4%;
- вымогательство и другие финансовые правонарушения.

В количественном выражении в 2024 году было зафиксировано более 48 тысяч случаев краж, около 29 тысяч случаев мошенничества, а также свыше 1,3 тысячи преступлений, связанных с присвоением и растратой имущества [8].

Особое внимание в последние годы уделяется борьбе с коррупционными преступлениями. Согласно данным антикоррупционных

органов, в 2024 году в стране было выявлено 5716 коррупционных преступлений, в совершении которых участвовало около 6898 чел.

При этом в 2025 году наблюдалась тенденция к некоторому снижению коррупционных преступлений – их количество составило 5222 случая, что примерно на 8,6 % меньше, чем годом ранее.

Кроме того, в 2024 году правоохранительными органами было выявлено 3 293 экономических и коррупционных преступления, а общий ущерб, причинённый государству, составил около 239,5 млрд сумов, значительная часть которого была возмещена в ходе расследования.

Отдельной проблемой последних лет является рост преступлений, совершаемых с использованием цифровых технологий. По данным правоохранительных органов, в 2024 году было зарегистрировано около 58 800 случаев киберпреступлений, большинство из которых связано с незаконным доступом к банковским картам граждан и хищением денежных средств [9].

Следует отметить, что экономическая преступность в Узбекистане имеет определённые региональные особенности. Наиболее высокий уровень преступности наблюдается в крупных экономических центрах страны, прежде всего в городе Ташкенте и Ташкентской области, где сосредоточено значительное количество финансовых операций и предпринимательской деятельности.

В то же время в некоторых регионах уровень преступности остаётся относительно низким, что объясняется меньшей концентрацией экономической активности и финансовых потоков.

Таким образом, проведённый анализ показывает, что экономическая преступность в Узбекистане характеризуется сложной структурой и динамикой. Несмотря на принимаемые государством меры по её профилактике, экономические преступления продолжают оставаться серьёзной угрозой для экономической безопасности страны.

В связи с этим особую актуальность приобретает совершенствование системы профи-

лактики экономических преступлений, включая развитие механизмов финансового контроля, внедрение современных цифровых технологий мониторинга и повышение эффективности деятельности правоохранительных органов.

Причины и условия экономических преступлений. Экономическая преступность является сложным социально-правовым явлением, формирование и развитие которого обусловлено совокупностью различных факторов. Как отмечают криминологи, причины экономических преступлений имеют комплексный характер и включают экономические, правовые, социальные и организационные условия, способствующие возникновению противоправной деятельности в сфере экономических отношений.

Исследования показывают, что экономическая преступность формируется в результате взаимодействия различных факторов, которые создают благоприятную среду для совершения противоправных действий в финансово-экономической сфере.

1. Одним из ключевых факторов, способствующих развитию экономической преступности, являются экономические условия функционирования общества. Нестабильность экономической среды, резкие колебания рыночной конъюнктуры, а также неравномерность социально-экономического развития отдельных регионов могут создавать предпосылки для возникновения различных экономических правонарушений.

Важным фактором также является высокий уровень теневой экономики, которая характеризуется осуществлением экономической деятельности вне рамок официального государственного регулирования и контроля. Теневая экономика снижает прозрачность финансовых потоков, затрудняет налоговое администрирование и создаёт благоприятные условия для совершения экономических преступлений, включая уклонение от уплаты налогов, незаконное предпринимательство и легализацию доходов, полученных преступным путём.

Кроме того, определённую роль играет недостаточная прозрачность финансовых операций. Ограниченный доступ к информации

о финансовых транзакциях, сложность финансовых инструментов и недостаточный уровень контроля могут способствовать сокрытию незаконных экономических операций и усложнять процесс их выявления.

2. Важную роль в формировании экономической преступности играют правовые условия функционирования экономической системы. Одним из основных факторов является несовершенство законодательства, которое может выражаться в наличии противоречий между различными нормативно-правовыми актами, отсутствии чёткого регулирования отдельных видов экономической деятельности или недостаточной эффективности правовых механизмов предупреждения правонарушений.

Серьёзной проблемой также являются пробелы в правовом регулировании отдельных сфер экономики, особенно в условиях стремительного развития цифровых технологий и новых финансовых инструментов. В ряде случаев законодательство не успевает адаптироваться к новым формам экономических отношений, что создаёт возможности для злоупотреблений и незаконной деятельности.

Немаловажное значение имеет и недостаточная эффективность механизмов государственного контроля, включая финансовый контроль, налоговое администрирование и систему аудита. Ограниченные ресурсы контролирующих органов, а также сложность современных финансовых операций могут затруднять своевременное выявление экономических правонарушений.

3. Социальные условия также оказывают значительное влияние на уровень экономической преступности. Одним из таких факторов является низкий уровень правовой культуры населения, который проявляется в недостаточном знании законодательства, слабом понимании правовых норм и отсутствии устойчивого уважения к закону.

Распространённость коррупционных практик также оказывает существенное влияние на развитие экономической преступности. Коррупция может способствовать созданию благоприятных условий для совершения экономических преступлений, включая

незаконное получение финансовых преимуществ, сокрытие противоправных действий и уклонение от ответственности.

Кроме того, важную роль играет недостаточный уровень правового воспитания, особенно в сфере предпринимательской деятельности. Отсутствие эффективных программ правового просвещения может приводить к тому, что участники экономических отношений не всегда осознают правовые последствия своих действий или намеренно игнорируют требования законодательства.

4. Среди факторов, способствующих распространению экономической преступности, важное место занимают организационные проблемы в системе государственного управления и контроля.

Одной из таких проблем является недостаточная координация между различными государственными органами, осуществляющими контроль в экономической сфере. Разобщённость информационных систем, отсутствие эффективного обмена данными и дублирование функций отдельных органов могут снижать эффективность профилактики экономических преступлений.

Buyuk Britaniyada quyidagi statistik toʻplamlar asosiy hisoblanadi: 1) Angliya va Uels uchun jinoyatlar statistikasi; 2) Angliya va Uels uchun sud statistikasi; 3) Angliya va Uels qamoqxonalari statistikasi; 4) Angliya va Uels uchun sinov muddati statistikasi; 5) janobi oliylarining Bosh konsteblining hisoboti; 6) shartli ozodlikdan mahrum qilish idorasining hisoboti; 7) qamoqxona xodimlarining ahvoli toʻgʻrisidagi yillik hisobot; 8) janobi oliylarining qamoqxonalari boʻyicha bosh inspektorining hisoboti; 9) Crown prokuratura xizmatining yillik hisoboti.

“Angliya va Uels uchun jinoiy statistika” (1876-yildan beri nashr etiladi) asosiy statistik toʻplamida roʻyxatga olinishi kerak boʻlgan jinoyatlarning asosiy koʻrsatkichlari – ularning holati, tuzilishi va oʻtgan yildagi dinamikasi, shuningdek, oldingi 10 yil (va baʼzan uzoqroq davr uchun) haqida batafsil maʼlumot berilgan.

Toʻplamda keltirilgan jadvallarda sodir etilgan jinoyatlarning mohiyati haqida maʼlumotlar mavjud. Bunda shaxsga qarshi eng ogʻir zoʻrlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlarga alohida eʼtibor qaratiladi. Statistika materiallarida odam oʻldirishning usullari, jabrlanuvchi va gumon qilinuvchi oʻrtasidagi munosabatlar, jabrlanuvchining yoshi

va jinsi, shuningdek, gumon qilinuvchi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar aks ettiriladi. Oʻgʻrilik va talonchilik jinoyatlarining turi va oʻgʻrilangan mol-mulkning qiymati batafsil tasniflanadi. Oʻqotar quroldan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarning soni va turlari hisobga olinadi. Qurolning turi va u tufayli yetkazilgan tan jarohatining ogʻirligi hisobga olinadi.

Toʻplamda nafaqat roʻyxatga olinishi kerak boʻlgan jinoyatlar soni, balki ularni sodir etganlikda aybdor deb topilgan yoki politsiya tomonidan ogohlantirilgan shaxslar soni toʻgʻrisidagi maʼlumotlar ham eʼlon qilinadi. Ushbu shaxslarning yoshi va jinsi, ular sodir etgan jinoyat turlari va boshqalar haqida batafsil maʼlumotlar keltiriladi.

“Angliya va Uels uchun jinoiy statistika” toʻplami nafaqat jinoyat koʻrsatkichlarini, balki sud statistikasi maʼlumotlarini ham aks ettiradi. Masalan, “qirollik” sudiga va magistrat sudiga keltirilgan odamlarning soni, shuningdek, sud muhokamasining natijalari: jazo turi, uning muddati, shartli jazolar soni va boshqalar ham koʻrsatiladi.

Jinoyatchilik statistikasi manfaatdor shaxslarning keng doirasi uchun moʻljallangan boʻlib, Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligining Tadqiqotlar, ishlanmalar va statistika departamenti barcha qiziquvchilariga toʻliq statistik toʻplamlar yoki individual qiziqish jadvalarini bepul taqdim etadi.

Statistik maʼlumotlar davlat organlari, parlament va keng jamoatchilik uchun yanada qulayroq va tushunarli boʻlishi uchun 1991-yildan boshlab Departament har ikki yilda bir marta Angliya va Uels jinoiy adliya tizimi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni nashr etadi. Unda sodir etilgan jinoyatlar va ularni sodir etgan jinoyatchilar, ularning “qurbon”lari, sudga tortilgan shaxslar soni, jinoiy ayblovning turlari va jazo turlari, ayblovlar soni kabi statistik maʼlumotlar keltiriladi. Shu bilan birga, baʼzan maʼlumotlarning qiyosiy tahlili oʻtgan yil uchun ham, oldingi 10 yil uchun ham amalga oshiriladi. Yangi toʻplamning asosiy ahamiyati shundaki, u nafaqat jinoiy odil sudlovning barcha darajalari faoliyati toʻgʻrisida toʻliq maʼlumot beradi, balki juda muhim maʼlumotlarni, shu jumladan, yashirin jinoyatlar koʻrsatkichlariga aniqlik kiritish imkonini beruvchi Britaniya jinoyatchilik tadqiqoti natijalari hamda jinoyatchilikning xalqaro tendensiyalari haqidagi maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi. Qolaversa,

ushbu toʻplamning rangli jadvallar va grafiklar bilan boyitilgan uning aniqligi va undan foydalanish oson boʻlishini taʼminlaydi.

“Rasmiy statistika” – bu Buyuk Britaniya Statistika boshqarmasining Amaliyot kodeksida belgilangan standartlarga muvofiqligi rasman eʼtirof etilgan statistik maʼlumotlar boʻlib, Statistika tartibga solish idorasi (“OSR”) ushbu statistik maʼlumotlarning sifati va ishonchligini taʼminlashda muhim rol oʻynaydi.

Buyuk Britaniyada jinoyatlar statistikasi “rasmiy”, “akkreditatsiyadan oʻtgan” va “boshqaruv” statistikasiga boʻlingan boʻlib, ularning har biri oʻz maqsadi va xususiyatlariga ega.

Angliya va Uels uchun jinoyat soʻrovi (“CSEW”) kabi “rasmiy” statistik maʼlumotlar Statistika tartibga solish idorasi (“OSR”) Milliy statistika boshqarmasi tomonidan mustaqil ravishda koʻrib chiqiladi hamda ishonchlik, sifat, qiymat standartlariga javob beradi va jinoyat tendensiyalari, qurbonlar tajribasi haqida qimmatli maʼlumotlarni taqdim etadi.

“Akkreditatsiya qilingan” statistik maʼlumotlar rasmiy statistik maʼlumotlarning kichik toʻplami boʻlib, ular ham “OSR” tomonidan mustaqil ravishda koʻrib chiqilgan va Amaliyot kodeksi standartlariga javob berish uchun tasdiqlangan. Ushbu qoʻshimcha tekshirish sifat va ishonchlikning eng yuqori standartlarini taʼminlaydi. Boshqa tomondan “boshqaruv” maʼlumotlari politsiya kuchlari yoki davlat idoralari kabi tashkilotlarda ichki operatsion maqsadlarda foydalaniladigan maʼlumotlarni anglatadi. Ushbu maʼlumotlar samaradorlikni nazorat qilish va tezkor qarorlar qabul qilish uchun foydali boʻlishi mumkin boʻlsa-da, ular rasmiy yoki akkreditatsiyalangan statistik maʼlumotlar bilan bir xil darajada tekshirilishi shart emas. Shuning uchun bir xil qatʼiy standartlarga rioya qilinmasligi mumkin. Masalan, qamoqxona aholisi va probatsiya xizmatining ish yuki kabi jinoyatchilarni boshqarish maʼlumotlari [9].

Bundan tashqari, Angliya va Uelsdagi statistik maʼlumotlarning asosiy manbalari quyidagilar hisoblanadi: 1) Angliya va Uelsdagi jinoyat: 2024-yil dekabrda tugaydigan yil (“ONS”) – jinoyat turlari boʻyicha maʼlumotlardan iborat choraklik statistik byulleten: firibgarlik, oʻgʻrilik, kompyuter jinoyati, zoʻravonlik va boshqalar [10]; 2) Angliya va Uels

uchun jinoyatlar bo'yicha so'rov ("CSEW") – rasmiy ma'lumotlarni to'ldiradigan jinoyat qurbonlarining milliy so'rovi [11] (oxirgi nashr – 2025-yil yanvar); 3) Ma'lumotlar kabineti (Adliya vazirligi) – jinoiy adliya tizimi bo'yicha statistik ma'lumotlar: hibsga olishlar, sudlanganlar va boshqalar [12].

Shotlandiyada: 1) Shotlandiyada qayd etilgan jinoyat [13]; 2) Shotlandiyada jinoyatlar statistikasi – "OSR" (Statistikani tartibga solish idorasi) [14] tomonidan akkreditatsiya qilingan rasmiy statistik ma'lumotlar sifati bo'yicha ommaviy brifing; 3) Shotlandiya Jinoyat va Adliya So'rovi ("Scottish Crime and Justice Survey – SCJS") – "CSEW" analogi, ko'pincha politsiya ma'lumotlari bilan taqqoslash uchun ishlatiladi [15].

Shimoliy Irlandiyada: 1) "PSNI / NISRA" – Shimoliy Irlandiya politsiya xizmati statistik ma'lumotlarni e'lon qiladi: jinoyat, oiladagi zo'ravonlik, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar, yo'l-transport hodisalari va boshqalar [16]. Masalan, "PSNI" oylik hisobotlari – "Politsiya Shimoliy Irlandiyada jinoyatni qayd etgan", 2025-yilning yanvar–may oylari oralig'idagi davr [17]; 3) "NISRA" Jinoyat va adolat bo'limi – sud jarayonlari, qamoqxona joylari, yoshlar odil sudloviga oid statistik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [18].

Zamonaviy dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri bo'lgan Buyuk Britaniyada jinoyatchilik holatini kriminologik tahlil qilish ushbu ijtimoiy hodisaning asosiy xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini butun zamonaviy G'arb jamiyati doirasida tushunish uchun muhimdir. Ushbu tahlil barcha iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarga xos va butun G'arb jamiyati uchun umumiy bo'lgan jinoyatchilik belgilarini nazarda tutib, Buyuk Britaniyaga xos bo'lgan jinoyatchilikning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadini ko'zlaydi. Tarixiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, XX asr boshlarida, birinchi 15 yil ichida Buyuk Britaniyada jinoyatchilik darajasi ancha past bo'lgan, biroq keyingi yillarda jinoyatchilikning o'sish tendensiyasi paydo bo'lib, bu asta-sekin kuchaydi hamda Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi tushkunlik davrida sezilarli darajada oshdi.

So'nggi 40 yil ichida Britaniyada jinoyatchilik holatining turli jihatlariga, jumladan, ko'p yillar davomida jiddiy e'tibor berilmagan jinoyat turlari: oiladagi zo'ravonlik, bolalar jinsiy zo'ravonligi, oq

tanli jinoyatlar va korporativ jinoyatlar, giyohvandlik moddalari bilan bog'liq jinoyatlar va boshqalarni tahlil qilishga qaratilgan kriminologik tadqiqotlar olib borildi.

2024-yilda umumiy jinoyatchilik darajasi 6,6 million jinoyatni tashkil etgan (o'tgan yilga nisbatan bir oz past – 6,7 million jinoyat)[20]. "CSEW" ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda 8,5 million jinoyat qayd etilgan bo'lib, bu 2020-yildagi jinoyatlar darajasidan 17 foizga past [21].

Mintaqalardagi jinoyatlarning qiyosiy tahlilini ko'rib chiqishda Angliya va Uelsda firibgarlik, o'g'rilik, hibsga olishlarda etnik xilma-xillikning o'sishi kuzatiladi.

Shotlandiyada zo'ravonlikni kamaytirish bo'limining profilaktika dasturlari bilan bog'liq qotilliklarni kamaytirish hamda politsiya tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni hukumat tomonidan tekshirishda – politsiya tekshiruvi ("HMICFRS"), mintaqaviy tashabbus sifatida uyushgan jinoyatchilikka qarshi maxsus operatsiyalarni amalga oshirish ("Operatsiya intensivligi"); Shimoliy Irlandiyada qotilliklarning past darajasi, statistik ma'lumotlarga yuqori ishonch, ya'ni sifat akkreditatsiyasi bilan muntazam yangilanadigan statistik ma'lumotlar (oylik) samarali profilaktika vositasi tariqasida e'tirof etilgan.

"Policy Exchange" hisob-kitoblariga ko'ra, jinoyat iqtisodga yiliga 250 milliard funt sterlingacha (YAIMning taxminan 10 foizi), shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri yo'qotishlar (170 milliard funt sterling) va investitsiyalar va iste'molning qisqarishi kabi bilvosita ta'sir ko'rsatadi [23]. Sotuvchilar 20 million o'g'rilik hodisasi hamda har kuni turli zo'ravonlik va suiiste'molliklar natijasida 2,2 milliard funt sterling yo'qotishadi [24].

Shu bilan birga, "qorong'i statistika" (jinoyatning qorong'i ko'rsatkichi) tushunchasi mavjud, ya'ni rasmiy statistikadan tashqarida qoladigan jinoyatlarning katta hajmi (xabar berilmagan yoki qayd etilmagan). "CSEW" ham hisobot qilinadigan, ham xabar berilmaydigan jinoyatlarni qayd etadi, bu esa kengroq tasvirni beradi, politsiya esa faqat xabar qilingan da'volarni aks ettiradi, garchi saqlash amaliyoti va hisobot sifati ma'lumotlarga ta'sir qilishi mumkin [25]. Yozda (iyul-avgust) jinoyatlar, ayniqsa, o'g'irlik va ko'cha jinoyatlari ko'payadi.

2024-yilning mart oyigacha bo'lgan davrda 1,21 million firibgarlik (shu jumladan, kiberjinoyat) sodir etilgan, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 8 foizga o'sgan. "CSEW" ma'lumotlariga ko'ra, 7 holatdan faqat 1 tasi haqida politsiyaga xabar qilingan. Politsiya qayd etgan jinoyatlar statistikasiga faqat ularga xabar qilingan jinoyatlar kiradi.

Mazkur tizimda bir qator kamchiliklar ham mavjud, masalan:

jinoyat to'g'risida kam ma'lumot beriladi (*yoki ko'p jinoyatlar, xususan, oilaviy zo'ravonlik va jinsiy huquqbuzarliklar haqida xabar berilmaydi*);

qayd etishda nomuvofiqliklar uchraydi (*turli politsiya kuchlari har xil metodologiyalardan foydalanadi, bu esa taqqoslashni qiyinlashtiradi*);

ijtimoiy vaziyat yoki siyosatdagi o'zgarishlar jinoyatchilik ko'rsatkichiga o'zining ta'sirini ko'rsatadi (politsiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridagi o'zgarishlar, masalan, pandemiya davrida giyohvandlik jinoyatlariga qarshi kurashish, ayrim toifalar stavkalarining sun'iy ravishda oshishiga olib kelishi mumkin).

Angliya va Uelsda ("Crime Survey") har yili katalar orasida 35 000 ga yaqin so'rov o'tkaziladi, bu esa xabar qilinmagan jinoyatlarga oid ma'lumotlarni qo'lga kiritishda kengroq istiqbolni taqdim etadi.

Ikkala usulning ham kuchli va zaif tomonlari bor, lekin ulardan birgalikda foydalanish jinoyat tendensiyalari haqida to'liqroq ma'lumotlar olinishiga yordam beradi.

Angliya va Uelsdagi jinoyatlar bo'yicha so'rov ("CSEW") keng ko'lamlı statistik so'rov bo'lib, politsiya tomonidan qayd etilgan yoki etilmaganidan qat'i nazar, jamoatchilik tomonidan qabul qilingan jinoyatchilik darajasini aniqlash uchun o'tkaziladi. U jinoyatchilik tendensiyalari, jamoatchilik fikri, jinoyatchilik va politsiya tajribasini baholash uchun muhim ma'lumotlarni taqdim qiladi. Bu Buyuk Britaniyada politsiyaning ro'yxatga olish ma'lumotlari bilan bir qatorda jinoyatchilik statistikasining asosiy manbalaridan biridir. U Milliy statistika idorasi ("ONS") tomonidan olib boriladi va aholi nuqtai nazaridan jinoyatchilikning keng qamrovli tasvirini beradi.

So'rovlarning huquqiy asosi Buyuk Britaniya Statistika boshqarmasi – Milliy statistika idorasini ("ONS") nazorat qiluvchi mustaqil organ Statistika

va ro'yxatga olish xizmati to'g'risidagi ("SRSA 200"), 2017-yilgi "Raqamli iqtisodiyot to'g'risida"gi qonuniga asosan, Milliy statistika idorasining vakolatlarini kengaytiradi. "ONS SRSA" tomonidan belgilangan Amaliyot kodeksiga rioya qilish uchun javobgardir.

"CSEW"ning maqsad va vazifalari:

1) jinoyat haqida politsiyaga xabar berilgan berilmaganidan qat'i nazar, jinoyatchilikning haqiqiy darajasini baholash;

2) aholining xavf ostidagi zaif guruhlarini aniqlash (masalan, jinsi, yoshi, etnik kelib chiqishi bo'yicha);

3) vaqt bo'yicha jinoyatchilik tendensiyalarini o'rganish;

4) jamoat xavfsizligi va jinoyatchilik haqidagi tasavvurlardagi o'zgarishlarni, shuningdek, politsiyaga bo'lgan ishonchni tahlil qilish;

5) politsiya tomonidan qayd etilgan jinoyatni fuqarolarning xabarlari bilan solishtirish;

6) jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan siyosat va strategiyalarni qo'llab-quvvatlash.

Ushbu dastur har yili taxminan 35 000 respondent o'rtasida so'rov o'tkazishni o'z ichiga oladi. Maqsadli guruh 16 va undan katta yoshdagi Angliya va Uels aholisi (2009-yildan boshlab, 10–15 yoshli bolalar ham kiritilgan) tasodifiy tanlab olishga tayanadi. Ma'lumot to'plash usuli – tuzilgan savollardan foydalangan holda shaxsiy suhbat (uylarida suhbat) shaklida o'tkaziladi, ma'lumotlarning maxfiyligi kafolatlanadi.

Tahlilning asosiy yo'nalishlari: jinoyatchilikning umumiy darajasi (jinoyatlarning soni va turlari); zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlar; firibgarlik va kiberjinoyatlar; o'g'rilik, talonchilik; oiladagi zo'ravonlik; jinoyatdan qo'rqish (odamlar qo'shnilaridan o'zlarini qanchalik xavfsiz his qiladilar); politsiya va jinoiy adliya tizimiga ishonchni aniqlash.

"CSEW"ning kuchli tomonlari: 1) keng qamrovli, ya'ni politsiyaga xabar berilmagan jinoyatlarni o'z ichiga oladi; 2) ishonchli tahlil: tadqiqot 1981-yildan beri olib boriladi; 3) fuqarolarning jinoyat va huquqbuzarlik haqidagi tasavvurlari haqida tushuncha beradi; 4) ko'pincha, rasmiy qayd etilmagan oilaviy zo'ravonlik va jinsiy jinoyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlanadi.

Kamchiliklar: 1) barcha jinoyat turlarini qamrab olmaydi, masalan, tashkilotlarga/biznesga qarshi jinoyatlar, odam o'ldirish (so'rov usuli bilan baholab bo'lmaydi), xususiy uy xo'jaliklarida yashamaydigan shaxslar (masalan, uysizlar)ga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar; 2) jamoaviy muassasalar (qamoqxonalar, kasalxonalar, harbiy qismlar)ni o'z ichiga olmaydi; 3) o'z-o'zi to'g'risida hisobot berishda xatoliklar yuz berishi mumkin, chunki u xotiralarga asoslangan bo'lib, natijada xotira bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin (masalan, unutish yoki uyalish tufayli noaniqliklar paydo bo'lishi mumkin).

Asosiy ma'lumotlarga misollar (tarixiy ma'lumotlar asosida):

1. "CSEW" tomonidan baholangan jami jinoyatlar: taxminan 9,3 million hodisa.

2. "CSEW" ma'lumotlariga ko'ra, jinoyatlarning o'rtacha 60% to'g'risida politsiyaga xabar berilmaydi.

3. Umumiy jinoyatchilik darajasi kamayishining eng yuqori cho'qqisi (70% ga kamayishi) 1995-yilda kuzatilgan.

4. Firibgarlik va kiberjinoyatlar, ayniqsa, 2020-yildan beri o'sib bormoqda.

Angliya va Uels uchun jinoyatchilikka oid so'rov jinoyatning haqiqiy darajasini, xavfsizlik masalalari bo'yicha jamoatchilik fikrini baholash va tushunishning asosiy vositasidir. U politsiya tomonidan qayd etilmagan noyob ma'lumotlarni taqdim etadi, jabrlanuvchilar va jinoyatning ijtimoiy jihatlariga e'tibor qaratish orqali rasmiy statistik ma'lumotlarni to'ldiradi, bu esa jamiyatdagi jinoyatlar haqida aniqroq tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi. Uning natijalari hukumat (Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi), akademik tadqiqotlarda, NNT va xayriya tashkilotlari ishida, ommaviy axborot vositalarida samarali xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish uchun jamoat xavfsizligi masalalarini yoritishda keng qo'llaniladi.

Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizdagi jinoyatlarni qayd etish tizimidan farqli o'laroq, Buyuk Britaniyada jinoyatga oid statistika nafaqat politsiya tomonidan ro'yxatga olingan jinoyatlar, balki har yili aholi orasida o'tkaziladigan intervyular va ijtimoiy so'rovlar asosida shakllantiriladi. Buyuk Britaniyada jinoyatchilikni kriminologik tahlil qilishda "Jinoyat huquqi to'g'risida"gi qonunga

ko'ra, jinoyatlar uchta asosiy toifaga bo'linadi (*ayblash mumkin bo'lgan jinoyatlar, yengil jinoyatlar va ikki tomonlama jinoyatlar*).

Mantiqan olganda, har qanday kurashishda bir tomon ikkinchi tomonning real mavjud kuch va imkoniyati haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasdan raqib bilan munosib kurasha olmaydi. Shunday ekan, jinoyatchilikka qarshi kurashishda ham nafaqat ro'yxatga olingan jinoyatlar, balki latent jinoyatlar ko'lamini ham aniqlashtirish, shu asosda manzilli va ta'sirchan chora-tadbirlarni ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

Jinoyat haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish uchun esa mamlakatimiz qonunni qo'llashda birlamchi ishonchli ma'lumotlarni olish bo'yicha Buyuk Britaniya tajribasini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darhaqiqat, bu borada aholining real saviyasi, ya'ni ularga nisbatan qancha jinoyat sodir etilgani va ular bu haqda ichki ishlar organlariga xabar bergan-bermaganligini aniqlash maqsadida aholi o'rtasida sotsiologik so'rov o'tkazish sodir etilgan jinoyatlarning haqiqiy sonini aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, anonim "o'z-o'zidan xabar berish" amaliyotidan foydalangan holda, buning natijasida fuqarolar o'zlari sodir etgan va ichki ishlar organlariga ma'lum bo'lmagan jinoyatlar haqida xabar berishadi, pirovardida, respublika va mahalliy darajada aholi tomonidan jinoyatga oid ma'lumotlarni qabul qilish foizini aniqlash imkoniyatiga keladi. Sodir etilgan jinoyat to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni olish bo'yicha mazkur metodologiyaning joriy etilishi nafaqat jinoyatlarning real sonini bilish, balki mamlakatdagi yashirin (latent) jinoyatlarning haqiqiy holatini aniqlash imkoniyatini yaratadi.



Foydalanilgan manbalar

1. Annual Abstract of Statistics 11999 edition. A Publication of the Government Statistical Service, London, 2014. – P. 166.
2. <https://www.ons.gov.uk/>
3. Criminal Law Act, 1977.
4. В английском языке (и в законодательстве) отсутствует разграничение понятий "грабеж" и "разбой". Для обозначения обоих понятий используется один термин – robbery, который в данной работе переводится как "ограбление".
5. Notifiable Offences, England and Wales, 1997. Home Office Statistical Bulletin № 7/98., London, 2020. – P.20-22.
6. Notifiable offences England and Wales 1997. London, 2020. – P. 7.
7. Никифоров Б.С., Решетников Ф.М. Современное американское уголовное право. – М., 1990. – С. 106.
8. Notifiable offences England and Wales 2015. London, 2015. – P. 9.
9. <https://www.ons.gov.uk/peoplepopulationandcommunity/crimeandjustice/methodologies/crimeinenglandandwales>
10. <https://www.ons.gov.uk/>
11. <https://crimesurvey.co.uk/en/index.html>
12. <https://data.justice.gov.uk/>
13. <https://www.gov.scot/publications/recorded-crime-scotland-2023-24>
14. <https://www.spa.police.uk/publication-library/recorded-crime-and-official-statistics-accreditation-in-the-uk-public-briefing/crime-statistics-in-scotland/>
15. <https://www.ons.gov.uk/>
16. <https://www.psn.police.uk/about-us/our-publications-and-reports/official-statistics>
17. <https://www.gov.uk/government/statistics/police-recorded-crime-in-northern-ireland-period-ending-31-january-2025>
18. <https://www.nisra.gov.uk/statistics/crime-and-justice>
19. Radzinowicz L., King J. The growth of crime: The international experience. Harmondsworth, 2024. – P.16.
20. <https://www.ons.gov.uk/peoplepopulationandcommunity/crimeandjustice/methodologies/crimeinenglandandwales>
21. <https://www.ons.gov.uk/peoplepopulationandcommunity/crimeandjustice/bulletins/crimeinenglandandwales/yearendingseptember2023>
22. <https://www.theguardian.com/business/2025/mar/03/soaring-uk-crime-cost-up-policy-exchange-policing-prisons>
23. <https://www.reuters.com/world/uk/theft-violence-uk-retail-soar-record-levels-survey-shows-2025-0130/>
24. https://en.wikipedia.org/wiki/Dark_figure_of_crime
25. <https://www.ons.gov.uk/peoplepopulationandcommunity/crimeandjustice/methodologies/crimeinenglandandwales>



OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNING KRIMINOLOGIK TAHLILI (Rossiya Federatsiyasi misolida)



Abdugapparov Alisher Azatovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti markaz boshlig'i

Annotatsiya: Maqolada tegishli xatti-harakatlar uchun javobgarlik to'g'risidagi jinoiy-huquqiy normada ko'rsatilgan zarar doirasidan chetga chiqadigan va tegishli g'ayriqonuniy xatti-harakatlarning yuqori ijtimoiy xavfliligini, shuningdek, ularning oldini olish bo'yicha maxsus choralar majmuini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradigan ommaviy tartibsizliklarning oqibatlari ko'rib chiqilgan. Ommaviy tartibsizliklarning kriminologik xususiyatlariga va ularning namoyon bo'lishiga qarshi harakat qilish samaradorligini oshirishga nisbatan olimlarning nuqtayi nazarlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ommaviy tartibsizliklar, ijtimoiy xavf, jinoyatlarning oldini olish, kriminologik oqibatlar.

Аннотация. В статье рассматриваются последствия массовых беспорядков, выходящие за рамки того вреда, который указан в уголовно-правовой норме об ответственности за деяния, относящиеся к таким беспорядкам и обуславливающие повышенную общественную опасность соответствующих противоправных действий, а также необходимость выработки комплекса специальных мер предупреждения последних. Анализируются точки зрения ученых относительно криминологических особенностей массовых беспорядков и повышения эффективности противодействия их проявлениям.

Ключевые слова: массовые беспорядки, общественная опасность, предупреждение преступлений, криминологические последствия.

Abstract. The article examines the consequences of mass riots that go beyond the harm specified in the criminal law norm on liability for acts related to such riots and causing an increased public danger of the relevant illegal actions, as well as the need to develop a set of special measures to prevent the latter. The article analyzes the views of scientists regarding the criminological features of mass riots and increasing the effectiveness of countering their manifestations.

Keywords: mass riots, public danger, crime prevention, criminological consequences.

O'zbekiston Respublikasining Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida [1] davlat va jamoat xavfsizligi asosiy strategik milliy ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan. Uning asoslari shaxs, mulk, davlat hokimiyati, jamoat va iqtisodiy xavfsizlikka qarshi qaratilgan turli tahdidlar, jumladan, jinoiy harakatlarning amalga oshirilishi natijasida buzilishi mumkin. Bunday jinoyatlarning xavfi ular uyushgan guruhlar tomonidan amalga oshirilganda bir necha barobar

ortadi, bular, xususan, ko'pincha ommaviy tartibsizliklarni tashkil etish, ularning tashkilotchilari (rahbarlari) va boshqa ishtirokchilarini tayyorlash va o'qitish, shuningdek, bir vaqtning o'zida ko'plab jinoiy-huquqiy muhofaza obyektlariga (jamoat xavfsizligi, shaxs, mulk, boshqaruv tartibi va boshqalar) tajovuz qiladigan tegishli ijtimoiy xavfli aksiyalarga bevosita rahbarlik qilish ortida turadi.

Ommaviy tartibsizliklarning ijtimoiy xavfi shundaki, ular sodir etilganda hokimiyat organ-

larining, ular sodir etilgan joyda jamoat tartibini qo'riqlovchi tuzilmalarning faoliyati falajlanadi, turli obyektlar va fuqarolarga jiddiy zarar yetkaziladi. Ko'p sonli odamlar (odamlar to'dasi) tomonidan tegishli g'ayriqonuniy harakatlar sodir etilishi va ularning talonchilik, vayrongarchilik, yong'inlar, hokimiyat vakillariga qurolli qarshilik ko'rsatish va shu kabilar bilan bog'liqligi natijasida jamoat tartibi va davlat boshqaruvi asoslari izdan chiqadi. Bunda ommaviy tartibsizliklar an'anaviy ravishda to'da tomonidan sodir etilgan jinoyat sifatida qabul qilinadi, u guruhli jinoiy xulq-atvorning eng xavfli turlaridan biri bo'lib, uning ishtirokchilari doim ham oldindan kelishuv, shuningdek, ular tomonidan sodir etiladigan jinoyat qonuni buzilishlarining aniq belgilangan maqsadlari va chegaralari bilan birlashmagan bo'ladi.

Zamonaviy davr dunyoning turli mintaqalarda tartibsizliklarning soni va ko'lamining oshishi bilan tavsiflanadi. Bunda odamlar katta guruhlarning tegishli jinoiy xulq-atvori paydo bo'lishi va keyingi rivojlanishi mexanizmi asosida milliy va davlatlararo darajadagi hokimiyatlarning qarorlari va harakatlaridan yaqqol ifodalangan norozilik, shuningdek, iqtisodiy va migratsiya inqirozlari bilan bog'liq bo'lgan irqqlararo, etnik va (yoki) dinlararo keskinlikning kuchayishi saqlanib qolmoqda.

Har bir ommaviy tartibsizlik sodir etilganda keltirilgan oqibatlarni yaqqol yoki yashirin, bevosita yoki bilvosita tusga ega bo'lgan ommaviy tartibsizliklarga bo'lish mumkin. Bundan tashqari, ommaviy tartibsizliklarning salbiy oqibatlari ularning amalga oshirilishi jarayonida yoki ular tugagandan so'ng darhol yuzaga keladi. Shuningdek, bunday oqibatlarni kelgusida saqlab qolishi ijtimoiy keskinlikni kuchaytirish, siyosiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa belgilar bo'yicha nafarat va adovatni qo'zg'ash, qolaversa, yangi ommaviy tartibsizliklar va boshqa jinoyatlarni sodir etish uchun sharoitlar yaratish maqsadida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, avvalambor, Internet tarmog'idan foto, video yoki matnli materiallar, ularga sharhlarni joylashtirish va muhokama qilish uchun foydalanish bilan bog'liq bo'lib, qoida tariqasida, zo'rvonlik tusiga ega, shuningdek, ekstremistik yo'nalish bilan farqlanadi [2; 776-784-b.].

Mavjud ommaviy tartibsizliklarning oldini olish vositalarining yetarlicha samarali emasligiga

Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi huzuridagi Sud departamenti keltirgan va Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 212-moddasi bo'yicha sudlangan shaxslar sonining kamayishiga barqaror tendensiya yo'qligini ko'rsatuvchi statistik ma'lumotlari ham guvohlik beradi [3].

Ta'kidlash joizki, ommaviy tartibsizliklar uchun sudlanganlik holati to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni tegishli jinoyatlarni tashkil etish va ularni amalga oshirishga boshqacha yordam berish bo'yicha g'ayriqonuniy faoliyatning yashirin tusini hisobga olgan holda baholash kerak. Bundan tashqari, hatto alohida olingan ommaviy tartibsizliklarni sodir etish fakti ham shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining himoyalanganlik holatiga sezilarli zarar yetkazishga qodir bo'lgan bevosita va bilvosita zararli ijtimoiy oqibatlarining keng majmuasini keltirib chiqarish bilan bog'liq [2; 776-784-b.].

Ommaviy tartibsizliklarning jinoiy-huquqiy tushunchasida ular sodir etilishi natijasida nafaqat jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini, balki fuqarolarning tana daxlsizligi va salomatligi, hayotining xavfsizligi, turli mulkchilik shakllarida bo'lgan mulkning saqlanishi va hokazolarni ta'minlaydigan o'z xarakteriga ko'ra turli xil ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazish imkoniyati allaqachon nazarda tutilgan. Ushbu xususiyat ommaviy tartibsizliklarni ko'p obyektli jinoyatlarga kiritishga imkon beradi [4; 130-138-b.], bu esa bir vaqtning o'zida ularning jamiyatga keltiradigan oqibatlarining og'irligini ham ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ommaviy tartibsizliklar, ayniqsa, keng ko'lamli va davomli tusga ega bo'lganlari, ijtimoiy portlash effektiga ega. Buning natijasida turli ijtimoiy guruhlarning eng salbiy his-tuyg'ulari tashqariga chiqadi, bu esa, o'z navbatida, jamiyat hayotida tajovuzkorlikning yanada o'sishiga olib keladi va bu nafaqat axborot maydonida, balki aniq zo'rvonlik harakatlari va boshqa ijtimoiy xavfli harakatlarda ham namoyon bo'ladi. Ommaviy tartibsizliklarning oqibatlari jinoyat qonunida bayon qilingan zarar doirasidan ancha chetga chiqadi, bunda ular kompleks, tarmoqlangan xususiyatga ega va jamiyat hayotining ko'p sohalariga, shuningdek, davlat va jamoat institutlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Alohida olingan ommaviy tartibsizliklarni sodir etish faktining oqibatlari aniq

joyi, vaqti, ko'lami, ishtirokchilar tarkibi, ularning motivatsiyasi va ular tomonidan sodir etilayotgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlarning mazmuni, shuningdek, boshqa aniq holatlarga bog'liq.

Ta'kidlash joizki, Rossiyada ommaviy tartibsizliklarning katta qismi vaqtincha qamoqda saqlash joylarida va ozodlikdan mahrum qilish ko'rinishidagi jazoni ijro etish joylarida sodir etiladi, bu esa nafaqat tegishli muassasalar, balki butun jazoni ijro etish tizimi faoliyatini uzoq vaqt davomida sezilarli ravishda beqarorlashtiradi.

Masalan, bir jinoyat ishi bo'yicha sud Chelyabinsk viloyatidagi koloniyada ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan mahkumlar guruhi saqlash sharoitlaridan va taqiqlangan buyumlar, mobil telefonlar va Internet tarmog'idan foydalanishni qonuniy taqiqlashdan norozi bo'lib, muassasaning ichki tartib-qoidalariga rioya qilishni istamay, koloniya ma'muriyatini ishdan olishga va o'z maqsadlarida unga ta'sir ko'rsatishga, muassasaning ayrim xodimlari tomonidan ixtiyoriy yordam niqobi ostida ularga pul berish to'g'risidagi talablarini bahona qilib, koloniyada va unga tutash hududlarda boshqa mahkumlar, muassasadan tashqarida yashovchi tanishlari ishtirokida ommaviy tartibsizliklarni uyushtirganligini aniqladi [5; 136-139-b.].

Ommaviy tartibsizliklar mahkumlarning o'z vazifalarini va koloniya xodimlarining qonuniy talablarini bajarishdan bosh tortishidagina emas, balki bo'ysunmaslikka chaqirishda, ishlab chiqarish inshootlariga o'tish joylarini va yondosh joylarni to'sib qo'yishda, muassasaning mulkini yo'q qilish va shikastlashda, hokimiyat vakillariga va tartibsizliklarda ishtirok etishdan bosh tortgan mahkumlarga zo'ravonlik qilishda ham ifodalangan. Mazkur ommaviy tartibsizliklarning bevosita oqibatlari koloniyada va uning atrofidagi hududda jamoat tartibining buzilishi, butun shahar okrugi hududida jamoat xavfsizligiga tahdid yaratilishi, shuningdek, hokimiyat va boshqaruv organlarining normal faoliyati va ishlashi falajlanishi, boshqa mahkumlar va ichki ishlar organlari xodimlarining salomatligiga turli og'irlik darajasida zarar yetkazilishi, shahar ma'muriyati vakillarining erkinligi cheklanishi, katta miqdorda mulkiy ziyon yetkazilishida namoyon bo'ldi.

Sudlar tomonidan oxirgi o'n yilda ko'rib chiqilgan ommaviy tartibsizliklar to'g'risidagi jinoyat

ishlarini o'rganishda aybdor shaxslarning motivlari va maqsadlari vaqt o'tishi bilan jiddiy o'zgarishlarga uchramaganligi aniqlandi, ya'ni avvalgidek, vaqtincha saqlash hibsonalarida va axloq tuzatish muassasalarida ommaviy tartibsizliklar saqlash sharoitlaridan, shuningdek, ushbu muassasalar ma'muriyati va xodimlarining qarorlari va harakatlardan norozilik tufayli sodir etiladi; oxirgilarining chegaralariga bog'lanmagan boshqa ommaviy tartibsizliklar esa asosan siyosiy motivlarda (mamlakat, mintaqa, munitsipalitet rahbariyatiga nisbatan norozilik kayfiyatini ifodalash) yoki milliy, diniy nafrat yoki adovat motivlarida (migrantlarning, muayyan etnik yoki diniy mansublikka ega bo'lgan shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlariga katta guruhlarining reaksiyasi) amalga oshiriladi.

Amalga oshirish joyi, vaji va undan kelib chiqadigan yetakchi motivatsiyaga, oldindan tayyorlikning mavjudligi yoki yo'qligiga, jumladan, ommaviy tartibsizliklarga chaqirish va buning uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanishga qarab, bunday tartibsizliklarning ko'lami va, oqibatda, ijtimoiy oqibatlarining xarakteri va hajmi ham o'zgaradi. Xususan, ekstremistik jinoyatlarga xos bo'lgan motivlar bo'yicha sodir etiladigan ommaviy tartibsizliklar uchun ularning ijtimoiy oqibatlarini zanjir reaksiyasi bilan taqqoslash adolatli ko'rinadi [6; 12-b.].

Ommaviy tartibsizliklar nafaqat ularni bartaraf etish davrida, balki keyinchalik tegishli jinoyat ishlarini tergov qilish va ko'rib chiqishda ham huquqni muhofaza qiluvchi organlarning katta resurslarini o'ziga jalb qiladi.

Masalan, biz o'rgangan ommaviy tartibsizliklarni tashkil qilishda ayblangan 17 nafar shaxsga nisbatan bittagina jinoyat ishining hajmi 185 tomni tashkil etgan, uning tergov davomida 15 nafar shaxs jabrlanuvchi deb topilgan va 231 nafar guvoh so'roq qilingan, sudda 167 nafar jabrlanuvchi va guvoh so'roq qilingan, ish bo'yicha jarayonning o'zi esa umuman olganda besh yildan ortiq vaqt davom etgan, bu sud qarorida aks ettirilgan [7].

Ommaviy tartibsizliklar butun amalga oshirish vaqti davomida ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya qo'shinlari faolligini monopoliyalashtiradi va shu orqali ularning boshqa jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish qismidagi faoliyatini beqarorlashtiradi, bunda tegishli jinoyat

ishlarini tergov qilish va ko'rib chiqish ham yuqori murakkabligi va sezilarli vaqt va moliyaviy xarajatlar bilan tavsiflanadi, bu esa bilvosita bunday tartibsizliklarning oldini olish vazifalarini hal etish samaradorligini oshirishni dolzarblashtiradi [8; 135-141-b.; 9; 155-158-b.].

Shunday qilib, ommaviy tartibsizliklarning kriminologik oqibatlari alohida olingan g'ayriqonuniy harakatlar uchun jinoyat qonunida nazarda tutilgan zarar doirasidan ancha chetga chiqadi va tarmoqlangan, ko'p darajali tusga ega. Ommaviy tartibsizliklar ijtimoiy portlash effektini hosil qilishga qodir, bu esa ularning amalga oshirilishi jarayonida namoyon bo'ladi, qachonki ular hokimiyat organlarining, turli muassasalar va boshqa tashkilotlarning faoliyatini beqarorlashtiradi yoki hatto butunlay falajlaydi, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi asoslarini jiddiy ravishda buzadi, turli og'irlik darajasidagi jismoniy, mulkiy va boshqa zarar yetkazish uchun bevosita tahdid yaratadi.

Shu bilan birga, ommaviy tartibsizliklar, ular tugaganidan so'ng, jamiyatda, avvalo, etnik, diniy yoki siyosiy darajada kelib chiqqan nizolarning keskinlashuvini, zanjir reaksiyasi tamoyili bo'yicha rivojlanadigan turli salbiy ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda global va mahalliy darajalarda ijtimoiy keskinlikning kuchayishi, ijtimoiy nizolarning yuzaga kelishi va ko'lamining oshishi, shuningdek, ommaviy tartibsizliklarning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan tegishli keng ko'lamli namoyishlar ishtirokchilarining yetakchi motivatsiyasi bilan birlashtirilgan va bitta murakkab salbiy hodisani tashkil qiluvchi g'ayriqonuniy harakatlarning keng majmuasini bir vaqtda amalga oshirishga qarshi huquqiy, tashkiliy va maxsus-kriminologik tusdagi o'ziga xos choralarning muvofiqlashtirilgan tizimini ishlab chiqish, rivojlantirish va qo'llashni talab qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021-y., 06/21/27/1116-son; 16.01.2024-y., 06/24/10/0031-son.
2. Иванцов С.В., Борисов С.В., Узембаева Г.И. и др. Актуальные проблемы совершенствования мер криминологического предупреждения преступлений экстремистской направленности, совершаемых с использованием информационно-телекоммуникационных сетей // Всероссийский криминологический журнал. – 2018. – № 6. – С. 116-184.
3. Официальный сайт Судебного департамента при Верховном Суде РФ, разд. «Данные судебной статистики» // URL://-http://www.cdep.ru/index.php?id=79
4. Карабанова Е.Н. Социально-правовая природа многообъектных преступлений // Журнал российского права. – 2011. – № 1. – С. 130-138.
5. Кабанов Н.А. Массовые беспорядки, совершаемые с использованием информационно-коммуникационных технологий, как объект криминологического исследования // Вестник Московского университета МВД России. – 2019. – № 2. – С. 136-139.
6. Борисов С.В., Жеребченко А.В. Современные проблемы квалификации преступлений экстремистской направленности: Учеб. пособие. – М., 2018.
7. Карабанова Е.Н. Социально-правовая природа многообъектных преступлений // Журнал российского права. – 2011. – № 1. – С. 130-138.
8. Кабанов Н.А. К вопросу о совершенствовании профилактики и предотвращения массовых беспорядков // Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского. – 2019. – Т. 5 (11). – № 2. – С. 135-141.
9. Иванцов С.В. Использование информационно-телекоммуникационных сетей для совершения преступлений: вопросы уголовно-правового воздействия и предупреждения // Сб. статей по мат. IV Всерос. науч.-практ. конф. Саратов, 2019.

JAHON INTERNET TARMOG'IDA BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK JINOYATLARINI TERGOV QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI VA MILLIY QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI



Davletov Jasurbek Baxtiyarovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon internet tarmog'ida bolalarga nisbatan zo'ravonlik jinoyatlarini tergov qilishning xalqaro-huquqiy asoslari o'rganilgan. Tadqiqot doirasida Yevropa Kengashining Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Budapesht konvensiyasi (2001), Kiberjinoyatchilikka qarshi BMT Konvensiyasi (2024) kabi xalqaro hujjatlarning tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, O'zbekistonning amaldagi qonunchiligi, xususan, "Bolalarni barcha shakldagi zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni va Jinoyat kodeksining tegishli moddalarini xalqaro standartlar bilan qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: bolalarga nisbatan onlayn zo'ravonlik, kiberjinoyatchilik, xalqaro huquq, Budapesht konvensiyasi, BMT Kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasi, bolalar huquqlarini himoya qilish, elektron dalillar.

Аннотация. В данной статье представлен углубленный анализ международно-правовой базы расследования преступлений насилия в отношении детей в глобальном интернете. Проведен анализ международных документов как Будапештская конвенция Совета Европы о киберпреступности (2001), Конвенция ООН против киберпреступности (2024). Изучено действующее законодательство Узбекистана, в частности Закон «О защите детей от всех форм насилия» и соответствующие статьи Уголовного кодекса, в сравнении с международными стандартами.

Ключевые слова: насилие в интернете в отношении детей, киберпреступность, международное право, Будапештская конвенция, Конвенция ООН против киберпреступности, защита прав детей, электронные доказательства.

Abstract. This article presents an in-depth analysis of the international legal framework for investigating crimes of violence against children online. The study included an analysis of international documents, such as the Council of Europe's Budapest Convention on Cybercrime (2001) and the UN Convention against Cybercrime (2024). In addition, the current legislation of Uzbekistan, specifically the Law "On the Protection of Children from All Forms of Violence" and relevant articles of the Criminal Code, was examined in comparison with international standards.

Keywords: online violence against children, cybercrime, international law, Budapest Convention, UN Convention against Cybercrime, child protection, electronic evidence.

Zamonaviy dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalari uchun ta'lim olish, ijtimoiylashuv va ijodiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, ayni paytda, ularni yangi xavf-xatarlarga duchor qilmoqda. Dunyo bo'ylab bolalarga nisbatan onlayn zo'ravonlik jinoyatlari, jumladan: kiber-

bulling, "onlayn grooming", bolalar pornografiyasini ishlab chiqarish va tarqatish, jinsiy ekspluatatsiya materiallari savdosi kabi jinoyatlar tashvishli darajada o'sib bormoqda. "Childlight" tadqiqot markazining tadqiqotlariga ko'ra, 300 milliondan ortiq yoshlar onlayn jinsiy zo'ravonlik va ekspluatatsiyaga duchor bo'lgan [1].

Xalqaro darajada bolalarga nisbatan onlayn jinoyatlarning oldini olish va tergov qilish bo'yicha bir qator muhim huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

2001-yilda Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Budapesht konvensiyasi kiberjinoyatlarni tergov qilish bo'yicha protsessual huquq vositalarini belgilab berdi va davlatlararo hamkorlikning huquqiy asosini yaratdi [2]. 2007-yilda qabul qilingan Lansarote konvensiyasi bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning keng qamrovli xalqaro hujjati sifatida e'tirof etildi [3]. 2024-yil 24-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiya esa so'nggi 20 yil ichida qabul qilingan birinchi global jinoiy-huquqiy shartnoma sifatida muhim qadam bo'ldi [4]. Ushbu uchta shartnoma bir-birini to'ldiruvchi va mustahkamlovchi normativ-huquqiy tizimni tashkil etadi.

O'zbekiston ham ushbu global muammoga befarq emas. O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonun (2024) bolalar huquqlarini himoya qilish sohasida muhim qadam bo'ldi [5]. Biroq, milliy qonunchilikda internet tarmog'ida bolalarga nisbatan zo'ravonlik jinoyatlarini tergov qilishning maxsus protsessual mexanizmlari, xalqaro hamkorlik tartib-qoidalari va elektron dalillarni to'plash usullari bo'yicha hali yetarli darajada normativ baza shakllanmagan. Mazkur tadqiqotning maqsadi – jahon internet tarmog'ida bolalarga nisbatan zo'ravonlik jinoyatlarini tergov qilishning xalqaro-huquqiy asoslarini tizimli tahlil qilish, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va O'zbekiston milliy qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Budapesht shahrida imzolangan (2001) Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Yevropa Kengashi konvensiyasi (Budapesht konvensiyasi) kiberjinoyatchilik sohasidagi birinchi va eng muhim xalqaro shartnoma hisoblanadi. Bu konvensiya milliy qonunchilikni uyg'unlashtirish, tergov usullarini takomillashtirish va davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish maqsadlarini ko'zlaydi. 2025-yil avgust holatiga ko'ra, 81 ta davlat ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilgan va u kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda "oltin standart" sifatida baholanmoqda [6]. Konvensiya nafaqat Yevropa Kengashi a'zolari, balki dunyoning boshqa mamlakatlari uchun ham ochiq bo'lib, bu uning global ahamiyatini oshiradi.

Budapesht konvensiyasining protsessual huquqiy normalariga ko'ra, konvensiya ishtirokchi davlatlardan saqlangan kompyuter ma'lumotlarini zudlik bilan saqlash buyrug'ini chiqarish, trafik ma'lumotlarini zudlik bilan saqlash va qisman oshkor qilish, ishlab chiqarish buyrug'i, saqlangan kompyuter ma'lumotlarini izlash va musodara qilish, real vaqt rejimida trafik ma'lumotlarini to'plash va aloqa mazmunini ushlab qolish kabi protsessual vositalarni joriy etishni talab qiladi. Bu vositalar internet-provayderlarga shaxsning onlayn faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish vakolatini berish, ma'lumotlarni zudlik bilan saqlash buyrug'ini chiqarish va boshqa tezkor choralarini ko'rishni nazarda tutadi. Muhimi, bu protsessual vakolatlar nafaqat kiberjinoyatlar, balki kompyuter tizimi yordamida sodir etilgan har qanday jinoyatga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

2024-yil 24-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 193 ta a'zo davlati tomonidan qabul qilingan Kiberjinoyatchilikka qarshi BMT Konvensiyasi xalqaro jinoyat huquqi sohasidagi muhim voqea sifatida baholandi. UNODC ijroiya direktori Gada Valining ta'kidlashicha, ushbu konvensiyaning qabul qilinishi multilateralizm uchun katta g'alaba bo'lib, so'nggi 20 yil ichida qabul qilingan birinchi xalqaro jinoiy-huquqiy shartnoma hisoblanadi [7]. BMT Bosh Assambleyasi Prezidenti Filemon Yanning ta'biri bilan aytganda, ushbu konvensiya a'zo davlatlarga kiberjinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni kuchaytirishning vositalari va mexanizmlarini beradi [8]. Mazkur konvensiyaning 14-moddasi bolalarga nisbatan onlayn jinsiy zo'ravonlik va ekspluatatsiya materiallarini ishlab chiqarish, taklif qilish, sotish, tarqatish, uzatish, translyatsiya qilish, namoyish etish, nashr qilish yoki boshqa yo'l bilan AKT tizimi orqali taqdim etishni, bunday materiallarni qidirish, olish yoki ularga kirishni, egalik qilish yoki nazorat qilishni hamda ushbu jinoyatlarni moliyalashtirishni jinoiy javobgarlikka tortishni nazarda tutadi.

BMT konvensiyasining Budapesht konvensiyasidan bir nechta muhim farqi mavjud. *Birinchi-dan*, u butun dunyo miqyosida qo'llanilishi mo'ljallangan va rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlarini ham hisobga oladi, bu esa Budapesht konvensiyasiga nisbatan kengroq qamrovni

ta'minlaydi. *Ikkinchidan*, konvensiya "bolalar pornografiyasi" atamasi o'rniga "bolalar jinsiy zo'ravonligi yoki ekspluatatsiyasi materiallari" atamasini qo'llaydi, bu zamonaviy yondashuvni aks ettiradi. *Uchinchidan*, konvensiya "kompyuter tizimi" o'rniga "AKT tizimi" atamasini ishlatadi, bu texnologik rivojlanishga mos keladigan kengroq tushuncha hisoblanadi.

Bolalarga nisbatan onlayn jinoyatlarni tergov qilishda xalqaro hamkorlik mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. INTERPOL tashkilotining Bolalarga qarshi jinoyatlar bo'limi yosh jabrlanuvchilarni aniqlash va qutqarish, bolalar jinsiy zo'ravonligi materiallariga kirishni bloklash va jinsiy jinoyatchilarning xorijga sayohat qilishining oldini olish bo'yicha faoliyat yuritadi. INTERPOLning Bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasi xalqaro ma'lumotlar bazasi (ICSE) ushbu sohada eng muhim tergov va razvedka vositasi hisoblanadi. Baza maxsus tasvir va video taqqoslash dasturiy ta'minoti yordamida jabrlanuvchilar, jinoyatchilar va jinoyat sodir etilgan joylar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi [9]. ICSE bazasining samaradorligi raqamlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bazaga ulangan 68 mamlakatning tergovchilari dunyo bo'ylab hamkasblari bilan ma'lumot almashishi va tergov ishlarida hamkorlik qilishi mumkin. Baza tergovchilarga tasvirlar turkumi allaqachon boshqa mamlakatda aniqlangan yoki tekshirilganligini bilish imkonini berish orqali ishlarni takrorlash xavfini kamaytiradi va qimmatli vaqtni tejaydi. INTERPOL Bosh kotibi Yurgen Shtokning ta'kidlashicha, har kuni dunyodagi tergovchilar bolalarga nisbatan onlayn jinsiy ekspluatatsiya va zo'ravonlik jabrlanuvchilarini aniqlash va jinoyatchilarni jinoiy javobgarlikka tortish uchun mashaqqatli va qahramonlarcha ish olib boradilar, biroq bu masalani hal qilish huquqni muhofaza qilish doirasidan tashqariga chiqadi [10].

O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni bolalar huquqlarini himoya qilish tizimida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu qonun zo'ravonlikning aniq ta'rifini beradi va jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, e'tiborsizlik, ekspluatatsiya va ta'qib (bulling, shu jumladan kiberbulling) kabi turlarni qamrab oladi. Muhimi, qonunda telekom-

munikatsiya tarmoqlari va jahon internet tarmog'i orqali sodir etiladigan zo'ravonlik harakatlari ham bevosita nazarda tutilgan. Mazkur qonun xalqaro standartlarga mos keladi va boshqa davlatlarning ilg'or tajribasini o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi masalalar ijrosini ta'minlash yuzasidan kiberxavfsizlik sohasida ham muhim islohotlar amalga oshirilgan. 2022-yilda qabul qilingan "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun axborot tizimlarining yaxlitligi, maxfiyligi va mavjudligini himoya qilishga qaratilgan [11]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-aprelda imzolagan "Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori O'zbekiston bo'ylab kiberxavfsizlik majburiyatlarini kuchaytirish va kiberjinoyatlarga qarshi kurashishni maqsad qilgan [12].

Biroq, amaliy jihatdan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Birinchi muammo shundaki, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida internet tarmog'ida bolalarga nisbatan zo'ravonlik jinoyatlarining maxsus tarkiblari yetarli darajada ochib berilmagan. Masalan, onlayn grooming, ya'ni bolalarni internet orqali jinsiy maqsadlarda yo'ldosh izlash va tayyorlash harakatlari alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilanmagan. Budapesht konvensiyasining 9-moddasi va BMT konvensiyasining 15-moddasi ushbu harakatni alohida jinoiy javobgarlikka tortishni talab etsa-da, O'zbekiston qonunchiligida bu borada maxsus norma mavjud emas.

Ikkinchi muammo – elektron dalillarni to'plash, saqlash va foydalanishning protsessual tartib-qoidalarining yetarli darajada tartibga solinmaganligi. Budapesht konvensiyasi elektron ma'lumotlarni zudlik bilan saqlash buyrug'i, real vaqt rejimida trafik ma'lumotlarini to'plash va chegaradan tashqari izlash kabi maxsus protsessual vositalarni nazarda tutadi. O'zbekistonda esa ushbu vositalarning qonunchilikda mustahkam asosga ega emasligi tergov samaradorligini pasaytiradi. Ayniqsa, shifrlangan aloqa vositalari va virtual xususiy tarmoqlar (VPN) orqali sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishda bu muammo keskin ko'zga tashlanadi.

Uchinchi muammo – xalqaro huquqiy yordam va hamkorlik mexanizmlarining yetarli darajada

rivojlanmaganligi. O'zbekiston Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida kiberxavfsizlik bo'yicha mintaqaviy hamkorlikda ishtirok etsa-da, Budapesht konvensiyasiga qo'shilish masalasi hali hal etilmagan. Bu esa bolalarga nisbatan onlayn jinoyatlarni tergov qilishda xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini cheklaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasida bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik islohotlari boshqa davlatlar uchun ham muhim tajriba manbai hisoblanadi. Qozog'iston 2024-yilda bolalarga nisbatan kiberbulling va jinsiy ta'qibdan himoya qilish bo'yicha maxsus normalarni qonunchilikka kiritgan bo'lsa, Qirg'iziston 2022-yilda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligini yangilagan [13]. Mintaqaviy tajriba shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlari raqamli muhitda bolalar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda va xalqaro standartlarga yaqinlashish yo'nalishida harakatlanmoqda.

Yuqoridagi xalqaro tajriba va normativ-huquqiy tahlil asosida O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha to'rtta asosiy yo'nalishda takliflarni ifodalash mumkin.

Birinchi yo'nalish – O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga internet tarmog'ida bolalarga nisbatan zo'ravonlik jinoyatlarining maxsus tarkiblarini kiritish. Xususan, onlayn grooming harakatlarini, ya'ni bolalarni internet orqali jinsiy maqsadlarda yo'ldosh izlash va tayyorlashni alohida jinoyat tarkibi sifatida belgilash zarur. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida yaratilgan bolalar jinsiy zo'ravonligi materiallarini ham jinoyat deb belgilash zamonaviy texnologik tahdidlarni hisobga olish nuqtai nazaridan zarur.

Ikkinchi yo'nalish – elektron dalillarni to'plash, saqlash va foydalanishning batafsil protsessual tartib-qoidalarini ishlab chiqish. Bu yerda Budapesht konvensiyasining protsessual normalari namuna sifatida olinishi mumkin. Xususan, elektron ma'lumotlarni zudlik bilan saqlash buyrug'i, real vaqt rejimida trafik ma'lumotlarini to'plash, internet-provayderlardan abonent ma'lumotlarini so'rash tartib-qoidalarini, raqamli dalillarning sud jarayonlarida qabul qilinish shartlari, xorijiy serverlarda joylashgan ma'lumotlarga kirish tartibi va kripto-valyuta tranzaksiyalarini kuzatish usullari batafsil tartibga solinishi lozim.

Uchinchi yo'nalish – xalqaro shartnomalar tizimiga qo'shilish masalasini jiddiy ko'rib chiqish. Budapesht konvensiyasiga qo'shilish O'zbekistonga bolalarga nisbatan onlayn jinoyatlarni tergov qilishda xalqaro hamkorlikning keng imkoniyatlaridan foydalanish, INTERPOLning ICSE bazasiga to'liq kirishni ta'minlash va xorijiy davlatlar bilan tezkor ma'lumot almashish tizimini yo'lga qo'yish imkonini beradi. Ushbu konvensiyaga ham qo'shilish O'zbekistonning xalqaro jinoiy-huquqiy hamkorlik tizimidagi o'rnini mustahkamlaydi va bolalar uchun xavfsiz raqamli muhit yaratishga xizmat qiladi.

To'rtinchi yo'nalish – bolalarning internet tarmog'ida xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks profilaktika tizimini yaratish. Bu tizim bir nechta muhim komponentni o'z ichiga olishi kerak: ta'lim muassasalarida bolalar va ota-onalar uchun raqamli savodxonlik va onlayn xavfsizlik dasturlarini joriy etish, internet-platformalar va ijtimoiy tarmoqlar uchun bolalar himoyasi bo'yicha majburiy standartlarni belgilash, maxsus ishonch telefonlari va onlayn murojaat xizmatlarini yaratish, jabrlanuvchi bolalar uchun psixologik va ijtimoiy yordam mexanizmlarini rivojlantirish hamda jamiyat xabardorligini oshirish kampaniyalarini muntazam o'tkazish.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib, quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish mumkin. Jahon internet tarmog'ida bolalarga nisbatan zo'ravonlik jinoyatlari zamonaviy jamiyat oldidagi eng jiddiy muammolardan biri bo'lib, uning miqyosi va murakabligi tobora o'sib bormoqda. INTERPOL va FATF ma'lumotlariga ko'ra, bu jinoyatlar a'zo davlatlar uchun yuqori darajadagi tahdid sifatida saqlanib qolmoqda va yangi texnologiyalarning rivojlanishi, ayniqsa, shifrlangan aloqa vositalarining keng tarqalishi va sun'iy intellekt texnologiyalarining suiiste'mol qilinishi tergov jarayonlarini yanada qiyinlashtirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bolalar huquqlarini himoya qilish sohasida muhim qonunchilik islohotlarini amalga oshirgan. Xususan, 2024-yilda "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi muhim qadam hisoblanadi. Biroq, internet tarmog'ida bolalarga nisbatan jinoyatlarni tergov qilishning maxsus

protsexual vositalari, elektron dalillarni boshqarish tartib-qoidalari, onlayn grooming va seksual shovqinchilik kabi maxsus jinoyat tarkiblari hamda xalqaro hamkorlik mexanizmlari bo'yicha milliy qonunchilikda hali yetarli normativ baza shakllanmagan.

Xulosa qilib aytganda, bolalarga nisbatan onlayn zo'rvonlikka qarshi kurash faqat huquqiy chora-tadbirlar bilan cheklanmasligi, balki ta'lim, texnologiya, ijtimoiy xizmatlar va xalqaro hamkorlikni o'z ichiga olgan keng qamrovli yondashuvni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi oldida turgan vazifa – mavjud xalqaro tajriba va normativ-huquqiy bazadan samarali foydalangan holda, milliy qonunchilikni takomillashtirish va bolalarni zamonaviy raqamli tahdidlardan himoya qilishning samarali tizimini yaratishdan iborat. Kelgusi tadqiqotlarda O'zbekistonda bolalarga nisbatan onlayn jinoyatlarning real holati, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining samaradorligi va

xalqaro hamkorlik amaliyotining tahlili alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan yo'nalishlar sifatida belgilanishi mumkin.

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi kontekstida bolalarga nisbatan onlayn jinoyatlarning yangi shakllarini o'rganish va ularni huquqiy jihatdan tartibga solish masalalari ham kelgusida alohida tadqiqot predmeti bo'lishi lozim. Generativ sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida bolalar jinsiy zo'rvonligi materiallarini yaratish imkoniyatining paydo bo'lishi bu sohada qonunchilikni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ayni paytda, sun'iy intellekt texnologiyalari jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishda ham qo'llanilishi mumkinligi bu texnologiyalarning ijobiy salohiyatini ham e'tiborga olish lozimligini anglatadi. O'zbekiston ushbu global muammoga yetarli e'tibor qaratib, bolalar uchun xavfsiz va himoyalangan raqamli muhitni yaratishda faol ishtirok etishi lozim.

Foydalanilgan manbalar

1. Childlight – Global Child Safety Institute. Into the Light Index: Global Study on Online Child Sexual Exploitation and Abuse. Edinburgh: University of Edinburgh, 2024.
2. Council of Europe. Convention on Cybercrime (Budapest Convention), ETS No. 185. Budapest, 23 November 2001. Available at: <https://rm.coe.int/1680081561>.
3. Council of Europe. Convention on the Protection of Children against Sexual Exploitation and Sexual Abuse (Lanzarote Convention), CETS No. 201. Lanzarote, 25 October 2007. Available at: <https://rm.coe.int/1680084822>
4. The official website: UNODC. Waly, Ghada. UN General Assembly Adopts Landmark Convention on Cybercrime. UNODC Press Release. 24 December 2024. Available at: <https://www.unodc.org/unodc/en/press/releases/2024/December/un-general-assembly-adopts-landmark-convention-on-cybercrime.html>
5. O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni. <https://www.lex.uz/ru/docs/-7219502>
6. The official website: Wikipedia. Convention on Cybercrime (Budapest Convention). Available at: https://en.wikipedia.org/wiki/Budapest_Convention_on_Cybercrime.
7. Council of Europe. Explanatory Report to the Convention on Cybercrime, ETS No. 185. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2001.
8. The official website: UN News. UN General Assembly Adopts Milestone Cybercrime Treaty. 24 December 2024. Available at: <https://news.un.org/en/story/2024/12/1158521>.
9. The official website: INHOPE. What is the International Child Sexual Exploitation (ICSE) Database? Available at: <https://inhope.org/EN/articles/what-is-the-international-child-sexual-exploitation-icse-database>.
10. The official website: UNICEF. INTERPOL and UNICEF Sign Cooperation Agreement to Address Child Sexual Exploitation and Abuse. Available at: <https://www.unicef.org/press-releases/interpol-and-unicef-sign-cooperation-agreement-address-child-sexual-exploitation-and>.
11. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi "Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-153-son qarori. <https://lex.uz/docs/-7511145>
13. Greenleaf, Graham. Data Privacy Laws in Central Asia: Between Ex-SSR and 'Belt & Road.' International Data Privacy Law 2025, 15(1): 67–95.

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR IJROSINI TASHKIL ETISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR



Yakubov Mirzaxid Turabayevich

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Annotatsiya. Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etish va unga ta'sir qiluvchi to'rtta omil, xususan, normativ-huquqiy hujjatning sifati, undagi havolaki normalar, ularning natijadorligini baholash mexanizmi mavjudligi hamda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasi normativ-huquqiy hujjatlar ijrosiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida o'rganilgan hamda ushbu omillar bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: normativ-huquqiy hujjat, ijro etish mexanizmi, normativ-huquqiy hujjat sifati, havolaki normalar, normativ-huquqiy hujjat natijadorligini baholash, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.

Аннотация. В статье проанализированы вопросы организации исполнения нормативно-правовых актов и четыре фактора, влияющие на данный процесс. В частности, в качестве факторов, оказывающих воздействие на исполнение нормативно-правовых актов, рассмотрены качество нормативно-правового акта, наличие в нём отсылочных норм, существование механизма оценки их результативности, а также уровень правового сознания и правовой культуры населения. По каждому из указанных факторов выдвинуты конкретные предложения и рекомендации.

Ключевые слова: нормативно-правовой акт, механизм исполнения, качество нормативно-правового акта, отсылочные нормы, оценка результативности нормативно-правового акта, правовое сознание, правовая культура.

Abstract. The article analyzes the organization of the implementation of normative legal acts and four factors influencing this process. In particular, the quality of the normative legal act, the presence of reference norms within it, the existence of a mechanism for assessing their effectiveness, and the level of legal awareness and legal culture of the population are examined as factors affecting the implementation of normative legal acts. Specific proposals and recommendations are put forward for each of these factors.

Keywords: normative legal act, implementation mechanism, quality of a normative legal act, reference norms, assessment of the effectiveness of a normative legal act, legal awareness, legal culture.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ko'p sonli normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi bilan hamohang kechmoqda. Shu bilan birga, islohotlarning hayotga tez va to'liq tatbiq etilishi normativ-huquqiy hujjatning ijrosi bilan chambarchas bog'liq. Huquqni qo'llash amaliyotida normativ-huquqiy hujjatlar ijrosining tashkil etilishi va ta'minlanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilgan bo'lsa-da, hamisha ham ularning ijrosi to'la-to'kis ta'minlanadi, deb bo'lmaydi.

Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi masalasi adabiyotlarda yetarli darajada o'rganilmagan. Bu masalaning ayrim jihatlari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist, professor M.X. Raxmankulov mas'ul muharrirligida chop etilgan "Mamlakatni demokratik yangilash sharoitida O'zbekiston Respublikasining huquqiy siyosati (konseptual asoslar)" mavzusidagi monografiyada ochib berilgan [1; 632 b.].

Shuningdek, milliy va xorijiy huquqshunos olimlar tomonidan huquqiy eksperiment davomida normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi [2; 233-b.], huquq

ijodkorligini sotsiologik, ekspert-tahliliy va axborot ta'minlash [3; 15-b.; 10; 50-b.], huquqiy faoliyatda yuridik texnikani qo'llash [4; 71 b], Hukumatning qonunlar ijrosini ta'minlash bo'yicha faoliyati [5; 56 b.; 28; 4-b.], qonun va norma ijodkorligi sifati [6; 56 b.; 7; 192-195-b.; 8; 51 b.; 9; 45 b.; 19; 11-b.], normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ekspertizadan o'tkazish [12; 26 b.; 13; 14-b.; 14; 15-b; 33; 19-b.], normativ-huquqiy hujjatlarning tartibga solish ta'sirini baholash va huquqiy monitoringi [11; 48 b.; 15; 130-133-b.; 16; 16-20-b.], qonun ijrosini moliyaviy ta'minlash [17; 64-65-b.], huquqni ijro etish [21; 31 b], normativ-huquqiy hujjat [18; 99-100-b.; 23; 334-335-b.; 24; 3-b.; 27; 42 b.; 30; 42-b; 32; 114-115-b.], normativ-huquqiy hujjatning ijro etish imkoniyati [22; 8-9-b.], qonun samaradorligi [26; 9-b.], huquqni qo'llash va sharhlash [29; 44-b.; 31; 17-b.] kabi masalalar o'rganilgan.

Xususan, I.I. Kamolzodaning "Tojikiston Respublikasi huquq manbalari tizimida normativ-huquqiy hujjatlar" [27; 42 b.] mavzusidagi yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasida normativ-huquqiy hujjatlarni amalga oshirish mexanizmlariga, normativ-huquqiy hujjatlarni amalga oshirishning samarali shakli sifatida sud amaliyotiga, V.S. Sharonovning "Huquqni ijro etish" mavzusidagi yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasida huquqni ijro etishning nazariy jihatlari, xususan, huquqni ijro etishning shakllari, subyektlari va vositalari, huquqni ijro etmaslik sabablari [21; 31 b.], S.A.Vorobyevaning "Qonun sifati va uning inson huquqlarini ta'minlashdagi o'rni (nazariy-huquqiy jihatlari)" mavzusidagi yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasida esa, qonun sifati uni ijrosiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot jarayonida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini samarali tashkil etishga salbiy ta'sir qiluvchi omillar va ularni bartaraf etish zarurati ochib berishga harakat qilindi.

Bu mas'uliyat, ayniqsa, islohotlarning shiddati va ko'lami kengayib borayotgan Yangi O'zbekiston sharoitida yanada dolzarblashadi. Zero, amalga oshirilishi e'lon qilingan islohot to'laqonli realizatsiya qilinishi hamda joylargacha yetib

borishi, avvalo, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatning to'liq ijro etilishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu bois, ushbu maqolada ilmiy bilishning tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimlil-tuzilmaviy va formal yuridik o'rganish usullaridan foydalanilgan holda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etish bilan bog'liq muammolarni hal etish yuzasidan aniq yechimlar bo'yicha ayrim mulohazalar tayyorlandi.

Huquqni qo'llash amaliyoti tahlili normativ-huquqiy hujjatlar ijrosiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan quyidagi omillarni tizimlashtirgan holda ajratib ko'rsatish mumkinligidan dalolat bermoqda:

Birinchi, normativ-huquqiy hujjatning sifati va undagi kamchiliklar, shuningdek, yangi joriy etilayotgan tartib-taomillar bo'yicha xarajatlarning yetarlicha hisob-kitob qilinmasdan turib qabul qilinganligi uning ijrosiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jiddiy omil hisoblanadi.

Ayrim hollarda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash bo'yicha aniq mexanizmlar belgilab berilmasligi, shuningdek, normativ-huquqiy hujjat bilan kiritilayotgan tartib yoki mexanizm bo'yicha moliyaviy va resurs ta'minotining inobatga olinmaganligi uning ijrosini qiyinlashtiradi yoki imkonsiz qiladi.

Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi ziddiyatlar ham noto'g'ri yoki ziddiyatli huquqni qo'llash amaliyotiga olib keladigan normalar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Masalan, o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan ijtimoiy soliq miqdori Soliq kodeksining 408-moddasiga muvofiq BHMning bir baravari (340 ming so'm) bo'lsa, "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunda ushbu soliq miqdori BHMning yarim baravari (170 ming so'm) etib belgilangan.

Yoki bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-son farmoni bilan yuridik shaxslar tomonidan gaz va elektr energiyasi bo'yicha yuz foiz oldindan haq to'lash to'g'risidagi majburiy talab 70 foizgacha pasaytirilgan bo'lsa, Hukumatning 2023-yil 15-sentyabrdagi 475-son qarorida ushbu mezon 50 foiz etib belgilangan. Ushbu noaniqlik natijasida respublikaning turli hududlarida turlicha yondashuvlar kelib chiqmoqda.

Qonun hujjatlaridagi adolatsiz, tushunarsiz, turlicha yondashuvlar ham fuqarolarga uning ijrosiga rag'batni so'ndirmoqda. Misol sifatida 2020-yil 8-iyulda qabul qilingan "Ov qilish va ovchilik xo'jaligi to'g'risida"gi qonunda burama shoxli taka (morxo'r)ni qonuniy ovlash uchun ruxsatnoma BHMning 300 baravari bo'lsa, uni noqonuniy ovlaganlik uchun jarima BHMning 200 baravari miqdorida belgilangan, ya'ni, fuqaro uchun burama shoxli taka (morxo'r)ni ruxsatnoma olmasdan, noqonuniy ovlash manfaatli bo'lib qolgan.

Ikkinchi, qonunlardagi havolaki normalarning ko'pligi ham ularning ijrosini sezilarli darajada qiyinlashtiradi. Havolaki normalar qonunni to'g'ridan to'g'ri qo'llash imkoniyatini istisno etadi va uni qo'llash uchun bir yoki bir nechta qonunosti hujjatlar qabul qilinishini taqozo etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-fevralda qabul qilgan "Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida qayd etilganidek, 2017 – 2023-yillarda qabul qilingan 135 ta yaxlit qonunda jami 543 ta havolaki norma mavjudligi, shundan 23 ta qonundagi 41 ta havolaki normani amalga oshirish bo'yicha qonunosti hujjatlari qabul qilinmagan.

Shu bilan birga, mazkur qarorda havolaki normalar ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida qonun loyihasidagi havolaki normalarni amalga oshirishning aniq muddatlari va mas'ul ijrochilarini loyihaning o'zida majburiy tartibda belgilash amaliyoti joriy etilganligi muhim chora bo'ldi.

Yana bir jihati shundaki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 15-iyuldagi "Qonunlarning havolaki normalarini amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish rejalarini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-2003-son qarori bilan 2013-yilgacha bo'lgan qonunlardagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-fevraldagi PQ-75-son qarori bilan esa, 2017–2023-yillarda qabul qilingan qonunlardagi havolaki normalar tahlil qilingan. Lekin amalda 2013-2017-yillarda qabul qilingan qonunlardagi havolaki normalar xatlovdan o'tkazilmagan.

Uchinchi, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasining yetarli darajada emasligi ham normativ-huquqiy hujjatlarning ijro etilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha 2019-yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan. Ushbu Farmon bilan Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi va uni 2019-yilda samarali amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlangan.

Keyinchalik Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-maydagi 259-son va 2024-yil 18-sentyabrdagi 588-son qarorlari bilan tegishli 2022–2023 hamda 2024–2025 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlandi. Fikrimizcha, yaqin istiqbolda bu borada erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni batafsil tahlil qilgan holda 2026 – 2027 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash zarur.

To'rtinchi, qonunchilik hujjatlarini qo'llash samaradorligini tahlil qilish va baholash faoliyati yetarlicha tashkil qilinmagan, ularning natijadorligini baholashning ta'sirchan tashkiliy-huquqiy mexanizmi to'liq yo'lga qo'yilmagan.

So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini baholash maqsadida ularni huquqiy monitoring qilish, tartibga solish ta'sirini baholash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Huquqiy monitoringning zamonaviy mexanizmlari asosida qonun hujjatlari ijrosining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 2-noyabrdagi PQ-4505-son hamda "Tartibga solish ta'sirini baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 15-martdagi PQ-5025-son qarorlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16 avgustdagi PF-111-son Farmoni bilan esa, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosini baholash maqsadida, ularni huquqiy monitoring qilish, tartibga solish ta'sirini baholash institutlari mazmunan yaqin ekanligini inobatga olib, mazkur ikki mexanizm birlashtirildi.

Yuqoridagi tahlillar asosida normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etishdagi salbiy omillarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi yechimlar taklif etiladi:

birinchidan, normativ-huquqiy hujjatlarning sifatini oshirish, ularning aniq va bir xilda qo'llanilishini ta'minlaydigan darajada barcha uchun bir xil tushunilishiga erishish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy, korrupsiyaga qarshi, moliyaviy-iqtisodiy, gender-huquqiy, ilmiy va jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazish va tartibga solish ta'sirini baholash tizimini takomillashtirish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarda tor doiradagi manfaatlar (lobbizm), korrupsiyaviy omillarni qasddan kiritganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash masalasini ko'rib chiqish lozim;

ikkinchidan, normativ-huquqiy hujjatlardagi, ayniqsa, qonunlardagi havolaki normalarning oldini olish maqsadida havolaki normalarning realizatsiya qilinishi holatini o'rganish bo'yicha ishlarni tizimli ravishda tashkil etish zarur. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-fevralda qabul qilgan "Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida faqatgina yaxlit qonunlar xatlovdan o'tkazilgan, biroq, shu davr ichida amaldagi qonunlarga yirik o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligini inobatga olib, mazkur qonunlarni ham xatlovdan o'tkazish, ularning ijrosini ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilash maqsadga muvofiq. Qolaversa, 2013–2017-yillarda qabul qilingan qonunlardagi havolaki

normalar xatlovdan o'tkazilmaganligini inobatga olib, ushbu yillarda qabul qilingan qonunlardagi havolaki normalarni aniqlash bo'yicha ishlarni ham davom ettirish zarur;

uchinchidan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasini oshirish yo'nalishida erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni batafsil tahlil qilgan holda 2026–2027 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish lozim, bunda asosiy e'tiborni yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatni amaliyotga tatbiq etish uchun mas'ul bo'lgan davlat xizmatchilarining bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hamda baholash tizimini yo'lga qo'yishga qaratish hamda davlat xizmatchilarini ishga qabul qilishda, lavozimini ko'tarishda, martaba darajalarini berishda u o'z faoliyatida qo'llashi lozim bo'lgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar haqidagi bilimlarini tekshirish va baholab borish tizimini yo'lga qo'yish taklif etiladi;

to'rtinchidan, qonunchilik hujjatlarini qo'llash samaradorligini tahlil qilish va baholash faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida keltirilgan "Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangan qonun kuchga kirgan kundan boshlab besh yil o'tib, mas'ul davlat organi va Oliy Majlis palatalarining qo'mitalari tomonidan uning samaradorligini, maqsadi va kutilgan natijalariga erishilganligini aniqlash uchun tartibga solish ta'sirini baholash amaliyotini hayotga tatbiq etish zarur.

Foydalanilgan manbalar

1. Правовая политика Республики Узбекистан в условиях демократического обновления страны (концептуальные основы): Монография / Рахманкулов М.Х., Хакимов Р.Р., Миракулов М.М., Сафаров Дж.И. и др.; Отв. ред. проф. М.Х. Рахманкулов. – Ташкент: ИМДЗ, УМЭД, 2017. – 632 с.
2. Саидов А.Х. Правовой эксперимент как эффективная форма законотворческой деятельности субъектов законодательной инициативы // Studia – Analizy. – 2013. – Vol. 32. – С. 233.
3. Худойберdiyev A.Q. Huquq ijodkorligini sotsiologik va ekspert-tahliliy ta'minlashni takomillashtirish: Yurid. fan. d-ri (DSc) ... dis. avtoref. – Toshkent: O'zR IIV Akademiyasi, 2020. – B. 15.
4. Berdiyarov Sh.N. Huquqiy faoliyatda yuridik texnikani qo'llashning metodologik asoslarini takomillashtirish: Yurid. fan. d-ri (DSc) ... dis. avtoref. – Toshkent: TDYUU, 2018. – 71 b.
5. Xashimxonov A.M. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatining tashkiliy-huquqiy masalalari: Yurid. fan. d-ri (DSc) ... dis. avtoref. – Toshkent: TDYUU, 2022. – 56 b.

6. Safarov D.I. Yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish masalalari // Jamoat xavfsizligi ilmiy-amaliy jurnali. – 2023. – Maxsus son (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31 yilligiga bag'ishlanadi). – B.56-61.
7. Safarov Dj.I. Qonun ijodkorligi: zamonaviy tendensiyalar va istiqboldagi vazifalar // Review of law sciences. – 2020. – №3. – B. 192–195.
8. Sultanova S.A. Norma ijodkorligida "aqli tartibga solish" modelini qo'llashning nazariy-huquqiy masalalari: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: TDYUU, 2021. – 51 b.
9. Xujanazarov A.A. Adliya organlari norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: TDYUU, 2021. – 45 b.
10. Sodiqov A.Sh. Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish masalalari: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: TDYUU, 2021. – 50 b.
11. Ro'ziyev A.I. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining tartibga solish ta'sirini baholash: nazariya va amaliyot masalalari: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: TDYUU, 2023. – 48 b.
12. Bekchanov A.I. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ekspertizasini takomillashtirish masalalari: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: TDYU, 2024. – 26 b.
13. Fayziyev O.R. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlarini huquqiy ekspertiza va davlat ro'yxatidan o'tkazish faoliyati samaradorligini oshirish: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: TDYUU, 2018. – B.14.
14. Abdullayev B.J. O'zbekiston Respublikasida qonun hujjatlari huquqiy ekspertizasini takomillashtirish muammolari: Yurid. fan. nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2010. – B.15.
15. Saidov R. Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini huquqiy monitoring qilishni takomillashtirish masalalari // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue. – 2021. – №1. – Б.130-133.
16. Саидов Р. Хуқуқий мониторинг объекти ва субъектлари доирасининг юридик табиати // Одил судлов. – 2021. – №9. – Б.16–20.
17. Абрамова А.И. Вопросы финансовой обеспеченности действия закона // Журнал российского права. – 2010. – №5. – С.64-65.
18. Артамонов А.Н. Правовые акты в Российской Федерации: Учебное пособие. – Брянск, 2018. – С.99-100.
19. Воробьева С.А. Качество закона и его роль в обеспечении прав человека (теоретико-правовой аспект): Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Челябинск, 2014. – С. 11.
20. Ельцов В.Н. Правовой эксперимент в современной России: проблемы эффективности: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Тамбов, 2009. – С. 22–23.
21. Шаронов В.С. Исполнение права: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Саратов: СГЮА, 2018. – 31 с.
22. Порошин Е.А. Исполнимость нормативных правовых актов: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Н.Новгород, 2006. – С.8–9.
23. Здунова Д.И. Нормативно-правовой акт как источник права: положение нормативно-правовых актов с точки зрения их юридической силы // Право и суд в современном мире. – Казань, 2005. – №3. – С.334–335.
24. Луговая Ю.Б. Нормативные правовые акты органов и должностных лиц местного самоуправления в Российской Федерации: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2013. – С.3.
25. Аюпова З.К., Кусаинов Д.У. Нормативные правовые акты и их реализация в действующем праве // Вестник Института законодательства и правовой информации Республики Казахстан. – 2014. – №4(36). – С.20-21.
26. Тихомиров Ю.А. Эффективность закона: от цели к результату // Журнал российского права. – 2009. – №4. – С. 9.
27. Камолзода И.И. Нормативные правовые акты в системе источников права Республики Таджикистан: проблемы теории и практики: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – Душанбе, 2023. – 42 с.
28. Мозолев В.В. Участие Правительства Российской Федерации в законотворческом процессе: конституционно-правовые и организационные аспекты: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2008. – С.4.
29. Архипкин И.В., Кузнецов Д.С. Правоприменение и толкование права. В 2 Ч. Ч.1: Учебное пособие. – Иркутск: Изд-во ИГУ, 2014. – С. 44.
30. Уманская В.П. Система правовых актов органов исполнительной власти: теоретический и прикладные аспекты: Дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 2014. – С. 42.
31. Ивнева Е.В. Практика использования права: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Н.Новгород, 2006. – С.17.
32. Домченко А.С. Нормативный правовой акт органа исполнительной власти: Дис. ... канд. юрид. наук. – Челябинск, 2019. – С.114-115.
33. Сарпеков Р.К. О современных новеллах организации института научной правовой экспертизы в Республике Казахстан // Вестник Института законодательства и правовой информации РК. – 2021. – №4(67). – С.19.

SERVITUTNI BELGILASH TO'G'RISIDAGI SHARTNOMA – SERVITUT MAJBURIYATNI VUJUDGA KELITIRUVCHI ASOS SIFATIDA



Allamurodov Odiljon Abduqodirovich
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada servitutni belgilash to'g'risidagi shartnomaning servitut majburiyatini vujudga keltiruvchi asos sifatidagi o'rni va ahamiyati atroflicha yoritib berilgan hamda asoslantirilgan xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ashyoviy huquq, servitut, nomlanmagan shartnoma, servitutni belgilash to'g'risidagi shartnoma, ashyoviy shartnomalar, majburiyatli shartnomalar.

Аннотация. В данной статье дается подробное описание роли и значения соглашения о сервитуте как основы для установления сервитутного обязательства и приводятся обоснованные выводы.

Ключевые слова: вещное право, сервитут, неназванное соглашение, соглашение о сервитуте, вещные соглашения, обязательные соглашения.

Abstract. This article provides a detailed description of the role and significance of the easement agreement as the basis for establishing the easement obligation and presents substantiated conclusions.

Keywords: real right, easement, unnamed agreement, easement agreement, real agreements, binding agreements.

Zamonaviy fuqarolik muomalasida shartnoma huquqiy munosabatlarni tartibga solishning eng samarali va universal vositalaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda, shartnoma faqat huquqiy shakl emas, balki iqtisodiy muomalaning barqarorligi va dinamikasini ta'minlovchi asosiy huquqiy mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Shartnoma orqali uning ishtirokchilari o'zlariga tegishli huquqlarni amalga oshirish yo'nalishlari, usullari va chegaralarini mustaqil ravishda, xohish-irodasi asosida belgilaydilar.

Shartnoma iqtisodiy muomalaning odatiy va eng keng tarqalgan huquqiy asosi bo'lib, shartnomaviy majburiyatlar fuqaroviy-huquqiy majburiyatlarining asosiy va eng keng qamrovli turini tashkil etadi. Majburiyatli huquqiy munosabatlarning aksariyat qismi aynan shartnomalar orqali

vujudga keladi va rivojlanadi. Shartnomaning majburiyatlarni yuzaga keltirishda yetakchi ahamiyat kasb etishi fuqarolik huquqi tizimining fundamental prinsiplari – subyektlar huquqiy tengligi, shartnoma erkinligi, iroda avtonomiyasi hamda xususiy manfaatlarining ustuvorligi bilan uzviy bog'liq.

Shu bois fuqarolik qonunchiligining katta qismi ayrim turdagi majburiyatlarning huquqiy rejimini belgilashga qaratilgan bo'lib, mazkur normalar, asosan, shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga xizmat qiladi. Bu esa shartnomaning fuqarolik huquqidagi markaziy o'rnini, uning huquqiy munosabatlarni shakllantirish va barqarorlashtirishdagi hal qiluvchi rolini yanada tasdiqlaydi. Natijada shartnoma fuqarolik muomalasida nafaqat majburiyatlarning paydo bo'lish manbai

sifatida, balki xususiy huquq sohasidagi erkinlik, tashabbuskorlik va iqtisodiy faollikni ta'minlovchi asosiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Shartnomaning qonuniyligi va muayyan maqsadga yo'naltirilganligi uning tashkiliy funksiyasini belgilab beradi. Mazkur funktsiyani amalga oshirish jarayonida fuqarolik huquqi subyektlari o'rtasida barqaror huquqiy aloqalar shakllanadi. Biroq shartnomaning ahamiyati faqat tashkiliy funktsiya bilan cheklanib qolmaydi, u, shu bilan birga, reguliyativ funktsiyani ham bajaradi va subyektlarning mulkiy munosabatlariga faol ta'sir ko'rsatadi.

Bu ta'sir to'g'ridan-to'g'ri emas, balki subyektiv huquq va majburiyatlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Aynan subyektiv huquq va majburiyatlar mumkin bo'lgan va lozim bo'lgan xulq-atvorning huquqiy modellari sifatida shartnomaning mulkiy munosabatlarga bo'lgan ta'sirini "amalga oshiradi" hamda ushbu munosabatlarning mazmunini belgilaydi.

Shartnomaning tashkiliy va reguliyativ funksiyalari uning samaradorligini va fuqarolik muomalasida keng qo'llanilishini ta'minlaydi. Shartnoma shartlari nafaqat erishilishi lozim bo'lgan yakuniy natijani (maqsadni) va uni amalga oshirishga qaratilgan tarflar harakatlarining mazmunini belgilaydi, balki ushbu harakatlarning bajarilish tartibi va usullarini ham aniqlaydi. Shu jihatdan shartnomaning reguliyativ funksiyasi yaqqol namoyon bo'ladi: bir tomondan, shartnoma bitim sifatida unga asoslangan majburiyatning xarakteri va mazmunini belgilaydi; ikkinchi tomondan esa, u majburiyat sifatida tarflarning uni bajarish jarayonida amalga oshirishi lozim bo'lgan aniq harakatlarni aniqlashtiradi. Shu tarzda, shartnoma munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga soluvchi huquqiy vosita sifatida ular zimmasiga muayyan mulkiy natijaga erishishga qaratilgan aniq yuridik majburiyatlarni yuklaydi. Natijada shartnoma fuqarolik huquqida nafaqat huquqiy munosabatlarning shakllanish asosi, balki mulkiy munosabatlarni samarali tartibga solishni ta'minlovchi muhim huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Majburiyat munosabatlari faqat qonunlarda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan shartnomalar asosidagina emas, balki, garchi qonunda nazarda tutilgan bo'lmasa-da, unga zid bo'lmagan shart-

nomalar va boshqa bitimlardan vujudga kelishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (keyingi o'rinlarda – Fuqarolik kodeksi) 8-moddasi 1-qismi). Iqtisodiy muomalaning doimiy rivojlanib borishi va tobora murakkablashuvi natijasida qonunchilikda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan bitimlar, shu jumladan shartnomalar yoki ularning turlarini to'liq va yakunlangan ro'yxatini belgilash amalda mumkin emas. Bu holat, avvalo, shartnoma erkinligi umumiy prinsipi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, fuqarolik muomalasi ishtirokchilari tuzadigan muayyan bitimlar qonunchilikda belgilangan taqiqlar va majburiy qoidalarga zid kelmasligi, shuningdek, fuqarolik huquqiy tartibga solishning mohiyati va asosiy tamoyillariga muvofiq bo'lishi lozim. Amaldagi fuqarolik qonunchiligi, xususan, Fuqarolik kodeksining 274-moddasi 4-qismida "servitut belgilashni talab qilayotgan shaxs bilan o'zga yer uchastkasining egasi o'rtasidagi bitimga muvofiq servitut belgilanishi, servitutni belgilash xususida kelisha olinmasa yoki uning shartlarida murosaga kelinmasa, bahs servitut belgilashni talab qilayotgan shaxsning da'vosi bo'yicha sud tomonidan hal etilishi" [1] mustahkamlangan. Servitutni shartnoma asosida o'rnatish amaliyoti tarixiy ildizlariga ega bo'lib, hatto Qadimgi Rim huquqida ham servitutlarni belgilashning asosiy usuli sifatida aynan shartnomaviy tartib e'tirof etilgan.

Fuqarolik kodeksining 173-moddasi 4-qismida servitut belgilashni talab qilayotgan shaxs bilan o'zga yer uchastkasining egasi o'rtasidagi bitimga (ya'ni, shartnomaga) muvofiq servitut belgilanishi [1] mumkinligi nazarda tutilgan. Biroq, mazkur normada servitutni belgilashga asos bo'luvchi shartnomaning predmeti, uning boshqa muhim shartlari, shuningdek, shartnomaning aniq nomi ochib berilmagan. Mazkur holat servitutni belgilash to'g'risidagi shartnomani nomlanmagan (notipik) shartnomalar toifasiga kiritish uchun asos bo'ladi.

Ayni paytda, bunday yondashuv fuqarolik qonunchiligining umumiy qoidalarga to'liq mos keladi. Jumladan, fuqarolik huquqi normalari fuqarolik muomalasi ishtirokchilariga qonunda yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda bevosita nazarda tutilgan shartnomalarni ham, shuningdek,

qonunda maxsus tartibga solinmagan, biroq unga zid bo'lmagan shartnomalarni tuzish imkoniyatini ham kafolatlaydi. Shu ma'noda, servitutni belgilash to'g'risidagi shartnoma shartnoma erkinligi prinsipining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi hamda fuqarolik huquqidagi nomlanmagan shartnomalar instituti doirasida baholanishi mumkin.

Shu bilan birga, boshqa bir o'rinli savol tug'iladi: agar servitutni belgilash to'g'risidagi shartnomani tuzish imkoniyati Fuqarolik kodeksida bevosita nazarda tutilgan bo'lsa, bunday shartnomani nomlanmagan shartnoma sifatida e'tirof etish qanchalik asosli?

Shuningdek, yana bir savol yuzaga keladi: agar servitutni belgilash to'g'risidagi shartnomani tuzish imkoniyati Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan bo'lsa, bunday shartnomani nomlanmagan shartnoma deb e'tirof etish to'g'rimi?

Nomlangan va nomlanmagan shartnomalarni farqlash uchun, avvalo, Fuqarolik kodeksining 354-moddasi 3-qismida qo'llanilgan "nazarda tutilmagan" atamasiga qonun chiqaruvchi qanday ma'no yuklaganini aniqlash zarur. O'zbek tilining izohli lug'atida "nazarda tutmoq" quyidagicha talqin qilinadi: "e'tiborga olmoq" "hisobga olmoq" [2]. Demak, servitutni o'rnatish to'g'risidagi shartnoma nuqtai nazaridan, ushbu shartnoma qonunchilikda qay darajada e'tiborga olinib to'liq va har tomonlama tartibga solingan bo'lishi lozimligini aniqlash talab etiladi. Bunda asosiy e'tibor muayyan shartnomaviy turni nomlangan shartnomalar qatoriga kiritish uchun zarur va yetarli bo'lgan normativ tartibga solish hajmi hamda mazmunini belgilashga qaratilishi kerak.

N.I. Askarovning ta'kidlashicha, "Nomlanmagan shartnoma mazmunini to'liq tushunish uchun avval qanday shartnomalar "nomlangan" ta'rifi ostida ekanligini aniqlashtirish lozim. "Nomlangan" deb, biror-bir normativ-huquqiy hujjatda nomi va mazmuni ko'rsatilgan shartnomaga nisbat berish mumkin" [3]. Ye.A. Batlarning fikriga ko'ra, "agar qonunchilikda shartnomaning predmeti, boshqa muhim shartlari hamda uning mazmuni aniq belgilab qo'yilmagan bo'lsa, bunday shartnomani nomlanmagan shartnoma sifatida baholash uchun yetarli asos mavjud bo'ladi, hatto qonun chiqaruvchi tomonidan mazkur shartnoma-

ning nomi qayd etilgan bo'lsa ham" [4]. Ye.A. Batler o'z xulosalarini asoslashda servitutni belgilash to'g'risidagi shartnoma kabi, qonunda faqat ayrim huquqiy munosabatlarning vujudga kelishiga asos sifatida tilga olingan, biroq batafsil tartibga solinmagan bir qator shartnomalarni misol sifatida keltiradi.

Fikrimizcha, N.I. Askarov va Ye.A. Batler tomonidan ilgari surilgan nuqtai nazarlarni asosli deb e'tirof etish mumkin. Shuningdek, A.N. Tanaga ham qonunchilikda faqat formal ravishda nomlanib, biroq mazmunan to'liq huquqiy reglamentatsiyaga ega bo'lmagan shartnomalarni nomlanmagan shartnomalar toifasiga kiritish tarafdori ekanligini ta'kidlaydi [5]. Xuddi shuningdek, Ye.E. Shevchenko fikriga ko'ra, Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismida tartibga solinmagan shartnomalar nomlanmagan shartnomalar qatoriga kiritilishi kerak [6].

Demak, shartnomani qonun yoki boshqa huquqiy hujjatlar orqali "nazarda tutilmagan" deb e'tirof etish uchun, tegishli normativ-huquqiy hujjatda uning muhim shartlari aniq ko'rsatilmagan bo'lishi zarur. Bunday shartlar qatoriga, avvalo, shartnomaning predmeti, boshqa muhim shartlari, kelishuv ishtirokchilari, ularning huquq va majburiyatlari hamda taraflar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda hisobga olinishi kerak bo'lgan boshqa xarakterli belgilar kiradi. Amaldagi qonunchilikda servitut o'rnatish va amalga oshirish uchun tuziladigan shartnomaning shartlariga oid normalarning mavjud emasligi, faqat servitut munosabatlarini shartnoma tartibida tartibga solish zarurligi to'g'risidagi rasmiy ko'rsatma bilan cheklanib qolinishi shundan dalolat beradiki, servitut o'rnatish to'g'risidagi shartnomani qonunchilikda ko'zda tutilmagan, ya'ni nomlanmagan shartnoma deb hisoblash lozim.

Mazkur nuqtai nazarni L.V. Shennikova ham qo'llab-quvvatlaydi. U servitutga oid fuqarolik qonunchiligi normalarni takomillashtirish chorasi sifatida, Fuqarolik kodeksida servitutni belgilash to'g'risidagi shartnoma haqida maxsus qoidalarni mustahkamlashni taklif etadi. Olimning fikricha, bunday shartnomaga Fuqarolik kodeksida alohida modda bag'ishlanishi lozim bo'lib, bu orqali servitutni belgilash to'g'risidagi shartnomaga nomlangan shartnoma maqomi beriladi [7].

Bizning fikrimizcha, yuqoridagilarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining "Servitut shartlari" deb nomlangan 173²-moddasini "Servitut belgilash to'g'risidagi shartnoma" deb nomlash va mazmunini quyidagicha berish maqsadga muvofiq:

"Servitut o'rnatish to'g'risidagi shartnoma – bu tomonlarning servitut huquqini o'rnatish, uning mazmuni, muddati, to'lov miqdori (agar to'lovli bo'lsa) va boshqa shartlarni belgilash bo'yicha o'zaro kelishuvi. Ushbu shartnoma mazkur Kodeksning 173-moddasida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq tuziladi va tomonlarning erkin irodasini ifoda etadi.

Servitut shartnomasining mazmuni servitut huquqining amalga oshirilishini ta'minlaydigan shartlarni o'z ichiga oladi, ularda yer uchastkasi egasining mol-mulkini saqlash vazifasi hisobga olinadi. Shartnoma ushbu Kodeksning 173-moddasi birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan ehtiyojlarni qondirish uchun servitutning zarurligini asoslaydi.

Servitut shartnomasi yozma shaklda tuziladi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Servitut shartnomasida quyidagi shartlar o'z ifodasini topishi lozim:

- servitut turi (masalan, yo'l o'tkazish, suv olish, elektr uzatgich o'tkazish va h.k.);
- servitut foydasiga bo'lgan va yuklangan ko'chmas mulkning aniq tavsifi (manzil, kadastr raqami);
- foydalanish tartibi va cheklovlari (vaqt, hajm, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini saqlash);
- to'lov miqdori va tartibi;
- muddat (muayyan muddatga yoki muddatsiz);
- taraflarning majburiyati (ziyonni qoplash, shartnoma shartlariga rioya qilish, mol-mulkni saqlash);
- servitutni o'zgartirish va bekor qilish tartibi.

Servitut shartnomasi tomonlarning o'zaro roziligi bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. O'zgartirish va bekor qilish davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart".

Mazkur shartnoma nomlanishiga nisbatan normativ-huquqiy hujjatlarda, amaliy faoliyatda hamda ilmiy adabiyotlarda turli atamalar qo'llaniladi. Xususan, "xususiy servitut shartnomasi",

"servitut to'g'risidagi shartnoma (yoki kelishuv)", "servitutni belgilash to'g'risidagi shartnoma" kabi nomlar uchraydi.

M.N. Maleinaning fikricha, xususiy servitut to'g'risidagi kelishuv faqat servitutni o'rnatish qoidalari emas, balki boshqa shaxsga tegishli ko'chmas mulkdan foydalanish tartibini ham o'z ichiga oladi. U shuni ham ta'kidlaydiki, zamonaviy qonun chiqaruvchi "servitut" tushunchasini "boshqa shaxsning mulkidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi" iborasining sinonimi sifatida qo'llamoqda. Shu munosabat bilan, uning nuqtayi nazaricha, mazkur shartnoma uchun eng maqbul nom sifatida "xususiy servitut to'g'risidagi shartnoma" atamasini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi [8]. Bizningcha, M.N. Maleinaning mazkur shartnomaning nomlanishiga oid qarashlari asosli bo'lib, haqiqatan ham servitutni o'rnatish hamda uning keyingi amalga oshirilishiga qaratilgan shartnomaning nomlanishida prinsipial farq mavjud emas. Chunki bunday shartnomaning mazmuni uning nomidan kengroq bo'lib, u faqat servitutni belgilash bilan cheklanib qolmaydi.

Bundan tashqari, hozirgi sud amaliyoti ham hali Rim huquqidayoq shakllangan mashhur qoidaga tayanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlarda yerga oid nizolarni ko'rishda qonunchilik hujjatlari normalarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" 2023-yil 20-noyabrdagi 28-son qarorining 32-bandiga ko'ra, servitut belgilanishi va uning shartlari xususidagi ishlarni hal qilishda, sudlar vakolatli organlarni ishga jalb etish hamda mutaxassisning fikri, tushuntirishlarini olish masalasini muhokama qilishlari lozim [9]. Ya'ni, sudlar huquqiy baholashda shartnomaning nomlanishidan emas, balki taraflar o'rtasidagi haqiqiy huquqiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqishi lozim.

Shuni ta'kidlash lozimki, ilmiy adabiyotlarda servitutni belgilash to'g'risidagi shartnoma natijasida vujudga keladigan huquqning yuridik tabiati masalasi bahsli hisoblanadi. Mualliflarning aksariyati servitutni an'anaviy tarzda ashvoviy huquq sifatida baholash nuqtai nazarini qo'llab-quvvatlashda [10], ayrim tadqiqotlarda buning mutlaqo aksi bo'lgan qarashlar ham ilgari suriladi. Jumladan, ba'zi olimlar servitutlar qonunchilikda ashvoviy huquqlar qatoriga kiritilganiga qaramas-

dan, mazmunan ularni majburiyat huquqi sifatida baholash uchun yetarli asoslar mavjudligini ta'kidlaydilar [11]. Ushbu xulosa dastlab qaraganda yot yoki ziddiyatli tuyulishi mumkin. Biroq u fuqarolik huquqi nazariyasida ancha vaqtdan beri davom etib kelayotgan ashyoviy huquqlar bilan majburiyat huquqlarini aniq farqlash mumkinmi, degan masala yuzasidan kechayotgan ilmiy bahslarning natijasidir [12].

Shuningdek, bunday tasnifni saqlab qolishning o'zi qay darajada maqsadga muvofiq ekani ham savol ostida qolmoqda. Chunki ayrim olimlar ta'kidlaganidek, "haqiqiy optimizm tarafdori bo'lgan davlatlarda ashyoviy va majburiyat huquqi o'rtasidagi chegara tobora yo'qolib bormoqda" [13]. Shu sababli amaliyotda ba'zan qaysi turdagi huquq bilan ish olib borilayotganini aniq belgilash qiyinlashadi: u ashyoviy huquq bo'lib, majburiyat unsurlarini o'z ichiga oladimi yoki aksincha, majburiyat huquqi bo'lib, ashyoviy belgilar bilan uyg'unlashganmi.

Qonun bilan belgilangan servitutni o'rnatishni talab qilish huquqi vakolatli shaxs manfaatining mulkdorning muayyan xatti-harakatini amalga oshirishga qaratilganini ko'rsatadi, bu esa majburiyat huquqiga xos belgi hisoblanadi. Ana shu holat ayrim olimlarga servitutlarni ashyoviy-majburiyat xususiyatiga ega huquqlar sifatida baholash uchun asos bo'ladi [14]. Biroq olimlarning salmoqli qismi ashyoviy-majburiyat munosabatlari konsepsiyasini qo'llab-quvvatlamaydi. Ular bir xil huquqiy munosabat bir vaqtning o'zida ham mutlaq, ham nisbiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydilar [15]. Shu bilan birga, ayrim mualliflar majburiyat huquqiy munosabat va ashyoviy huquqiy munosabat bir-biriga nisbatan mustaqil ravishda mavjud bo'lishi mumkin, degan nuqtai nazarni ham ilgari surganlar [15]. Servitutni belgilash to'g'risidagi shartnoma asosida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarga nisbatan ushbu yondashuv quyidagicha ifodalanadi: servituar bilan servitut beruvchi o'rtasida – majburiyat huquqiy munosabat, servituar bilan barcha uchinchi shaxslar o'rtasida esa – ashyoviy huquqiy munosabat shakllanadi. Bizning fikrimizcha, aynan shu nuqtai nazar eng asosli va to'g'ri.

Bundan tashqari, ilmiy adabiyotlarda servitutni o'rnatish to'g'risidagi shartnomani majburiyat

emas, balki ashyoviy huquqqa xos shartnoma sifatida baholash lozim, degan qarash ham mavjud [16]. Yuridik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur toifani o'rganayotgan mualliflar ashyoviy huquqqa xos shartnomalarni majburiyatga xos shartnomalardan farqlovchi ikki asosiy belgini ajratib ko'rsatadilar. Birinchi belgi ashyoviy huquqqa xos shartnomalarning predmeti bilan bog'liq bo'lib, bunday shartnomalarda majburiyatga ega shaxsning muayyan harakatlari emas, balki to'g'ridan-to'g'ri tegishli ashyo (mulk) shartnoma predmeti sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi muhim xususiyat esa, ashyoviy huquqqa xos shartnoma qandaydir majburiyatni nazarda tutmasligida ifodalanadi [17]. Bundan tashqari, huquqshunoslikda servitutni belgilash to'g'risidagi shartnomani majburiyatga xos emas, balki ashyoga xos shartnoma sifatida baholash kerak, degan nuqtai nazar ham mavjud.

Ashyoviy shartnoma, eng avvalo, ashyoni mulk huquqi asosida topshirish bilan bog'liq bo'ladi. O'z tabiatiga ko'ra, ashyoviy shartnoma real shartnomalarga ma'lum darajada o'xshashlikka ega. Xususan, aynan shunday shartnomalarga shartnoma tuzilgan payt bilan unga asosan ashyoviy huquq vujudga keladigan vaqt o'rtasida vaqt jihatidan uzilish mavjud emasligi xosdir. Ashyoviy shartnoma majburiyatni yuzaga keltirmaydi va majburiyat huquqiy munosabatining mavjud bo'lish shakli hisoblanmaydi. Agar majburiyat bilan bog'liq shartnoma majburiyat huquqiy munosabatining vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qilsa, ashyoviy shartnoma ashyoviy huquqiy munosabatning paydo bo'lishi, o'zgarishi yoki tugatilishiga asos sifatida namoyon bo'ladi [18].

Doktrinada ajratib ko'rsatiladigan ashyoviy shartnomaning yuqorida qayd etilgan o'ziga xos belgilariga kelsak, birinchi belgi yuzasidan M.M. Agarkov va Yu.K. Tolstoyning fikrlariga qo'shilishni o'rinli, deb hisoblaymiz. Xususan, M.M. Agarkov shunday deb ta'kidlagan: "Ushbu holatlarning barchasida qarzdor bajarishi lozim bo'lgan harakatlar qandaydir tarzda ashyoga yo'naltirilgan bo'ladi (ashyoni topshirish, ashyoni foydalanish uchun berish va h.k.). Biroq majburiyat huquqiy munosabatlarida obyekt sifatida faqat ashyolar emas, balki boshqa mutlaq huquqlarning obyektlari ham

ishtirok etishi mumkin" [19]. Yu.K.Tolstoyning fikricha esa, ashyolar nafaqat ashyoviy huquqning, balki majburiyat huquqining ham obyekti bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ashyoviy huquqlarning obyektlari har doim ham faqat ashyo bilan cheklanib qolmaydi [20].

Shu bilan birga, nemis sivilistikasi nuqtai nazaridan ashyoviy va majburiyatli shartnomalarni o'zaro qarama-qarshi qo'yish to'liq asosli emasligini ham ta'kidlash zarur. Xususan, nemis sivilistika nazariyasida majburiyatni yuzaga keltirish bilan huquqni bevosita tasarruf etish o'rtasida qat'iy farq qo'yiladi. Bunda har biri mustaqil yuridik bitim sifatida namoyon bo'ladigan ikki xil bitim – majburiyatli bitim va tasarruf etishga qaratilgan bitim deb qaraladi. Demak, ushbu bitimlar bir-birini inkor etmay, balki parallel ravishda mavjud bo'ladi.

Milliy sivilistikamizda esa shartnomalar tizimida ashyoviy shartnoma konsepsiyasining mustaqil tarzda shakllanmagani sababli, mazkur kategoriyalar muayyan darajada o'zaro qorishib ketgan. Natijada, majburiyatli va ashyoviy bitimlar o'rtasidagi farq doim ham aniq ifodalanmagan holda qo'llanilmoqda.

Bizning fikrimizcha, milliy fuqarolik qonunchiligimiz doktrinasida servitut, qoida tariqasida, xizmat qiluvchi ashyo mulkdorining servitut egasi tomonidan uning mulkiga ko'rsatiladigan ta'sirga nisbatan passiv tarzda toqat qilishi, ya'ni muayyan harakatlardan tiyilib turish majburiyatidan iborat ekani nazarda tutilishi maqsadga muvofiq. Faqat qonun bilan bevosita belgilangan holatlardagina servitut asosida xizmat qiluvchi ashyo mulkdori tomonidan faol harakatlarni amalga oshirish majburiyati yuklanishi mumkin.

Demak, servitutning ashyoviy tabiati servitut egasining servitut obyektiga nisbatan mumkin bo'lgan xatti-harakati chegaralarini belgilaydi, shuningdek, barcha uchinchi shaxslar servitutni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi harakatlardan tiyilishga majbur ekanini anglatadi. Shu bilan birga, servitutni o'rnatish to'g'risidagi shartnoma servitut munosabatlari ishtirokchilari o'rtasida muayyan majburiyatlarni ham vujudga keltiradi. Ushbu majburiyat munosabatlari ashyoviy huquq doirasidagi munosabatlarni yanada mukammal tarzda tartibga solish zaruratidan kelib chiqadi, chunki qonun doirasida servitut munosabatlarining barcha

jihatlarini to'liq ifodalanmagan bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, mazkur majburiyatlar servitut ashyoviy huquqining to'g'ri va samarali amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan. Shu tariqa, servitutni o'rnatish to'g'risidagi shartnoma bir vaqtning o'zida ikki xil huquqiy ahamiyatga ega: u, bir tomondan, servitut ashyoviy huquqini vujudga keltiruvchi huquqiy asos — vujudga keltiruvchi fakt hisoblansa, ikkinchi tomondan, servitutni o'rnatgan taraflar o'rtasida majburiyat huquqiy munosabatlarni shakllantiradi.

Shunday qilib, servitutni belgilash to'g'risidagi shartnomani doktrinada alohida turga ajratilgan ashyoviy shartnomalar qatoriga kiritish imkoniyatining mavjud emasligi, o'rganilayotgan shartnomaning murakkab hamda kompleks xususiyati bilan izohlanadi. Zero, mazkur shartnoma bir vaqtning o'zida ham ashyoviy, ham majburiyat huquqiy munosabatlarning vujudga kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Ashyoviy shartnomalarga xos bo'lgan, ya'ni taraflar uchun hech qanday majburiyatlarni nazarda tutmaslik belgisi servitut shartnomasining huquqiy mohiyatiga mos kelmaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 173-moddasiga muvofiq, servitut yuklangan shaxsning asosiy majburiyati servitut egasiga muayyan darajada foydalanish huquqini taqdim etishdan iboratdir. Ushbu foydalanish huquqi bir martalik emas, balki davomiy xarakterga ega bo'lib, uni amalga oshirish tartibi servitut to'g'risidagi qonun normalarida batafsil tartibga solinmagan. Shu sababli, foydalanishning tartibi, ko'lami va boshqa muhim xususiyatlari (qonun chiqaruvchi ularni servitut shartlari deb atagan) bevosita shartnoma mazmunida belgilanishi lozim.

Mazkur shartnomaning asosiy huquqiy maqsadi begona mulkka ma'lum darajada yuklama yuklovchi cheklangan ashyoviy huquq – servitutni vujudga keltirishdan iborat, deb hisoblash mumkin. Garchi, servitut to'g'risidagi kelishuv ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlar majburiyat munosabatlari doirasida amalga oshirilsa-da, ushbu kelishuv natijasida olingan begona yer uchastkasiga nisbatan cheklangan foydalanish huquqi o'z mohiyatiga ko'ra ashyoviy huquq hisoblanadi. Mazkur ashyoviy huquq yuklama yuklangan yer uchastkasi taqdiriga ergashgan

bo'lib, mutlaq huquqiy munosabatlar doirasida mavjud bo'ladi va servitut egasini nafaqat mulkdor, balki barcha manfaatdor uchinchi shaxslar bilan bog'laydi.

Bundan tashqari, servitutlarni huquqiy tartibga solishda muayyan darajada majburiyat munosabatlariga yo'l qo'yish zarurligi fuqarolik huquqi nazariyasida ham alohida ta'kidlanadi. Shu asosda aytish mumkinki, servitutni o'rnatish to'g'risidagi shartnoma negizida bir vaqtning o'zida o'zaro bog'liq bo'lgan, biroq bir-biriga qo'shilib ketmaydigan ikki xil huquqiy munosabat – majburiyat va ashyoviy huquqiy munosabatlar vujudga keladi.

Servitut shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatning iqtisodiy mazmuni shundaki, u bir shaxsga (hukmron ko'chmas mulk egasiga) o'z huquqlarini boshqa shaxsning (xizmat qiluvchi mulk egasining) mulkiy vakolatlari hisobidan, kelishilgan chegaralarda amalga oshirish im-


koniyatini beradi. Ushbu munosabatning yuridik ahamiyati esa tomonlar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy mexanizmni shakllantirishdan iborat bo'lib, bu mexanizm xizmat qiluvchi mulkdor manfaatlarining ortiqcha cheklanmasdan himoya qilinishi hamda servitut egasining hukmron mulkka yangi funksional xususiyatlar berishga bo'lgan ehtiyojini qondirish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan.

Servitutni o'rnatish to'g'risidagi shartnoma amalda qonunchilikda nomlanmagan, ya'ni an'anaviy ma'noda notipik shartnoma hisoblanadi. U cheklangan foydalanish huquqini taqdim etishga qaratilgan bo'lib, natijada ashyoviy huquq – servitut vujudga keladi. Shu bilan birga, ushbu shartnoma davomiy xarakterga ega bo'lib, servitut amal qilib turgan butun muddat davomida tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi.

Foydalanilgan manbalar

1. <https://lex.uz/docs/111189>
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. 5 jildli / A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, [2006-2008]. (N – harfi). 9-b.
3. Askarov N.I. Nomlanmagan shartnomalarni fuqarolik huquqiy tartibga solishning nazariy va amaliy muammolari: Yurid. fan. bo'yicha falsafa d-ri (Phd) ... dis. Toshkent, 2020. – 12-b.
4. Батлер Е.А. Непоименованные договоры. – М.: Издательство «Экзамен», 2008. – С. 10.
5. Танага А.Н. Свобода выбора вида заключаемого договора // Вестник Высшего Арбитражного суда РФ. – 2002. – №7. – С. 101–111.
6. Шевченко Е.Е. Способы определения условий гражданско-правовых договоров: законодательство и судебная практика // Закон. – 2021. – № 3. – С. 21–25.
7. Щенникова Л.В. Сервитута: история и современная судебно-арбитражная практика // Вестник Пермского университета. – 2019. – № 2 (4). – С. 167.
8. Малеина М.Н. Договор о частном сервитуте // Вестник гражданского права. – 2018. – №. 4. – С. 80–95.
9. <https://lex.uz/docs/6687150>
10. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi: Darslik I qism. Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashr / Mas'ul muxarrir H.Rahmonkulov. – T.: TDYUI nashriyoti, 2009. – 435–437-b.; Fuqarolik va oila huquqi. Darslik / R.J.Ro'ziyev, V.R.Topildiyev, M.Sh.Choriyev. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2022. – 242–244-b. ; Дерюгина Т.В. Гражданско-правовое регулирование института сервитута в России: Дис. ... канд. юрид. наук. – Волгоград, 2002. – С. 140–141; Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Книга вторая: Договоры о передаче имущества. – М.: Статут, 2002. – С. 315; Хаскельберг Б.Л., Ровный В.В. Консенсуальные и реальные договоры в гражданском праве. – М.: Статут, 2004. – С. 27; Шершеневич Г.Ф. Курс торгового права. Т. 2. – М.: Статут, 2005. – С. 72.
11. Поротикова О.А. Гражданско-правовое регулирование соседских отношений // Законодательство. – 2024. – № 3. – С. 18–19.
12. Южанин Н.В. Вещное и обязательственное право (философско-правовой очерк) // Юрист. – 2024. – № 6. – С. 4.
13. Ефимова Л.Г. О соотношении вещных и обязательственных прав // Государство и право. – 2008. – № 10. – С. 41.

14. Брагинский М.И. К вопросу о соотношении вещных и обязательственных правоотношений // Гражданский кодекс России: Проблемы. Теория. Практика / Отв. ред. А.Л. Маковский. – М.: Международный центр финансово-экономического развития, 1998. – С. 114; Морева И.М. Ограниченные вещные права субъектов предпринимательской деятельности: Дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2005. – С. 122.
15. Латыев А.Н. Вещные права в гражданском праве: понятие и особенности правового режима: Дис. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург, 2004. – С. 85-90.
16. Дерюгина Т.В. Гражданско-правовое регулирование института сервитута в России: Дис. ... канд. юрид. наук. – Волгоград, 2002. – С. 140–141; Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Книга вторая: Договоры о передаче имущества. – М.: Статут, 2002. – С. 315; Шершеневич Г.Ф. Курс торгового права. Т. 2. – М.: Статут, 2005. – С. 72.
17. Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Книга первая: Общие положения. – М.: Статут, 2002. – С. 280-282.
18. Василевская Л.Ю. Вещные сделки по германскому праву: методология гражданско-правового регулирования: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – М., 2004. – С. 15
19. Агарков М.М. Обязательство по советскому гражданскому праву. – М.: Юрид. изд-во НКЮ СССР, 1940. – С. 29.
20. Гражданское право. Т. 1. Учебник. Издание шестое, переработанное и дополненное / Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. – М.: ООО «ТК Велби», 2012. – С. 286.



MILLIY GVARDIYA BOLALAR PSIXOLOGIYASI MARKAZINING YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARNI PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI O'RNI



Xudayberganova Dilorom Zafarovna
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi huzurida tashkil etilgan Bolalar psixologiyasi markazining yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga beg'araz psixologik yordam ko'rsatish borasidagi faoliyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Mazkur Bolalar psixologiyasi markazi tomonidan qo'llanilayotgan zamonaviy psixoterapevtik, individual va guruhli ish usullari hamda ularning samaradorligi tahlil qilingan. Xalqaro tajribada harbiylashtirilgan tuzilmalar tarkibida psixologik xizmatlarning tashkil etilishi masalasi o'rganilib, Milliy gvardiya Bolalar psixologiyasi markazi faoliyatining o'ziga xos milliy modeli asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: yetim bolalar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, psixologik xizmatlar, bolalar psixologiyasi markazi, psixoterapiya, xalqaro tajriba, ijtimoiy moslashuv, psixooemotsional qo'llab-quvvatlash.

Аннотация. В данной статье научно освещается деятельность Центра детской психологии, созданного при Национальной гвардии Республики Узбекистан, по оказанию бескорыстной психологической помощи детям-сиротам и детям, оставшимся без попечения родителей. Проанализированы современные психотерапевтические, индивидуальные и групповые методы работы, используемые данным Центром детской психологии, а также их эффективность. В международном опыте изучен вопрос организации психологических служб в составе военизированных формирований, обоснована своеобразная национальная модель деятельности Центра детской психологии Национальной гвардии.

Ключевые слова: дети-сироты, дети, оставшиеся без попечения родителей, психологические службы, центр детской психологии, психотерапия, международный опыт, социальная адаптация, психоэмоциональная поддержка.

Abstract. This article scientifically covers the activities of the Center for Child Psychology, established under the National Guard of the Republic of Uzbekistan, in providing gratuitous psychological assistance to orphans and children left without parental care.

Modern psychotherapeutic, individual, and group work methods used by the Center for Child Psychology, as well as their effectiveness, were analyzed. In international experience, the issue of organizing psychological services within paramilitary structures has been studied, and a unique national model of the activities of the Center for Child Psychology of the National Guard has been substantiated.

Keywords: orphans, children left without parental care, psychological services, child psychology center, psychotherapy, international experience, social adaptation, psycho-emotional support.

Jamiyat taraqqiyotining insonparvarlik darajasi, avvalo, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam taqdiriga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Shu ma'noda, O'zbekistonda mazkur toifadagi qatlamni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlashga alohida e'tibor davlat siyosati darajasida amalga oshiriladi. Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ana shunday toifaga mansubdir.

Muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida qabul qilingan farmon va qarorlar ijtimoiy sohada tub burilish yasab, bolalar manfaatlarini ta'minlash masalasini davlat boshqaruvi darajasiga ko'tardi. Bu esa ijtimoiy himoya tizimining mazmunan yangilanishiga, insonparvarlik tamoyillarining amalda to'liq qaror topishiga xizmat qildi.

Zamonaviy jamiyatda psixologik xizmatlar inson salomatligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim institutlardan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda psixologik yordam nafaqat ruhiy kasalliklarni davolash, balki stress, xavotir, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarning oldini olish vositasi sifatida ham keng qo'llaniladi.

Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun psixologik xizmatlar ularning shaxs sifatida to'laonli rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida bolalar huquqlarini himoya qilish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir [1].

2021-yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarori asosida Milliy gvardiya huzurida Bolalar psixologiyasi markazi tashkil etildi va bugungi kunda ushbu markaz milliy psixologik xizmatlar tizimida yangi institutsional yondashuv sifatida faoliyat yuritmoqda.

Milliy gvardiya Bolalar psixologiyasi markazi tashkil etilganidan buyon Toshkent shahridagi 22-son va 30-son mehribonlik uylari, oilaviy bolalar uylarida, zaruratga ko'ra viloyatlardagi oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan bolalarga muntazam ravishda beg'araz psixologik yordam ko'rsatib kelmoqda.

Markaz faoliyati tizimli ravishda tashkil etilgan bo'lib, u diagnostika, profilaktika, psixokorreksiya

va psixoterapiya bosqichlarini o'z ichiga qamrab olgan.

Markaz mutaxassislari bolalar bilan ishlashda psixoanalitik yondashuv, kognitiv xulq-atvor terapiyasi, art-terapiya, o'yin va ertak terapiyasi, avtogenik mashg'ulotlar hamda psixomuskul treninglardan foydalanadilar.

Ushbu treninglar bolalarda uchraydigan emosional beqarorlik, xavotir, vahima, muloqotdagi qiyinchiliklar, o'z-o'zini past baholash kabi holatlarni bartaraf etishga qaratilgan.

Guruhli mashg'ulotlar orqali bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar, jamoada o'zini tutish madaniyati va o'zaro muloqot qobiliyatlari shakllantirilmoqda. Bolalar uchun o'yin va ertak terapiyasi ularning ichki qo'rquv va muammolarini bilvosita aniqlash imkonini berib, bola psixikasiga ziyon yetkazmagan holda tuzatish ishlarini olib borishga xizmat qiladi.

Bu borada, xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, AQSH, Kanada, Germaniya, Fransiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda harbiylashtirilgan tuzilmalar tarkibida asosan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun psixologik xizmatlar mavjud [2].

Masalan, AQSHdagi "National Guard Psychological Services" tizimi harbiylar va ularning farzandlariga mo'ljallangan bo'lib, yetim bolalar bilan ishlash masalalari alohida fuqarolik ijtimoiy xizmatlari zimmasiga yuklatilgan [3].

Shu ma'noda, Milliy gvardiya tarkibida yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun alohida Bolalar psixologiyasi markazining faoliyat yuritishi O'zbekistonga xos innovatsion va o'ziga xos tajriba hisoblanadi.

Bu holat harbiylashtirilgan tuzilmalarning faqat xavfsizlik emas, balki ijtimoiy mas'uliyat sohasida ham faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari va xalqaro tajriba tahlili asosida quyidagi ilmiy takliflar ilgari suriladi:

birinchidan, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga psixologik yordam ko'rsatish tizimida harbiylashtirilgan tuzilmalar ishtirokini institutsional jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Milliy gvardiya Bolalar psixologiyasi markazi faoliyati shuni ko'rsatadiki, bunday tuzilmalar faqat xavfsizlik vazifalari bilan

cheklanib qolmasdan, ijtimoiy mas'uliyatni ham samarali amalga oshirish imkoniyatiga ega;

ikkinchidan, Milliy gvardiya Bolalar psixologiyasi markazi modeli asosida respublika hududlarida ham xuddi shunday ixtisoslashgan psixologik xizmat markazlarini bosqichma-bosqich tashkil etish taklif etiladi. Bu bolalarga ko'rsatilayotgan psixologik xizmatlarning hududiy tengligini ta'minlashga xizmat qiladi;

uchinchidan, yetim bolalar bilan ishlashda qo'llanilayotgan psixoanalitik, kognitiv hulq-atvor, art-terapiya, o'yin va ertak terapiyasi kabi usullarni yagona kompleks dastur sifatida normativ-metodik jihatdan mustahkamlash zarur. Bunday integratsiyalashgan yondashuv psixologik xizmatlar samaradorligini oshiradi;

to'rtinchidan, bolalar psixologiyasi markazlari faoliyatini baholash uchun yagona indikatorlar tizimini ishlab chiqish taklif etiladi. Ushbu indikatorlar bolalarning psixoemotsional holati, ijtimoiy moslashuv darajasi va shaxsiy rivojlanish dinamikasini baholashga xizmat qilishi lozim;

beshinchidan, Milliy gvardiya, ta'lim va ijtimoiy himoya organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida idoralararo integratsiyalashgan psixologik qo'llab-quvvatlash platformasini yaratish ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi;

oltinchidan, bolalar psixologiyasi sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun harbiylashtirilgan tuzilmalar negizida doimiy qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini joriy etish taklif etiladi. Bu mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirish bilan birga, xalqaro standartlarga mos xizmatlar ko'rsatish imkonini beradi;

yettinchidan, Milliy gvardiya Bolalar psixologiyasi markazi faoliyatini xalqaro tashkilotlar (*Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqalar*) bilan hamkorlikda ilmiy-amaliy platforma sifatida rivojlantirish, mazkur milliy tajribani xalqaro miqyosda ilgari surish imkonini yaratadi.

Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, aksariyat davlatlarda harbiy tashkilotlar psixologik xizmatlarni asosan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga qaratgan holda amalga oshiradi.

Milliy gvardiya Bolalar psixologiyasi markazi esa, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar bilan ishlashga ixtisoslashgan alohida institut sifatida shakllangani bilan ilmiy jihatdan yangi model hisoblanadi;

tadqiqot doirasida bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlashda institutsional hamkorlik modeli asoslantirildi. Ushbu model Milliy gvardiya, bolalar uylari va ijtimoiy himoya muassasalari o'rtasidagi kompleks o'zaro hamkorlik mexanizmini qamrab oladi. Bu esa, bolalarni ijtimoiy moslashtirishda tizimli yondashuv shakllanishiga xizmat qiladi;

maqolada yetim bolalar bilan ishlashda zamonaviy psixoterapevtik usullarni integratsiyalashgan holda qo'llashning ilmiy asoslari yoritildi. Xususan, psixoanalitik yondashuv, kognitiv hulq-atvor terapiyasi, art-terapiya, o'yin terapiyasi va guruhli treninglarni kompleks tarzda qo'llash bolalarda psixoemotsional barqarorlikni shakllantirishning samarali usuli ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi;

tadqiqotda yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ruhiy holatini barqarorlashtirishda profilaktik-psixologik xizmatlarning ahamiyati ilmiy jihatdan ochib berildi. Bu yondashuv psixologik muammolarni bartaraf etishdan ko'ra, ularning oldini olishga qaratilganligi bilan farqlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

maqolada keltirilgan ilmiy xulosalar Milliy gvardiya Bolalar psixologiya markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va psixologik xizmatlar ko'rsatish mexanizmlarini rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi;

tadqiqot natijalari yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar bilan ishlovchi davlat muassasalari, ijtimoiy himoya organlari hamda ta'lim muassasalari faoliyatida psixologik xizmatlarni tashkil etishda metodik qo'llanma sifatida foydalanilishi mumkin;

tadqiqot natijalari asosida bolalar uylari va oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishga qaratilgan psixologik dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish imkoniyati yaratiladi;

maqolada keltirilgan tahlil va tavsiyalar kelgusida harbiylashtirilgan tuzilmalar tarkibida

ijtimoiy yo'naltirilgan psixologik xizmatlarni kengaytirish va ularni milliy bolalarni himoya qilish tizimiga integratsiya qilish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari bolalar psixologiyasi, ijtimoiy pedagogika va psixologik rehabilitatsiya sohasida mutaxassislar tayyorlash jarayonida ilmiy manba sifatida qo'llanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Milliy gvardiya Bolalar psixologiyasi markazi faoliyati yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ruhiy

salomatligini muhofaza qilish, ularni jamiyatga moslashtirish va ijtimoiy rehabilitatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Markaz faoliyati xalqaro tajriba bilan taqqoslaganda, milliy psixologik xizmatlar tizimida o'ziga xos innovatsion model sifatida baholanishi mumkin.

Ushbu tajriba kelgusida bolalar psixologiyasi sohasida davlat va harbiylashtirilgan tuzilmalar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.
2. UNICEF. Psychosocial Support for Children without Parental Care. – New York, 2020.
3. World Health Organization. Mental Health and Psychosocial Well-being of Children. – Geneva, 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar.



JINOYATLARNING BARVAQT OLDINI OLIHDA “MAHALLA YETTILIGI” FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI



Salimov Sherzod Xusanovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “mahalla yettiligi” instituti faoliyati orqali jinoyatlarning barvaqt oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Mahalla darajasida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishda profilaktika inspektori, mahalla raisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli hamda boshqa subyektlar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlili asosida “mahalla yettiligi” faoliyatiga joriy etish mumkin bo'lgan innovatsion mexanizmlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatchilik profilaktikasi, “mahalla yettiligi”, kriminogen vaziyat, barvaqt profilaktika, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy profilaktika, mahalla instituti.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования механизмов ранней профилактики преступности на основе деятельности института “маха́ллинской се́мёрки”. Научно обоснована роль взаимодействия между председателем махалли, инспектором профилактики, лидером молодежи, активисткой по делам женщин и другими субъектами в стабилизации криминальной ситуации на уровне местного сообщества. На основе изучения зарубежного опыта разработаны предложения по внедрению инновационных механизмов повышения эффективности ранней профилактики преступности, включая цифровизацию профилактической деятельности, усиление общественного контроля и развитие криминологического анализа.

Ключевые слова: профилактика преступности, “маха́ллинская се́мёрка”, криминальная ситуация, ранняя профилактика, общественный контроль, социальная профилактика, институт махалли.

Abstract. This article analyzes the issues of improving mechanisms for early crime prevention through the activities of the “Mahalla Seven” institution in Uzbekistan. The study scientifically substantiates the importance of cooperation between the mahalla chairperson, prevention inspector, youth leader, women's activist, and other stakeholders in stabilizing the criminogenic situation at the community level. Based on the analysis of international practices in crime prevention, the author proposes innovative mechanisms for improving the effectiveness of early crime prevention, including the digitalization of preventive activities, strengthening public participation, and developing analytical approaches to criminological monitoring.

Keywords: crime prevention, Mahalla Seven, criminogenic situation, early prevention, community control, social prevention, mahalla institution.

Hozirgi globallashuv va jamiyat hayotining tezkor rivojlanishi sharoitida jinoyatchilikka qarshi kurashish davlat siyosatidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy kriminologiya nazariyasiga ko'ra, jinoyatchilikka qarshi kurashishda faqat jazo choralari qo'llash yetarli emas.

Jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, barvaqt profilaktika choralari amalga oshirish hamda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash orqali jinoyatchilik darajasini pasaytirish ustuvorlik kasb etmoqda.

O'zbekistonda jinoyatchilik profilaktikasi tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli

islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda mahalla institutiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahalla fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida aholi muammolarini barvaqt aniqlash va ularni hal etishda muhim rol o'ynaydi [1].

So'nggi yillarda mahalla darajasida jinoyatchilik profilaktikasini kuchaytirish maqsadida “mahalla yettiligi” instituti [2] joriy etildi.

Mazkur institut mahalla raisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, hokim yordamchisi, soliq inspektori va ijtimoiy xodimdan iborat bo'lib, mahallalarda profilaktika ishlarini kompleks tarzda amalga oshirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, mazkur tizimning samaradorligini oshirish uchun uning tashkiliy va metodik asoslarini yanada takomillashtirish talab etiladi.

Hozirgi davrda, barcha davrlarda bo'lgani kabi, jinoyatchilikning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki jamiyatning barcha institutlari ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda mahalla instituti jinoyatlarning barvaqt oldini olishda muhim ijtimoiy mexanizm sifatida shakllanmoqda. Ushbu tizim mahalla raisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, soliq inspektori, hokim yordamchisi va ijtimoiy xodim kabi subyektlarni birlashtirgan holda mahallalarda jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan tizimli yondashuvni ta'minlaydi. Jinoyatchilik profilaktikasida mahalla institutining o'rni alohida ahamiyatga ega. Chunki mahalla jamiyatning eng quyi, bir vaqtning o'zida, eng ta'sirchan ijtimoiy bo'g'ini hisoblanadi.

Biroq, amaliyot tahlili “mahalla yettiligi” faoliyatida ayrim tashkiliy va metodik muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu esa mazkur tizimda jinoyatlarni barvaqt oldini olishning samarali mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga chiqarmoqda.

Jinoyatlarning barvaqt oldini olishda “mahalla yettiligi” quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

- kriminogen vaziyatni muntazam tahlil qilish;
- huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash;

• ijtimoiy profilaktika choralari amalga oshirish;

• yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish;

• oilaviy nizolarni bartaraf etish [2].

Amaliyot tahlillarining ko'rsatishicha, “mahalla yettiligi” faoliyati natijasida ayrim hududlarda jinoyatchilik darajasi pasaygan, oilaviy zo'ravonlik holatlari erta bosqichda aniqlanib, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldi olinmoqda.

Biroq tahlillar bugungi kunda mazkur tizimda quyidagi muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda:

- profilaktika ishlarining formallashtirib qolishi;
- ma'lumotlar bazasining yetarli darajada integratsiya qilinmaganligi;

▪ kriminologik tahlilning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi;

▪ subyektlar o'rtasidagi axborot almashinuvi samaradorligining pastligi.

Jinoyatchilik profilaktikasi masalalari kriminologiya fanida ham keng o'rganilgan. Mazkur sohada bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Kriminologiya nazariyasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish masalalari ijtimoiy nazorat, jamoatchilik ishtiroki va profilaktika mexanizmlari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Jumladan, bir qator tadqiqotchilar jinoyatchilikka qarshi kurashishda mahalliy jamoalar ishtirokini ta'minlash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar.

Xorijiy tadqiqotlarda jinoyatchilik profilaktikasining “community policing”, “situational crime prevention” va “problem-oriented policing” kabi modellari keng qo'llanilayotgani qayd etilgan. Ushbu yondashuvlar jinoyatchilikning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan[3].

Mahalliy olimlar ham jinoyatchilik profilaktikasida mahalla institutining o'rni alohida ta'kidlab o'tganlar. Ularga ko'ra, mahalla darajasida ijtimoiy nazoratning kuchliligi jinoyatchilikning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. [5, 6, 7.]

Jinoyatlarning barvaqt oldini olishda qator rivojlangan davlatlarda mahalla darajasida jamoatchilik ishtirokini ta'minlovchi samarali modellar qo'llaniladi.

Jumladan: Yaponiyada “Koban” politsiya postlari orqali aholi bilan doimiy muloqot o'rnatilgan. Buyuk Britaniyada “Community policing” modeli

asosida politsiya va jamoatchilik hamkorligi kuchaytirilgan. *Singapurda* hududiy xavfsizlik kengashlari orqali mahalla darajasida profilaktika ishlari amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan ilg'or xorijiy tajribalardan kelib chiqib, «mahalla yettiligi» faoliyatini yanada takomillashtirish mumkin. «Mahalla yettiligi» faoliyati samaradorligini oshirish uchun quyidagi mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq:

Kriminologik monitoring tizimini joriy etish. Har bir mahallada jinoyatchilik holatini muntazam tahlil qiladigan elektron monitoring tizimini yaratish zarur.

Quyidagi toifadagi shaxslar: ishsiz yoshlar, huquqbuzarlikka moyil shaxslar, oilaviy nizolari mavjud oilalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar bilan maqsadli ish olib borish.

Crime analytics texnologiyalarini joriy etish. Kriminologik tahlil asosida: xavfli hududlar; xavfli vaqt oraliqlari; jinoyat turlari dinamikasini aniqlanish.

“Mahalla yettiligi” uchun yagona axborot platformasini yaratish. Barcha subyektlar ma'lumot almashadigan elektron platforma yaratish. Bu ish samaradorligini oshiradi.

Ijtimoiy profilaktikani kuchaytirish. Yoshlar bilan individual ishlash, oilaviy muammolarni hal

qilish, bandlikni ta'minlash, ta'lim va tarbiyada profilaktika ishlarini kuchaytirish zarur.

Shuningdek, «mahalla yettiligi» faoliyatini takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

- «Mahalla kriminologik pasporti»ni joriy etish;
- «mahalla yettiligi» uchun maxsus kriminologik tahlil metodikasini ishlab chiqish;

- profilaktika inspektorlari va mahalla faollari uchun analitik tayyorgarlik kurslarini tashkil etish;

- yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan maxsus profilaktik dasturlar ishlab chiqish;

- «Xavfsiz mahalla» konsepsiyasi asosida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

«Mahalla yettiligi» instituti jinoyatlarning barvaqt oldini olishda muhim ijtimoiy mexanizm hisoblanadi. Biroq mazkur tizimning samaradorligini yanada oshirish uchun kriminologik tahlilni kuchaytirish, axborot texnologiyalarini joriy etish va subyektlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarur [4].

«Mahalla yettiligi»ning jinoyatchilikning oldini olish tizimini faoliyatiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali ham yanada takomillashtirish mumkin.

KIBERJINOYATLAR PROFILAKTIKASI SUBYEKTLARI TIZIMI VA ULARNING O'ZARO HAMKORLIGI: MILLIY AMALIYOT, XORIJIY TAJRIBA VA HUQUQIY TAKLIFLAR



Mirzajonov Shoxruxbek Sobirjonovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada kiberjinoyatlar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlar tizimi va ularning o'zaro hamkorlik mexanizmlari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Milliy modelda vakolatli organlar, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, raqamli transformatsiya subyektlari hamda bank-moliya sektorining o'rnini yoritilib, xususiy sektor (IT-kompaniyalar, provayderlar) bilan tezkor axborot almashinuvini ta'minlashdagi institutsional muammolar asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: kiberjinoyatlar profilaktikasi, subyektlar tizimi, subyektlararo hamkorlik, davlat-xususiy sheriklik, kiber-insident, majburiy xabardor qilish, elektron dalillarni tezkor saqlash, bankning kiberjavobgarligi, kiber-sug'urta, sun'iy intellekt.

Аннотация: В статье анализируется система субъектов профилактики киберпреступности и механизмы их межведомственного/межсекторного взаимодействия. Раскрывается роль уполномоченных органов, правоохранительных структур, институтов цифрового развития и банковско-финансового сектора, а также проблематика оперативного обмена информацией с частным сектором (IT-компании, провайдеры).

Ключевые слова: профилактика киберпреступности, субъекты профилактики, межсекторное взаимодействие, государственно-частное партнерство, киберинцидент, обязательное уведомление, ускоренное сохранение данных, ответственность банка, киберстрахование, искусственный интеллект.

Abstract: This article examines the system of actors responsible for cybercrime prevention and the effectiveness of their cooperation mechanisms. It outlines the roles of competent authorities, law-enforcement bodies, digital transformation institutions, and the banking/financial sector, while highlighting institutional bottlenecks in rapid information sharing with the private sector (IT companies and service providers).

Keywords: cybercrime prevention, prevention actors, inter-agency cooperation, public-private partnership, cyber incident, mandatory reporting, expedited data preservation, bank liability, cyber insurance, artificial intelligence

Insoniyat sivilizatsiyasining hozirgi bosqichida raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oldi. Biroq, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishga, balki transchegaraviy xarakterga ega bo'lgan yangi turdagi tahdid – kiberjinoyatchilikning ildiz otishiga ham zamin yaratdi. Shu o'rinda, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «bugungi

kunda dunyoda axborot sohasidagi tahdidlar kuchayib borayotgani, ayrim kuchlar internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar ongiga salbiy ta'sir o'tkazishga urinayotgani bizdan doimiy ogohlik va hushyorlikni talab etadi» [1]. Davlat rahbari 2025 yil noyabr oyida o'tkazilgan maxsus yig'ilishda ham kiberxavfsizlik masalasiga alohida to'xtalib, «raqamlashtirish jarayoni har bir sohada shaffoflik va samaradorlikni ta'minlashi kerak, ammo bu jarayonda kiberjinoyatlarga qarshi

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida» 2023-yil 21-dekabrda PF-209-son farmoni.
3. Ismoilov I. Jinoyatchilikka qarshi kurashishning kriminologik asoslari. Toshkent, 2018.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jinoyatchilik profilaktikasiga oid farmon va qarorlari to'plami. – Toshkent, 2023.
5. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya. – Toshkent: TDYUU, 2020
6. Rustambayev M.X. Kriminologiya. – Toshkent: Adolat, 2019
7. Zokirov B.T. Jinoyatchilik profilaktikasi nazariyasi. – Toshkent, 2021.



kurashish tizimi ham texnologik, ham uslubiy jihatdan mukammal bo'lishi shart" ekanligini ta'kidladi [2]. Mazkur ko'rsatmalardan kelib chiqib, kiberjinoatlar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlar tizimini tahlil qilish va ularning o'zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kiberjinoatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish tizimi ko'p qirrali bo'lib, u davlat organlari, xususiy sektor va fuqarolik jamiyatining jipslashgan faoliyatini talab qiladi. Ushbu maqolada biz kiberjinoatlar profilaktikasi subyektlarining nazariy asoslarini, ular o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy jihatlarini hamda milliy va xorijiy tajribani atroflicha ko'rib chiqamiz.

Hech kimga sir emaski, bugungi kunda kiberjinoatlar profilaktikasining subyektlar tizimi va ularning vazifalari borasida huquqshunos olimlar o'rtasida turlicha yondashuvlar mavjud. Professor M.H. Rustambayev kiberjinoatlar profilaktikasini nafaqat jazo choralarini qo'llash, balki tizimli va institutsional yondashuv asosida tashkil etilishi lozim bo'lgan faoliyat sifatida tavsiflaydi [3]. Uning fikricha, profilaktika subyektlari tizimida ichki ishlar organlari markaziy o'rin tutishi bilan birga, boshqa davlat organlari, mahalla va ta'lim muassasalari ham faol ishtirok etishi shart. Ushbu yondashuv "ilmiy xulosa – tavsiya – natija" tamoyiliga asoslanib, profilaktikaning barvaqt bosqichlarida ilmiy asoslangan choralarni qo'llashni nazarda tutadi [4].

Rossiyalik olimlar kiberjinoatchilikka qarshi kurashda subyektlarning integrativ va kompleks yondashuvini yoqlab chiqadilar. Jumladan, A.G. Volevodz xalqaro hamkorlikning ahamiyatiga

to'xtalib, kiberjinoatlarning transchegaraviy tabiati sababli profilaktika subyektlari qatoriga xalqaro politsiya tashkilotlari va davlatlararo tuzilmalarni ham kiritishni taklif qiladi [5]. V.B. Vexov esa profilaktikani ikkita asosiy yo'nalishga – umumiy va maxsus profilaktikaga ajratadi. Umumiy profilaktika subyektlari sifatida u axborot makonini tartibga soluvchi davlat idoralarini ko'rsatsa, maxsus profilaktikada kiberxavfsizlik bo'yicha mutaxassislar va raqamli kriminalistlarni e'tirof etadi [6].

Rivojlangan davlatlar olimlari, jumladan AQSH va Buyuk Britaniya vakillari T.J. Xolt [7] va B.V. Reyns [8] o'z ilmiy tadqiqotlarida profilaktika tizimida "Muntazam faoliyat nazariyasi" (*Routine Activity Theory*) konsepsiyasini ilgari suradilar. Ularning fikricha, profilaktika subyekti sifatida nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki "raqamli vasiylar" (*digital guardians*), ya'ni internetprovayderlar, IT-kompaniyalar va antivirus dasturlari ishlab chiquvchilar ham maydonga chiqishi kerak. Shuningdek, mazkur nazariyaga ko'ra, jinoyatning oldini olish uchun jinoyatchining imkoniyatini cheklash, nishonning himoyasini kuchaytirish va nazorat qiluvchi subyektlarning sergakligini ta'minlash zarur.

S. Slonje va P. Smit esa profilaktikaning psixologik va ijtimoiy jihatlariga urg'u beradilar. Ular kiberbulling va onlayn firibgarlikning oldini olishda ta'lim muassasalari va ijtimoiy xizmatlarni asosiy subyektlar deb hisoblashadi [9]. Bu esa profilaktika tizimi nafaqat texnik yoki huquqiy, balki pedagogik xarakterda ham bo'lishi kerakligini anglatadi.

Olimlarning qarashlarini umumlashtirgan holda, profilaktika subyektlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Davlat/ olimlar guruhi	Asosiy ilmiy qarashlari	Profilaktika subyektlariga bergan tavsifi
O'zbekiston (M.H. Rustambayeva boshqalar)	Institutsional va tizimli profilaktika	Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoatchilik tuzilmalarining uzviyligi
Rossiya (A.G. Volevodz V.B. Vexov)	Integrativ va kriminalistik yondashuv	Davlat organlarining texnik va huquqiy salohiyatini birlashtirish
AQSH va Buyuk Britaniya (T.J. Xolt B.V. Reyns)	Muntazam faoliyat va viktinologikprofilaktika	Xususiy sektor (IT-kompaniyalar) foydalanuvchilarning mas'uliyati
Shimoliy Yevropa davlatlari (S. Slonjeva boshqalar)	Ijtimoiy-pedagogik profilaktika	Ta'lim tizimi va ijtimoiy himoya organlarining faolligi

Ushbu nazariy qarashlar shuni ko'rsatadiki, kiberjinoatlar profilaktikasi subyekti tushunchasi kengayib bormoqda. Endilikda bu tizimga nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi xizmatlar, balki iqtisodiy subyektlar va fuqarolik instituti vakillari ham kiritilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida kiberjinoatlar profilaktikasi subyektlari tizimi so'nggi yillarda tubdan yangilandi. Xususan, 2022-yilda qabul qilingan "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat bo'lib xizmat qilmoqda [10]. Qonunga muvofiq, kiberxavfsizlik sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi va tizimni muvofiqlashtiruvchi vakolatli organ sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati (DXX) belgilangan.

Milliy qonunchilikda profilaktika subyektlari quyidagi iyerarxiya tartibda yoritilgan:

1. **Davlat xavfsizlik xizmati:** Kibermakondagi tahdidlarni aniqlash, muhim axborot infratuzilmasi obyektlarini himoya qilish va boshqa organlar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun mas'ul [11].

2. **Ichki ishlar vazirligi (IIV)** huzuridagi Kiberxavfsizlik markazi bevosita kiberjinoatchilikka qarshi kurashish, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish va aholi o'rtasida profilaktika ishlarini olib borish bilan shug'ullanadi [12]. Prezident qarori bilan ushbu markazning vakolatlari kengaytirilib, yettita yangi turdagi ekspertiza turlari joriy etildi.

3. **Raqamli texnologiyalar vazirligi** axborot texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirish, kiberxavfsizlik standartlarini ishlab chiqish va raqamli savodxonlikni oshirishga mas'ul.

4. **Markaziy bank va tijorat banklari** bank-moliya tizimidagi kiberjinoatlarning (*masalan, fishing yoki onlayn kredit firibgarligi*) oldini olish uchun anti-frod tizimlarini qo'llash va shubhali tranzaksiyalarni nazorat qilish majburiyatiga ega [13].

5. **Bosh prokuratura** profilaktika sohasidagi qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Shuningdek, Prezident ko'rsatmasiga binoan, davlat organlarining qarorlari qonuniyligini masofaviy monitoring qiluvchi "raqamli nazorat" tizimi joriy etilmoqda [14].

Milliy qonunchilikda subyektlarning hamkorligi masalasiga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Xususan, Prezidentimizning 2025-yil noyabrda topshiriqlariga asosan, jinoyat haqida xabar berilgan paytdan boshlab sud qarori ijrosigacha bo'lgan barcha jarayonlarni raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish vazifasi qo'yilgan [15]. Bu esa subyektlar o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtiradi.

Biroq, so'nggi besh yillikda respublikada kiberjinoatlar yil sayin keskin ortib bormoqda. Xususan, 2021–2025-yillarda mamlakatda jami kiberjinoatlar soni 4 865 tadan 62 440 tagacha, ya'ni qariyb 13 barobarga o'sishi [16] raqamli makondagi jinoyatchilikning transformatsiyalashuv jarayoni naqadar shiddatli kechayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, yetkazilgan umumiy moddiy zarar (3 trln 730 mlrd so'm)ning salkam yarmi – 1 trln 890 mlrd so'mi aynan 2025-yilning 11 oyiga to'g'ri kelayotgani kibertahdidlarning nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham ijtimoiy xavfli darajasi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Kriminologik vaziyatning bunday murakkablashuvi milliy qonunchilikda profilaktika subyektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning institutsional asoslari, xususan, xususiy sektor (IT kompaniyalar) va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi tezkor axborot almashinuvining protsessual tartiblari yetarli darajada reglamentatsiya qilinmaganidan dalolat.

Mazkur huquqiy bo'shliqlar amaliyotda axborot texnologiyalari subyektlarining viktinologik profilaktikadagi mas'uliyatini cheklab, jinoyatlarni "issiq izidan" fosh etishda idoraviy byurokratizm va vaqt yo'qotishlariga olib kelmoqda. Bu esa kiberjinoatchilikka qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda xususiy sektorning ijtimoiy mas'uliyatini qonun darajasida mustahkamlash zaruratini dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yimoqda.

Shu o'rinda, rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar tashlasak, ularda kiberjinoatlar profilaktikasi subyektlari tizimining yuqori darajadagi ixtisoslashuvi va institutsional jipsligi bilan ajralib turadi. Xususan:

Buyuk Britaniya modelining asosini 2016-yilda tashkil etilgan Milliy kiberxavfsizlik markazi (*National Cyber Security Centre – NCSC*) tashkil etadi. NCSC Hukumat aloqalari markazi tarkibiga kiradi va Britaniyani onlayn rejimda yashash va

ishlash uchun eng xavfsiz joyga aylantirish missiyasini bajaradi [17]. Uning o'ziga xos jihati shundaki, NCSC nafaqat davlat idoralari, balki kichik biznes va oddiy fuqarolar bilan ham bevosita hamkorlik qiladi. Ular uchun maxsus "Cyber Assessment Framework" va "Cyber Action Toolkit" kabi vositalar ishlab chiqilgan bo'lib, bu profilaktikaning avtomatizatsiya darajasini oshiradi [18].

Amerika Qo'shma Shtatlarida esa profilaktika tizimi ko'p qatlamli bo'lib, asosiy rol Kiberxavfsizlik va infratuzilma xavfsizligi agentligi (CISA) zimmasiga yuklatilgan [19]. CISA Milliy xavfsizlik departamenti (DHS) tarkibida faoliyat yuritib, federal agentliklar va muhim infratuzilma operatorlari o'rtasida ma'lumot almashinuvini ta'minlaydi. 2022-yilda qabul qilingan CIRCIA (*Cyber Incident Reporting for Critical Infrastructure Act*) qonuni muhim infratuzilma subyektlarini kiberhujum sodir bo'lganligi haqida 72 soat ichida CISA ga xabar berishga majbur qiladi [20]. Shuningdek, FQB (FBI) va Maxfiy xizmat (Secret Service) transmilliy kiberjinoyatlarni tergov qilish va operativ profilaktika ishlarini olib boradi [21].

Shuningdek, bugungi kunda dunyoda kiber-makondagi tahdidlarga qarshi kurashishda ijobiy tajribani aynan Skandinaviya mamlakatlari va Finlyandiya davlati eng samarali tizimlardan birini yaratgan. Xususan, **Finlandiya** Xalqaro elektr aloqa ittifoqi (ITU) tomonidan e'lon qilinadigan Global kiberxavfsizlik indeksida (*Global Cybersecurity Index — GCI*) izchil ravishda yuqori natijalarni qayd etib kelmoqda (*masalan, oxirgi hisobotlarda 95.78 ball bilan top-reytinglarda turadi*) [22]. Finlandiya modelining o'ziga xosligi – kiberxavfsizlikni ta'minlashda nafaqat davlat

organlari, balki xususiy sektor va fuqarolik jamiyatining "milliy yakdilligi"ga asoslanishidir.

Mintaqaviy darajada **Skandinaviya** davlatlari (*Norvegiya, Daniya, Shvetsiya va Finlandiya*) "Nordic National CERT Collaboration" platformasi doirasida faol hamkorlik qiladi. Mazkur tuzilma texnik ma'lumotlarni (*insidentlar haqidagi xabarlarini*) real vaqt rejimida almashish, transchegaraviy kiberhujumlarga qarshi qo'shma kiber-mashqlar o'tkazish va profilaktikaning yagona standartlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi [23].

Norvegiya tajribasida esa Milliy kiberjinoyatchilikka qarshi kurash markazi (*NCIS — National Cyber Crime Centre*) yetakchilik rolini o'ynaydi. Ushbu markazning o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat milliy darajada, balki xalqaro operativ maydonda, xususan, Yevropol qoshidagi *J-CAT (Joint Cybercrime Action Taskforce)* tizimi bilan uzviy bog'langan. Bu mexanizm Norvegiya huquqni muhofaza qilish organlariga xalqaro kiberguruhlarni aniqlash va ularga qarshi tezkor choralar ko'rishda keng imkoniyat yaratadi [24].

Fransiya davlatida Milliy tizimlar xavfsizligi agentligi (ANSSI) kiberxavfsizlik siyosatini belgilaydi va muhim ahamiyatga ega operatorlarni himoya qiladi [25]. **Ispaniyada** esa Milliy kiberxavfsizlik instituti (INCIBE) fuqarolar va tadbirkorlar uchun asosiy profilaktika subyekti hisoblanadi [26]. Uning "017" ishonch telefoni kibertahdidlarga qarshi tezkor maslahat berish tizimi sifatida dunyoda tan olingan [27].

Quyidagi jadvalda rivojlangan davlatlarning profilaktika subyektlari va hamkorlik mexanizmlari qiyoslangan:

Davlat	Asosiy profilaktika subyekti	Hamkorlik mexanizmining o'ziga xos jihati
Buyuk Britaniya	NCSC (<i>Milliy kiberxavfsizlik markazi</i>)	Davlat va sanoat o'rtasidagi yagona oyna" tizimi [28]
AQSH	CISA (<i>Kiberxavfsizlik agentligi</i>)	Hodisalar haqida majburiy hisobot berish (CIRCIA)[29]
Finlandiya	NCSC-FI (<i>Transport va aloqa agentligi</i>)	Mintaqaviy (Nordic) va yuqori texnologik hamkorlik[30]
Shveysariya	NCSC (<i>sobiq MELANI</i>)	Davlat va xususiy sektorning strategik sherikligi[31]
Ispaniya	INCIBE (<i>Milliy kiberxavfsizlik instituti</i>)	Fuqarolik jamiyati va KO'B uchun keng qamrovli xizmatlar[32]

Ushbu davlatlarda hamkorlik nafaqat davlat idoralari o'rtasida, balki davlat va xususiy sektor (*Public-Private Partnership*) o'rtasida ham yuqori darajada yo'lga qo'yilgan. Bu kiberjinoyatlarni barvaqt aniqlash va ularning oqibatlarini yumshatish imkonini beradi. Shuningdek, mavzu doirasida kiber-makondagi huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi subyektlar tizimini o'rganishda, xalqaro tan olingan Finlandiya tajribasi (*GCI – 95,78*) alohida ahamiyatga ega. Mazkur davlatda profilaktikaning muvaffaqiyati "Nordic National CERT Collaboration" va *NCIS (Norvegiya)* kabi tizimlar doirasida davlat va xususiy sektorning real vaqt rejimidagi hamkorligiga asoslangan [33]. Biroq, milliy amaliyot va Andijon viloyati misolida o'rganilgan jinoyat ishlari fabulalari tahlili bizda profilaktika subyektlari o'rtasidagi hamkorlikda jiddiy institutsional muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Bularga:

*Birinchi*dan, subyektlararo hamkorlikning huquqiy mexanizmi detallashtirilmagan. O'rganilgan jinoyat ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, "Uzum nasiya" kabi IT-platformalar va banklar jinoyat alomatlarini aniqlagan taqdirda ham ularni IIOga tezkorlik bilan uzatish bo'yicha protsessual majburiyatga ega emas. Bu esa xususiy sektorning (*IT-kompaniyalar*) profilaktika tizimidan uzilib qolishiga sabab bo'lmoqda.

*Ikkinchi*dan, axborot almashinuvidagi "byurokratik lag" (vaqt yo'qotish) muammosi. Jinoyatchilar mablag'larni masofaviy boshqarish orqali bir necha soniya ichida o'zlashtirmoqdalar. Amalda esa IIO va bank tizimlari o'rtasida ma'lumot almashish an'anaviy so'rovnomalarda asosida amalga oshirilmoqda. Shimoliy Yevropa davlatlaridagi *J-CAT* tizimidan farqli o'laroq, bizda shubhali tranzaksiyalarni avtomatik to'xtatish va real vaqtda xabar berish mexanizmi yo'qligi sababli yetkazilgan 3,7 trln so'mlik zararining aksariyati qaytarilmay qolmoqda [34].

*Uchinchi*dan, viktimologik profilaktikaning sustligi. Fuqarolarning ishonuvchanligi natijasida mablag'larini boy berishi profilaktika subyektlari tomonidan aholining kiber-savodxonligini oshirish bo'yicha tarqoq, tizimsiz harakat qilinayotganidan dalolat beradi.

Milliy va xorijiy davlatlarning kiberxavfsizlik sohasidagi huquqiy normalarni ilmiy-qiyosiy tahlil

qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi rivojlangan davlatlar tajribasini o'zlashtirishda muayyan yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, profilaktika subyektlarining hamkorlik mexanizmlarida hali ham tizimli huquqiy bo'shliqlar mavjudligi kuzatilmoqda. Nazarimizda, ushbu bo'shliqlarni quyidagi to'rtta konseptual yo'nalishda klassifikatsiyalash maqsadga muvofiq. Bular:

1. Insidentlar haqida majburiy xabardor qilish (Mandatory Reporting) institutining shakllanmaganligi. Xorijiy tajribada, xususan, AQSHning "Kiberxavfsizlik bo'yicha muhim infratuzilma insidentlari to'g'risida xabar berish to'g'risida"gi qonunida (CIRCIA) muhim infratuzilma obyektlari kiberhujum sodir etilgan vaqtdan boshlab qat'iy belgilangan muddatda xabar berishi shartligi belgilangan [35]. O'zbekiston qonunchiligida bunday majburiyat asosan davlat organlariga tegishli bo'lib, xususiy sektor, ayniqsa, moliyaviy tashkilotlar va aloqa provayderlari uchun insidentlar haqida tezkor xabar berishning aniq huquqiy mexanizmi hamda uni bajarmaganlik uchun sanksiyalar tizimi yetarli darajada detallashtirilmagan. Bu esa kiberjinoyatlar profilaktikasida subyektlararo axborot almashinuvining sustligiga olib kelmoqda.

2. Elektron dalillarni "tezkor saqlash" (Preservation of Data) mexanizmining yo'qligi. Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Budapesht konvensiyasiga a'zo davlatlar (*masalan, Fransiya, Germaniya*) qonunchiligida "ma'lumotlarni tezkor saqlash" (*expedited preservation of stored computer data*) mexanizmi mavjud bo'lib, u raqamli izlar yo'q qilinishidan oldin ma'lumotlarni ma'lum muddatga blokda saqlab turish imkonini beradi [36]. O'zbekiston Jinoyat-protsessual kodeksida bunday tezkor choralarning yo'qligi, profilaktika va surishtiruv jarayonining an'anaviy "tintuv" va "olib qo'yish" normalari bilan cheklanib qolgani raqamli makonda dalillar bazasini shakllantirish samaradorligini pasaytiradi.

3. Kiber-sug'urta va jabrlanuvchiga zararni qoplash tizimining nomukammalligi. Kanada-ni PIPEDA qonuni kabi xalqaro andozalarda shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlamagan tashkilotlarning qat'iy mas'uliyati va jabrlanuvchiga zararni qoplashning sug'urtaviy mexanizmlari rivojlangan [37]. Milliy amaliyotda

esa, bank kartalaridan mablag'lar noqonuniy yechib olinganda, zararni qoplash mas'uliyati ko'pincha jabrlanuvchining zimmasida qolmoqda. Bu esa tijorat banklarining kiberprofilaktika sohasidagi ijtimoiy va huquqiy mas'uliyatini oshirish uchun maxsus sug'urta fondlarini tashkil etish zaruratini tug'diradi.

4. Sun'iy intellektdan (AI) profilaktika maqsadida foydalanishning huquqiy chegaralari belgilanmaganligi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt nafaqat jinoyat sodir etish vositasi, balki preventiv monitoringning muhim instrumenti hamdir. Biroq, profilaktika maqsadida AI yordamida aholini monitoring qilishning inson huquqlari va shaxsiy hayot daxlizligi bilan bog'liq muvozanati milliy qonunchilikda o'z ifodasini topmagan [38]. Bu esa raqamli tex-

nologiyalarni profilaktikaga joriy etishda "huquqiy xavfsizlik" tamoyilining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiq-lashtirish nafaqat davlat organlarining, balki xususiy sektorning ham profilaktik funksiyalarini kengaytirishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, kiberjinoyatlar profi-laktikasi subyekti sifatida faqat davlat organlariga tayanish yetarli emas. Global tajriba (*Finlandiya va Shimoliy Yevropa mamlakatlari*) va olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, samarali tizim faqatgina *davlat, biznes va fuqarolarning texno-logik va huquqiy jihatdan birlashgan makonida (Public-Private Partnership)* shakllanishi mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga bayram tabrigi // <https://president.uz/uz/lists/view/6442>
2. Uzbekistan to intensify fight against drug and cybercrime, expand digital oversight system // <https://daryo.uz/en/2025/11/04/uzbekistan-to-intensify-fight-against-drug-and-cybercrime-expand-digital-oversight-system/>
3. Cybercrime Prevention: Theory and Applications | Request PDF – ResearchGate // <https://www.researchgate.net>
4. Scientific approach to early crime prevention in Surkhondarya mahallas // <https://proacademy.uz/en/news/view?alias=2784>
5. Parhomenko S.V., Evdokimov K.N. Prevention of cybercrime in the Russian federation: An integrative and comprehensive approaches // July 2015 Криминологический журнал Байкальского государственного университета экономики и права 9(2):265-276 / DOI:10.17150/1996-7756.2015.9(2).265-276
6. Вехов В. Б. Основы криминалистического учения об исследовании и использовании компьютерной информации и средств её обработки: монография. – Волгоград: ВА МВД России, 2004. – С. 154–158.
7. Holt, T. J. "Examining the Applicability of Routine Activity Theory to Explain Victimization Online" // *Deviant Behavior* / 2008, Volume 30, Issue 1. – P. 1–25
8. Reins B.H. "Cyberbolt: A Systemic Approach to Cybercrime" ёки "Cybercrime: A Reference Handbook" ABC-CLIO. – P. 84–87.
9. Slonje S., Smith P. K. Cyberbullying: Another main type of bullying? // *Scandinavian Journal of Psychology*. – 2008. – Vol. 49. – Iss. 2. – P. 152.
10. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'RQ-764-son qonuni // <https://lex.uz/docs/5960604>
11. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-471-son qonunning 5-moddasi // <https://www.lex.uz/acts/3610935>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli mahsulotlarning kiberxavfsizligini ta'minlash va kriminalistik tadqiqotlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-209-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.07.2023-y., 07/23/209/0438-son.
13. O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi. O'RQ-578-son qonuni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli texnologiyalar sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-381-son qarori // <https://lex.uz/docs/6681111>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4818-son qarori // <https://lex.uz/docs/4979896>
16. <https://kun.uz/kr/63123328>

17. National Cyber Security Centre - GOV.UK // <https://www.gov.uk>
18. National Cyber Security Centre - NCSC.GOV.UK // <https://www.ncsc.gov.uk/>
19. Combatting Cyber Crime – CISA // <https://www.cisa.gov/combating-cyber-crime>
20. Cyber Incident Reporting for Critical Infrastructure Act of 2022 (CIRCIA) – CISA // <https://www.cisa.gov>
21. Combatting Cyber Crime – CISA // <https://www.cisa.gov/combating-cyber-crime>
22. International Telecommunication Union (ITU). Global Cybersecurity Index 2024 Report. – Geneva: ITU Publications.
23. Nordic CSIRTs Collaboration. Annual Report on Regional Cooperation in Cybersecurity. – Oslo/Helsinki: Nordic National CERTs.
24. Europol. Joint Cybercrime Action Taskforce (J-CAT) Operational Overview. – The Hague: European Cybercrime Centre (EC3).
25. France - NCC - European Cybersecurity Competence Centre and Network // https://cybersecurity-centre.europa.eu/france-ncc_en
26. NCC-ES – INCIBE // <https://www.incibe.es/en/incibe/corporate-information/who-we-work-with/european-projects/NCC-ES>
27. SIC-SPAIN 3.0 – INCIBE // <https://www.incibe.es/en/incibe/corporate-information/who-we-work-with/european-projects/sic-spain3>
28. What we do at the NCSC - NCSC.GOV.UK // <https://www.ncsc.gov.uk>
29. Cyber Incident Reporting for Critical Infrastructure Act of 2022 (CIRCIA) – CISA // <https://www.cisa.gov/topics/cyber-threats-and-advisories/information-sharing/cyber-incident-reporting-critical-infrastructure-act-2022-circia>
30. Global Cybercrime Report 2024: Which Countries Face the Highest Risk? – MixMode // <https://www.mixmode.ai/blog/global-cybercrime-report-2024-which-countries-face-the-highest-risk>
31. Europe's commitment in cybersecurity – ITU // https://www.itu.int/en/-/ITUD/Cybersecurity/Documents/GCI_EUROPE_ITUwebinar.pdf
32. SIC-SPAIN 3.0 - INCIBE // <https://www.incibe.es/en/incibe/corporate-information/who-we-work-with/european-projects/sic-spain3>
33. International Telecommunication Union (ITU). Global Cybersecurity Index 2024 Report. – Geneva, 2024.
- Andijon shahri bo'yicha IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi materiallari: 2025-yildagi 56633, 56864, 54732, 54583-sonli jinoyat ishlari fabulalari.
34. Cyber Incident Reporting for Critical Infrastructure Act of 2022 (CIRCIA). – Public Law No. 117-103.
35. Council of Europe. Convention on Cybercrime (Budapest Convention). ETS No.185. – Article 16.
36. Personal Information Protection and Electronic Documents Act (PIPEDA). – S.C. 2000, c. 5.
37. European Commission. Ethics guidelines for trustworthy AI. – Brussels, 2019.



ICHKI ISHLAR ORGANLARINING TERGOV BO'LINMALARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILY-HUQUQIY MASALALARI



Xamidov Asilbek Alisher o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
ilmiy xodim-tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish faoliyatining bugungi holati, tizimdagi ayrim tashkiliy-huquqiy muammolar, bu sohada xorijiy davlatlar tajribalari hamda ularni mahalliy amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, tergovchi va surishtiruvchilarning ish vaqti va hajmini tartibga solish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Калум so'zlar: tergovchi, surishtiruvchi, ish vaqti, ish hajmi, taqsimot, mehnat ta'tili, hududiy ichki ishlar organi boshlig'i, bo'ysunuv.

Аннотация. В статье рассматривается текущее состояние деятельности органов внутренних дел по расследованию преступлений, организационно-правовые проблемы, опыт зарубежных стран в данной сфере и их внедрение в отечественную практику, а также вопросы регулирования рабочего времени и объема работы следователей и дознавателей.

Ключевые слова: следователь, дознаватель, рабочее время, объем работы, распределение, трудовой отпуск, начальник территориального ОВД, подчиненность.

Abstract. The article examines the current state of the activities of internal affairs bodies in investigating crimes, organizational and legal problems, the experience of foreign countries in this area and their implementation in domestic practice, as well as issues of regulating the working hours and volumes of investigators and inquiry officers.

Keywords: investigator, inquiry officer, working hours, workload, distribution, vacation, head of the territorial Department of Internal Affairs, subordination.

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish, ayniqsa, jamiyatda keng tarqalayotgan iqtisodiy va kiberjinoiyatlar, firibgarlik va moliyaviy qonunbuzarliklarni samarali fosh etish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalari hal qiluvchi o'rin tutadi. Chunki jinoyatlarni tez, to'liq va xolisona tergov qilish, javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash hamda jabrlanuvchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish aynan ushbu bo'linmalar faoliyati samaradorligiga bevosita bog'liq.

So'nggi yillarda O'zbekistonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini isloh qilish, jinoyat ishlarini yuritish tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish, tergov organlarining mustaqilligi va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamlı tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, jinoyat sodir etish usullarining murakkablashuvi, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda transmilliy jinoyatchilik xavfining ortishi tergov bo'linmalari oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bu esa ularning tashkiliy tuzilmasi, huquqiy maqomi, vakolatlari va faoliyatni muvofiqlashtirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Amaldagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalari faoliyatida ayrim tashkiliy-huquqiy muammolar mavjud bo'lib, ular tergov harakatlari samaradorligiga, ishlarni o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqishga, qolaversa, tergov organlari mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, tergov bo'linmalari xodimlarining ish vaqti va hajmini me'yorlashtirish, ish yuklamasini to'g'ri taqsimlash, kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish kabi masalalarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganishni talab etadi.

Shu bois mazkur maqolada ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalari faoliyatini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy masalalari kompleks tarzda tahlil qilinib, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida ushbu sohani yanada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqish maqsad qilib olingan.

Mazkur tadqiqot doirasida ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalari faoliyatiga oid milliy va xorijiy ilmiy manbalar o'rganib chiqildi. O'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan tergov bo'linmalari faoliyatini takomillashtirish masalalari huquqshunoslik fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi-da, mavjud ilmiy izlanishlarning aksariyati ushbu bo'linmalar faoliyatining alohida funksional jihatlarini tadqiq etish bilan cheklangan.

Jumladan, A. Nurmatov "Jinoyat ishini tugatishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda tergov bo'linmalari rahbarlarining idoraviy nazoratini amalga oshirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish", Sh. SHERMATOV "Ichki ishlar organlarida tergov departamentining vazifa va funksiyalarini maqbullashtirish", "Ichki ishlar organlarida tergov xizmatini vazifa va funksiyalarini belgilanishining rivojlanish bosqichlari", A. Do'stmurodov "Tergov-tezkor guruhi faoliyatini takomillashtirishni amalga oshirishga doir xalqaro tajriba", B. Ismatov "Ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalarida amalga oshirilayotgan islohotlar", N. Usmonaliyev "Surishtiruv va tergov organlarining jinoyatlarni oldini olish funksiyasi va huquqiy tartibga solinishi", M. Saidov "Tergovchilar va surishtiruv organlarining xorijiy davlatlar vakolatli organlari bilan o'zaro hamkor-

ligining yangi yo'nalishlarini rivojlanish istiqbollari va muammolari" kabi mavzularda mahalliy darajada izlanishlar olib boranganlar.

O'z navbatida, ilmiy manbalarda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy-amaliy masalalari, tergov harakatlarini o'tkazish taktikasi, jinoyatlarni fosh etishda boshqa xizmatlar va tashkilotlar bilan hamkorlikni takomillashtirish, shuningdek, tergov jarayonida protsessual kafolatlarni ta'minlashga qaratilgan masalalar keng yoritilgan. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar tergov faoliyatining mazmunan takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etsa-da, ularda tergov bo'linmalarining tashkiliy-huquqiy asoslarini to'laqonli o'rganishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan.

Ayniqsa, tergov bo'linmalarining tizimdagi o'rni, tashkiliy tuzilmasi, huquqiy maqomi, vakolatlari taqsimoti, idoralararo muvofiqlashtirish mexanizmlari hamda boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar juda kam. Mazkur holat amaldagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti o'rtasidagi ayrim muammolarni ilmiy jihatdan chuqur asoslab berishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, milliy huquqshunoslikda ichki ishlar organlari tergov bo'linmalari faoliyatiga taalluqli ayrim masalalarni o'rgangan o'zbek olimlari va amaliyotchi mutaxassislarining ilmiy ishlari mavjud. Ularda, asosan, tergov organlarining huquqiy asoslari, tergov faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlari, kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qonun ustuvorligini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Biroq ushbu tadqiqotlar ko'p hollarda umumiy yoki alohida muammolar kesimida olib borilgan bo'lib, tergov bo'linmalari faoliyatini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy masalalarini tizimli va kompleks yondashuv asosida yoritib bermaydi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili ham shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda tergov organlari faoliyatini takomillashtirish masalalari, asosan, institutsional mustaqillik, ixtisoslashuv darajasi, raqamli kriminalistika vositalarini joriy etish va idoralararo hamkorlikni kuchaytirish nuqtai nazaridan o'rganilgan. Biroq mazkur tajribalarni milliy huquqiy tizimga moslashtirish masalalari alohida ilmiy asoslanishni talab etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalari faoliyatini takomillashtirishning tashkiliy-huquqiy masalalarini kompleks, tizimli va amaliy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribalar asosida ushbu sohani rivojlantirishga xizmat qiladigan ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqishni maqsad qiladi.

Tadqiqot davomida ichki ishlar organlari tergov bo'linmalari xodimlarining ish hajmi, yuklamasi, ishlarni taqsimlash holati, hududiy ichki ishlar organlari boshliqlariga bo'ysunuv tartibi o'rganildi. Mavjud tizim samaradorligi tadqiq qilindi. Tahlillar davomida ilmiy bilishning tizimli, qiyosiy va statistik tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

So'nggi yillardagi globallashuv [1] sharoitida jamoat tartibi va xavfsizligiga yangidan-yangi tahdidlar tobora kuchayib, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash hamda himoya qilish murakkab vazifaga aylanmoqda. Bunday tahdidlar fonida jinoyatlarning soni va turlari ham oshib bormoqda.

Xususan, O'zbekistonda so'nggi besh yilda (2020–2025) jinoyatchilik darajasi 40,0 foizga (62 081 tadan 155 003 taga)ga ortdi. O'z navbatida, bu holat ichki ishlar organlarining jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimida asosiy bo'g'inlardan biri bo'lgan, shuningdek, ayb uchun javobgarlik [2] va javobgarlikning muqarrarligi [3] prinsiplarini qaror toptirish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi tergov bo'linmalari xodimlari zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklamoqda.

Shunga muvofiq, O'zbekistonda jinoyatchilik borasidagi yangi chaqiriqlarga javoban ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda zamon talablariga monand tashkil etish yo'nalishida bir qator samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Birinchiidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-aprelda **“Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi** qarori qabul qilindi [4].

Qarorga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasi Tergov departamenti to'g'risidagi Nizom qabul qilindi va uning huquq va majburiyatlari, vazifa va funksiyalari;
- jinoyatlarni tergov qilish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari;
- tergov bo'linmalariga lavozimga tayinlash, ularga nisbatan intizomiy va jinoiy ish qo'zg'atish tartibi;
- tergov bo'linmalarining mustaqilligi, ish va bo'ysunuv tartibi to'g'risida zarur normalar belgilandi.

Ikkinchiidan, Ichki ishlar vazirining 2017-yil 12-iyunda **“O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida surishtiruv va dastlabki tergovni tashkil etish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida”gi** buyrug'i imzolandi [5].

Buyruqqa binoan:

- ichki ishlar organlari tergov bo'linmalarining huquqiy asoslari;
- bo'linmalarining vazifa va funksiyalari;
- bo'linmalarda xizmatni o'tash tartibi;
- surishtiruv va dastlabki tergov faoliyatini tashkil etish tartibi;
- xodimlarning huquqiy maqomi, ularning huquq va majburiyatlari normativ jihatdan mustahkamlab qo'yildi.

Uchinchiidan, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentyabrda **“Ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalari xodimlari tomonidan jinoyatlarni tergov qilish hamda fosh etish samaradorligini yanada oshirish to'g'risida”gi** qarori qabul qilindi [6]. Qarorga asosan:

- “Ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalari xodimlariga qo'shimcha ustamalar to'lanadigan maxsus malaka darajasini berish tartibi to'g'risida” Nizom tasdiqlandi;
- Nizomga asosan tergov bo'linmalarining tergovchisi va surishtiruvchilari faoliyatini baholash va shunga muvofiq rag'batlantirish tartibi ishlab chiqildi.

To'rtinchiidan, Davlat rahbarining 2022-yil 28-yanvarda **“Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi** qarori imzolandi [7]. Qarorga asosan:

- “Elektron surishtiruv va dastlabki tergov” axborot tizimi ishga tushirildi;

- unga ko'ra, 29 ta davlat organlari va tashkilotlarining elektron axborot tizimlari integratsiya qilindi;

- elektron hujjat almashish yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, jinoyat va jinoyat protsessual qonunchilik normalarini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi natijasida ichki ishlar organlari tergov bo'linmalarining ish faoliyati sezilarli ravishda tartibga solindi, soha raqamlashtirilib, ortiqcha qog'ozbozlikka chek qo'yildi.

Biroq, yuqoridagi kabi bir qator samarali islohotlar amalga oshirilganligiga qaramasdan, tergov bo'linmalari faoliyatida bir qator tashkiliy-huquqiy muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan:

Huquqiy yo'nalishda:

- tergov bo'linmalari xodimlarining ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash yuzasidan ichki ishlar organlari boshliqlariga bo'ysunuv;
- jinoyat ishlarini taqsimlash tizimining samarasi pastligi;
- xodimlarning ish ko'rsatkichlarini baholash tizimining samaradorligi yuqori emasligi.

Tashkiliy yo'nalishda:

- ish vaqtining amaldagi qonunchilik hujjatlariga monand tashkil etilmasligi;
- ortiqcha vazifalarning ko'pligi kabi muammolar ko'zga tashlanmoqda.

Quyida ushbu muammolarni batafsil tahlil qilishga harakat qilamiz.

Xususan, tergov bo'linmalari xodimlarining ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash yuzasidan ichki ishlar organlari boshliqlariga bo'ysunuv tartibi tergov organlari mustaqilligi cheklanishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”** 2018-yil 18-aprelda 2898-son qarorining 2-bandi 5-xatboshisi hamda ushbu qaror ijrosi yuzasidan qabul qilingan **“O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida surishtiruv va dastlabki tergov faoliyatini tashkil etish samaradorligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi** Ichki ishlar vazirining 2017-yil 12-iyundagi buyrug'ida surishtiruv va dastlabki tergov bo'linmalari xizmatni o'tash yuzasidan hududiy

ichki ishlar organlari boshliqlariga bo'ysunishi belgilangan.

Jinoyat-protsessual kodeksining 36 va 38¹-moddalariga ko'ra, tergovchi tergovning, surishtiruvchi esa surishtiruvning yo'nalishlariga oid barcha qarorlarini mustaqil (*prokuror va sudya ruxsatini olish talab etiladigan hollar bundan mustasno*) ravishda qabul qiladi. Shunga ko'ra ular to'liq mustaqildir va faqat qonunga bo'ysunadilar.

Biroq, yuqoridagi bo'ysunuv tartibi mazkur Qonun bilan belgilangan mustaqillikni cheklab qo'yadi. Ushbu norma sababli shundoq ham ish hajmi katta bo'lgan tergovchi va surishtiruvchilar ularga aloqasi bo'lmagan ortiqcha yig'ilishlarga jalb etilishi, yurituvda bo'lgan tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishi hujjatlari bo'yicha ichki ishlar organlari boshliqlariga hisob berishi talab qilinishi hamda ish yurituvga noqonuniy aralashishlar kuzatilmoqda. Bu xodimlarni ish yurituvdagi hujjatlar bo'yicha vakolati bo'lmagan shaxslarga hisob berishga va jinoyat ishlarini oshkor etishiga majbur qiladi. Bu esa ushbu bo'ysunuv tartibini tergov bo'linmalari ish yurituvdagi ishlarga aralashish vositasiga aylantirib qo'yadi.

O'z navbatida, bu holat jinoyat ishlari bo'yicha maxsus xabarlarining asl holatida emas, ichki ishlar organi boshlig'i ko'rsatmasi asosida, hodisalarning oqibatlari yengillashtirilgan holatda berilishga, jinoyat va hodisalar haqida o'z vaqtda to'g'ri qaror qabul qilish kechikishiga olib keladi.

Shuningdek, jinoyatlarning ijtimoiy xavfli darajasiga ko'ra surishtiruvchi va tergovchilar tomonidan alohida tergov qilinishi tartibi belgilanganligi tergov sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentyabrda qabul qilingan **“Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi** qonuni [8]ga asosan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar bo'yicha surishtiruv surishtiruvchi, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov tergovchi tomonidan o'tkazilishi belgilangan. Mazkur norma tergov bo'linmalarida murakkab jinoyat ishlar bo'yicha tuziladigan tergov guruhi rahbari bo'ladigan tergovchilar tomonidan nomigagina tergov guruhi tuzilib, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha

tergov amalda guruh a'zosi bo'lgan surishtiruvchi tomonidan olib borilishiga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra surishtiruvchi guruh a'zosi bo'lsa-da, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni bevosita tergov qiladi va mumkin bo'lmasa ham tergovchi nomidan amalda o'zi mustaqil qaror qabul qiladi. Qolaversa, guruh a'zosi bo'lgan surishtiruvchi tomonidan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar tergov qilinishi natijasida salbiy oqibatlar kelib chiqsa (*masalan, oqlov kuzatilsa yoxud qonunbuzilish holatlari aniqlansa*), o'zi emas, guruh rahbari bo'lgan tergovchi javobgar bo'lishi holatlari ko'plab uchramoqda.

Shu bilan birga, tergov rahbarlari mazkur Qonunga zid ravishda ish hajmining ko'pligi vaji bilan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni surishtiruvchilarga topshirishi natijasida tergov sifati yanada tushib ketmoqda.

Bundan tashqari, tergov bo'linmalarida ish vaqtining amaldagi qonun hujjatlari talablari asosida yo'lga qo'yilmaganligi xodimlarning ishga bo'lgan munosabati yomonlashishiga hamda malakali kadrlarning boshqa ishlarga o'tib ketishlariga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 29-noyabrda qaroriga asosan ichki ishlar xodimlarining haftalik ish vaqti 40 soatdan oshmasligi (*qo'shimcha xizmat va alohida holatlar bundan mustasno*) qayd etilgan.

Biroq, ichki ishlar organlari tergov bo'linmalarida ish vaqti amalda chegaralanmagan. Tergovchi ish hajmi ko'payib ketganligi bois (*deyarli har doim ish hajmi ko'p bo'lgan*) tungi vaqtlarda ishlashga majbur bo'ladi. Ish vaqti odatda 08.30 dan tungi 23.00 ga qadar (*kuniga o'rtacha 14 soat*) davom etadi. Bu esa kunlik me'yor bo'lgan 8 soatdan ancha ko'p. Shunday bo'lsa-da, ortiqcha ishlangan vaqt uchun qo'shimcha pul mablag'ini to'lash yo'lga qo'yilmagan.

Shunday muammolardan yana biri, tergov bo'linmalari xodimlarining ish natijalariga ko'ra baholanmasligi va rag'batlantirilmasligida namoyon bo'ladi.


Tergov bo'linmalari xodimlarining ish hajmi har doim ham bir xil bo'lmasligi sababli bajarilgan

ishlar hajmi va sifatida ham farqlar vujudga keladi, ya'ni tergovchi yurituvida bo'lgan jinoyat ishlarini tamomlash darajasi har xil bo'ladi. Biroq, yuqori ish natijalariga ega bo'lgan xodim ham o'zidan past natijalarga va tamomlash foizlariga ega xodim bilan bir xil miqdorda ish haqqi oladi. Chunki tergovchilarni ishni tamomlash ko'rsatkichlariga qarab qo'shimcha ustamalar berish masalasi belgilanmagan. Shunga ko'ra, yuqori ko'rsatkichga erishish rag'batlantirilmasligi sababli tergovchilar o'rtasida ijobiy raqobat vujudga kelmagan va buning natijasida samaradorligi yuqori tergovchilar ham oldinga intilishni to'xtatishi kuzatilmoqda.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqadiki, tergov organlarining chinakam mustaqilligini va shaffofligini ta'minlamasdan, kasbning jozibadorligini oshirmasdan va amaldagi normativ huquqiy-hujjatlardagi kamchiliklarni bartaraf etmasdan tergov organlari samaradorligi va ish sifatini oshirish imkonsiz.

Amaldagi holat saqlanib qolsa va takomillashtirilmasa, yaqin kelajakda tergov organlarida malakali mutaxassislar yetishmasligiga, xalqning tergov organiga bo'lgan ishonchi yanada tushib ketishiga olib keladi.

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun tergov organlarining hududiy ichki ishlar organlari boshliqlariga bo'ysunish tartibini bekor qilish, surishtiruvchi shtatini tergovchi shtatiga qayta o'zgartirish, xodimlarga oylik ish natijalariga ko'ra qo'shimcha ustamalar berish tartibini joriy etish hamda ish vaqtini amaldagi qonun talablari asosida tashkil etish, shuningdek ortiqcha vaqt sarflanishiga sabab bo'ladigan vazifalar (*sudlarda amaliyot o'tash, boshqa sohaviy xizmatlarga ularning yurituvidagi murojaatlar bo'yicha yozma ko'rsatmalar tayyorlab berish kabilar*)ni bekor qilish maqsadga muvofiq.



Foydalanilgan manbalar

1. Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati / J. Nazarov va b. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2021. – 123 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot: Darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashr // M. Rustambayev. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 48-b.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot: Darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashr // M. Rustambayev. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 50-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 18-apreldagi PQ-2898-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/3180665>.
5. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida surishtiruv va dastlabki tergovni tashkil etish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida" 2017-yil 12-iyundagi 100-son buyrug'i.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalari xodimlari tomonidan jinoyatlarni tergov qilish hamda fosh etish samaradorligini yanada oshirish to'g'risida" 2017-yil 15-sentyabrda VM-727-son qarori. <https://lex.uz/docs/3353074>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PQ-105-son qarori. <https://lex.uz/docs/5840465>.
8. Ўзбекистон Республикасининг "Суриштирув институти такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида" 2017 йил 06 сентябрдаги ЎПҚ-442-сон қонуни. <https://lex.uz/ru/docs/3435729>.



RADIKALLASHGAN SHAXSLARNI QAYTA IJTIMOYLASHTIRISH



Abduniyazov Xasan Nurullayevich

IIV Tezkor qidiruv boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari,
magistr

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda radikallashgan shaxslar (mahkumlar)ni qayta ijtimoiylashtirish jarayoni huquqiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatlari bilan birgalikda tahlil qilindi. Mavzu mamlakatda so'nggi yillarda olib borilgan islohotlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, jamiyat barqarorligini mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan yondashuvlarning muhim yo'nalishini tashkil etadi. Tadqiqot metodologiyasi normativ-huquqiy tahlil, rasmiy ochiq manbalar asosida kontent tahlili va ichki solishtirma kuzatuvlarga asoslanadi. Bu yondashuvlar orqali qayta ijtimoiylashtirish jarayonining amaldagi holati, asosiy tamoyillari va qo'llanilayotgan mexanizmlari aniqlandi.


Kalit so'zlar: radikallashuv, qayta ijtimoiylashtirish, reabilitatsiya, diniy-ma'rifiy faoliyat, huquqiy tahlil, reintegratsiya.

Аннотация. В статье проведен анализ процесса ресоциализации радикализированных лиц (осужденных) в Узбекистане с учетом его правовых, духовно-нравственных и социальных аспектов. Тематика напрямую связана с реформами, осуществляемыми в стране в последние годы, и представляет собой одно из ключевых направлений подходов, направленных на укрепление общественной стабильности и обеспечение безопасности. Методология исследования основана на нормативно-правовом анализе, контент-анализе официальных открытых источников, а также внутренних сравнительных наблюдениях. Посредством данных подходов были выявлены текущее состояние процесса ресоциализации, его основные принципы и применяемые механизмы.

Ключевые слова: радикализация, ресоциализация, реабилитация, правовой анализ, религиозно-просветительская деятельность, реинтеграция.

Abstract. The article analyzes the process of resocialization of radicalized individuals (convicts) in Uzbekistan, considering its legal, spiritual-moral, and social dimensions. The topic is directly connected with the reforms implemented in the country in recent years and represents an important area of approaches aimed at strengthening social stability and ensuring security. The research methodology is based on normative-legal analysis, content analysis of official open sources, and internal comparative observations. Through these approaches, the current state of the resocialization process, its main principles, and the mechanisms being applied were identified.

Key words: radicalization, resocialization, rehabilitation, religious and educational activity, legal analysis, reintegration.



O'zbekistonda radikallashuvning oldini olish va uning oqibatlarini yumshatish masalasi bugungi huquqiy siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda so'nggi yillarda xavfsizlikni ta'minlash, jamiyatda barqarorlikni mustahkamlash va diniy-ekstremistik g'oyalarga ta'siriga tushib qolgan shaxslarni yana sog'lom ijtimoiy muhitga qaytarish uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Radikal qarashlarning shakllanishi birdaniga yoki bir yoqlama sabab bilan yuzaga kelmaydi. Bunda psixologik beqarorlik, ijtimoiy ajralish, noto'g'ri diniy talqinlar, huquqiy savodsizlik, iqtisodiy bosim yoki oilaviy muammolar kabi omillar bir-biriga qo'shilib ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, radikallashgan mahkumlar bilan ishlash faqatgina jazoni o'tash tartibiga tayanib qolmaydi, balki ularni jamiyatga yana qaytarishga xizmat qiladigan ijtimoiy va huquqiy mexanizmlarning uyg'un kompleksiga ehtiyoj tug'iladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-ijroiya kodekslari radikallashgan mahkumlarni huquqiy tartibda baholash va ular bilan ishlash jarayonida huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi [1, 2].

Ushbu huquqiy hujjatlarda nafaqat jazoni belgilash, balki shaxsning jamiyat hayotiga qayta qo'shilishiga imkon beradigan tamoyillar ham o'z aksini topgan. Ma'naviy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan islohotlar chuqurlashgani sari radikal g'oyalardan zarar ko'rgan yoki ularga aldanib qolgan shaxslarni ruhiy jihatdan tiklash, ularning dunyoqarashini yangilash va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan tashabbuslar tobora ko'paymoqda. Prezident Administratsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlar esa qayta ijtimoiylashtirish jarayonining metodik asoslarini belgilab, idoralar faoliyatining uyg'unlashuviga imkon berdi [3].

Din ishlari bo'yicha qo'mita va boshqa tegishli tashkilotlar tomonidan muntazam ravishda tashkil etib kelinayotgan profilaktik suhbatlar, diniy-ma'rifiy darslar, psixologik qo'llab-quvvatlash mashg'ulotlari va turli ijtimoiy yordam shakllari radikal g'oyalardan voz kechish jarayonida alohida o'rin tutadi. Yillik hisobotlarda radikallashuvga olib keladigan asosiy sabablar, xavf darajalari hamda ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar

keltirilgani bu yo'nalishda puxta o'ylangan yondashuv mavjudligini ko'rsatadi [4].

Mahkumlarning oila bilan aloqalarini mustahkamlash, ularga kasb-hunar o'rgatish, mehnat faoliyatiga jalb etish kabi ishlar esa qayta moslashuvning eng barqaror bosqichlari sifatida qaraladi.

Qayta ijtimoiylashtirish jarayonining huquqiy asoslarini o'rgangan ko'plab ilmiy manbalarda bu jarayonning muvaffaqiyati avvalo shaxsning jamiyat tomonidan qay darajada qabul qilinishiga, uning psixologik tayyorgarligiga va kelajak hayotini konstruktiv yo'lga solishga bo'lgan ichki motivatsiyasiga bog'liqligi ta'kidlanadi [5].

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda radikallashgan mahkumni reabilitatsiya qilish jarayoni davlat idoralari, jamoatchilik, mahalla va oila institutlari o'rtasidagi hamkorlikka tayanadigan ko'p bosqichli tizimga aylangan. Ushbu tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad – mamlakatda radikal g'oyalarga berilgan mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish jarayonini ilmiy jihatdan o'rganish, amalda qo'llanilayotgan mexanizmlarning samaradorligini baholash va ular qanday omillar ta'sirida ijobiy natija berishini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, jarayonning kuchli va to'liq shakllanmagan jihatlari aniqlab, kelgusida takomillashtirishga ehtiyoj seziladigan yo'nalishlarni ko'rsatish tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqot davomida radikallashgan mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish jarayonini chuqurroq anglash uchun bir nechta o'zaro uyg'unlashgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Metodlarning tanlanishi bevosita O'zbekistonning ma'naviy-ijtimoiy muhitida radikal qarashlar qanday shakllanishi, mahkumlar ongida qanday ichki o'zgarishlar sodir bo'lishi va qayta ijtimoiylashuvning qaysi omillarga tayanishi bilan bog'liq holda asoslangan. Shu sababli, metodologiyada nazariy manbalar, amaliy tajribalar va psixologik jarayonlar bir butun tizimda ko'rib chiqildi va bu yondashuv tadqiqotning mazmunini yanada chuqurroq ochishga yordam berdi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida nazariy manbalarga tayanildi. Unda diniy ong shakllanishi, radikal g'oyalarning qanday paydo bo'lishi va ularning odam psixologiyasiga ko'rsatadigan ta'siri haqidagi ilmiy ishlanmalar o'rganildi. Mahalliy

olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda radikal fikrning asta-sekin rivojlanishi, shaxsning ruhiy holati va uning ta'sirchanlik darajasi jarayonga qanday ta'sir qilishi alohida ko'rsatib o'tilgani ushbu ishning nazariy asoslarini mustahkamladi [6]. Bu ilmiy mulohazalar radikallikning ildizlarini tushunishga yordam berib, tadqiqot uchun zarur konseptual poydevor yaratdi.

Metodologiyaning navbatdagi qismi ijtimoiy-psixologik tahlilga bag'ishlandi. Bu yondashuv orqali radikal qarashlardan voz kechayotgan shaxslarga psixologik maslahatlar, suhbatlar va individual yondashuvlar qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganildi.

B. Rasulov tadqiqotlarida O'zbekistonda diniy ekstremizm profilaktikasi, avvalo, psixologik barqarorlikni tiklashga tayanishi qayd etilgani qayta ijtimoiylashtirish jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlashning qanchalik muhimligini anglatadi [7]. Ushbu yondashuv yordamida radikallikdan voz kechish shaxsning ruhiy mustahkamligi bilan qanday bog'liqligi aniqlashtirildi.

Metodologiyaning uchinchi yo'nalishi sifatida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning reabilitatsiyadagi roli o'rganildi. O'zbekistonda so'nggi yillarda jazoni ijro etish muassasalarida o'tkazilayotgan ma'naviy suhbatlar, diniy bilimlarni to'g'ri sharhlashga qaratilgan mashg'ulotlar va shaxsning dunyoqarashini yangilashga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar o'z natijasini berayotgani kuzatilmoqda. S. Karimovning ilmiy tadqiqotida aynan mahkumlarning ichki dunyosida yuz beradigan o'zgarishlar, ma'naviy qo'llab-quvvatlashning ishonchni tiklash va ijtimoiy faollikni oshirishdagi roli juda asosli tahlil qilingan [8]. Bu ilmiy qarashlar metodologiyaning amaliy yo'nalishini yanada kuchaytirdi.

To'rtinchi metod sifatida psixologik kuzatish hamda tahliliy umumlashtirish qo'llanildi. Bu yondashuv orqali qayta ijtimoiylashtirish jarayonining eng murakkab jihatlari – psixologik to'siqlar, o'zini anglash bosqichlari, ichki qarama-qarshiliklar, oila bilan munosabatning tiklanishi kabi omillar tahlil qilindi. M. To'xtaboyevning amaliy izlanishlari psixologik maslahatlar shaxsning xarakterida, munosabatlarida va xulqida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuzaga chiqarishini tasdiqlashi bilan e'tiborga molik [9].

Bu metod tadqiqotning psixologik va antropologik jihatlarini yanada boyitdi.

Metodologiyaning yakuniy bosqichida barcha to'plangan ma'lumotlar tizimli-analitik yondashuv orqali umumlashtirildi. Normativ-huquqiy manbalar, ilmiy ishlanmalar va amaliy tajribalar bir nechta qatlamda tahlil qilinib, qayta ijtimoiylashtirish jarayonida qaysi usul samaradorlikka ega ekanini aniqlashga e'tibor qaratildi. Shunday qilib, ishlab chiqilgan metodologik model O'zbekiston sharoitida radikallashtirish mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish jarayonini chuqur ilmiy yoritishga xizmat qildi va mavzuning nazariy hamda amaliy jihatlarini aniq ko'rsatib bera oldi.

Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar O'zbekistonda radikallashtirish mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish borasida shakllanayotgan tizim nafaqat huquqiy mezonlarga, balki insonparvarlikka tayangan barqaror mexanizm ekanini ko'rsatdi.

Normativ-huquqiy hujjatlar hamda ochiq manbalar asosida olib borilgan tahlillar jarayonning asl markazida mahkumning inson sifatidagi qadrini tiklash, uning ruhiy barqarorligini mustahkamlash va jamiyat bilan uzilgan ijtimoiy rishtalarni qayta bog'lash maqsadi turishini namoyon qildi. Qayta ijtimoiylashtirishning mohiyati shundaki, mahkum o'z fikrlarini tanqidiy ko'z bilan qayta ko'rib chiqadi, salbiy diniy ta'sirlar bilan bog'liq qarashlardan xoli bo'lishga harakat qiladi va jamiyat uni yana qabul qila olishini his etadi.

O'zbekiston tajribasida radikallashtirish mahkumlarni qaytarishning eng ta'sirchan jihatlardan biri ularning ruhiy va ijtimoiy holatini tiklashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar, psixologik maslahatlar hamda reabilitatsiya dasturlarining yildan-yilga takomillashib borayotgani bo'ldi. Ochiq rasmiy manbalarda qayd etilishicha, so'nggi yillarda diniy ekstremizm bilan bog'liq ayrim mahkumlar o'z xato qarashlarini tan olgan va jamiyat hayotiga qayta moslashish imkoniga ega bo'lgan. Ular uchun psixologik yordam, huquqiy maslahatlar, kasbiy ta'lim, ijtimoiy reabilitatsiya shakllari va hayotiy muhitni qayta tiklashga qaratilgan mexanizmlar yo'lga qo'yilgani alohida ta'kidlanadi [10]. Bunday chora-tadbirlar samaradorligining oshirishida davlat idoralari bilan jamoatchilikning hamkorligi va mahkumlarga

ko'rsatilayotgan ijtimoiy tayanchning kengayishi muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida jazoni ijro etish muassasalarida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy mashg'ulotlar, diniy savollar yuzasidan olib boriladigan tushuntirishlar, psixologik treninglar va shaxsiy rivojlanish dasturlari radikallashtirish mahkumlarning fikrlash tarzini ijobiy tomonga burishda samarali vosita ekanligi kuzatildi. Ochiq manbalarda aynan diniy atamalar, tushunchalar va diniy matnlarning noto'g'ri talqinlariga oid xatolarni bartaraf etish maqsadida o'tkaziladigan suhbatlar juda katta natija berayotgani qayd etiladi [11].

Shuningdek, ozodlikka chiqqan mahkumlarning bandligi, oilaning ularni qo'llab-quvvatlashi va maslahat berish ishlari qayta integratsiya jarayonining uzviy qismini tashkil etmoqda.

Tadqiqot davomida yana bir muhim xulosa shakllandi: qayta ijtimoiylashtirish jarayonida davlat tizimining turli bo'g'inlari – hujjatlarni soddalashtirish, ijtimoiy nafaqalar, tibbiy va psixologik yordam ko'rsatish markazlari va jamoatchilik faoliyatidan iborat kompleks tizim radikallashtirish mahkumlarni jamiyatga qaytarishda hal qiluvchi omil bo'lmoqda. Ilmiy manbalarda ham bunday yordam shakllarining shaxs uchun ruhiy tayanch vazifasini bajarishi, uning o'zini jamiyatda qayta topish jarayonini soddalashtirishi ta'kidlanadi [12]. Huquqiy, ma'naviy, psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarning bir butun tizim sifatida qo'llanishi qayta ijtimoiylashtirishning samaradorligini sezilarli darajada oshirayotgani kuzatildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda radikallashtirish mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish murakkab, ammo izchil rivojlanayotgan jarayondir. Bu jarayon faqat jazoni o'tash bilan tugamaydi. Aksincha, u mahkumni chin dildan tushunish, unga ishonch bag'ishlash, jamiyatda o'z o'rnini topishga ko'maklashish, oilaviy aloqalarni tiklash, mehnat faoliyatiga jalb qilish va yangi ijtimoiy rolni shakllantirish kabi ko'p bosqichli yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotdan olingan xulosalar shuni anglatadiki, mamlakatda yaratilayotgan ijtimoiy-huquqiy sharoitlar amaliy natija berayotgani va bu tizimni yanada takomillashtirish radikal qarashlardan qaytgan mahkumlarning to'laqonli fuqarolik hayotiga qaytish imkoniyatini yanada mustahkamlashi mumkin.

O'zbekistonda radikallashtirish mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirishga qaratilgan siyosiy va ijtimoiy choralarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mamlakat bu masalaga faqat xavfsizlik nuqtayi nazaridan qaramayapti. Aksincha, yondashuv tobora ko'proq insonning ichki dunyosi, ruhiy ehtiyojlari, ma'naviy barqarorligi va jamiyatga qayta moslashishi bilan chambarchas bog'langan ko'rinish kasb etmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, deradikalizatsiya O'zbekistonning siyosiy barqarorlik konsepsiyasida alohida o'rin egallab, mahkumlarni jamiyatga qaytarish jarayonida "jazoga asoslangan qattiq model" emas, balki mulohazali, tushuntiruvchi va insonparvar yondashuv ustuvorlik qilmoqda [13].

Bu o'zgarish radikal qarashlardan voz kechgan mahkumlarning jamiyatga qaytishida ishonch, tashabbus va ijobiy ruhiy fon yaratadi.

O'zbekiston amaliyotida, ayniqsa, e'tiborga molik jihatlardan biri – radikallashtirish mahkumlari bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy suhbatlarning o'rnini. Turli ilmiy manbalarda qayd etilishicha, aynan sog'lom diniy bilimlar asosida qurilgan dialog shaxs dunyoqarashidagi dastlabki ijobiy o'zgarishga turtki bo'ladi [14].

Shu bois diniy mutaxassislar, ma'rifat targ'ibotchilari va psixologlar tomonidan tashkil etiladigan suhbatlar radikal tasavvurlarning ildiziga borib, yillar davomida shakllangan noto'g'ri talqinlarni asta-sekin bartaraf etishga yordam beradi. Bunday suhbatlar radikallashtirish mahkumning o'zini jamiyatga begona kuch sifatida emas, balki uning ajralmas qismi sifatida qayta his etishiga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, ushbu jarayonning murakkab qirralari ham inkor etilmaydi. Radikal qarashlardan voz kechgan mahkumlarning ozodlikka chiqqanidan so'ng psixologik barqarorlikni saqlab qolishi, oila va mahalla bilan aloqalarni tiklashi, yangi hayot ritmiga moslashishi ba'zan oson kechmaydi. Ilmiy manbalarda ham qayd etilishicha, radikalizmining ildizlari ko'p omilli bo'lgani sabab, mahkum jamiyatga qaytganida eng muhim omil o'zini qadrligi, e'tirof etilgan va biror jamoaga mansub his qilishidir [15].

Bu esa davlat organlari, mahalla, fuqarolik jamiyati va oila o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni jarayonning ajralmas bo'g'iniga aylantiradi.

O'zbekiston tajribasida kuzatilayotgan yana bir muhim jihat har bir radikallashtirish mahkumi bilan alohida ishlashga bo'lgan intilishdir. Chunki radikallashtirishning sabablari har bir shaxsda turlicha: kimdir ijtimoiy bo'shliq sabab, kimdir noto'g'ri ma'lumotlar ta'sirida, boshqasi esa shaxsiy muammolar tufayli bunday yo'lga kirgan bo'lishi mumkin. Shu bois bir xil reabilitatsiya modeli hamma uchun to'g'ri kelmaydi. Hozirgi amaliyotda shaxsning ruhiy holati, oilaviy sharoiti, ma'naviy tayanchi va ijtimoiy ehtiyojlari hisobga olingan holda bosqichma-bosqich moslashtirilgan yondashuv qo'llanilmoqda [16].

Bu esa qayta ijtimoiylashtirishni yanada hayotiy va samarali qiladi. Umuman olganda, muhokama shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning radikallashtirish mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish modeli hali to'liq yakunlangan tizim bo'lmas-da, yo'nalishi aniq, tamoyillari esa tobora mustahkamlanib bormoqda. Davlat siyosatining izchil davom etishi, diniy-ma'rifiy muhitning yangilanishi, psixologik qo'llab-quvvatlashning kuchayishi va ijtimoiy yordam mexanizmlarining kengayishi, bu yo'nalishda erishilgan asosiy yutuqlar sirasiga kiradi. Shu bilan birga, keyingi bosqichlarda mahalla va oila bilan hamkorlikni kuchaytirish, mahkumlarning bandlik va psixologik moslashuviga doir qo'shimcha dasturlarni yo'lga qo'yish zarur.

Bunday yondashuv O'zbekistonning inson xavfsizligi, jamiyat barqarorligi va tinchlikni mustahkamlash bo'yicha uzoq muddatli strategiyasiga to'liq mos keladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekistonda radikallashtirish mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirish masalasi faqatgina xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan texnik vazifa emas, balki insonning hayot yo'lini qayta tiklashga yordam beradigan murakkab va nozik ijtimoiy jarayon sifatida shakllandi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, avvalo, mahkumning ruhiy tiklanishiga, o'ziga bo'lgan ishonchini qayta topishiga va oila bilan rishtalarini mustahkamlashiga xizmat qilmoqda.


Bu jarayonning markazida mahkumning o'zini anglashiga ko'mak berish, uni noto'g'ri diniy va ijtimoiy tasavvurlardan voz kechishga undash va barqaror ijtimoiy hayot sari mustahkam qadam

qo'yish imkoniyatini yaratish turadi. Qayta ijtimoiylashtirishning har bir bosqichi bir-birini to'ldirib boruvchi komponentlarga tayanadi. Ma'naviy-ma'rifiy suhbatlar, mutaxassislar tomonidan olib boriladigan psixologik qo'llab-quvvatlash, huquqiy maslahatlar va shaxsiy rivojlanishga qaratilgan mashg'ulotlar birgalikda mahkumning dunyoqarashida ijobiy o'zgarish yaratishga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, oila bilan aloqalarning tiklanishi, kasb-hunar o'rganish va jamiyatning mahkumni yana o'z bag'riga qabul qilishga tayyorligi radikal fikrlardan butunlay voz kechishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahkumni jamiyat hayotiga qaytarishga qaratilgan bunday kompleks yondashuv amaliyotda o'z samarasini bermoqda.

Bu, avvalo, davlat siyosatining izchil bo'layotgani, mutaxassislar ishining professional tashkil qilingani va jamiyatda bunday insonlarni qo'llab-quvvatlash madaniyati shakllanib borayotgani bilan izohlanadi.

Shu bois kelgusida ushbu yo'nalishdagi ishlarda tizimlilikni yanada kuchaytirish, psixologik xizmatlar sifatini oshirish, mahalla va jamoatchilik bilan hamkorlikni kengaytirish O'zbekistonda barqarorlikni mustahkamlashning muhim garovi bo'lib xizmat qiladi.



Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Toshkent: Adliya vazirligi, 2024. URL: <https://lex.uz/docs/111453>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. Toshkent: Adliya vazirligi, 2023. URL: <https://lex.uz/docs/377594>
3. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha Milliy strategiya (2021–2026-yillar). – Toshkent, 2021. URL: <https://lex.uz/docs/5491626>
4. Diniy-ma'rifiy sohani isloh qilish bo'yicha konseptual yondashuvlar. – Toshkent, 2020. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/3325>
5. Din ishlari bo'yicha qo'mita. Diniy-ekstremistik g'oyalarni profilaktikasi bo'yicha ma'lumotlar to'plami. – Toshkent, 2022. URL: <https://religionscommittee.uz/uz>
6. Ismailov I. Diniy ong va radikal g'oyalarning shakllanish jarayoni: O'zbekiston sharoitida omillar tahlili // Ilm sarchashmalari, 2022. – №3(2). – 45–52-6. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/50072>
7. Rasulov B. O'zbekistonda diniy ekstremizm profilaktikasi: ijtimoiy-psixologik yondashuvlar // Ma'naviyat va Huquq, 2023. – №4(1). – 60–68-6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ozbekistonda-diniy-ekstremizm-profilaktikasi>
8. Karimova S. Mahkumlarni ijtimoiy reabilitatsiya jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'rni // Yangi O'zbekiston ilmiy jurnali, 2023. – №2(5). – 112–119-6. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/modernissues/article/view/78734>
9. To'xtaboev M. Radikallashtirishni kamaytirishda psixologik maslahatning samaradorligi: amaliy kuzatishlar // Psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar, 2024. – №1(3). – 77–85-6. URL: <https://journal.tsul.uz/index.php/psychology/article/view/9021>
10. Markaziy Osiyo bo'yicha xavfsizlik tahlili: O'zbekistonda reabilitatsiya jarayonlari. Central Asia News, 2022. URL: https://central.asia-news.com/en_GB/articles/cnmi_ca/features/2017/08/10/feature-01
11. Xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlik bo'yicha tahliliy material. – T.: Tadqiqotlar instituti, 2023. URL: <https://isrs.uz/en/page/pdf/opyt-respubliki-uzbekistan-po-borbe-s-terrorizmom-i-mezdunarodnoe-sotrudnicestvo>
12. Diniy ekstremizm va radikallashtirishga qarshi profilaktika // Ilmiy-amaliy jurnal, 2024. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/tajssei/article/download/10449/10884>
13. Islamic Civilization Development Fund. // O'zbekistonda diniy-ma'rifiy soha va ekstremizmga qarshi kurash tajribasi. – Toshkent, 2023. URL: <https://icdf.uz/news/2023/experience>
14. Akbarov A. Diniy ongning ijtimoiy barqarorlikdagi o'rni // Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy jurnali, 2022. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/70132>
15. Ravshanov R. Radikalizm sabablari va ijtimoiy reabilitatsiya omillari // "Ma'naviyat va Huquq" ilmiy-amaliy jurnali, 2023. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/law-and-society/article/view/88211>
16. Institute for Strategic and Regional Studies (ISRS). O'zbekistonda radikallashtirishning oldini olish bo'yicha yondashuvlar tahlili. – Toshkent, 2024. URL: <https://isrs.uz/en/article/prevention-approach>



VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING TUZILISHI, DINAMIKASI VA OLDINI OLISH MUAMMOLARI (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA)



Abdumalikov Alisher Abdulazizovich
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg'ona viloyatida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishi, dinamikasi va oldini olish muammolari kriminologik yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida jinoyatchilik ko'rsatkichlari hududiy va ijtimoiy kesimda o'rganilib, uning tarkibiy xususiyatlari aniqlangan. Umumiy statistik pasayish qayd etilgan bo'lsa-da, ayrim hududlarda o'sish sur'atlari saqlanib qolayotgani asoslab berilgan. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning asosiy qismi maktab yoshidagi o'quvchilar ekani ilmiy tahlil asosida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, jinoyatchilik tuzilishi, jinoyatchilik dinamikasi, profilaktika, hududiy tahlil, Farg'ona viloyati, ijtimoiy omillar, maktab o'quvchilari, kriminologik yondashuv.

Аннотация. В данной статье на основе криминологического анализа исследуются структура, динамика и проблемы предупреждения преступности несовершеннолетних в Ферганской области. В ходе исследования показатели преступности изучены в территориальном и социальном разрезе, определены их структурные особенности. Несмотря на общее снижение статистических показателей, в отдельных районах сохраняются темпы роста. Установлено, что основную долю правонарушителей составляют учащиеся школьного возраста.

Ключевые слова: преступность несовершеннолетних, структура преступности, динамика преступности, профилактика, территориальный анализ, Ферганская область, социальные факторы, школьники, криминологический подход.

Abstract. This article examines the structure, dynamics, and prevention issues of juvenile delinquency in the Fergana region based on a criminological analysis. The study analyzes crime indicators in territorial and social dimensions and identifies their structural characteristics. Although an overall statistical decrease has been observed, growth rates remain in certain districts. It has been determined that the majority of offenders are school-aged juveniles.

Keywords: juvenile delinquency, crime structure, crime dynamics, prevention, territorial analysis, Fergana region, social factors, school students, criminological approach.

Bugungi zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi eng dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur hodisa nafaqat alohida shaxs xulq-atvori, balki oilaviy muhit, ta'lim tizimi, ijtimoiy nazorat darajasi, iqtisodiy sharoit va yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq murakkab ijtimoiy jarayondir. Ayniqsa, aholisi zich, yoshlar ulushi yuqori bo'lgan hududlarda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish hamda tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan manzilli ishlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 18-martdagi PQ-110-son qarorining 3-bandida o'quvchilar o'rtasida huquqbuzarlik holatlariga nisbatan

murosasiz munosabatni shakllantirish, shuningdek, inspektor-psixologlar tomonidan tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ularning yashash joylarida ota-onalari va mahalla faollari ishtirokida manzilli ishlarni amalga oshirish vazifasi aniq belgilab qo'yilgan [1]. Mazkur norma profilaktika ishlarining faqat nazorat emas, balki ijtimoiy-pedagogik va psixologik yondashuv asosida olib borilishini talab etadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, huquqiy madaniyatini oshirish hamda salbiy omillarning oldini olishni davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilaydi [2]. Ushbu Qonun voyaga yetmaganlar bilan ishlashning huquqiy asosini mustahkamlab, ularning ijtimoiylashuv jarayonida davlat va jamiyat mas'uliyatini belgilab beradi.

Shuningdek, yuqorida keltirilgan PQ-110-son qaror hamda Ichki ishlar vazirining 350-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha bo'linmalari faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi nizom profilaktika tizimini institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari faoliyati esa Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustda qabul qilgan "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi [3]. Mazkur qaror reabilitatsiya, ijtimoiy moslashtirish va manzilli yordam mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, profilaktika jarayonining insonparvarlik va tiklov tamoyillariga asoslanishini ta'minlaydi.

Yuqoridagi normativ-huquqiy asoslar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi masalasi davlat siyosati darajasida muhim strategik ahamiyat kasb etayotganligini anglatadi.

Shu bois, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishi, dinamikasi va oldini olish mexanizmlarini ilmiy tahlil qilish bugungi kunda nihoyatda dolzarbdir. Ushbu mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, yoshlar o'rtasida huquqbu-

zarliklarning oldini olish orqali jamiyat barqarorligini ta'minlash zarurati bilan, ikkinchi tomondan, amaldagi profilaktika tizimi samaradorligini hududiy kesimda baholash ehtiyoji bilan belgilanadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishi, dinamikasi va uni oldini olish masalalari kriminologiya fanida alohida yo'nalish sifatida shakllangan bo'lib, mazkur muammo turli hududiy va ijtimoiy sharoitlarda kompleks tadqiq etilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar jinoyatchilikni faqat statistik ko'rsatkichlar doirasida emas, balki uning ijtimoiy ildizlari, yoshga xos psixologik xususiyatlari hamda profilaktika tizimining tashkiliy mexanizmlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zarurligini asoslaydi.

Xususan, tadqiqotchi Y.I. Kurinova voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining zamonaviy holatini kriminologik jihatdan tavsiflab, uning tarkibiy tuzilishini, asosiy jinoyat turlari va ularni yuzaga keltiruvchi omillarni tizimli tahlil qiladi [4; 45–52-b.]. Muallif voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarda mulkka qarshi jinoyatlar ustunlik qilishini, guruhij jinoyatlar ulushi yuqoriligini hamda impulsiv xulq-atvor omili muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u jinoyatchilikni oilaviy nazoratning susayishi, maktab muhitidagi muammolar va salbiy xulq-atvorli tengdoshlar ta'siri bilan bog'laydi. Ushbu yondashuv voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi tuzilishini ijtimoiy shart-sharoitlar bilan uzviy bog'lab tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi va jinoyatchilik tarkibini o'rganishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur masalani tizimli tahlil qilgan olim S. G. Ogay voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining holatini dinamik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilib, profilaktika tizimini tashkil etish masalasiga alohida e'tibor qaratadi [5; 73–81-b.]. Muallif jinoyatchilik darajasining o'zgarishini ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'lab, profilaktika samaradorligi ko'p jihatdan subyektlararo hamkorlik darajasiga bog'liq ekanini asoslaydi. Ichki ishlar organlari, ta'lim muassasalari va ijtimoiy xizmatlar o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan faoliyat jinoyatchilikni kamaytirishda muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Shu tariqa, jinoyatchilikning dinamikasini tahlil qilish uni oldini olish mexanizmlarini

takomillashtirish bilan uzviy bog'liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Ushbu jinoyatchilikni yanada chuqurroq o'rganish maqsadida kriminolog olim S. P. Kozlov voyaga yetmagan qizlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar masalasini alohida ko'rib chiqadi va gender omilining ahamiyatini asoslab beradi [6; 58–66-b.]. Tadqiqotchi jinsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda jinoyatchilik sabablarini tahlil qilib, voyaga yetmagan qizlar jinoyatchiligi ko'proq oilaviy nizolar, ijtimoiy himoyasizlik va psixologik moslashuv muammolari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Jinoyatchilik tuzilishini jins kesimida o'rganish zarurligini ta'kidlaydi va profilaktika choralarini differensial yondashuv asosida ishlab chiqish lozimligini asoslaydi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini muayyan hudud materiallari asosida o'rgangan tadqiqotchi L. S. Golubnichaya muayyan hudud materiallari asosida tadqiqot ishini o'rganib, uning tuzilishi va dinamikasini ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, migratsiya jarayonlari va urbanizatsiya darajasi bilan bog'liq holda tahlil qiladi [7; 101–109-b.]. Shu bilan birga, jinoyatchilik ko'rsatkichlarini hududiy xususiyatlardan ajratib o'rganish mumkin emasligini asoslab, profilaktika samaradorligi aynan mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda baholanishi lozimligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda kriminologiya fanini rivojlantirish va jinoyatchilikni ilmiy asosda o'rganishda Q. R. Abdurasulova, S. S. Niyozova, N. S. Salayev tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular jinoyatchilikni aniqlash, uning darajasi, tuzilishi va dinamikasini baholash, statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish hamda jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash masalalarini chuqur o'rganganlar [9; 10]. Xususan, jinoyatchilikni aniqlash jarayonida kriminologik tahlilning metodlari, ko'rsatkichlar tizimi va ularni baholash mezonlari asoslab berilib, jinoyatni individual hodisa emas, balki ijtimoiy jarayon sifatida o'rganish zarurligi ta'kidlanadi. Professor Q. Abdurasulova jinoyatchilik sabablarini ijtimoiy muhit, shaxs omili va huquqiy nazorat mexanizmlari bilan bog'liq holda tahlil qilib, profilaktika choralarini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan yondashuv muhimligini ta'kidlaydi [10; 94–102-b.].

Mazkur nazariy qarashlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini o'rganishda ham alohida ahamiyatga ega, chunki jinoyatchilikning tuzilishi va dinamikasini to'g'ri aniqlash, avvalo, uning umumiy kriminologik ko'rsatkichlarini to'g'ri baholashni talab etadi. Shu bois, yuqorida keltirilgan mualliflarning ishlari voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini tahlil qilish, uning hududiy xususiyatlarini aniqlash va oldini olish mexanizmlarini ilmiy asoslashda muhim metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

Quyida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tuzilishi, dinamikasini Farg'ona viloyati misolida ko'rib chiqamiz hamda mavjud muammolarni aniqlash, ularning sabab va shart-sharoitlarini ilmiy asosda tahlil qilish, shuningdek, profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha fikr-mulohazalarimizni bildirishga harakat qilamiz.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, 2025-yilda Farg'ona viloyatida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 2024-yilga nisbatan 23,1 foizga kamaygan. Ushbu ko'rsatkich umumiy dinamikada ijobiy siljish mavjudligini bildiradi, biroq kriminologik jihatdan bunday pasayishni chuqurroq tahlil qilish zarur. Chunki jinoyatchilik faqat umumiy son bilan emas, balki uning hududiy tuzilishi, ijtimoiy tarkibi va o'sish nuqtalari bilan baholanadi.

Shu bilan birga, hududiy kesimdagi o'rganishlar natijasida voyaga yetmaganlar jinoyatlarining 54,8 foizi Farg'ona shahri, Qo'qon shahri, Marg'ilon shahri va Quva tumani hissasiga to'g'ri kelgani aniqlangan. Bu holat jinoyatchilik viloyat bo'ylab teng taqsimlanmaganini, aksincha ma'lum markazlarda zichlashganini ko'rsatadi. Shahar hududlarida aholining zichligi, yoshlar sonining yuqoriligi va ijtimoiy nazorat mexanizmlarining murakkablashuvi jinoyatchilik tuzilmasiga ta'sir ko'rsatayotgan bo'lishi mumkin. Shu bois mazkur hududlarda profilaktika choralarini kuchaytirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

Viloyat bo'yicha umumiy kamayish qayd etilgan bo'lsa-da, ayrim tumanlarda salbiy dinamik o'zgarish kuzatilgan. Xususan, Yozyovon tumanida jinoyatlar 114 foizga, So'x tumanida 100 foizga, Qo'shtepa va Toshloq tumanlarida 64 foizga, Dang'ara tumanida 29 foizga, Marg'ilon shahrida 8 foizga oshgan. Bu ko'rsatkichlar

umumiy ijobiy fon saqlanib turgan bo'lsa-da, ayrim hududlarda xavf omillari kuchayganini yoki profilaktika mexanizmlari yetarlicha samarali ishlamayotganini anglatadi. Demak, viloyat bo'yicha o'rtacha pasayish real vaziyatni to'liq aks ettirmaydi, chunki ayrim tumanlarda jinoyatchilik o'sish sur'atlari yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Tahliliga ko'ra, jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning 95,9 foizi Farg'ona viloyati fuqarolari hissasiga to'g'ri kelgan. Bu esa jinoyatchilikning asosiy omillari tashqi migratsion ta'sirlar emas, balki viloyatning ichki ijtimoiy muhiti bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Viloyat ichida yashovchi voyaga yetmagan jinoyatchilarning 56 foizi yana Farg'ona shahri, Qo'qon shahri, Marg'ilon shahri va Quva tumani hissasiga to'g'ri kelgani hududiy risk omillari mavjudligini tasdiqlaydi.

Xususan, ta'lim muassasalari kesimidagi tahlil jinoyatchilik tuzilmasida maktab o'quvchilari yetakchi o'rin tutayotganini ko'rsatadi. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning 71,9 foizi maktab o'quvchilari, 19,8 foizi kollej va litsey o'quvchilari, 8,1 foizi esa o'qimaydigan va ishlaymaydigan yoshlar hissasiga to'g'ri kelgan. Bu natija jinoyatchilik, asosan, umumta'lim bosqichida shakllanayotganini anglatadi. Maktab o'quvchilari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning 68 foizi Farg'ona shahri, Qo'qon shahri, Marg'ilon shahri, Quva tumani, Toshloq tumani va Qo'shtepa tumani hissasiga to'g'ri kelgani esa aynan shu hududlarda maktab bilan bog'liq profilaktika choralarini kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Yakuniy xulosa shundan iboratki, 2025-yilda Farg'ona viloyatida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi umumiy ko'rsatkich bo'yicha kamaygan bo'lsa-da, hududiy notekislik, ayrim tumanlardagi keskin o'sish va maktab yoshidagi o'quvchilar ulushining yuqoriligi mazkur muammoning dolzarbligini saqlab qolmoqda. Statistik pasayishning o'zi yetarli emas, muhim jihat uning barqarorligi va hududlar bo'yicha teng taqsimlanishidir. Shu bois Farg'ona viloyatida profilaktika choralarini umumiy emas, balki hududiy va ta'lim muassasalari kesimida manzilli hamda tizimli ravishda tashkil etilishi zarur.

O'tkazilgan ilmiy tahlillar natijasida Farg'ona viloyatida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi umumiy ko'rsatkich bo'yicha kamayish tenden-

siyasini namoyon etgani aniqlangan bo'lsa-da, hududiy tafovutlar va ayrim joylarda qayd etilgan o'sish sur'atlari muammoning dolzarbligini saqlab qolmoqda. Jinoyatchilikning ma'lum hududlarda jamlanishi, shuningdek maktab yoshidagi o'quvchilar ulushining yuqoriligi mazkur hodisaning ijtimoiy-pedagogik omillar bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi. Shu bois voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi muammosini faqat huquqni muhofaza qilish doirasida emas, balki ijtimoiy institutlar hamkorligida kompleks yondashuv asosida hal etish zarur.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Hududiy kesimda jinoyatchilik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan joylarda maxsus profilaktika dasturlarini ishlab chiqish va ularni tizimli ravishda amalga oshirish zarur. Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat samaradorligini oshirish, xavf guruhiga kiruvchi o'quvchilarni erta aniqlash va ular bilan individual ishlash mexanizmini takomillashtirish lozim. Ota-onalar bilan ma'rifiy hamkorlikni mustahkamlash, oilaviy nazorat va tarbiyaviy mas'uliyatni kuchaytirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini kengaytirish muhimdir.

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish orqali ularning ijtimoiylashuv jarayonini sog'lom muhitda olib borish zarur. Sport, madaniyat va kasb-hunar yo'nalishidagi to'garaklar faoliyatini kengaytirish profilaktikaning samarali vositalaridir. Jinoyatchilik dinamikasini muntazam monitoring qilish, statistik ma'lumotlarni chuqur tahlil etish va o'sish nuqtalarini erta aniqlash tizimini joriy etish orqali tezkor choralar ko'rish imkoniyati yaratiladi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini kamaytirishda barqaror natijaga erishish uchun tizimli, manzilli va ilmiy asoslangan profilaktika siyosatini izchil davom ettirish talab etiladi. Ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va yoshlar bilan ishlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali mazkur muammoni bosqichma-bosqich bartaraf etish mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-110-son qaror. – Toshkent, 2025.
2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RBQ-406-son qonun. – Toshkent, 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 490-son qarori. – Toshkent, 2021.
4. Куринова Я. И. Современная преступность несовершеннолетних: криминологическая характеристика и предупреждение. – Москва: Юрлитинформ, 2011. – 176 с.
5. Огай С. Г. Современное состояние преступности несовершеннолетних и организация ее профилактики. – Москва: Норма, 2003. – 160 с.
6. Козлов С. П. Проблемы предупреждения преступлений несовершеннолетних женского пола. – Санкт-Петербург: Юридический центр Пресс, 2010. – 192 с.
7. Голубничая Л. С. Преступность несовершеннолетних: криминологическая характеристика и проблемы предупреждения. – Хабаровск: ДВЮИ МВД России, 2011. – 210 с.
8. Niyozova S. S., Salayev N. S. Kriminologiya (umumiy qism). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 232 b.
9. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya asoslari. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. – 284 b.
10. Shaw C. R., McKay H. D. Juvenile Delinquency and Urban Areas. - Chicago: University of Chicago Press, 1942. – 446 p.
11. Wolfgang M. E., Figlio R. M., Sellin T. Delinquency in a Birth Cohort. – Chicago: University of Chicago Press, 1972. – 327 p.
12. Moffitt T. E. Adolescence-Limited and Life-Course-Persistent Antisocial Behavior: A Developmental Taxonomy, Psychological Review. – 1993. – Vol., 100. – No. 4. – P. 674–701.

“GIYOHVANDLIKNI OLDINI OLIHDA MAHALLA INSTITUTINING ROLI” RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Joriy yilning 27-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutida “Mahalla institutining giyohvandlikning oldini olishdagi roli” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Anjuman sohadagi dolzarb muammolarni ilmiy yondashuv asosida tahlil qilish va amaliy yechimlar ishlab chiqish maqsadida tashkil etildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti markaz boshlig'i Abdugapparov Alisher Azatbekovich “Mahalla yettiligining yoshlar orasida giyohvandlikning oldini olishdagi hamkorligi”, Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) Ataniyazov Jasurbek Kuranbayevich “Giyohvandlik vositalarining, ular analoglarining yoki psixotrop moddalarining, shuningdek kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashishda Milliy gvardiya



organlari faoliyati”, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o'qituvchisi Mirzaxodjayev Davron Atxamovich “Giyohvandlik va narkojinoyatlar profilaktikasida mahalla institutining zamonaviy mexanizmlari: muammo va yechimlar”, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi dotsenti Shaumarov Ziyovuddin Shamsuddinovich “Giyohvandlikka ruju qo'ygan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasida profilaktika inspektorining roli va mas'uliyati” IIV TQD boshqarma yetakchi mutaxassisi Altiboyev Ulug'bek “Respublika mahallalarida narkojinoyatlarning oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoatchilik tuzilmalarining hamkorligi” va Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, tibbiyot fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent To'rayev Iloxomjon Esanovich “Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashishda ilmiy tadqiqotlarning o'рни” mavzusidagi ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi.



Konferensiya doirasida mutaxassislar tomonidan narkojinoyatchilikka qarshi kurashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari, amaldagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari atroficha yoritildi.

Shuningdek, giyohvandlik profilaktikasida mahalla institutining zamonaviy imkoniyatlari, jamoatchilik nazorati va hududiy hamjihatlik tamoyillarining ahamiyati alohida ta'kidlandi. Giyohvandlikka ruju qo'ygan shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish jarayonida profilaktika inspektorining mas'uliyati, kasbiy salohiyati va hamkorlik masalalariga alohida urg'u berildi.



Respublika mahallalarida narkojinoyatlarning barvaqt oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda jamoatchilik tuzilmalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlash zarurligi qayd etildi. "Mahalla yettiligi"ning aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish borasidagi hamjihat sa'y-harakatlari muhim omil sifatida e'tirof etildi.

Anjuman yakunida ishtirokchilar tomonidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar umumlashtirilib, mahalla institutining giyohvandlikka qarshi kurashdagi samaradorligini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab olindi.



KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

№1 - 2026 (6)

ISSN 3060-5024

Original-maket O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
Tahririy-noshirlik markazida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to'liq yoki qisman ko'chirilib bosilganida
«O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining «Kriminologik faoliyat»
ilmiy-amaliy jurnali»dan olinganligi ko'rsatilishi shart.

Materiallarda keltirilgan fakt va raqamlar, ko'chirmalar, iqtisodiy statistik ma'lumotlar
rostligi va aniqligi uchun muallif javob beradi.

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma taqriz qilinmaydi va qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi.

Muharrirlar: B.A. Yarov, G.T. Muminova

Dizayn va sahifalovchi: G.T. Muminova

Texnik muharrir: A.R. Fayziyev

Bichimi 60x40 1/8. Bosma tabag'i 10,0. Adadi 50 nusxa

Bosishga ruxsat etildi 27.03.2026 y. Buyurtma №26/00

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti

Tahririy-noshirlik markazida chop etildi

100187 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 243

Tel.: +998 (71) 231-39-77 Website: kti.iiv.uz

O'z.KTI